Fikrimizcha, naqd valyutaning to‘g‘ridan to‘g‘ri bank kassalaridan sotilishini hozircha to‘xtatib turilishi sababi, avvalo, aholini cheklovsiz miqdorda valyuta xarid qilish mumkinligiga vaqt davomida ko‘niktirib borish (bu o‘z navbatida

ilgari kuzatilgan turnaqator navbatlarni kelgusida kamaytiradi), valyutani aholi tomonidan xarid qilish darajasini liberalizatsiyadan keyin keskin oshishini oldini olish va valyutani xarid qilayotgan shaxslarni identifikatsiya qilinishini ta'minlash (bu esa aynan qaysi shaxslar ko‘proq miqdordagi valyutani xarid qilayotganini bilish imkonini beradi) bilan bog‘liq. Ushbu holat vaqtinchalik chora sifatida qo‘llanilgani va yaqin orada bu masala **“**Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” gi qonun yangi tahriri qabul qilingach hal bo‘lishi Markaziy bank vakillari tomonidan ham qayd etib o‘tildi. Shuningdek, valyuta qora bozorini mavjud bo‘lishida monetar omillar emas, balki ayrim fiskal omillar sabab bo‘layotgani qayd etilgan. Misol tariqasida noqonuniy import bilan shug‘ullanayotgan chayqov bozori vakillari valyutaga bo‘lgan talabni oshirayotgani keltirilgan. Albatta, yashirin iqtisodiyotning vakillari naqd ko‘rinishdagi nazorat qilinmaydigan xorijiy valyutadan maksimal darajada foydalanishadi. Biroq, bu o‘z navbatida naqd valyutani sotilmasligini ta'siri ham borligini inkor eta olmaydi. Chunki, insonlar psixologiyasida hali hanuz o‘sha moddiy ko‘rinishdagi pullarning o‘rni va ahamiyati yuqoriligicha qolgan. Ya'ni, ko‘zi bilan ko‘rib qo‘li bilan ushlab ko‘rmaguncha ko‘ngil joyiga tushmaydi. Valyutani kartaga tashlab, uni keyin bank kassasidan yoki bankomatlardan naqd qilish esa bir tomondan vaqt, ikkinchi tomondan xarajat talab qilganligi, qolaversa shu narsa ham qaysidir ma'noda ruhiy cheklov vazifasini bajaradi. Bu ikkita holat esa oddiy aholini ham o‘z navbatida hech qanday hujjat so‘ramaydigan **“**eski tanish dollarchi**”** larga murojaat qilishiga sabab bo‘ladi.

Bulardan tashqari yana shuni ta’kidlash joizki, toki Markaziy bank shu naqd xorijiy valyutani sotishni yo‘lga qo‘ymaguncha doimiy ravishda e'tirozlar bildirilaveradi va valyuta qora bozori vakillari ham faol yashashda davom etadi. Qora bozor, toki talab bor ekan yashaydi, talabni o‘zimiz paydo qilamiz, bizda talab paydo bo‘lishiga sabab esa aynan naqd ko‘rinishda valyutani birdaniga banklardan sotib olishdagi qiyinchilik. Boshqa tomondan esa noqonuniy savdo va biznes vakillari uchun aynan valyuta qora bozorining mavjud bo‘lishi ham ayni muddao. Ayniqsa, valyutani sandiq tagida jamg‘arishni va istalgan paytda mamlakatdan shu pullar bilan chiqib ketishni zaxira yo‘li sifatida saqlab qo‘ygan “zodagon”lar uchun ham naqd ko‘rinishda naqd valyutani istalgan paytda topa olish imkoniyati muhim sanaladi.

Biroq, bu borada ko'p o'ylantiradigan narsa shuki, - butun jahon rivojlangan davlatlari imkon qadar raqamli iqtisodiyotga o‘tishni o‘ylab, harakat qilayotgan bir paytda, biz oddiy naqd xorijiy valyuta muammosini oxirigacha hal qilmaganimizdir. Raqamli iqtisodiyot avvalo barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirilishini talab qiladi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda eng birinchi navbatda, avvalo, mana shu raqamli to‘lovlar texnologiyalarini takomillashtirish kerak bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun naqd pulsiz iqtisodiyot (Cashless economy) qurilishi kerak. Aslida, naqd pullar 21-asr axborot texnologiyalari asri uchun eskirdi. Bugungi kunda Kanada, Shvetsiya va Buyuk

Britaniya mamlakatlari misolida naqdsiz to‘lovlar takomillashtirilishi va naqd pullar muomalasining maksimal darajada kamaytirilishi natijasida iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning YaIMga nisbatan eng quyi ko’rsatkichlarini qayd etayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu davlatlarda valyuta qora bozori degan tushunchaning o‘zi yo‘q.

Demak, ushbu davlatlar tajribasidan xulosa qilish va maksimal darajada naqdsiz pul muomalasini ko‘paytirish va naqd pul hajmini imkon qadar kamaytirish Markaziy bank diqqat qaratishi kerak bo‘lgan asosiy jihatlardan biri bo‘lishi kerak. Bu ishni aynan naqd xorijiy valyuta muomalasidan boshlasa ham bo‘ladi. Amaldagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar milliy valyutada amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo‘yilgan. Bo‘ldi, qonun amalda ijrosini topishi uchun Respublika hududida naqd ko‘rinishida xorijiy valyutani amalda bo‘lishini o‘zi tushunarsiz holat. Rasman har qanday tovar yoki xizmatga milliy valyutada to‘lov amalga oshirilgandan keyin xorijiy valyuta faqatgina jamg‘arish uchungina foydalanishi mumkin. Jamg‘arish yostiq ostida yoki sandiq ichidamas, balki bankda bo‘lishini ta'minlash uchun ham naqd xorijiy valyutani O‘zbekiston hududida amal qilishini oldini olish kerak. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, oddiy aholi uchun naqd xorijiy valyuta jamg‘arishdan boshqa nima uchun kerak? Eskidan qolib kelgan o‘zaro kelishuvlar va yirik tovarlar qiymatini dollarda belgilash va dollarda hisoblashish an'anasidan voz kechish kerak. Dollarga nisbatan mo‘ljal olsa olaversin, lekin to‘lov so‘mda bo‘lishi shart. Xorijga chiqmoqchi bo‘lsa, bemalol istalgancha miqdordagi pulni xorijiy valyutada kartasiga o‘tkazib berishadi banklarda. Rivojlangan xorij davlatlarida naqd xorijiy valyutani bizdagidek ulug‘lashmaydi va umuman yirik miqdordagi kupyuralarga shubha bilan qaraladi. Chunki, yirik miqdordagi kupyuralardan ularda asosan nolegal soha vakillari ko‘proq foydalanishadi.

Darhaqiqat, tan olish kerak naqd ko‘rinishdagi xorijiy valyutalar ko‘p hollarda aynan noqonuniy faoliyat yurituvchi shaxslarda, o‘zining qancha miqdorda mablag‘i borligini rasman hech kim bilmasligini xohlaydigan korrupsiya vakillarida, kontrabanda vakillarida, chayqovchi tadbirkorlar tomonidan tez-tez foydalaniladi. Chunki bu shaxslar naqd xorijiy valyuta(qattiq valyuta)ning kuchini bilishadi va uning nazoratdan tashqarida ekanligidan maksimal foydalanishadi. Ular naqdsiz ko‘rinishda xorijiy valyutalarni banklarda saqlaydigan bo‘lishsa, bunday katta miqdordagi mablag‘larga nisbatan shubhalar paydo bo‘lishidan qo‘rqishadi. Shuning uchun ham doimiy ravishda naqd valyutaning muomalasi barqaror bo‘lishini chin dildan istashadi. Aslida yashirin iqtisodiyot vakillarining aksar qismi faoliyati aynan naqd xorijiy valyuta bilan oldi-sotdi qilishni talab qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, naqdsiz xorijiy valyuta tartibini takomillashtirish yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga sabab bo‘ladi. Buning uchun naqd valyutaning har qanday ko‘rinishda bo‘lishini to‘xtatish va shunday saqlanayotgan holatlar aniqlanganda davlat hisobiga musodara qilishni belgilash orqali amaldagi qonunning hayotda real amal qilinishiga erishish mumkin. Albatta,

orangizda cheklash orqali yana naqd valyutani tasarruf etish erkinligimiz cheklanadi deydigan insonlar ham topiladi, biroq Biz iqtisodiyotni sog‘lom rivojlanishi uchun ham shunday yo‘l tutishimiz kerak. Bu yo‘l revolyutsion yo‘l bo‘ladi, rivojlangan davlatlar naqdsiz iqtisodiyotga evolyutsion yo‘l bilan erishishmoqda. Ammo, bu yo‘lni qo‘llash uchun avvalo banklardagi naqdsiz xorijiy valyuta tranzaksiyalari jarayonlarini mahalliy qismini tezkor bo‘lishi uchun xorijiy valyutalar aylanishi uchun ham milliy to‘lov tizimini joriy qilish, yetarli darajada xavfsizlik va integratsiya jarayonlari texnik talablarga javob beradigan texnologiyalarni tatbiq qilish lozim bo‘ladi. Avval xorijiy valyutada naqdsiz muomalani mukammal yo‘lga qo‘ygach keyinchalik milliy valyutadagi naqdsiz pul muomalasiga to‘liq o‘tish imkoniyatlarini ko‘rib chiqsa bo‘ladi.

Biz berayotgan taklif amalga oshishi amrimahol, chunki buning uchun ham texnik tomondan, ham ma'nan, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tomondan fikrlar va qarashlar shunga mutanosib va tayyor bo‘lishi kerak. Biroq, ertami kechmi qachondir naqd pulsiz iqtisodiyotga o‘tish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi va shu paytda yo‘qotilgan vaqt haqida fikr yuritishsa ajab emas. Axir butun dunyoda raqamli pullar, elektron pullar va virtual pullar ommalashayotgan bir paytda naqd pullarning muomalasini ko‘paytirish erkinlashtirish uchun - bir qadam oldinga, raqamli iqtisodiyot uchun - ikki qadam orqaga yurish sanaladi. Jahonda kriptovalyutalar savdosini birjalarga joriy qilish boshlanayotgan bir paytda bizda doimiy elektr bilan ta'minlangan hududlarimiz yetishmaydi. Eng achinarlisi, Bizdagi monetar siyosatning o‘zicha, fiskal siyosatning o‘zicha va tashqi iqtisodiy faoliyatning o‘zicha harakat qilishi natijasida umumiy biznes uchun yaratiladigan sharoitlarda yechim bo‘ladigan qulay sharoitlar va adolatli o‘yin qoidalarini ishlab chiqilishida ancha muammolar yuzaga kelgani. Bu esa o‘z navbatida rasmiy faoliyatdan ko‘ra norasmiy faoliyat yuritishga zamin yaralishini ta'minlamoqda. [6]

*Raqamli iqtisodiyot O'zbekistonda*Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- ko'plab sohalardagi monopoliya;
- internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonununchilikning zamondan orqada qolganligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi;

- qonunchilikning shaffof emasligi;
- axborot texnologiylari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki(ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;
- ilm-fan va ayniqsa aniq fanlarning rivojlanishi sustligi(yoki rivojlanishdan to'xtab qolganligi).

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bemalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

Xulosa va takliflar Raqamli transformatsiya bugungi kunda juda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi ta’minlanishidagi o’rni va jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini anglagan holda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Raqamli iqtisodiyot borasida yetakchi o’rinlardagi mamlakatlarda qo’llab – quvvatlashlarning yanada keng qamrovli usullarini o’rganish;
- Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning me’yoriy – huquqiy asoslarini yaratish;
- Raqamli iqtisodiyot uchun zarur infratuzilmani yaratish, avvalo internetga kirish imkoniyati cheklangan yoki umuman mavjud bo’lmagan hududlarni tizimga ulash;
- Raqamli iqtisodiyot uchun kerakli mutaxassis – kadrlarni tayyorlash tizimi faoliyatini takomillashtirish;
- Hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademiya, ilmiy hamjamiyat va texnologiya sohasi yangi yechimlarni topish uchun birgalikda tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- Raqamli ishlab chiqaruvchilar strategiyalari va globallashuvning kelajakdagi konturlarini qayta aniqlashtirish uchun yangi texnologiyalardan oqilona foydalanish, sherikchilik munosabatlarini mustahkamlash va intellektual yetakchilikni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html
2. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. –T.: Iqtisod – Moliya. 396 b.
3. https://www.researchgate.net/publication/356857900_RAQAMLI_IQTISODIYOT_TUSHUNCHASI_AFZALLIKLARI_VA_AMALIY_AHAMIYAT
4. https://aka.ms/officeandroidshareinstall
5. G’. M. Porsaev, B. Sh. Safarov, D. Q. Usmanova “Raqamli iqtisodiyot asoslari”. –T.: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish modellar. 12 b.
6. https://review.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir

RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJI

G'afurov Olimjon G'olib og'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti Iqtisodiyot fakulteti Moliya kredit kafedrasi o'qituvchisi

Ramazonova S.R.
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning insonlar turmush tarzidagi rivojlanishi, amaliy ahamiyati hamda sezilarli darajada samarasi haqida yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, internet iqtisodiyoti, CRM, budjet taqsimoti.

Аннотация. В данной статье описывается развитие, практическое значение и значительная эффективность цифровой экономики в образе жизни людей.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, развитие, система, интернет-экономика, CRM, распределение бюджета.

Annotatsion. This article describes the development, practical importance and considerable effectiveness of the digital economy in people's lifestyles.

Keywords: digital economy, digital technologies, development, system, internet economy, CRM, budget allocation.

Hozirgi globallashgan hayot tarzimizda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi".

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yil Massachusets universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan. Garchi "raqamli iqtisodiyot" terminini dastlab dasturchi Nikolas Negroponte amaliyotga kiritgan bo'lsada, hozirda bu islohotni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda.

Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar

yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan termenlar bilan ham ifodalanadi. Bundan tashqari, bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qlishdir. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlarni amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Asosan, raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet barking, elektron to'lovlar, internet reklama va shu bilan birga internet o'yinlari ko'riladi.

Shuningdek raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-yuqori darajada avtomatlashtirilganligi;

-buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;

-ma'lumotlar elektron bazalari;

-CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi

-korparativ tarmoqlar.

Qulayliklari esa:

1.To'lov uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).

2.Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.

3.Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

4.Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

5.Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotning amaliy ahamiyati va jihatlari, bu birinchi navbatda, insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot korrupsiya va "qora iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlayd, kerak vaqtda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qoyadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliligi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada "iflos pullarni" yuvish, mablag'larni

og’irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yoki yashirib ko’rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag‘lar oqimini oshiradi, soliqlar o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanadi, budjet taqsimoti ochiq bo‘ladi, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar o‘g‘irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq yetib boradi va hokazo.

Uchinchidan, davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo‘nalishlar ochib beradi. “Raqamli texnologiyalar” tomon burilishga butun jahon internet tarmog‘i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchisi bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda bu tizimdan foydalanuvchilar oziq-ovqat, turli parfyumeriya va zamonaviy kiyim-kechak mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet do‘konlar, elektron to‘lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonyaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o‘rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o‘rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari. Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko’plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o’ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko’plab pul mablag’larini tejashi mumkin. Masalan, biron bir kitobning elektron ko’rinishini yuklab olish, Sizga shu kitobni chop etilgan ko’rinishini sotib olishga qaraganda ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo’lmasa oddiy iste’molchi o’zi ham tadbirkor bo’lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug’ullanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishining boshqa afzalliklari quyidagicha bo’lishi mumkin:

-ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
-kompaniyalarning raqobatbardoshligini o’sishi;
-ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
-yangi ish o’rinlari yaratilinishi;
-yangi zamonaviy kasblar paydo bo’lishi;
-kambag’allikni yengish va ijtimoiy tengisizlikni yuqolishi.

Bular raqamli iqtisodiyotning bor yo’gi bir nechta afzalliklari holos. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta’sir qiladi, oddiy foydalanuvchiga ko’plab qo’shimcha imkoniyatlar beradi va qolaversa, bozorni o’sishi va rivojlanishini ta’minlab berishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan xavflar ham mavjud. Jumladan:

-Kiber hujum xavfi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bilan bog’liq muommolar;

-“Raqamli qullik” (millionlab insonlar ma’lumotlaridan keyinchalik ularni o’zlarini tutishini boshqarish uchun foydalanish);

-Ishsizlikni oshishi, axborot texnoloiyalarini rivojlanishi va uni tadbiq qilinishi ortidan bir qancha sohalar va kasblar yo’q bo’lib ketishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyoti rivojlangan dunyo davlatlari:

“Raqamli” davlatlar deb bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblaniladi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.

Raqamli iqtisodiyotda davlatning o’rni. Dunyo tajribasini o’rganish natijasida shu narsa aniq bo’ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor “o’yin” qoidalarini o’yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o’yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya’ni, bozorda katta kompaniya bo’ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste’molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta’minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo’lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda (ya’ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o’yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Raqamli iqtisodiyot O’zbekistonda. Dunyo mamlakatlari kabi O’zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko’plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko’plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin.

Lekin shuni ta’kidlash kerak-ki, O’zbekistonda raqamli iqtisodiyot O’zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya’ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O’zbekistonda rivojlanishini bir qancha to’siqlarini ko’rsatib o’tish mumkin.

-ko’plab sohalardagi monopoliya;

-internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;

-axborot texnologiyalari sohasida qonununchilikning zamondan orqada qolganligi;

-fuqarolarda kompyuter savodxonligining o’ta pastligi;

-qonunchilikning shaffof emasligi;

-axborot texnologiylari bo’yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;

-axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;

-axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;

-boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki (ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;

-ilm-fan va ayniqsa aniq fanlarning rivojlanishi sustligi (yoki rivojlanishdan to'xtab qolganligi).

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bemalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan biri bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, "raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot – ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connectedworld / K. Kelly. – New York: Viking, 1998.

QARZ MUNOSABATLARINI ANGLATUVCHI QIMMATLI QOG'OZLAR QO'LLANILISHI VA UNDA EVROOBLIGATSIYA MUOMALASINI NAZARIY HAMDA IQTISODIY ASOSLARI

G'afurov Olimjon G'olib og'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti Iqtisodiyot fakulteti Moliya kredit kafedrasi o'qituvchisi

Ramazonova S.R.
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qarz munosabatlarini anglatuvchi qimmatli qog'ozlarning qanday ishlashi, qo'llanilishi hamda evroobligatsiya tushunchasi yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: qimmatli qog'ozlar**,** qarz kafolati, qarz qimmatli qog'ozlari, evroobligatsiyalar, evronotlar, evrobondlar.

Аннотация. В этой статье объясняется, как работают долговые ценные бумаги, как они используются, а также концепция еврооблигаций.

Ключевые слова: ценные бумаги, долговая гарантия, долговые ценные бумаги, еврооблигации, евроноты, еврооблигации.

Annotation. This article explains how debt securities work, how they are used, and the concept of Eurobonds.

Key words: securities, debt guarantee, debt securities, Eurobonds, Euronotes, Eurobonds.

Qarz qimmatli qog'ozi ikki tomon o'rtasida sotib olinishi yoki sotilishi mumkin bo'lgan qarz vositasi bo'lib, shartli summa (qarz olingan summa), foiz stavkasi, to'lov muddati va yangilanish sanasi kabi asosiy shartlarga ega.

Qarz qimmatli qog'ozlariga misol sifatida davlat obligatsiyasi, korporativ obligatsiya, depozit sertifikati (CD), munitsipal obligatsiya yoki imtiyozli aksiya kiradi. Qarz qimmatli qog'ozlari garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar, masalan, garovga qo'yilgan qarz majburiyatlari (CDO), garovga olingan ipoteka majburiyatlari (CMO), Hukumat milliy ipoteka assotsiatsiyasi (GNMA) tomonidan chiqarilgan ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar va nol kuponli qimmatli qog'ozlar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Qarz qimmatli qog'ozlari - bu o'z egalariga foizlarni to'lash huquqini beruvchi moliyaviy aktivlar. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlardan farqli o'laroq, qarzdor qimmatli qog'ozlar qarz oluvchidan asosiy qarzni to'lashni talab qiladi. Qarz ta'minoti bo'yicha foiz stavkasi qarz oluvchining kreditga layoqatliligiga bog'liq bo'ladi. Davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar, munitsipal obligatsiyalar, garov obligatsiyalari va kuponli obligatsiyalar kabi obligatsiyalar qarz ta'minotining keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Долговая ценная бумага — это долговой инструмент, который может быть куплен или продан между двумя сторонами и имеет такие ключевые условия, как номинальная сумма (сумма займа), процентная ставка, срок погашения и дата продления.

Примеры долговых ценных бумаг включают государственные облигации, корпоративные облигации, депозитные сертификаты (CD), муниципальные облигации или привилегированные акции. Долговые ценные бумаги - это ценные бумаги, обеспеченные залогом, такие как обеспеченные долговые обязательства (CDO), обеспеченные ипотечные обязательства (CMO), ценные бумаги с ипотечным покрытием, выпущенные Национальной ипотечной ассоциацией правительства (GNMA).Он также может быть в форме низкой и нулевой купонные ценные бумаги.

Долговые ценные бумаги – это финансовые активы, которые дают их владельцам право на выплату процентов. В отличие от долговых ценных бумаг, долговые ценные бумаги требуют от заемщика выплаты основной суммы долга. Процентная ставка по кредиту зависит от кредитоспособности заемщика. Облигации, такие как государственные облигации, корпоративные облигации, муниципальные облигации, ипотечные облигации и купонные облигации, являются распространенным типом долговых ценных бумаг.

A debt security is a debt instrument that can be bought or sold between two parties and has key terms such as the notional amount (amount borrowed), interest rate, maturity, and renewal date.

Examples of debt securities include a government bond, corporate bond, certificate of deposit (CD), municipal bond, or preferred stock. Debt securities are securities backed by collateral, such as collateralized debt obligations (CDOs), collateralized mortgage obligations (CMOs), mortgage-backed securities issued by the Government National Mortgage Association (GNMA). It can also be in the form of low and zero coupon securities.

Debt securities are financial assets that give their owners the right to pay interest. Unlike debt securities, debt securities require the borrower to repay the principal. The interest rate on the loan depends on the creditworthiness of the borrower. Bonds such as government bonds, corporate bonds, municipal bonds, mortgage bonds, and coupon bonds are a common type of debt security.

Qarz qimmatli qog’ozi - bu bir tomon boshqasiga qarz berganda yaratiladigan moliyaviy aktivning bir turi. Masalan, korporativ obligatsiyalar - bu korporatsiyalar tomonidan chiqarilgan va investorlarga sotiladigan qarz qimmatli qog’ozlari. Investorlar korporatsiyalarga oldindan belgilangan miqdordagi foizlarni to’lash evaziga qarz berishadi va obligatsiya muddati tugashi bilan asosiy qarzni qaytarishadi.

Boshqa tomondan, davlat obligatsiyalari - bu hukumatlar tomonidan chiqarilgan va investorlarga sotiladigan qarz qimmatli qog’ozlari. Investorlar foizlar (kupon to’lovlari deb ataladi) va obligatsiya muddati tugagandan so’ng asosiy qarzlarini qaytarish evaziga hukumatga pul qarz beradilar. Qarz qimmatli qog’ozlari, shuningdek, doimiy daromadli qimmatli qog’ozlar sifatida ham tanilgan, chunki ular foiz to’lovlaridan qat’iy daromad keltiradi. Investor tomonidan olinadigan daromad emitentning bozor faoliyatiga bog’liq bo’lgan aktsiyadorlik investitsiyalaridan farqli o’laroq, qarz vositalari investorga o’zining

dastlabki asosiy qarzini to'lashini va oldindan belgilangan foiz to'lovlarini olishni kafolatlaydi. Albatta, bu shartnoma kafolati qarz qimmatli qog'ozlarining xavf-xatarsiz ekanligini anglatmaydi, chunki qarz qimmatli qog'ozlarining emitenti bankrot deb e'lon qilishi yoki o'z kelishuvlarini bajara olmasligi mumkin.

Qarz qimmatli qog'ozlari xavfi. Qarz oluvchi qonuniy ravishda ushbu to'lovlarni amalga oshirishi shart bo'lganligi sababli, qarz qimmatli qog'ozlari odatda aktsiyalar kabi aktsiyalarga investitsiyalarga nisbatan kamroq xavfli investitsiya shakli hisoblanadi. Albatta, investitsiya qilishda har doimgidek, ma'lum bir qimmatli qog'ozning haqiqiy xavfi uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, yetuk bozorda faoliyat yurituvchi kuchli balansga ega bo'lgan kompaniya, rivojlanayotgan bozorda ishlaydigan boshlang'ich kompaniyaga qaraganda, o'z qarzlarini to'lash ehtimoli kamroq bo'lishi mumkin. Bunday holda, yetuk kompaniyaga uchta yirik kredit reyting agentliklari tomonidan qulayroq kredit reytingi berilishi mumkin: Standard & Poor's (S&P), Moody's Corporation (MCO) va Fitch Ratings.

Qarz qimmatli qog'ozlari va qimmatli qog'ozlar. Qimmatli qog'ozlar korporatsiyaning daromadlari va aktivlari bo'yicha da'voni ifodalaydi, qarz qimmatli qog'ozlari esa qarz vositalariga investitsiyalardir. Masalan, aktsiya qimmatli qog'oz, obligatsiya esa qarz qimmatli qog'ozidir. Investor korporativ obligatsiyani sotib olganida, ular asosan korporatsiya pullarini qarzga oladilar va obligatsiya bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash huquqiga ega. Bundan farqli o'laroq, kimdir korporatsiyadan aktsiyalarni sotib olsa, ular aslida kompaniyaning bir qismini sotib oladilar. Agar kompaniya foyda ko'rsa, investor ham foyda ko'radi, lekin kompaniya pul yo'qotsa, aktsiya ham pul yo'qotadi.

Xavf va daromad o'rtasidagi umumiy kelishuvga muvofiq, yuqori kredit reytingiga ega kompaniyalar odatda o'zlarining qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha past foiz stavkalarini taklif qiladilar va aksincha. Masalan, 2020-yil 29-iyul holatiga ko'ra, AQSh korporativ obligatsiyalarining daromadliligi bo'yicha Bloomberg Barclays indekslari ikki martalik A reytingli korporativ obligatsiyalarning o'rtacha yillik daromadliligi 1,34% ni tashkil etgan bo'lsa, ularning uch martalik B reytingli hamkasblari uchun bu ko'rsatkich 2,31% ni tashkil etdi. Ikki A reytingi kreditni to'lamaslik xavfining pastligini bildirganligi sababli, bozor ishtirokchilari ushbu kamroq xavfli qimmatli qog'ozlar evaziga pastroq daromad olishga tayyor bo'lishlari mantiqan to'g'ri.

Qarz kafolati namunasi. Emma yaqinda bankidan ipoteka krediti asosida uy sotib oldi. Emma nuqtai nazaridan, ipoteka u muntazam foizlar va asosiy to'lovlarni amalga oshirish orqali xizmat qilishi kerak bo'lgan majburiyatni anglatadi. Biroq, uning banki nuqtai nazaridan, Emmaning ipoteka krediti aktiv, qarz ta'minoti bo'lib, ularga foizlar oqimi va asosiy to'lovlarni olish huquqini beradi. Boshqa qarz qimmatli qog'ozlari singari, Emma o'z banki bilan tuzilgan ipoteka shartnomasida kreditning nominal qiymati, foiz stavkasi, to'lov jadvali va to'lov muddati kabi asosiy shartlari belgilab qo'yilgan. Bunday holda, shartnoma kreditning o'ziga xos garovini, ya'ni u sotib olgan uyni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu qarz qimmatli qog’ozining egasi sifatida Emma banki aktivni ushlab turishni davom ettirish yoki uni ikkilamchi bozorda aktivni garovga qo’yilgan ipoteka majburiyatiga (CMO) joylashtirishi mumkin bo’lgan kompaniyaga sotish imkoniyatiga ega.

Sizning portfelingizning aksariyat qismi aktsiyadorlik investitsiyalari yoki qat'iy daromadli investitsiyalar bo'ladimi, ko'pchiligimiz an'anaviy investitsiya qimmatli qog'ozlarini tavsiflovchi keng tarqalgan atamalar bilan tanishmiz: aktsiyalar, obligatsiyalar, birja fondlari (ETF), investitsiya fondlari va boshqalar. Ammo ba'zida maxsus atamalar o'rtacha investorni chalkash yoki noaniq qoldirishi mumkin. Misol uchun, ko'pchilik investorlar, ehtimol, qimmatli qog'ozlar deb ham ataladi. Kapital esa qimmatli qog'ozlarning bir turidir. Biroq, har bir investor qat'iy daromadli xavfsizlik va kapital o'rtasidagi farqni bilishi mumkin emas. Obligatsiyalar haqida gap ketganda, ko'pchilik investorlar, ehtimol, qarz qimmatli qog'ozlari va qat'iy daromadli qimmatli qog'ozlar atamalari bilan tanish. Ammo, siz ikkalasini aniqlaydigan va farqlaydigan o'ziga xos xususiyatlar bilan to'liq tanish emassiz. Aralashmaga ko'proq chalkashlik qo'shish uchun xavfsizlik so'zi bir mamlakatdan ikkinchisiga huquqiy ta'rifda ham farq qilishi mumkin. Shunday qilib, agar siz hali ham qimmatli qog'ozlarning aktsiya va obligatsiyalarga nisbatan umumiy ta'rifi haqida qiziqayotgan bo'lsangiz, keling, bir nechta keng tarqalgan xavfsizlik turlarini aniqlaymiz (AQSh ta'riflariga ko'ra).

Investitsiyada qimmatli qog'ozlar nima?

Qimmatli qog'ozlar odatda sotiladigan moliyaviy aktivlar sifatida qaraladi. Garchi bu haddan tashqari soddalashtirilgan bo'lsa-da, savdo qilmaydigan "likvid" qimmatli qog'ozlar investorlarning aksariyat qismini qiziqtirmaydi yoki ularga mos kelmaydi. Aksariyat qimmatli qog'ozlar kapitalni jalb qilish maqsadida institutlar (odatda korporatsiyalar va hukumatlar) tomonidan chiqariladi. Demak, deyarli barcha qimmatli qog'ozlar investitsiya shakllari sifatida qaraladi. Investitsion qimmatli qog'ozlar aktivlarning keng doirasini qamrab olganligi sababli ular keng toifalarga bo'lingan, ulardan ikkitasi bizning asosiy e'tiborimiz bo'ladi:

Qimmatli qog’ozlar nima?

Qimmatli qog’ozlar - bu mulk ulushini ifodalovchi moliyaviy aktivlar. Qimmatli qog’ozlarning eng keng tarqalgan turi oddiy aktsiyadir. Aksiyadorlik qimmatli qog’ozlarini eng ko’p belgilaydigan xususiyat - uni boshqa ko’plab qimmatli qog’ozlardan ajratib turadigan xususiyat - bu mulkdir. Agar siz qimmatli qog’ozga ega bo’lsangiz, sizning aktsiyalaringiz emitent kompaniyaning qisman egaligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, siz emitent kompaniyaning daromadlari va aktivlarining ko’payishi bo’lishi mumkin bo’lgan narsadan foyda olishni kutmoqdasiz. Agar siz kompaniya tomonidan chiqarilgan jami aktsiyalarning 1 foiziga yoki qimmatli qog’ozlarga egalik qilsangiz, nazorat qiluvchi kompaniyaning bir qismi egaligingiz 1 foizga teng bo’ladi. Boshqa aktivlar, masalan, investitsiya fondlari yoki ETFlar, agar ularning egaliklari birlashtirilgan qimmatli qog’ozlardan iborat bo’lsa, qimmatli qog’ozlar deb hisoblanishi mumkin.

Qarz qimmatli qog'ozlari nima?

Qarz qimmatli qog'ozlari - bu emitent (qarz oluvchi) va investor (qarz beruvchi) o'rtasidagi kredit shartlarini belgilaydigan moliyaviy aktivlar. Qarz ta'minoti shartlari odatda kredit muddati tugagandan so'ng qaytarilishi kerak bo'lgan asosiy qarz miqdori, foiz stavkalari to'lovlari va to'lov muddati yoki yangilanish sanasini o'z ichiga oladi. Qarz qimmatli qog'ozlarining eng keng tarqalgan turi bu obligatsiyalar, masalan, korporativ obligatsiyalar va davlat obligatsiyalari, ammo boshqa aktivlarni, masalan, tijorat qog'ozi va banknotlarni o'z ichiga oladi.

Emitentdan obligatsiya sotib olayotganda, siz asosan emitentga pul qarz berasiz. Ko'pgina hollarda, siz qarzga olingan pul bo'yicha foiz to'lovlarini olish uchun qarz berishingiz mumkin. (Ba'zi qarz qimmatli qog'ozlari, masalan, birjada sotiladigan qog'ozlar, boshqa sotiladigan vositalar uchun proksi sifatida ishlatiladi va dividendlar yoki foiz to'lovlarini taklif qilmaydi.) Va muddati tugagandan so'ng, siz pulingizning to'liq shartli miqdorini qaytarib olishga umid qilasiz.

Ogohlantirish: Qarz qimmatli qog'ozlari, shuningdek, vosita turiga va emitentga qarab, narx riski va kredit riskini o'z ichiga oladi. Foiz stavkalarining o'zgarishi narx xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Kredit tavakkalchiligi qarz oluvchining qarzni muddatida to'lamaslik ehtimolini anglatadi.

Ruxsat etilgan daromadli investitsiyalar nima? Ruxsat etilgan daromadli investitsiyalar investorga davriy va "belgilangan" foizlarni to'lashni ta'minlovchi qarz qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi. Ruxsat etilgan daromadli investitsiyalarning eng keng tarqalgan turi qimmatli qog'ozlardir - korporativ obligatsiyalar va davlat obligatsiyalari. Barcha qarz investitsiyalari tom ma'noda belgilangan to'lovga ega emas. Ba'zilar, aslida, hech qanday to'lovga ega emaslar, aksincha ular foiz ta'sirini oldindan sotish narxiga kiritadilar. Boshqa misollar suzuvchi stavkali qog'ozlar va o'zgaruvchan foizli talab majburiyatlari kabi o'zgaruvchan daromadli qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi. Qarz majburiyatlari qimmatli qog'ozlarining boshqa shakllariga davlat g'aznachilik veksellari (DQV) va G'aznachilik veksellari (T-notalari) kiradi.

Evrobondtion (shuningdek, "eurobond" moliyaviy jarangida - inglizcha eurobond dan) - emitent uchun chet el valyutasida chiqarilgan, xalqaro anderrayterlar sindikati yordamida xorijiy investorlar orasida ushbu valyutaga joylashtirilgan obligatsiya. "Evro" prefiksi endi an'anaga hurmatdir, chunki birinchi yevroobligatsiyalar Evropada paydo bo'lganligi sababli ular asosan u erda sotiladi. Yevrobozor aylanmasining 50% dan ortig'ini va evroobligatsiyalar bozori aylanmasining 90% ga yaqinini yevroobligatsiyalar kreditlarining ulushi tashkil etadi.

Evroobligatsiyalar - bu qarz oluvchilar (xalqaro tashkilotlar, hukumatlar, mahalliy hokimiyatlar, uzoq muddatga - 1 yildan 40 yilgacha (asosan 3 yildan 30 yilgacha) pul olishdan manfaatdor bo'lgan yirik korporatsiyalar) tomonidan chiqarilgan xalqaro qarz hujjatlari Yevropa moliya bozorida har qanday yevrovalyutada uzoq muddatli kredit.

Evroobligatsiyalar - bu xalqaro fond bozorida sotiladigan qimmatli qog'ozlar. Aslida, bu emitent rezident bo'lgan boshqa davlatning valyutasida nominal qilingan bir xil obligatsiyalardir. Ya'ni, bu qarz oluvchi joylashgan davlatning valyutasidan boshqa valyutada chiqarilgan obligatsiyalardir. Ommabop e'tiqoddan farqli o'laroq, bu xorijiy kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bo'lishi shart emas va ular evroda bo'lishi shart emas (bundan tashqari, ularning evro valyutasiga hech qanday aloqasi yo'q). Masalan, "Gazprom", "Sberbank" yoki "Lukoyl" rus korporatsiyalari bo'lib, dollar yoki funt sterlingda uzoq muddatli evro obligatsiyalarni chiqarishi mumkin. Ular buni doimiy ravishda, albatta, Rossiya qonunchiligi normalarini hisobga olgan holda amalga oshiradilar.

Evroobligatsiyalar oddiy obligatsiyalardan farqli ravishda barcha fond bozorlarida sotiladi. Boshqa har qanday obligatsiyalar singari, yevroobligatsiyalar ham qisqa muddatli (muddati 1 yilgacha), o'rta muddatli (1-10 yil) va uzoq muddatli (10 yildan) bo'lishi mumkin. Shuningdek, boshqa qarz qimmatli qog'ozlari singari, yevroobligatsiyalar emissiyaning turli shakllariga ega bo'lishi mumkin: nol kuponli, qat'iy yoki o'zgaruvchan foiz stavkasi bilan, konvertatsiya qilinadigan (emitentning aksiyalari yoki boshqa obligatsiyalariga almashtirish huquqi bilan) va emas.

Evroobligatsiyalar. Xalqaro amaliyotda yevroobligatsiyalar ko'pincha barcha yevroobligatsiyalar deb ataladi. Ammo baribir ularni alohida toifa sifatida ajratib ko'rsatishga arziydi. Evroobligatsiyalar taqdim etuvchi qimmatli qog'ozlardir. Ular emitentlar uchun qulaydir, chunki ular garov zaxirasini talab qilmaydi (bunday qimmatli qog'ozlar kompaniya yoki emitent mamlakatning imiji va reytingi bilan kafolatlanadi) va qoida tariqasida, ular uzoq muddatli (40 yilgacha) vositadir. Evroobligatsiyalar kompaniyalar va hukumatlar tomonidan uzoq muddatga qarz mablag'larini jalb qilish uchun chiqariladi. Bunday qimmatli qog'ozlar inflyatsiya va mamlakat omili ta'sirining pasayishi tufayli investorlar uchun doimo qiziqish uyg'otadi.

Evronotlar - bu iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda chiqarilgan qimmatli qog'ozlar. Evronotlarning chiqarilishi xavfsizlikni nazarda tutadi (ya'ni obligatsiya qandaydir moddiy aktivlar tomonidan kafolatlanadi: ko'chmas mulk, transport, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar, tovarlar va boshqalar). Qoida tariqasida, evronot suzuvchi foiz stavkasi bilan qisqa muddatli vositadir. Bunday qarz qimmatli qog'ozlari ishonchliligi va reytingi yuqori toifadagi korporatsiyalar tomonidan chiqariladi va barcha darajadagi investorlar uchun juda qiziq.

Evrobondlar yangi boshlanuvchilar va tajribali investorlar bilishi kerak bo'lgan bir qator xususiyatlarga ega.

1.Ta'riflashdagi qiyinchiliklar. Evroobligatsiyalar evro valyutasi bilan bog'liq emas, lekin dastlab bu qarz qimmatli qog'ozlar faqat Evropada muomalada bo'lganligi sababli shunday nomlanadi. Endi ular Singapur, Gonkong va Yaponiyaning ilg'or Osiyo bozorlarida ham aylanmoqda. Aytgancha, Osiyo bozorlarida joylashtirilgan va Osiyo fond birjalarida ro'yxatga olingan yevroobligatsiyalar "ajdar" deb ataladi.

2.Rossiya qonunchiligi Rossiya fond bozorida sotiladigan yevroobligatsiyalarning bir qismini tartibga soladi. Investorlar broker orqali faqat federal qonunga muvofiq qimmatli qog'ozlar sifatida tan olingan yevroobligatsiyalarni sotib olishlari mumkin. Bunday qarz qimmatli qog'ozlari ISIN va CFI identifikatsiya raqamlariga ega.

3.Ammo Rossiya regulyatorlari AQSh tomonidan chiqarilgan yevrobondlar ustidan hech qanday kuchga ega emas.

4.Evroobligatsiyalar milliy hukumatlar, yirik kompaniyalar, banklar va hatto xalqaro tashkilotlar tomonidan chiqarilishi mumkin.

5.Ko'pincha, evro obligatsiyalar yirik institutsional investorlar tomonidan sotib olinadi: pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, to'siq fondlari va boshqalar. Biroq, bu investitsiya shakli jismoniy shaxslar uchun ham mavjud.

6.Evroobligatsiyalar hujjatsiz shaklga ega va hisobvaraqlar bo'yicha yozuv sifatida chiqariladi.

Rossiya emitentlarining barcha yevroobligatsiyalari Moskva birjasida ro'yxatga olingan. Qimmatli qog'ozlar listingida siz emitent nomini, to'lash muddatlarini, minimal kirish summalarini va boshqalarni ko'rishingiz mumkin. Evrobondlar bozori dunyoning hech bir davlati tomonidan nazorat qilinmaydi. Nazorat ISMA (Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorlari assotsiatsiyasi) tashkilotiga yuklangan. Asbob o'ziga xos bo'lib ko'rinishiga qaramay, bu sizning jamg'armalaringizni tejash va oshirishning ishonchli (hatto namunali ishonchli deyishimiz mumkin) usulidir.

Evrobondlar likvidli vositadir. Evrobondlar kuchli bozor pozitsiyalariga ega kuchli emitentlar tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi sababli, ularning qog'ozlari doimiy ravishda yuqori kotirovka qilinadi va tez sotiladi. Evrobondlar ishonchli vositadir. Shunga qaramay, ishonchlilik emitentlarning holati va turli bozorlarda joylashtirish strategiyasi bilan bog'liq. Evrobondlar sizga daromadni bashorat qilish imkonini beradi. Xususiy investor kupon daromadi va obligatsiyaning nominal daromadliligini hisoblab, investitsiya portfelining ushbu qismining rentabelligini oldindan baholashi mumkin. Kamchiliklarga ma'lum valyuta risklari (valyuta kursi to'satdan milliy valyuta foydasiga o'zgaradi) va investitsiya kiritish uchun ancha yuqori chegara kiradi. Yevrobondlar bilan ishlashni boshlash oson – broker bilan bog'lanib, hisob ochish kifoya. Ushbu vosita xususiy investor portfelida bo'lishi kerakmi? Albatta. Bundan tashqari, turli kompaniyalarning evroobligatsiyalarini diqqat bilan ko'rib chiqish va malakali va foydali strategiyani ishlab chiqish kerak.

Evroobligatsiyalar bir vaqtning o'zida bir nechta birjalarda yoki bozorlarda joylashtirilishi mumkin. Evroobligatsiyalar uchun ikki marta nominalga ruxsat beriladi - investorning iltimosiga binoan kupon daromadi turli valyutalarda to'lanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, evroobligatsiya - bu milliy valyutaning qadrsizlanishidan himoya qilish. Qimmatli qog'oz boshqa davlat valyutasida

bo’lgani va daromad undan olinganligi sababli, investor o’zini valyuta kursining yoqimsiz va keskin o’zgarishidan sug’urta qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evrobond / L.N.Krasavina // Buyuk rus entsiklopediyasi: [35 jildda] / ch. ed. Yu. S. Osipov. — M. : Buyuk rus entsiklopediyasi, 2004-2017.
2. Chuvakhina L. G. Evroobligatsiyalar va evro qog’ozlar bozori // Zamonaviy fan va amaliyot savollari. Universitet. IN VA. Vernadskiy. -2011. -№ 2(33). -C. 322-326. -ISSN 1990-9047

YEVROOBLIGATSIYALARNI MUOMALAGA CHIQARISH VA AMALIYOTGA SAMARALI TADBIQ ETISH

G'afurov Olimjon G'olib og'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti Iqtisodiyot fakulteti Moliya kredit kafedrasi o'qituvchisi

Mirmansurov Niyozbek
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti talabasi

Annotatsiya. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya bozorining ajralmas tarkibi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Uning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini oshirish uchun investitsiyalarni faol jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni rivojlantirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi muammolar samarali yechim topishiga erishish zarur hisoblanadi. Maqolada qimmatli qog'ozlar bozorining muhim bo'g'ini – yevroobligatsiyalarning muomalaga chiqarilish jarayoni hamda uning rivojlanishi va amaliyotga tadbiq qilinishi xalqaro miqyosda o'rganilgan.

Tayanch iboralar: yevrobond, QQB, investorlar, yevrobozor, ISMA, "yashil" obligatsiyalar, ochiq bozor operatsiyalari.

Soyut. Ekonominin modernleşmesi koşullarında, Finansal Piyasanın ayrılmaz bir yapısı olarak kabul edilen menkul kıymetler piyasası, ülkenin ekonomik kalkınmasında önemli bir yer tutmaktadır. Ekonomideki rolünü ve önemini arttırmak için aktif yatırım, üretimin modernizasyonu ve yapısal değişikliklerin uygulanması, Sınai Kalkınma, enflasyonun düşürülmesi, sürdürülebilir ekonomik büyümenin sağlanması gibi sorunlara etkili bir çözüm bulunması gerekmektedir. Makale, menkul kıymetler piyasasındaki önemli bir bağlantıyı – Eurobondların dolaşım sürecinin yanı sıra uluslararası alanda geliştirilmesi ve uygulanmasını inceliyor.

Anahtar kelimeler: Eurobond, menkul kıymetler piyasası, yatırımcılar, Eurobond, ISMA, "yeşil" tahviller, açık piyasa işlemleri.

Ключевые слова: еврооблигации, рынок ценных бумаг, инвесторы, рынок еврооблигаций, ISMA, "зеленые" облигации, сделки на открытом рынке.

Keywords: Eurobond, securities market, investors, Eurobonds market, ISMA, "green" bonds, open market transactions.

Annotation. In the conditions of modernization of the economy, the securities market, which is considered an integral structure of the Financial Market, occupies an important place in the economic development of the country. To increase its role and importance in the economy, it is necessary to achieve an effective solution to such problems as active investment, modernization of production and the implementation of structural changes, Industrial Development, lowering inflation, ensuring sustainable economic growth. The article examines an important link in

the securities market – the process of circulation of Eurobonds, as well as its development and implementation internationally.

Xalqaro amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarining doimiy muomalada bo'lishi davlat budjeti defitsitini moliyalashtirishning maqbul yo'li va shu bilan birga mamlakat moliya bozorini rivojlantirishning muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi. Ochiq bozordagi operatsiyalar jahon amaliyotida pul muomalasini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, mamlakatdagi pul taklifi ustidan nazoratning eng moslashuvchan usulidir. Ochiq bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarda katta miqdordagi xilma-xil qimmatli qog'ozlar ishtirok etadi. Ochiq bozordagi operatsiyalar iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar AQSh, Angliya, Germaniya va Kanada hisoblanadi. O'zbekistonda 1996-yildan 2011-yilgacha davlat qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarilib, ular tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan. 2012-yilga kelib davlat qimmatli qog'ozlarining muomalaga chiqarilishi to'xtatilganligiga qaramay, hozirgi kunda mamlakatimizda davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud.

(УИ) и сердечного индексов (СИ), ударного (УОС) и минутного объема сердца (МОС), коэффициент резерва (КР), общее периферическое сосудистое сопротивление (ОПСС) и индекс мощности левого желудочка (ИМЛЖ). Проводили нижеследующие функциональные пробы: сублингвальную нитроглицериновую [1.2], 6 минутную шаговую [1], пробу с задержкой дыхания (проба Штанге). Полученные данные обработаны с помощью неоднородной последовательной процедуры распознавания патологических процессов. Был проведен подбор информативных признаков и их ранжирование с помощью меры информативности Кульбака согласно упрощенного варианта алгебраической модели конструктивной логики [5].

Результаты и их обсуждение. Исследована диагностическая и прогностическая значимость следующих факторов: ЧСС, АД, ЧД, SpO_2; параметров центральной гемодинамики - УОС, УИ, МОС, СИ, ОПСС, ИМЛЖ, КР и ФВ; результаты функциональных проб; характер сердечно-сосудистой патологии; течение беременности; степень выраженности ожирения; исходный физический статус.

Из вышеприведенных признаков наиболее информативными в плане оценки сохранности резервных возможностей сердечно-сосудистой системы оказались: 6 минутная шаговая проба, проба с задержкой дыхания, сублингвальная проба с нитроглицерином, ФВ, СИ, КР.

Для отобранных признаков были рассчитаны диагностические коэффициенты - баллы. При использовании метода производили суммирование баллов до достижения порогов: низкого (6-9 баллов), достижение которого означает сохранность адаптационно-приспособительных возможностей сердечно-сосудистой системы; среднего (10-13 баллов), указывающего на снижение резервных возможностей; высокого (14-20 баллов), обозначающего резкое снижение резервов; запредельное (21-25 баллов) обозначающее полное отсутствие резервных возможностей со стороны сердечно-сосудистой системы. Результаты исследования представлены в таблице.

Многофакторные критерии сохранности коронарных резервов для беременных с МС.

Таблица 1

Многофакторные критерии сохранности коронарных резервов для беременных с МС.Наиболее информативные признаки	Прогностический балл
Степень сужения атриовентрикулярного отверстия	
I-ая – незначительная (>2,9 $см^2$)	0,5
II-ая - умеренно выраженная (2,9-2,0 $см^2$)	1
III-я - выраженная (1,9-1,1 $см^2$)	3
IV-ая - критическая (<1 $см^2$)	5
Сердечный индекс, $л/м^2$/мин	
2,8-2,5	1
2,4-2,0	2
<2,0	5

Фракция выброса	
60,0-55,0	1
54,0-50,0	2
<50,0	5
Проба с задержкой дыхания, в сек	
30,0-20,0	1
19,0-10,0	2
<10,0	3
Выполнение невозможно	5
Проба с нитроглицерином (согласно изменениям ИМЛЖ)	
ИМЛЖ возрастает	1
ИМЛЖ остается без динамики	2
ИМЛЖ снижается	5
6 минутная шаговая проба, в метрах	
301-400	1
300-250	2
249-150	4
Выполнение невозможно из-за тяжести общего состояния	5
Максимальное количество баллов – 30. Коронарные резервы сохранены – 6-9 баллов; снижены – 10-17 баллов; резко снижены – 18-24 балла; отсутствуют – 25-30 баллов.	

После выписки пациентов из клиники проводили ретроспективный анализ зависимости интра- и послеоперационных осложнений от степени сохранности адаптационно-приспособительных возможностей сердечно-сосудистой системы. Изучали также течение анестезии и родов, их взаимосвязь со степенью сохранности резервов.

Установлено, что многофакторные критерии степени сохранности адаптационно-приспособительных возможностей сердечно-сосудистой системы (резервов) у беременных с ожирением позволяет определить лечебную тактику как для анестезиолога, так акушер- гинеколога, а также определить направленность дородовой подготовки и прогнозировать возможность развития осложнений.

Выводы.

1. Дородовая многофакторная оценка функционального состояния сердечно-сосудистой системы у беременных позволяет конкретизировать степень сохранности адаптационно-приспособительных возможностей сердечно-сосудистой системы и определить ее резервные возможности.
2. Таким образом полученная информация позволяет индивидуально определить степень сохранности коронарных резервов для беременных с сердечно-сосудистой патологией, следовательно, определить операционно-анестезиологическую тактику, необходимость и направленность предродовой медикаментозной подготовки в каждой конкретной клинической ситуации.

Литература

1. Курбанов Р.Д. «Руководство по клинической кардиологии». Т.: Изд.

«Тиб-китоб», 2007 - с 512.
2. Лебединский К.М., Захаров Д.А., Шевкулен- ко Д.А. Прогностическое моделирование реакций кровообращения на операцию и анестезию// в сб.: Современная клиническая больница: актуальные проблемы управления, профилактики, диагностики, лечения. - Спб. 2002. - с 129-130.
3. Лебединский К.М. Международные стандарты безопасной анестезиологической практики //Анестезиология и реаниматология. - 2009 - №6 - с 4-10.
4. Шехтман М.М. Руководство по экстрагени- тальной патологии у беременных. - М.,
5. «ТРИАДА-Х» 2003,- с 816
6. Хромушин В.А., Минаков Е.И., Бархоткин В.А. Упрощенный вариант алгебраической модели конструктивной логики // Вестник новых медицинских технологий. - Тула: ТулГУ, 2012 - №1 - с 44-47.
7. Матлубов М. М., Рахимов А. У., Семенихин А. А. Комбинированная спинально-эпидуральная анестезия при абдоминальном родоразрешении //Анестезиология и реаниматология. – 2010. – №. 6. – С. 71-73.
8. Семенихин А.А., Матлубов Мансур Муратович, Ким О.В. Оценка эффективности центральных (нейроаксиальных) блокад у пациенток с ожирением и сниженными коронарными резервами при абдоминальном родоразрешении // Регионарная анестезия и лечение острой боли. 2016. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-tsentralnyh-neyroaksialnyh-blokad-u-patsientok-s-ozhireniem-i-snizhennymi-koronarnymi-rezervami-pri-abdominalnom (дата обращения: 03.05.2022).
9. Матлубов М. М., Нематуллоев Т. К., Хамдамова Э. Г. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ГЕМОДИНАМИЧЕСКИХ ЭФФЕКТОВ СПИНАЛЬНОЙ АНЕСТЕЗИИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПОЛОЖЕНИЯ БОЛЬНОГО ПОСЛЕ ВВЕДЕНИЯ ГИПЕРБАРИЧЕСКОГО РАСТВОРА БУПИВАКАИНА БОЛЬНЫМ С ГИПЕРТОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ //Высшая школа: научные исследования. – 2020. – С. 100-107.
10. Насриев Сухроб Ашурович, Хамдамова Элеонора Гаффаровна, Маллаев Сурат Саъдуллаевич, Акрамов Баходир Рахмонович, Пардаев Шукур Куйлиевич Гемодинамический эффект селективной спинальной анестезии при проктологических операциях // Достижения науки и образования. 2018. №7 (29). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gemodinamicheskiy-effekt-selektivnoy-spinalnoy-anestezii-pri-proktologicheskih-operatsiyah (дата обращения: 03.05.2022).

БОЛАЛАРДА БУЙРАК ЕТИШМОВЧИЛИГИНИ КОМПЛЕКС ДАВОЛАШДА ЭКСТРАКОРПОРАЛ ДЕТОКСИКАЦИЯНИНГ ЎРНИ

Шарипов И.Л.

Пардаев Ш. К.

Самарқанд Давлат тиббиёт университети

Аннотация. Болаларда буйрак етишмовчилигини комплекс даволашда детоксикацион усулларнинг самарадорлигини баҳолаш учун текширишлар 215 беморларга, яъни ЎБЕ (63) ва СБЕ (152) ўтказилган.Олинган натижаларни таҳлили натижасида аниқландиким беморларнинг аҳволини оғирлигига қараб гемодиализ усулига қўшилган ҳолда гемосорбция ва плазмоферезни ҳам ўтказиш мумкин. Бу усуллар ёрдамида беморларда интоксикация даражасини камайтиришига, моддалар алмашинувни яхшилашга, электролит алмашинувини тиклашга имкон берди.

Калит сўзлар: Экстракорпорал детоксикация, гемодиализ, гемосорбция, плазмоферез, болалар, ўткир ва сурункали буйрак етишмовчилик.

Аннотация. Исследования эффективности детоксикационных методов осуществлены у 215 пациентов с ОПН (63) и ХПН (152). При анализе полученных результатов выявлено, что в зависимости от тяжести состояния больных возможны варианты сочетанного подключения к гемодиализу методов гемосорбции, плазмофореза. Данная методика позволила существенно снизить уровень интоксикации, улучшить обменные процессы, нивелировать изменения электролитного обмена.

Ключевые слова: экстракорпоральная детоксикация, гемодиализ, гемосорбция, плазмоферез, дети, острая почечная недостаточность, хроническая почечная недостаточность.

Abstract. Research thye yeffectiveness of detoxification methods carriyed out in 215 patiyens with acute renal failure (63) and CRF (152). In thye analysis of thye resuls revealed that, depending on thye severity of patiyens possible options to connect to a combined dialysis methods hyemosorption, plasmaphyeresis. This techniquye has reducyed thye level of intoxication, improve metabolism, changes in yelectrolyte metabolism level.

Key words: yextracorporeal detoxification, hyemodialysis, hyemosorption, plasmaphyeresis, children, acute et chronic renal failure

Болаларда буйрак етишмовчилигини (БЕ) даволаш усулларини ривожланиб боришига қарамасдан, олинган натижалар эса даволашни оптимал даражада муҳокама қилишни талаб етади. Болаларда экстракорпорал детоксикасия усулларини (ЭКДУ) қўшилган усулда қўллаш тўғрисида маълумотлар камлиги туфайли, ўлим даражасини камайтириш мақсадида бу патологияларни тўлиқ ўрганишни талаб етмокда. Организмда буйраклар фаолияти ўзгарганда моддалар алмашинув жараёни бутунлай ўзгариб, гемодинамика, микросиркуляция, электролитлар алмашинувининг бузилишларига, ҳамда организм детоксикацион хусусиятларни узилиб

қолишига олиб келади [1,2,7]. БЕ да гемодинамиканинг бузилишлари ва буйраклар детоксикацион фаолиятини ўзгариши, токсик моддалар (сийдикчил, креатинин) таъсирида ривожланиб, бу моддаларнинг кўрсатгичлари касалликни кечиши ва оқибатини баҳолайди. Ҳозиргача ЭКДУ БЕнинг турлари ва босқичларига қараб самарали ўтказиш чоралари тўгрисида муаммолар охиригача ечилмаган. Айни ҳолларда эса болаларда БЕ да ЭКДУ қўшилган равишда қўллашни кўрсатмаларини аниқлаш ечимини топмаган[3,6,8].

Ишнинг мақсади: Болаларда БЕ да гемодиализ (ГД), гемосорбция (ГС) ва плазмаферез (ПФ) усулларини қўшилган ҳолда ўтказиб, гемодинамик кўрсатгичларга таъсирини ўрганиш ва баҳолаш.

Материал ва текшириш усуллари: Текширишлар 215 (2-14 ёшли) ренал (ўткир ва сурункали гломерулонефрит, пиелонефрит) факторлар туфайли ривожланган БЕ билан болаларда ўтказилган. Жумладан беморларнинг 63 (29,3%) таси ўткир буйрак етишмовчилиги (ЎБЕ) билан, 152 (70,6%) таси эса сурункали буйрак етишмовчилиги (СБЕ) билан асоратланган. Детоксикация усулларини ўтказиш турларига қараб барча беморлар икки гуруҳга: назорат гуруҳи (33) беморларга фақат ГД усули ўтказилди, асосий гуруҳдаги (182) беморларга эса граватацион хирургиянинг ГС, ГД, ПФ усуллари қўлланилди.

ЭКДУ қўллашда беморларда интоксикацион ва полиорган етишмовчилик синдромини даражасига қараб даволаш усуллари танлаб ўтказилган. Шу боис асосий гуруҳ беморлари умумий оғирлик даражаси ва ўтказилган ЭКДУ қараб 3 гуруҳчаларга бўлинди: 1- гуруҳчада (55) - ГД + ГС усуллари; 2 гуруҳчада (62) - ГД + ПФ усуллари; 3 гуруҳчада (65)-ГД, ГС ва ПФ усуллари қўшилган ҳолда ўтказилди.

Марказий ва периферик гемодинамика кўрсатгичлари: диастолик артериал босим (АБд), систолик артериал босим (АБс), юрак уриш сони (ЮУС)-Aloca (Япония) аппаратида; Эхокардиография текшириш усули (ЭхоКГ) Hitachi (Япония)нинг «ЕУ- 405» аппарати ёрдамида стандарт бўйича ўтказилди; марказий веноз босими (МВБ) Валдман флеботанометри ёрдамида аниқланди.

Олинган натижалар ва мухокамаси: Барча беморлар шифохонага мурожаат қилганда интоксикация белгиларнинг яққол кўзга кўриниши, юрак ва нафас етишмовчилик белгиларини мавжудлиги, 84,2% - ҳолларда ҳушнинг карахтлиги, 22% - камқонлик синдроми, 78% - гипопротеинемия, 93% - да эса анурияниг клиник белгилари аниқланган. 63(29,3%) ҳолларда беморларда кузатиладиган интоксикацион синдром ва аъзоларнинг фаолиятини ўзгаришига қараб, комлекс даволашда ЭКДУ бир марта ўтказилган. 152 (70,6%) ҳолларда эса комплекс даволашда узоқ муддатли диализ сеанслари ўтказилган, ҳамда ГД усули билан уремик синдромини камайтириш самарасизлигида кузатилган СБЕ нинг терминал босқичида қўлланилди.

Барча беморларда ўтказилган консерватив даволар гемодинамик кўрсатгичлар ва электролитлар мувозанатини мўтадиллаштириш, биохимик жараёнларнинг меъёрлаштириш, ҳамда нафас ва юрак-қон томир тизими фаолиятини тиклашга қаратилди. ЭКДУ ўтказишга кўрсатмалар ЎБЕ нинг клиник белгиларига ҳамда СБЕ организм аъзолари фаолиятининг ўзгариши ва уремик синдром даражасига қараб аниқланди.

Болаларда ЎБЕ ривожланишининг асосий сабаблари сифатида ўткир пиелонефрит билан асоратланган тарқоқ бронх-ўпка касалликлари (22,2%) ва ўткир гломерулонефрит (63,49%) аниқланди. Булардан ташқари кеч даволаниш ҳолатлари, клиник белгиларнинг яширин кечиши, буйраклар зарарланишининг аниқ белгиларини йўқлиги, турли хил ятроген сабаблар болаларда ЎБЕ ривожланишига олиб келгани аниқланди.СБЕ асосий сабаблари сифатида узоқ вақт кечувчи сурункали пиелонефрит (19,93%) ҳамда сурункали гломерулонефрит (53,94%) ташкил этди.

Жадвал 1.

ЎБЕ билан касалланган беморларнинг гемодинамик кўрсатгичларини ЭКДУ-гача ва сўнги даврдаги қиёсий таҳлили (М±м).

№	Гемодинамик кўрсатгичлар	Текшириш гуруҳлари							
		Тажриба гуруҳи ГД н=5		Асосий гуруҳ					
				1 гуруҳча ГД+ГС н=7		2-гуруҳча ГД+ПФ н=26		3 гуруҳча ГД+ГС+ПФ н=25	
		Муолажа гача	Муолажа дан сўнг	Муолажа гача	Муолажа дан сўнг	Муолажа гача	Муолажа дан сўнг	Муолажа гача	Муолажа дан сўнг
1	ЮУС.1дак-да.	107,6±12,9	96,6±9,4	98,7±4,3*	95,71±4,92	107,2±17,8	92,53±18,4	106,6±17,2	96,25±9,84
2	АБс мм.сим.уст	143,2±27,9	130,0±21,6	142,8±13,8	120,8±13,8**	141,1±4,9	120,5±9,9	121,8±19,6	114,1±10,8
3	АБд мм.сим.уст	100,0±24,4	85,1±12,9	100,0±16,3	80,0±16,3	97,3±11,8	81,5±11,2	83,9±17,9	74,8±10,5*
4	МВБ мм.сув.уст	11,0±1,6	9,85±1,9	11,1±1,8	9,1±1,8***	10,8±1,7	8,02±1,21	11,05±1,2	7,29±0,54

Изох: * - П<0,005; **п<0,001; ***п<0,05.

Жадвал 2.

СБЕ билан касалланган беморларнинг гемодинамик кўрсатгичларини ЭКДУ-гача ва сўнги даврдаги қиёсий таҳлили (М±м).

№	Гемодинамик кўрсатгичлар	Текшириш гуруҳлари							
		Тажриба гуруҳ ГД н=28		Асосий гуруҳ					
				1 гуруҳча ГД+ГС н=48		2- гуруҳча ГД+ПФ н=36		3 гуруҳча ГД+ГС+ПФ н=40	
		Муолажа гача	Муолажа дан сўнг	Муолажа гача	Муолажа дан сўнг	Муолажа гача	Муолажа дан сўнг	Муолажа гача	Муолажа дан сўнг
1	ЮУС.1дак-да.	106,7±18,3	98,5±6,6	102,2±12,1	95,3±8,8**	102,6±12,9	95,86±6,6	111,0±20,7	95,84±12,02
2	АБс мм.сим.уст	143,3±16,9	118,2±16,9	145,6±20,9	127,6±18,1	139,5±28,4	125,8±14,6	136,8±20,5	117,9±9,8*
3	АБд мм.сим.уст	99,5±16,3	85,3±12,2	100,2±17,5	88,5±13,8	103,9±18,9	90,3±21,5*	100,1±22,8	82,05±20,5
4	МВБ мм.сув.уст	10,3±1,1	9,05±1,07	11,12±1,45	7,5±0,9***	10,5±1,5	7,18±1,17	11,7±1,6	8 ,58±15,2

Изох: * - П<0,005; **п<0,001; ***п<0,05.

Текширишлар давомида ЎБЕ гемодинамиканинг асосий кўрсатгичларини ўзгариши ЭКДУ ўтказилишига қадар қуйидагича аниқланди (жад. 1), яъни 1- гуруҳчада ЮУС 8,2%, 2- гуруҳчада 0,37%, 3- гуруҳчада 14,94% пасайганлиги ва шу кўрсатгичларга ўхшаш сонлар назорат гуруҳида ҳам аниқланди. Шу билан бирга, АБс ўртача кўрсатгичи 1- гуруҳчада 0,27%, 2- гуруҳчада 1,46%, 3- гуруҳчада 14,94% пасайганлиги назорат гуруҳига нисбатан аниқланди. АБд ўртача кўрсатгичлари 1-гуруҳчада назорат гуруҳига ўхшаш кўрсатгичлар, 2- гуруҳчада 2,7% пасайганлиги, 3-гуруҳчада эса 16,1% назорат гуруҳига нисбатан пасайганлиги аниқланди.

ЎБЕ билан шифохонага тушган бемор болаларда МВБ нинг ўзгариши 1-гуруҳчада 0,9% ошганлиги, 2- гуруҳчада 1,8% пасайганлиги, 3- гуруҳчада эса 16,1% назорат гуруҳига нисбатан ошганлиги аниқланди.

Шундай қилиб, ЭКДУ ўтказилишига қадар гемодинамиканинг асосий кўрсатгичлари ЎБЕ билан беморларда деярли ҳар хил кўрсатгичларга эга. Бу кўрсатгичлар эса текширишларнинг кейинги босқичларида ЭКДУ ни ўтказиш самарадорлигини кўрсатади.

Шифохонага СБЕ билан келган (76,5%) бемор болаларда бирламчи кўрик вақтида ва ЭКДУ ўтказилишига қадар гемодинамика кўрсатгичларини ўзгарганлиги аниқланди. ЮУС кўрсатгичи асосий гуруҳнинг 1-2-гуруҳчаларида 4,2%, 3-гуруҳча беморларида эса 4,02 % назорат гуруҳига нисбатан пасайганлиги аниқланди.

Шу вақтни ўзида эса АБс ни 1-гуруҳчада 1,6% кўтарилиши, 2-гуруҳчада эса 2,6% пасайганлиги, 3-гуруҳчада эса 4,5% назорат гуруҳига нисбатан пасайганлиги аниқланди. АБд кўрсатгичлари асосий гуруҳнинг 1-гуруҳчасида 0,7%, 4,4% 2-гуруҳчада, 3-гуруҳчада эса 0,6% ошганлиги назорат гуруҳига нисбатан аниқланди. МВБ барча гуруҳларда барқарор кўтарилиши кузатилди, яъни асосий гуруҳнинг 1- гуруҳчасида 7,9%, 2-гуруҳчада 1,9%, 3-гуруҳчада эса 13,55 % назорат гуруҳ кўрсатгичларига нисбатан ошганлиги аниқланди.

Шундай қилиб, СБЕ билан касалланган бемор болаларда гемодинамик кўрсатгичлари ЎБЕ билан касаланган беморларни кўрсатгичларига нисбатан қисман фарқ қилиб, яъни узоқ муддатли гармонал-ренал факторларнинг таъсири натижасида қон-томирлар тизимида субкомпенсатор ўзгаришлар аниқланди.

ЭКДУ қўлланиши бу беморларни умумий ахволига, интоксикасион синдромнинг якколигига, ҳаёт учун муҳим бўлган аъзоларнинг фаолиятини ўзгаришига боғлиқ. Болаларда ЎБЕ ва СБЕ даволашда ГД муолажасини ўтказишда детоксикасион хусусиятини кам самарали бўлганлиги боис, ГД+ГС, ГД + ПФ ва ГД+ГС+ПФ қўшилган усулда қўлланиши амалиётда ўтказилди.

ЎБЕ билан касалланган беморларга ЭКДУ билан даволашдан сўнг олинган кўрсатгичлар, бошланғич кўрсатгичлар натижаларига нисбатан келтирилган. Сорбциядан сўнги яқин даврда (жад.2) назорат гуруҳида ЮУС

10,22% пасайганлиги, асосий гуруҳнинг 1-гуруҳчасида 3,02%, 2-гуруҳчада 13,6%, 3- гуруҳчада 9,7% пасайганлиги аниқланди. Бир вақтнинг ўзида шу кўрсатгичлар назорат гуруҳининг кўрсатгичларига нисбатан 1-гуруҳчада 0,92%, 2-гуруҳчада 4,2% , 3- гуруҳчада 0,36% камайганлиги кузатилди.

ЎБЕ касаллиги билан касалланган беморларда АБс ни самарали равишда пасайиши, яъни назорат гуруҳида 9,2%, асосий гуруҳнинг 1- гуруҳчасида 15,4%, 2-гуруҳда 14,5%, 3-гуруҳчада 6,3% аниқланди. Бу олинган натижаларни эса назорат гуруҳининг натижаларига нисбатан солиштирганда АБс 1-гуруҳчада 7,07%, 2-гуруҳчада 7,30%, 3-гуруҳчада 12,2% пасайганлиги маълум бўлди.

ЎБЕ билан болаларда посцорбсион даврда АБд назорат гуруҳида 14,9% пасайганлиги, асосий гуруҳ беморларининг 1- гуруҳчасида 20%, 2-гуруҳчасида 16,23%, 3-гуруҳчасида эса 10,8% дастлабки кўрсатгичларга нисбатан пасайганлиги аниқланди. Ўтказилган текширишлар натижаси шуни кўрсатдики, ўтказилган ЭКДУ туфайли АБд асосий гуруҳ беморларнинг 1-гуруҳчасида 5,9% , 2- гуруҳчасида 4,2%, 3- гуруҳчасида 12,1% пасайганлиги назорат гуруҳи кўрсатгичларига нисбатан аниқланди.

Текширишларнинг асосий қисми СБЕ билан оғриган болаларда ўтказилиб, уларни деярли кўп қисмини сурункали диализда бўлган беморлар ташкил этди. Бу табақали беморларда интоксикасион синдромни жуда юқори даражада эканлиги, нафас ва юрак-қон томирлар фаолиятини бузилиши, метаболик жараёнларнинг чуқур бузилганлиги диққатни ўзига жалб қилади. СБЕ билан беморларда ЮУС постсорбцион даврда назорат гуруҳида 7,6%, асосий гуруҳнинг 1- гуруҳчасида 6,75%, 2- гуруҳчасида 6,62%, 3-гуруҳчасида 13,65% дастлабки кўрсатгичларга нисбатан камайганлиги кузатилди.

МВБ нинг ўзгариши посцорбсион даврда қуйидаги кўрсатгичлар олинди ва назорат гуруҳида 12,1%, 1-гуруҳчада 32,5%, 2-гуруҳчада 31,6%, 3-гуруҳчада 26,6% дастлабги кўрсатгичларга нисбатан пасайди. ЭКДУ самарадорлиги эса посцорбцион даврда қуйидаги кўрсатгичлар билан , яъни 1- гуруҳчада 17,21%, 2-гуруҳчада 20,66%, 3-гуруҳчада 5,19% назорат гуруҳи натижаларига нисбатан пасайганлиги кузатилди.

Шундай қилиб, ЭКДУ қўшилган усулда ўтказиш моногемодиализ усулига нисбатан асосий гуруҳ беморларидан олинган кўрсатгичлар натижасини баҳолаб кўрганда самарали таъсирга эга эканлигини тасдиқлаш мумкин.

Хулоса. Болаларда буйрак етишмовчиликни даволашда ЭКДУларини биргаликда қўллаш, ЎБЕ ва СБЕ билан асоратланган бемор болаларда моногемодиализ усулига нисбатан самарали таъсирга эга бўлиб, бу беморлар организмида аъзоларнинг фаолиятини тикланиши, марказий ва периферик гемодинамик кўрсатгичларни барқарорлашиши, интоксикацион синдромнинг пасайиши, беморларнинг клиник аҳволини ижобий томонга силжиши билан намоён бўлади.

Адабиётлар

1. Акрамов Б.Р., Шарипов И.Л. Оптимизация обезболивания при пластических операциях у детей. // Детская хирургия. № С. 1 (том 24). 2020 Москва.
2. Жониев С.Ш., Рахимов А.У., Бабажанов А.С. Значение биохимических показателей при предоперационной подготовке больных узловым зобом // Наука и мир. 2013. № 10. С. 136.
3. Рахимов, А., Негматджанов, Б., Юсупов, Ж., Ганиев, Ф., & Мамасолиева, Ш. (2018). Определение клинико-экономической эффективности симультанных операций у женщин. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (4 (104)), 209-212.
4. Шарипов И.Л. Оценка комбинированного применения методов экстракорпоральной детоксикации у детей с почечной недостаточностью. // Врач-аспирант. № 5.2. (Т54). Москва, 2012.
5. Шарипов И.Л. Показатели системной гемодинамики при сочетанном применении методов заместителной терапии у детей с почечной недостаточностю. //Медикус. Международный медицинский научный журнал, № 5 (35), 2020. Волгоград. Россия. 13-18 стр
6. Шарипов,И.Л.Оценка сочетанного применения методов экстракорпоральной детоксикации у детей с почечной недостаточностью / И. Л. Шарипов // Врач-аспирант. – 2012. – Т. 54. – № 5.2. – С. 332-341.
7. Шарипов Исроил Латипович Снижение интоксикации сочетанными методами экстракорпоральной детоксикации при почечной недостаточности у детей // Детская хирургия. 2014. №1.
8. Матлубов М., Хамдамова, Э. ., & Юсупов, Ж. (2022). Тактика интенсивной терапии и анестезии у беременных женщин и рожениц инфицированных и больных COVID-19. *Журнал кардиореспираторных исследований*, 1(SI-1), 66–67. https://doi.org/10.26739.2181-0974-2020-SI-1-21
9. Матлубов М.М., Семенихин А.А., Хамдамова Э.Г. Выбор оптимальной анестезиологической тактики при кесаревом сечении у пациенток с ожирением // Вестник анестезиологии и реаниматологии. 2017. №5.
10. Матлубов М. М., Рахимов А. У., Семенихин А. А. Комбинированная спинально-эпидуральная анестезия при абдоминальном родоразрешении //Анестезиология и реаниматология. – 2010. – №. 6. – С. 71-73.
11. Sharipov I.L. Thye use of YeCD in thye treatment of acute renal failure and chronic renal failure in children, assessment of is degreye of yeffectiveness. // Medical and sciyencye journal. Volume 13, 2012

IL Sharipov, JT Yusupov, BK Xolbekov.Personalization and preventative premedication: used drugs value and efficiency //Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (02), 740-748

12. Sharipov I.L., Xolbekov B.Q., Akramov B.R. Hyemodynamic gradations with combined use of yextracorporal detoxification methods in children with renal

failure. //Yeuropean Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 07, Issuye 03, 2020.2555-2563str.

Muratovich, Matlubov Mansur, et al. "Hemodynamic indicators in pregnant women with obesity of various degrees of expression." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, vol. 8, no. 2, 15 Jan. 2021

Matlubov Mansur Muratovich, YusupovJasurTolibovich, Mallayev Surat Sadullayevich, Khamrayev Khamza Hamidullayevich Optimization of anesthesiological assistance in women with arterial hypertension in hysterectomy // Достижения науки и образования. 2020. №5 (59).

13. Mansur Muratovich Matlubov, Jasur Tolibovich Yusupov, & Nigina Ulugbekovna Mukhamedieva. (2020). Preoperative Preparation Of Elderly Patients With Concomitant Hypertension In The Practice Of Ophthalmic Surgery. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 2(11), 8–15. https://doi.org/10.37547/TAJMSPR/Volume02Issue11-02
14. Kurbonov N. Z., Raxmatov F.I., Giyosov N., & Pardaev Sh.K. (2021). Optimization Of Anesthesia During Simultaneous Operations. Texas Journal of Medical Science, 3, 52–54. Retrieved from https://www.zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/545
15. Kh, G. N., Kurbonov, N., Kh, K. E., & Matlubov, M. M. (2022). Optimization of Anesthesiological Approach for Recurrent Ventral Hernia in Obesity Patients. Texas Journal of Medical Science, 8, 10-14.
16. Kh, G. N., Kurbonov, N., Rakhmatov, F. I., Kh, K. E., & Matlubov, M. M. (2022). OPTIMIZATION OF ANESTHESIOLOGICAL APPROACH FOR RECURRENT VENTRAL HERNIA IN OBESITY PATIENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 333-338.

КЎКРАК ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА ТЎСАТДАН ЎЛИМ СИНДРОМИ (адабиётлар шархи)

И.Л.Шарипов
Самарқанд Давлат тиббиёт университети

Аннотация. Кўкрак ёшдаги болаларда тўсатдан ўлим синдроми(КЁБТЎС) (лат. *mors subita infantum*, англ. *sudden infant death syndrome, SIDS)* - ташқаридан соғлом гўдак ёки 1 ёшгача бўлган болачада нафас тўхташи оқибатида тўсатдан рўй берган ўлим, бунда аутопсия ўлим сабабини аниқлай олмайди. Айрим ҳолларда КЁБТЎС ни “бешикдаги ўлим” деб аташади, чунки ўлим олдидан ҳеч қандай белгилар бўлмасдан, кўпинча уйқу вақтида рўй беради. КЁБТЎС хавф омиллари 2 та асосий гуруҳга бўлинади:ўзгартирилиш мумкин бўлган ва ўзгартирилиши мумкин бўлмаган. КЁБТЎС танотогенези асосий гипотезалари метаболизм, иммунологик мос келмаслик, серотонинэргик дисфункция, кардиоген механизм тўғма нуқсонлари ҳисобланади.

Таянч сўзлар: Кўкрак ёшдаги болалр, Кўкрак ёшдагида болаларда тўсатдан ўлим синдроми, КЁБТЎС, уйқу,хавф омиллари.

Аннотация. Синдро́м внеза́пной сме́рти у детей грудного возраста (свсгв) внезапная смерть от остановки дыхания внешне здорового младенца или ребёнка до 1 года, при которой вскрытие не позволяет установить причину летального исхода.

Иногда СВСГВ называют «смертью в колыбели», поскольку ей могут не предшествовать никакие признаки, часто ребёнок умирает во сне. Факторы риска при СВСГВ делятся на 2 основные группы: и немодифицируемые. Основными гипотезами танатогенеза при СВСГВ является врождённые дефекти метаболизма, иммунологическая некомпетентность, серотонинергическая дисфункция, кардиогенные механизмы.

Ключевые слова: младенцы, синдро́м внеза́пной сме́рти у детей грудного возраста , СВСГВ, сон,факторы риска.

Annotation. Sudden death syndrome in infants (SDSI) is a sudden death from respiratory arrest in an apparently healthy infant or child under 1 year old, in which an autopsy does not determine the cause of death. Sometimes SDSI is called "cradle death" because it may not be preceded by any symptoms, often the child dies in his sleep. Risk factors in SDSI are divided into 2 main groups: modifiable and non-modifiable. The main hypotheses of thanatogenesis in SDSI are congenital defects and metabolism, immunological incompetence, serotonergic dysfunction, and cardiogenic mechanisms.

Key words: infants, sudden infant death syndrome, SDIS, sleep, risk factors**.**

Кўкрак ёшдаги ўлими-бу ҳар бир мамлакат аҳолиси соғлигини, ҳаёт ва турмуш даражасини баҳолайдиган кўрсатгичлардан бири ҳисобланади.Бу демографик кўрсатгични моҳияти шундаки, Кўкрак ёшдаги ўлими 14 ёшгача бўлган болалар ўртасидаги ўлимда етакчи ўринни эгаллайди[1].

Охирги йилларда тиббиёт хизматини такомиллашиб бориши туфайли болалар ўртасидаги ўлим кўрсатгичи камаймоқда.Буни сабаби эса биринчи навбатда перинатал даврда янги самарали диагностик технологияларни жорий этилиши ва болаларда реанимацион ва интенсив терапия хизматини ривожланиб бораётганлиги билан тушинтириш ўринли[1].

Кўпгина МДХ мамлакатларидаги статистик маълумотларга кўра преморбид анамнез ва патологоанотомик аутопсия Кўкрак ёшидаги болалар орасидаги тўсатдан ўлим синдроми (ТЎС) сабабини аниқлашда етарли маълумот беролмаяпти. Болалар ўртасида кузатиладиган шифохонадан ташқари ўлим ҳолатини сабаби бу ТЎС ҳисобланади[1].ТЎС жаҳон миқёсида болалар ўртасида перинатал ва туғма нуқсонлар туфайли ўлимдан сўнг 3 -чи ўринда туради[2,3].

ТЎС болалар ўртасида Бутун жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан АҚШ мамлакатида 1974 йилдан бошлаб, Россия Федерациясида эса 1994 йилдан бошлаб рўйхатга олиш бошланган.

МДХ давлатларида, хусусан Россияда муаллифлар -Воронцова М.М., Кальменсону И.А., Цензирлинг А.В. ва бошқалар томонидан КЁБТЎС ни сабаблари 2 та асосий гуруҳга бўлинган[6].

I-гуруҳ: ўлган болаларда касалликни клиник ва патологоанотомик белгилари аниқланмайди.Буларда бактериологик, серологик ва иммунологик текширишлар натижаси манфий чиқади.Бундайҳолатларда асосий ва ягона диагноз бу ТЎС бўлиб қолади.

II-гуруҳ: ўлган болаларда клиник белгилар йўқ ёки ўлимдан олдин кам намоён бўлган яллиғланиш вирусли касаллик ёки енгилбошқа касаллик топилади.Бу вақтда ТЎС-га топилган ҳамроҳ касаллик аҳамиятга эга бўлади.

Номаълум сабабли ТЎС 1 ёшдан кейин Кўкрак ёшдагида кам учраши аниқланган[9]. Кўпгина четэллик олимларнинг фикрларича кўкрак ёшдаги болалар ўртасидаги ТЎС ва 1 ёшдан кейинги Кўкрак ёшдаги ўртасидаги ТЎСни орасида 3 та фарқ тафовут қилинади:

1.Чақалоқларда ТЎС кўп учрайди: яъни 100мингтирик чақалоқлардан 38.7 та ўлим кузатилади, 1 ёшдан кейинги ТЎС эса 1,4-1,8 та ўлим 100 минг тирик болаларга нисбатан кузатилади.

2. Чақалоқларда 1 ёшгача бўлган даврда,1 ёшдан сўнги Кўкрак ёшдагида эса кўпинча 1-4 ёшда ТЎС учрайди.

3. Чақалоқларда ТЎС ни ривожланиш сабаблари: онасини чекиши,боланиниг нафас йўлини она кўкрак бези билан буғилиб қолиши, чақалоқларни қорни билан ётқизилиши натижасида буғилиши. 1 ёшдан сўнги болаларда эса бу сабаблар инкор этилади.Бундан келиб чиқадики 90% ТЎС чақалоқларда 6 ойгачабўлган даврда- пик (энг хавфли) давр эса 2-4 ойлик ҳисобланади[6,11].

Кўкрак ёшдагида тўсатдан ўлим синдромини хавф омиллари

Чақалоқларда хавф омиллар таъсир қилиш хусусиятига қараб 2 гуруҳга бўлинади.Ўзгартирилиш мумкин бўлган ва ўзгартирилиши мумкин бўлмаган омиллар.

Ўзгартирилиши мумкин бўлган омиллар:

1.Уйқу вақтида чақалоқларни қорин соҳаси билан ётқизиш.Статистик маълумотларга кўра XX асрнинг охирларида ТЎС чақалоқларда қорин соҳаси билан ётқизилганда 3 марта кўп кузатилиши маълум. Шундан сўнг 1996-2000 йилларда Америка педиатрлар акадамеясини мутахасислари барча ёш оналар ва чақалоқларни парваришловчи шахсларга қорин билан эмас, балкиёнбош ёки орқаси биланётқизиш тавсия этилади.Натижада Америка ва Европа давлатларида 3 ёшгача бўлган ТЎС 20-50% камайган[12,13].Ҳозирги вақтда эса бутун жаҳонда болани қорин сохаси билан ётқизиш ТЎС энг юқори хавф омили деб тан олинган[14].

2.Чақалоқни онаси билан бир тўшакда ётиши. Буюк Британияда 20 йиллик маълумотни ўрганиб чиқилганда ТЎС чақалоқларда юмшоқ диванда онаси билан ётганда,онаси маст ҳолатда бўлганда онасинингкўли остига қолиб кетганда, озиқлантириш вақтида сут бези билан нафас йўлини буғилиши, онаси сигарета чекганда тутуни билан заҳарланиш ҳолатлари кузатилган[3,16,19]. Қайси чақалоқни онаси ҳомиладорлик вақтида ва туғруқдан кейинги даврда наркотик ва алкогол моддалар истеъмол қилса ТЎС хавфи анча юқори эканлиги аниқланган[3,4].

3.Юмшоқ ётоқ жиҳозлари - кўрпалар, юмшоқ ёстиқ, катта хажмли юмшоқ болалар ўйинчоқлари (айиқчалар,қўғирчоқлар) ҳам ТЎС-хавф туғдиради [3,4].

4.Чақалоқни чала туғилиши. Чала туғилиш,кам тана вазнлилик билантуғилган болалар ўртасида соғлом ва етилиб туғилган чақалоқларга нисбатан ТЎС 4 марта кўп учрайди[5,6,20].

Ўзгартирилиб бўлмайдиган хавф омиллари.

-Чақалоқни чала туғилиши натижасидаги заифлик ҳолати.

-Ёшига қараб мос ривожланмаслик.

-Экзоген стресс омили.

Гудакларнинг тўсатдан ўлим синдроми профилактикаси

КЁБТЎС сонини пасайтиришда асосий ютуқлар модификацияланган хавф факторлари назорати ўрнатилганлиги билан боғлиқдир.2016 йилда Америка педиатрлар академияси КЁБТЎС ни уйқу билан боғлиқ хавфни камайтиришда янги тавсияларни ишлаб чиқди[41].

1. Кўкрак ёшдагини 1 ёшгача уйқу вақтида қатъиян чалқанча ётқизиш.Ёнбош ётқизиш хавфсиз эмас ва тавсия ҳам қилинмайди.Чала туғилган чақалоқларни ҳам чалқанча ётқизиш зарур. Агар гудак чалқанча ҳолатдан қорнига ағдарилса ёки қориндан чалқанчага шу ҳолатда ухлашига халақит бермаслик.

2. КЁБТЎС ёки гўдак буғилишини хавфини пасайтиришда уйқу учун қаттиқ текис жойда,масалан кўрпача устидан чойшаб билан ёпилиши ортиқча

тўшак қўшимчаларисиз ёки юмшоқ предметларсиз (ёстиқ, юмшоқ ўйинчоқлар ва б.қ.).

3. Кўкрак сути билан овқатлантиришни она томонидан қарама қаршиликлар бўлмаса,максимал муддатга сақлаш,асосан кўкракдан эмизиш ёки соғиб бериш (ҳар хил бўтқалардан 6 ойгача фойдаланмаслик) [41].

4. Камида 6 ойгача гўдак ота-онаси хонасида алоҳида кроватда ётиши лозим.Бу билан тўсатдан ўлимни 50% га камайтириш мумкин [14].

5. Буғилиб қолиш хавфи бўлганлиги сабабли болача ухлаганзонага юмшоқ предметларни, тушак қўшимчаларини, кўрпа, ёстиқ,ўйинчоқларнияқинлаштирмаслик.

6. Бўш эмизакдан фойдаланиш ҳимоясамарасини беради, қайсиким ухлаб қолишда муҳимдир, ҳатто уйқу бошлангандан кейин эмизак тушиб кетганда ҳам аҳамиятини йўқотмайди.Бўш эмизакни ҳимоя механизми ҳанузгача номаълум, шунга қарамасдан экспертлар КЁБТЎС ривожланиш хавфини камайтиришда тавсия қилишади.Бўш эмизакдан фойдаланиш автаном кардиореспиратор назоратни яхшилаш эҳтимоли бор[41,42].

7. Онанинг ҳомиладорлик ва туғруқдан кейинги даврида чекиши тақиқланади. КЁБТЎС ривожланиш хавфи чекувчи ёнида гўдак ухласа,гарчи тўшакда чекмаса ҳам ошади.

8. Ҳомиладорлик ва туғруқдан кейинги даврда оналарга алкогол ва наркотикларни истеъмол қилиш тақиқланади.

9. Гўдакни исиб кетиши ва бошини урабқўйишга йўл қўйилмайди. Болачани кийинтириш атрофдаги муҳит ҳароратига мосланиб, катталарга нисбатан бир қават кўпроқ кийинтирилади.

10. Ҳомиладор аёллар маслаҳат поликлиникасида назоратда бўлиши лозим. Бунда врач тавсияларига амал қилиб, етарлича назорат учун бориб туриши керак.Эпидемиологик маълумотларга кўра КЁБТЎС ривожланиш хавфи туғруқгача мунтазам ёрдам олган оналар болаларида сезиларли даражада кам учрайди.

11. Кўкрак ёшдаги миллий эмланиш календарига асосан иммунизация қилиниши лозим.

12.КЁБТЎС дан ҳимоя ва ривожланиш хавфини камайтиришга бағишланган турли мосламалардан фойдаланмаслик.

13.КЁБТЎС ни профилактикаси учун қўлбола кардиореспиратор мониторлардан фойдаланмаслик. Илгари пайтларда бундай мониторлардан уйқу вақтидаги апноэни аниқлаб овозли сигнал беришда ишлатишган.Аммо кейинги текширувлар шуни кўрсатадики бунда аниқ корреляция йўқ.

14.Гўдакни кундузги вақтда қорингa ётган пайтда назорат қилиш тавсия қилинади.

15.Қаттиқ йўргаклашдан эҳтиёт бўлиш керак.Болачанинг физиологик эҳтиёжига қараб индивидуал равишда йўргаклаш керак. Агар болача ағдарилиб ётишни эпласа йўргаклаш шарт эмас.

16.Кўкрак ёшдагига қаровчи тиббиёт ходимлари ва бошқа кишилар уйқудаги хавфсизлик қоидаларини ўрганиши ва унга қатъий амал қилиши лозим.Тиббиёт ходимларикўкрак ёшидаги болаларни кўришга боришганда ушбу қоидаларни тавсия қилишлари керак.Болаларни хавфсиз ухлаш жойи бўлмаган оилалар арзон ёки бепул кроватлар билан таъминланиши мақсадга мувофиқ.Шифохоналардаги Кўкрак ёшдаги бўлимларида ҳамухлаш учун хавфсизлик чораларикўрилиши зарур.

17.Барча оммавий ахборот маълумотлар тарқатувчи жумладанфильмлар, телевидения, журналлар, газеталар веб-сайтлар ва б.қ.“хавфсиз уйқу қоидаларини” тарғиб қилишлари керак.

18. Кўкрак ёшдаги болачаларни хавфсиз уйқусини таъминлаш борасида давлат таълими мавзулари Кўкрак ёшдагига қаровчилар жумладан ота-оналар, ота-она ҳуқуқини олганлар, тарбиячилар, момо ва боболар, ёлланган қаровчилар йўналтирилган бўлиши керак. Бундан ташқари компания кўкрак сути билан озиқлантириш, тамаки ҳидидан ҳимояланишни тарғибот қилиши лозим.Хавфсиз уйқу тавсиялари камида ҳар 5 йилда қайта кўрилиб,ёш ота-оналарни ўргатишга қаратилган бўлиши керак.

19.КЁБТЎС хавфи ва патофизиологик механизмларига оид текширувларни давом эттириш билан бу синдромни бутунлай йўқотиш муҳимдир.Рўй берган ҳар бир ҳолатни ташқи ва ички текширувлар,айниқса мияни чуқур текшириш, рентгенологик ва метаболик тестлар,токсикологик скрининг ўтказиш зарур.

Шундай қилиб, КЁБТЎС профилактикаси долзарб бўлиб қолмоқда, айниқса кардиал ва респиратор механизмларни ўрганиш алоҳида аҳамиятга эга.Келажакда бу синдром патофизиологиясига янада аниқлик киритишда молекуляр –генетик механизмларни ўрганишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Баранов А.А., Альбицкий В.Ю., Намазова-Баранова Л.С. Смертность детского населения в России: состояние, проблемы и задачи профилактики .// Вопросы современной педиатрии. - 2020. - Т. 19. - № 2. - С. 96–106.
2. Воронцов И.М., Кельмансон И.А., Цинзерлинг А.В.Синдром внезапной смерти грудных детей.Ст-Петербург:Спец .лит.1995; -С.218.
3. Глуховец Б.И. Синдром внезапной смерти младенцев: методологические и патогенетические варианты диагноза // Вопросы современной педиатрии. - 2011. - Т. 10. - № 2. - С. 78–81.
4. Даминов Т.О., Холматова Б.Т., Бобоева Ў.Р. Болалар касалликлари.- Т., 2012.
5. Жониев С. Ш., Пардаев Ш. К., Муминов А. А. Использование модифицированного метода предоперационной подготовки и анестезии в хирургии щитовидной железы //International scientific review of the problems of natura ciences and medicine Boston. – 2019. – С. 177-189.

6. Жониев С. Ш. Гемодинамические аспекты при многокомпонентной общей анестезии в эндокринной хирургии //Medicus. – 2020. – №. 5. – С. 8-12.
7. Семенихин А. А., Матлубов М. М., Ким О. В. Оценка эффективности центральных (нейроаксиальных) блокад у пациенток с ожирением и сниженными коронарными резервами при абдоминальном родоразрешении //Регионарная анестезия и лечение острой боли. – 2016. – Т. 10. – №. 3.
8. Шарипов, И. Л. Оценка сочетанного применения методов экстракорпоральной детоксикации у детей с почечной недостаточностью / И. Л. Шарипов // Врач-аспирант. – 2012. – Т. 54. – № 5.2. – С. 332-341.
9. Шарипов Исроил Латипович Снижение интоксикации сочетанными методами экстракорпоральной детоксикации при почечной недостаточности у детей // Детская хирургия. 2014. №1.
10. Кельмансон И.А. Соотношение некоторых функциональных показателей детей первого года жизни с высоким риском развития синдрома внезапной смерти // Педиатрия. Журнал им. Г.Н. Сперанского. - 1989.- Т. 68. - № 9. - С. 111–113.
11. Filiano JJ, Kinney HC. A perspective on neuropathologic findings in victims of the sudden infant death syndrome: the triple-risk model. Biol Neonate. 1994;65(3–4):194–197. doi: 10.1159/000244052
12. Mitchell EA, Krous HF. Sudden unexpected death in infancy: a historical perspective. J Paediatr Child Health. 2015;51(1): 108–112.
13. Erck Lambert AB, Parks SE, Shapiro-Mendoza CK. National and State trends in Sudden Unexpected Infant Death: 1990–2015. Pediatrics. 2018; 141(3):e20173519.
14. Hauck FR, McEntire BL, Raven LK, et al. Research priorities in sudden unexpected infant death: An international consensus. Pediatrics. 2017; 140(2):e2016-2024.
15. Shapiro-Mendoza CK, Parks S, Lambert AE, et al. The Epidemiology of Sudden Infant Death Syndrome and Sudden Unexpected Infant Deaths: Diagnostic Shift and other Temporal Changes. In: SIDS Sudden Infant and Early Childhood Death: The Past, the Present and the Future. Duncan JR, Byard RW, eds. Adelaide (AU): University of Adelaide Press; 2018.
16. Byard RW. Sudden infant death syndrome — A “diagnosis” in search of a disease. J Clin Forensic Med. 1995;2(3):121–128.
17. Beckwith JB. Discussion of terminology and definition of the sudden infant death syndrome. In: Proceedings of the second international conference on causes of sudden death in infants. Bergman JB, Ray CG, eds. Washington: University of Washington Press; 1970. pp. 14–22.
18. Willinger M, James LS, Catz C. Defining the sudden infant death syndrome (SIDS): Deliberations of an expert panel convened by the National Institute of Child Health and Human Development. Pediatr Pathol. 1991;11 (5):677–684.

19. Rambaud C, Guilleminault C, Campbell PE. Definition of the sudden infant death syndrome. BMJ. 1994;308 (6941):1439.
20. Cordner SM, Willinger M. The definition of the sudden infant death syndrome. In: Sudden infant death syndrome. New Trends in the nineties. Rognum TO, ed. Oslo: Scandinavian University Press; 1995. pp. 17–20.
21. Mitchell EA, Becroft DMP, Byard RW, et al. Definition of the sudden infant death syndrome. BMJ. 1994;309 (6954):607.
22. Sturner WQ. SIDS redux: Is it or isn't it? Am J Forensic Med Pathol. 1998;19 (2):107–108.
23. Kurbonov N. Z., Raxmatov F.I., Giyosov N., & Pardaev Sh.K. (2021). Optimization Of Anesthesia During Simultaneous Operations. Texas Journal of Medical Science, 3, 52–54. Retrieved from https://www.zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/545
24. Kh, G. N., Kurbonov, N., Kh, K. E., & Matlubov, M. M. (2022). Optimization of Anesthesiological Approach for Recurrent Ventral Hernia in Obesity Patients. Texas Journal of Medical Science, 8, 10-14.
25. Matturri L, Minoli I, Lavezzi AM, et al. Hypoplasia of medullary arcuate nucleus in unexpected late fetal death [stillborn infants]: a pathologic study. //Pediatrics. 2002;109(3):e43.
26. Muratovich, Matlubov Mansur, et al. "Hemodynamic indicators in pregnant women with obesity of various degrees of expression." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, vol. 8, no. 2, 15 Jan. 2021
27. Matlubov Mansur Muratovich, YusupovJasurTolibovich, Mallayev Surat Sadullayevich, KhamrayevKhamzaHamidullayevich Optimization of anesthesiological assistance in women with arterial hypertension in hysterectomy // Достижениянаукииобразования. 2020. №5 (59).
28. Shapiro-Mendoza CK, Kimball M, Tomashek KM, et al. US infant mortality trends attributable to accidental suffocation and strangulation in bed from 1984 through 2004: Are rates increasing? //Pediatrics. 2009;123 (2):533–539.
29. IL Sharipov, JT Yusupov, BK XolbekovPersonalization and preventative premedication: used drugs value and efficiency //Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (02), 740-748
30. Sharipov, I. Hemodynamic gradations with combined use of extracorporal detoxification methods in children with renal failure / I. Sharipov, B. K. Xolbekov, B. R. Akramov // European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – Vol. 7. – No 3. – P. 2555-2563.

QORIN BO'SHLIG'I SIMULTAN OPERATSIYALARDA ANESTEZIOLOGIK YONDOSHUV SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonov Navruzbek Zayniddinovich

Pardayev SHukur Qo'yliyevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti anesteziologiya va reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi. O'zbekiston

Annotatsiya. Qorin bo'shlig'i organlarida simultan operatsiyalarni bajarishda ishonchli og'riqsizlantirish vositalarini ko'rib chiqiladi - jarrohlik bemorlarni davolashda eng muhim bo'g'inlardan biri, jarrohlik stressining og'irligi, behushlikning mintaqaviy usullaridan foydalanish, gipnoz komponenti, o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi, jarrohlikda anesteziya. , umumiy behushlik va opioidlarning kognitiv va psixomotor funktsiyalarga ta'siri; epidural anesteziyani umumiy anesteziya bilan birgalikda qo'llashda ta'minlangan ijobiy ta'sir.

Kalit so'zlar: jarrohlik stressi, asoratlar, gipnoz komponenti, anestetiklar va opioidlar, narkoz , narkoz komponenti, epidural analgeziya .

Аннотация. Рассматривается надежное обезболивание при симультанных операциях на органах брюшной полости - одно из важнейших звеньев в лечении хирургических больных, степень тяжести хирургического стресса, применение регионарных методов анестезии, гипнотический компонент, искусственная вентиляция легких, анестезия в хирургии, влияние общи анестетиков и опиоидов на когнитивные и психомоторные функции; обезпеченые положительные эффекты при использовании эпидуральной анестезии в сочетании с общей анестезией.

Ключевые слова: хирургический стресс, осложнения, гипнотический компонент, анестетики и опиоиды, наркоз, эпидуральная аналгезия.

Annotation. Reliable anesthesia during simultaneous operations on the abdominal organs is considered - one of the most important links in the treatment of surgical patients, the severity of surgical stress, the use of regional methods of anesthesia, the hypnotic component, artificial lung ventilation, anesthesia in surgery, the effect of general anesthetics and opioids on cognitive and psychomotor functions; secured positive effects when using epidural anesthesia in combination with general anesthesia.

Key words: surgical stress, complications, hypnotic component, anesthetics and opioids, anesthesia, epidural analgesia.

Ishning dolzarbligi. Aholining umr ko'rish uzunligining o'sishi, atrof-muhit omillarining salbiy ta'siri, noto'g'ri ovqatlanish va tashxis qo'yish darajasining oshishi tufayli so'nggi yillarda qo'shma jarrohlik kasalliklari ko'paymoqda. So'nggi tadqiqotlar bizga patogenetik jihatdan bir-biriga bog'liq va tasodifiy bo'lgan turli xil organlar va tizimlarning kasalliklari kombinatsiyasida yangi qonuniyatlarni topishga imkon berdi. 2021- yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

statistik ma’lumotlarni e’lon qildi, unga ko’ra jarrohlik bilan davolanadigan bemorlarning 25-30 foizida bir yoki bir nechta kasallik mavjud. Shu bilan birga, ushbu toifadagi bemorlarga zaruriy tibbiy yordam ko’rsatish va maksimal tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaraga erishish uchun haqiqiy imkoniyatlarga qaramay, hozirga qadar bunday bemorlarning atigi 1,5-6 foizi bir vaqtning o’zida jarrohlik aralashuvlardan o’tmoqda Simultant operatsiyalarning sonini juda kamligi turli sabablar bilan izohlanadi: operatsiyadan oldingi davrda bemorlarning to’liq tekshirilmaganligi, qorin bo’shlig’i a’zolarining operatsiya davomida intraoperativ tekshiruvi, bir vaqtning o’zida operatsiyalarni o’tkazish imkoniyatlaridan foydalanganda operatsion xavf darajasini tasdiqlash va Jarrohlikning noto’g’ri natijasi, jarrohlik aralashuvining hajmini kengaytirish uchun jarrox va anestezistlarning psixologik tayyor emasligi

Ishning maqsadi: Turli xil qorin bo’shlig’isimultant operatsiyalarida anezteziologik yondoshuv samaradorligini o‘rganish

Material va tekshirish usullari: Tekshirish uchun qorin bo’shlig’ida simultan operatsiya o’tkazgan xirurgik bemorlardan 80 nafari o'rganildi. Ularning yoshlari 35 dan 72 yoshgacha (o’rtacha 54.6 +- 6.6): erkaklar - 45- 42,5%, ayollar - 61-57.5% ni tashkil qildi. Bemorlar simultan operatsiya xarakteriga ko'ra quyidagicha taqsimlandi: gemigastrektomiya va xolestistektomiya – 29 bemor, jigardan exinikokkektomi va xolestistektomiya -16, gemiolaparotomiya va xolestistektomiya – 18 bemor, germiolaparotomiya va gistercktomiya 17 nafardan iborat. Asosiy guruhdagi (46 bemor) bemorlar operatsiyalarida ko'p komponentli umumiy va epidural anesteziya (EA) bilan kombinatsiya qilinib o'tkazildi. Epidural bo'shliq punktsiyasi va kateterizatsiyasi umumiy qoidalar asosida standart premedikatsiyadan 30-40 daqiqadan keyin bajarildi. Punkstiya sohasi bajariladigan operatsiya bo'ladigan a'zolarni hisobga olgan holda tanlandi. Mahalliy izobarik anestetik longokain (Ukraina) 0,5% -1,5 mg/kg hisobidan qo"llanildi. Nazorat guruhidagi 34 bemorga shu xildagi operatsiyalarda total vena ichi anesteziyasi O'SV fonida bajarildi. Umumiy anestetik sifatida ketamin 5-6 mg/kg/soat, tiopentalnatriy 3-5 mg/kg/soat, NLA preparatlari va miorelaksant arduan 0,04-0,06 mg/kg/soat dozalarda sarflandi. Operatsiya va undan keying dastlabki davrda umiy klinik va bioximik tahlillar bilan birgalikda EKG (Geolik EKZT – 12 - 01, Yaponiya). EXO - KG (ACCUVIX QX, Medison. Yaponiya). AQB (sistolik. diastolik, o'rtacha), YUUS, spirometriya (Spiro Com Standard, XAI - MEDIKA, Xarkov, Ukraina) pulsoksimetriya (SpO2) (MPR6 – 03 - «Triton» Rossiya) tekshirildi. Anesteziya effekti gemodinamik ko'rsatgichlar, glikemiya miqdori. Operatsiyadan keyingi davrda esa vizual – analog shkala (VASH) yordamida baholandi.

Natijalar

Tekshirilayotgan ko’rsatkichlar	Guruhlar	Tadqiqot bosqichlari				
		1-	2-	3-	4-	5-
sisAQB, mm.sim.ust	Asosiy guruh	134,8± 12,6	138,4± 11,5	126,2± 9,7	121,6± 8,2	122,1± 9,3
	Nazorat	137,3±	141,6±	138,1±	148,1±	137,5±

	guruh	15,2	16,1	17,3	12,8	11,9
diasAQB, mm.sim.ust.	Asosiy guruh	82,2± 10,2	82,8± 8,1	76,8± 4,8	75,3± 5,8	76,3± 6,1
	Nazorat guruh	89,6± 11,2	82,4± 12,9	91,5± 11,3	89,1± 10,1	82,4± 9,6
YuQS, 1 minda	Asosiy guruh	76,1± 5,7	98,5± 4,9*	79,3±8,2	77,8± 5,6	76,3± 5,1
	Nazorat guruh	72,9± 8,1	98,8± 10,1*	97,9± 11,4*	91,6± 8,7*	89,7± 7,2
BE, mmol/l	Asosiy guruh	-1,1± 0,7	—	-1,8±0,3	—	-2,1± 0,2
	Nazorat guruh	-1,2± 0,3	—	-3,1±0,8*	—	-3,7± 0,4*
Diurez, o'rtacha ± SD, ml/soat	Asosiy guruh	47,2 ± 2,7	58,4 ± 2,9	59,5 ± 2,8	58,9 ± 2,9	
	Nazorat guruh	48,2 ± 3,2	48,1 ± 3,5	49,3 ± 3,2	48,6 ± 3,3	
SpO2, %	Asosiy guruh	—	97,8±1,7	97,6±2,1	97,9±1,7	98,1± 1,4
	Nazorat guruh	—	96±3,8	95,6±3,4	96,8±2,1	96,6± 2,3

Bemorlar operatsiya va anesteziya xavfi ASA bo'yicha II-III darajada baholandi. Tekshirilgan guruh bemorlariga EA bajarilgandan keyin AQB 15-20% ga pasayishi, YuUS 5% ga oshishi kuzatidi. SpO2 96-98 % oralig 'ida qoldi. Anesteziologik qo'llanmaning kompenti sifatida EA qo'llanilishi tufayli asosiy guruhda fentanil sarfi 8-10 marta kamaydi.

O'rtacha AQB mazkur gunuhda operatsiyaning barcha etaplarida stabil saqlandi. Gemodinamikaning stabil holatida, adekvat mustaqil nafas tiklangandan keyin nazorat guruhiga nisbatan ertaroq ekstubastiya imkoniyati yaratildi. Asosiy guruhdagi bemorlarga operatsiyadan keyingi analgeziya sifatida epidural kateter orgali longokain eritmasi 0,5% - 5 ml (25 mg) dan har 6 – 8 soatda yuborildi. Nazorat guruhidagi 8 holatda opperatsiyadan keyingi davrda diskomfort; yaqqol og'riq sindromi, qorin damlashi, ko'ngil aynishi kuzatilib qo'shimcha og'riqsizlantirishni talab qildi. VASH buyicha analgeziya darajasi asosiy guruhda 0-1 ball, nazorat guruhda esa 3-4 ballni tashkil qildi.

Xulosa. Qorin bo'shlig'I a'zolari travmatik simultan operatsiyalarini bajarishda kombinatsiyali anesteziya intraoperatsion davrning silliq kechishini taminlaydi, sezilarli darajada narkotik analgetik va umumiy anestetiklar sarfini kamaytiradi va bemorni ertaroq uyg'onishiga olib keladi. Operatsiyadan keyingi epidural analgeziya bemorni ertaroq aktivlashtirib, reanimastiya va intensiv terapiya bo'limida bo'lishini kamaytiradi, demak iqtisodiy samaradorligi ham bor.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Berdikyan, A.S. Intraoperativ gipotermiya: sabablari, patogenetik ahamiyati, oldini olish / A.S. Berdikyan, A.V. Marchenko // Reanimatsiya byulleteni. - 2002. - No 1. - S. 36-44.

2. Bolotov, V.V. Uyg'onish darajasining gomeostatik determinantlari va ularning operatsiyadan keyingi davrni bashorat qilishdagi roli: muallif. dis. ... Cand. asal. Fanlar: 14.00.37 / Bolotov Viktor Vasilevich. - Krasnodar, 2000 .- - 21 p. 4
3. Bunyatyan, A. A. Anesteziologiya: milliy etakchilik / A. A. Bunyatyan, V. M. Mizikov. - M.: GEOTAR-Media, 2013. - S. 112-113. 24. Koryachkin, V. A. Neyroaksial blokada / V. A. Koryachkin. - SPb. : Elbi-SPb, 2013 .-- 544 b.
4. Bunyatyan, A.A. Anesteziologiyada bemor xavfsizligi muammosi /A.A. Bunyatyan, E.V. Flerov, I.I. Shitikov // Anesteziologlar va reanimatologlarning 4 -Umumrossiya Kongressi materiallari . - 1994 yil .-- S. 39.
Сунъий феромон кучли аттрактант ҳисобланади, яъни у табиий капалакка нисбатан бир неча бор кучли жалб этиш хусусиятига эга. Ҳар бир тур ҳашарот учун маълум структура ва тузилишга эга бўлган ўзининг феромони мавжуд. Амалиётда феромон тутқичи ёрдамида айни ҳашарот ривожланишини белгилаб, зарур кураш усули учун тараддуд кўриш имконияти яратилади. Бу эса биринчидан, ўз вақтида кураш олиб бориш ҳисобига зарарнинг олдини олишга, иккинчидан беҳуда ишлов ўтказишга чек қўйиш имконини яратади. [7,8,9]

Феромон тутқичлари тутқич, елимли ёпишгич, темир сим, ёғоч қозиқ ва феромон моддаси сингдирилган резина капсуладан иборат бўлади.

Тутқич(ловушка). Феромон тутқичларнинг кўп турларини учратиш мумкин. Боғдорчиликда учбурчак шаклидаги картондан ясалган энг қулай бўлса, пахтачиликда тунламларга қарши 2-3 хил, бир-биридан кам фарқ қиладиган тутқичлар тавсия қилинган. Кўп йиллик кузатишларимиз натижаларига кўра, пахта майдонларида ғўза тунламига қарши энг қулай

тутгич «Аттракон» типидаги тутқичларнинг такомиллаштирилган ва қайта ишланган «Аттракон-узбекский» тутқичи ҳисобланади.

Бу тутқич ккўп жиҳатлари билан талабга жавоб беради. Бу тутқичлар 2 қисмдан иборат бўлиб, бир-бирига темир сим орқали бирлаштирилади. Тутқичнинг капалак кирадиган тўрт томонидаги оралиқ қушларнинг киришига имкон бермайдиган баландликда бўлади. Тутқичга кириб ёпишган капалакларнинг қушлар томонидан чўқиб кетилиши тунлам тўғрисида тўғри хулоса чиқаришга имкон бермаслиги мумкин. [10, 11, 12]

Елимли ёпишгич. Тутқичларнинг остки қисмига капалакларни илинтиришга мулжалланган махсус елим суртилган қоғоз қўйилади. Капалак кўпайиб кетиши ва сатҳи чанг билан қопланиши оқибатида елим ёпишқоқлигини йўқотади. Шунинг учун уни янгилаб туриш керак. Елим сингиб кета олмайдиган махсус қоғозларга суркалади.

Бир ёпишгичга 1-2 мм қалинликда елим суртилиб, иккинчи шундай тоза қоғоз билан ёпиб қўйилади. Дала шароитида ёпишгичлар бир-биридан ажратилиб тутқичларга қўйилади, яъни 2 дона ёпишгич тайёр ҳолатда бўлади. Елимни ёғочдан тайёрланган куракчалар ёрдамида осон суриш мумкин. Ёпишгичларни тутқичларга жойлаштиришни осонлаштириш учун бир томондан марказгача кесиб қўйилади.

Ёпишгичларни алмаштиришда қисқич(пинцет)дан фойдаланилади. Елимни бир томони плёнка билан қопланган (ламинация қилинган) картон қоғозларга суртиш лозим. Умуман, бу қоғозлар намни ва елимни ўтказмаслиги керак. [13]

Елим. Феромон тутқичларида бошқа елимлардан фарқли бўлган, узоқ вақт қуриб қолмайдиган, ёпишқоқлик хусусияти кучли ва яхши сақланадиган елим ишлатилади. Бу елим юқори ҳарорат остида ҳам кам таъсирланади. Ҳозирги пайтда бундай елим Тошкентда ишлаб чиқарилади.

Темир сим. 3-5 мм йўғонликдаги темир сим 15-20 см узунликда кесиб олинади ва ёғоч қозиққа каноп ип ёки алюмин сим билан маҳкамланади. Маҳкамлашда ёғоч қозиқнинг устки қисмидан сим 10-12 см кўтарилиб туришини таъминлаш керак. Ана шу қисмига тутқич кийгизилади.

Ёғоч қозиқ. Феромон тутқичларни ўрнатишда ипак қуртини боқишдан қолган тут дарахти навдаларидан фойдаланиш қулайдир. Тут новдаларининг эгилмаганлари танлаболиниб, 130-150 см узунликда кесилади. Новданинг бир томони ўткирланади ва қозиқ ҳолига келтирилиб, ерга суқишга мосланади.

Иккинчи томонига эса темир сим боғланади. Ёғоч қозиқ ер сатҳидан 100-120 см баланд қилиб ўрнатилади, унга ҳеч қандай кўндаланг зиналар қоқиб қўйиш шарт эмас, чунки исботланганки, ер сатҳидан 2 м баландликда тунлам капалакларнинг учиши (илиниши) бир хил бўлиб, у экинга яқинлигига боғлиқ эмас. [14,17]

Феромон моддаси сингдирилган капсула. Феромон юқорида айтиб ўтганимиздек, «жалб қилувчи» ёки «чорловчи» модда бўлиб, унинг жуда

кичик миқдори (1-2 мг) кўп эркак капалакларни чақириши мумкин. Феромон моддасини ишлатиш учун уни ҳар хил резина ёки полимер воситаларга шимдирилади. Кейинчалик модда атрофга ҳаво орқали аста-секин тарқала бошлайди. Резина трубка 15-20 мм узунликда қирқилган бўлиб, ҳар бир бўлаги ўз таркибида 2 мг феромон сақлайди. (ғўза тунлами учун) феромон резина трубка бўлагининг ички сатҳи очиқ бўлишига эришиш лозим.

Трубка тешигидан ҳавонинг ўтиб туриши феромоннинг атрофга тарқалишини таъминлайди. Феромонлар сингдирилган резина трубка 1 мм ли сим ёрдамида тутқичнинг марказий қисмига осиб қўйилади. Бу ўринда скрепкадан (қоғоз қистирғич) фойдаланиш ўринлидир. Феромонлар сингдирилган резина трубкани жойлаштиришда горизонтал ҳолатини таъминлашга ҳаракат қилиш керак. [15, 19]

Феромонлар очиқ ҳавода 10-15 кун давомида ўз кучини йўқотади. Шунинг учун уларни оғзи яхши беркитиладиган идишларга солиб уй совутгичларида сақлаш лозим. Совутгичларда сақланган феромонлар 1-1,5 йил давомида ўз кучини йўқотмайди.

Феромон тутқичларини далага ўрнатиш. Феромон тутқичлар қўлланиш мақсади ва экин турига қараб турли миқдорда ўрнатилади. Ғўза экилган майдонларда феромон тутқичлари тунламларининг ривожланишини аниқлаш қўлланилади. Шу мақсадда ҳар 4-5 гектар ғўза майдони ҳисобига 1 дона тутқич ўрнатиш мақсадга мувофиқдир.

Ғўза тунлами юқорида таъкидлаб ўтилганидек, асосан ғўзанинг ўсиш нуқтасига тухум қўяди. Демак тутқич айнан капалак тунда учиб юрадиган баландликда жойлашган бўлади. Иккинчи томондан тутқичларнинг юқорида жойланиши унинг ичида ҳавонинг осон айланишига, оқибатда феромон ҳидининг яхши тарқалишига имконият яратади. [16, 18]

Ғўза тунламининг феромон тутқичларини ҳар бир вилоят ёки туман шароитига боғлиқ ҳолда, зараркунанданинг биринчи бўғини пайдо бўлиши олдидан ўрнатиш лозим. Бу пайт ғўзанинг ялпи шоналаш даврига, яъни одатда июннинг биринчи ўн кунлигига тўғри келади. Бу даврга келиб, ғўза тунлами капалаги ғўза майдонларига учиб ўта бошлайди ва урчиб тухум қўйишга киришади. Ўз вақтида ўрнатилган феромон тутқичлари ҳар бир далада капалакнинг пайдо бўлиши ҳақида аниқ маълумот бериши кўп йиллик кузатишлар асосида исботланган.

Дала дафтари. Ғўза тунлами учун феромон тутқичларини ва бошқа турдаги феромон тутқичларини қўллашда аниқ ҳисоб олиб бориш ва барча маълумотларни дафтарга қайд этиш зараркунандага қарши тўғри кураш воситаларини танлашга имконият яратади. Бунда ҳар ғўза майдони учун ёки зараркунандалар бир хилда тарқалган майдонлар учун алоҳида ҳисоб олиб борилади.

Феромон тутқичларига тушган капалак сони ҳар бир бўғиннинг бошланишидан тугашигача ҳар уч кунда бир санаб ёзиб борилади. Капалак учиши ёппасига бошланган кундан бошлаб эса ҳар куни назорат қилиниб,

елимли фиксатор янгиланади. Капалакларнинг ёппасига учиш даври тутқичларига 10 ва ундан ортиқ капалак илиниши билан белгиланади. Иккинчи томондан, феромон тутқичларга капалаклар ёпишгач, улар одатда елимдан қутилишга ҳаракат қилишади. Оқибатда елим сатҳи қаттиқ ифлосланади, елимнинг кучи камайиб, бошқа капалаклар ёпишмай қолишига сабаб бўлади. [12, 20]

Натижада олинган маълумотлар шу даладаги зараркунанда сонини тўғри ифодаламайди. Далада ғўза тунламининг зичлигини (сонини) ҳар 3-5 кунда бир назорат қилинади. Бунинг учун унинг тухум ва қурти сони Ўсимликларни ҳимоя қилиш илмий тадқиқот институти тавсияларига кўра, шахмат тартибида даланинг 20 жойидан намуна олиш билан бажарилади. Бунда ҳар бир намунада 5 ўсимлик кўрилади ва қуртлар ёши бўйича 3 гуруҳга бўлиниб ёзилади. [1,5,10]

Тадқиқотларимизнинг асосида қуйидаги хулосалар олиниб, таклифлар ишлаб чиқилди.

1.Ғўза тунлами биринчи бўғинининг ривожланиши даврида тутқичга бир кеча давомида ўрта ҳисобда 2-3та капалак илингандан кейин 5-6 кун ўтгач ҳамда иккинчи ва учинчи бўғинларда 1,5-2 та капалак тутилгандан кейин 3-4 кун ўтгач, далага трихограмма чиқара бошлаш керак.

2. Ҳар бир феромонли тутқичда биринчи ва иккинчи бўғинлардан тун давомида ўрта ҳисобда 15-20 та ва ундан кўпроқ капалак ёки учинчи бўғиндан 5-6 та капалак тутилиши зарракунанда хавфли ҳолатда жуда кўпайиб кетишидан дарак беради, бу майдонларни ҳимоя қилиш чораларини ўтказиш зарурати туғилади. Бироқ бунда қуйидагилар кузатилган бўлиши керак:

А. Жуда кўпайиб кетган (15-20 дан ошган) капалакларнинг илиниши камида 5-6 кун давом этса;

Б. Тун давомида ҳар бир тузоқда 5-6 та капалак тутилиши учинчи бўғин учун жиддий нуфуз ҳисобланади, чунки бу ҳолда зараркунанданинг учинчи бўғинидан ташқари, ғўза тунламининг олдинги бўғини тухум ва қуртлари ҳам қўшилиб кетади.

3. Капсуладаги феромонлар тез буғланиши сабабли, уларни совутгичлар $3\text{-}5^0$ ҳароратда зич ёпилган шиша банкаларда, зарқоғоз ёки полиэтилен пакетларда сақланади. Қўлга ва бошқа нарсаларга юққан елимни ўсимлик мойи билан ҳўлланган пахта ёки дока тампони билан, шунингдек мойли буёқ учун мўлжалланган кимёвий эритгичлар билан тозаланади. Ҳашаротли фиксаторлар, шунингдек, феромонли капсулаларни кўмиб юбориш ёки махсус ажратилган жойда куйдириш керак.

4. Ғўза тунламига қарши феромонли тутқичлар қўллаш натижасида трихограмманинг биологик самарадорлиги ошади ҳамда кимёвий ишлов беришлар ҳажми қисқаради. Бу эса ҳар гектар ғўза майдонида мавсумда 8-12 минг сўм харажатни тежаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари. Ш.Т.Хўжаев, Э.А.Холмурадов. Тошкент “Фан” нашриёти – 2009 йил.
2. Муродов С.А. Умумий энтомология курси. – Тошкент, “Меҳнат”, 1986- 271 б.
3. Олимжонов Р.А.Энтомология - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1977 – 275 б.
4. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё Қишлоқ хўжалиги зараркунандалари, - Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962- 693 б.
5. Алимуҳаммедов С.Н. Хўжаев Ш.Т. Ғўза зараркунандалари ва уларга қарши кураш – Тошкент: “Меҳнат”, 1978 (1 нашр)
6. Алимуҳаммедов С.Н. Адашкевич Б. Одилов З.К. Хўжаев Ш.Т. ғўзани биологик усулда ҳимоя қилиш. – Тошкент. Мехнат, 1990- 172 б.
7. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги ўсимликлари ҳамда маҳсулотларининг зараркунандалари ва уларга қарши кураш – Тошкент “Ўрта олий мактаб”, 1962- 693 б.
8. Ҳамроев А.Ш. Ҳасанов Б.О. Очилов Р.О. Азимов Ж.А. ва бошқ. Ғалла ва шолини зараркунанда, касалликлар ва бегона ўтлардан ҳимоя қилиш. Т., 1999-122 б
9. Mirzakhalilovich, Y. M., Nabibullaevich, K. F., & Abdulazizovna, K. B. (2021). Ecological-geographical distribution of aphids (*Homoptera aphidinea*, *Aphididae*) in the fergana valley.
10. Юнусов, М. М., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2021). Қаттиққанотлиларни йиғиш ва улардан коллекциялар тайёрлаш. Scientific progress, 1(4), 103-107.
11. Mirzaxalilovich, Y. M., & Nabibullayev, X. F. (2022). Asalarilarda parazitlari keltirib chiqaradigan kasalliklar. Theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 478-480.
12. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). Farg ‘Ona Vodiysining Ayrim Dendrofil Shiralari (*Homoptera, Aphidoidea*) bioekologiyasi. Academic research in educational sciences, 2(6), 1289-1299.
13. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley. O ‘zbekiston biologiya jurnali, 36.
14. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш. (2021). Качественный и количественный анализ некультивируемых рыб в выростных прудах рыбхоза «наманган балык». Academic research in educational sciences, 2(5), 726-733.
15. Mukimov, M. K. A., Mirzakhalilov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. The American Journal of Applied sciences, 3(05), 140-047.

16. Муқимов Мухаммад Карим Адхамович, Мирзахалилов Мираббос Мирзакарим Ўғли, Назаров Мухаммадрасул Шаропович, & Шарипова Барно Салимовна (2022). Сравнительная Оценка Морфобиологических Показателей *Амурского Чебачка (Pseudorasbora Parva*) Как Инвазивного Вида. Science and innovation, 1 (D2), 50-54. doi: 10.5281/zenodo.6596120
17. Ахмаджонова Садокатхон Шокировна, Хамзаев Рафик Азимович, & Халимов Фазлитдин Закирович (2019). Трофические связи Agriotes meticulosus (*Coleoptera*: *Elateridae*) в естественных и искусственных биоценозах. Бюллетень науки и практики, 5 (7), 20-27.
18. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Биология фанини ўқитишда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш. Общество и инновации, 2(4/S), 42-45.
19. Ахмаджонова, С. Ш., & Рахимова, Д. Х. (2020). К экологии щелкунов (*Coleoptera*, *Elateridae*) Ферганской долины. Общество и инновации, 1(2/S), 319-322.
20. Marupov, A. A. (2021). Biology and harmfulness of long-beetled beetles (*Coleoptera*: *Cerambycidae*) flowing on poplars. Scientific Bulletin of Namangan State University, 3(1), 56-61.

ЖИНСИЙ ФЕРОМОНЛАРДАН ТУНЛАМЛАРНИ ЗАРАРИНИ КАМАЙТИРИШДА ФОЙДАЛАНИШ

Ахмаджонова Садоқат Шокиржоновна
Фарғона давлат университети, б.ф.н. катта укитувчи
sadoqatxonaxmadjonova1974@gmail.com

Аннотация. Ҳозирги вақтда Ўзбекистон шароитида ўсимликларнинг зараркунандалардан ҳимоя қилишга қаратилган тадбирлар ичида жинсий феромонлардан фойдаланиш салмоғи камлиги, шу усулни тарғиб этиш орқали ўсимлик зараркунандалари камайтиришдаги самарадорлик кўрсаткичлари тўғрисида маьлумот берилади.

Калит сўзлар: Фиксатор, дезориентация, атмосфера, популяция, ферамон, стериилиянт, фитономус, куя, интегирациялаш, объектлар, биоценотик, агротехник, энтомофаг, акарифаг, микробиологик, биолаборотория, трихограмма, апантелс, бракон, кокцинеллид, тунлам, механизация.

Аннотация. В настоящее время в условиях Узбекистана среди мероприятий, направленных на защиту растений от вредителей, использование половых феромонов имеет малое значение, приводятся сведения о показателях эффективности снижения вредителей растений путем популяризации этого метода.

Ключевые слова: Фиксатор, дезориентация, атмосфера, популяция, феромон, стерилиант, фитономус, моль, интеграция, объекты, биоценотические, агротехнические, энтомофаги, акарифаги, микробиологические, биолаборатории, трихограмма, апантели, бракон, кокцинеллида, совка, механизация.

Annotation. Currently, in the conditions of Uzbekistan, among the measures aimed at protecting plants from pests, the use of sex pheromones is of little importance, information is provided on the effectiveness of reducing plant pests by popularizing this method.

Key words: Fixer, disorientation, atmosphere, population, pheromone, sterilant, phytonomus, moth, integration, objects, biocenotic, agrotechnical, entomophages, acariphages, microbiological, biolaboratories, trichogramma, apantels, bracon, coccinellida, skoop, mechanization.

Кириш. Ўсимликларни зараркунандалардан ҳимоя қилишга қаратилган тадбирларга шу экинларни кўпгина касалликлардан, шунингдек бегона ўтлардан сақлашга доир тадбирлардан ажратган ҳолда ёндашиб бўлмайди. Ҳозирги вақтда ўсимликларни уйғунлаштирилган химоя қилиш (интеграциялаштирилган) тизими яратилган бўлиб, бу тизим бир қатор тадбирлари йиғиндисини ўтказишни назарда тутади.

Экинларни зараркунанда, касаллик ва бегона ўтлардан муваффақиятли равишда сақламоқ учун мазкур тадбирлар муайян мақсадга қаратилган ҳолда мунтазам амалга ошириши лозим.

Бундан мақсад – етиштириладиган ҳосилни ҳимоя қилишда агробиоценозлардаги зарарли ва фойдали турларнинг бузилган нисбатини тиклаш, яъни ўсимликни уйғунлаштириш (интеграциялаш деганда лотинчасига интеграре - *тиклаш, тўлдириш* тушунилади) йўли билан ҳимоя қилиш, яъни ўсимликлар бардошлилигини оширишга қаратилган қулай шароит яратилиб, зараркунанда, касаллик ва бегона ўтларнинг ривожланишига тўсиқлик қиладиган шароит вужудга келтириш, шунингдек карантин қилинадиган объектларнинг четдан келиб қолишига йўл қўймасликдир. [1,2,3]

Ўсимликларни зараркунанда ва касалликлардан уйғунлаштирилган усулда сақлашнинг муқаддам ҳимоялаш тадбирларидан фарқ қиладиган асл янгилик томони шундаки, М.Н.Нарзикулов, Ф.М.Успенский, Г.А.Викторов (1979) ва бошқаларнинг таъкидлашича, масалага биоценотик йўл билан ёндашилиб, ўсимликларни ҳимоялаш ҳал қилинганда фақат жиддий зарар етказадиган айрим турларгина ҳисобга олинмай, балки ўзаро бир-бирига боғлиқ бўлган мавжудотлар уларнинг миқдорига жиддий таъсир этишини ҳам эътиборга олинади. [4.6]

Ҳозирги вақтда Ўзбекистон шароитида ўсимликларнинг зараркунандалардан ҳимоя қилишга қаратилган тадбирлар ичида жинсий феромонлардан фойдаланиш салмоғи камлигидир, ҳозирги вақтда бу тадбирлар ўсимликларни уйғунлаштирилган ҳимоя қилиш тизимига алоҳида эътибор берилмаган. Бу тизим бир қатор тадбирлар йиғиндисини ўтказишни назарда тутади.

Зараркунанданинг зарарини сезилмайдиган даражага камайтириш имконини берадиган феромон ишлатиш усуллари мавжуддир. Капалакларни кўплаб тутиш ёки уларни дезориентация қилиш (чалғитиш) шулар жумласидандир. Феромонли тутқичларда инсектицид аралашмалари ёки стерилазаторлар (бепушт қилиб қўювчилар) қўллаш ва ҳоказолари истиқболлидир.[5,13]

Эркак капалакларни кўплаб овлаш ва феромонли тузоқларга жалб қилиш орқали уларни урғочилари билан учрашувига йўл қўйилмайди. Эркак капалакларни кўплаб тутиб урғочиларнинг маҳсулдорлиги камайиши ва қўйилган тухумлар стериал (пуч) бўлиб қолишига эришилади.

Бу усулни бирор турга қарши қўллашда бир неча омилларни чунончи капалакларни жойдан-жойга учиб ўтиш қобилиятларини ҳамда ҳар бир турнинг неча бор жуфтлашиши мумкинлигини ҳисобга олиш лозим. [7, 12]

Олиб борган махсус тадқиқотларимиз асосида ва уларнинг натижаларини адабиёт манбалари маълумотлари билан таққослаган ҳолда қуйидаги хулосаларга келинди :

1. Зарарли тунламлар ҳамда бошқа зараркунандалар ўртача ва кам нуфузли бўлган йилларда “эркак капалакларни йиғиш” усули бир вақтнинг ўзида катта майдонларда ишлатилгандагина натижа бериш мумкин.

2. Зараркунанданинг ҳар бўғини ривожланишидан 3-5 кун олдин ҳар гектарига 8-12 дона тутқич қўйилади.

3. Фиксаторлар ўз вақтида алмаштирилиб турилганда яхши натижа олинади.

4. Тунлам капалакларининг жойдан-жойга кўчиб ўтиш қобилияти юқори бўлганлиги сабабли ҳамда жинсларнинг нисбати 1:1 атрофида бўлганда бу усул зарарланадиган экинларни тўла ҳимоя қилинишини таъминлай олмаслиги мумкин. Шундай қилиб, муайян шароитларда ҳамда унга қўйиладиган талаблар аниқ адо этилгандагина самара беради.Эркак капалакларни дезориентациялаш (чалғитиш) усули анча такомиллашган ҳисобланади. Майдонлар атмосферасини тунламнинг синтетик феромони билан тўйинтиришдан иборат бу усул шу жиҳатдан истиқболлики, у популяция зичлигига кам даражада боғлиқ бўлиб, уни механизациялаш ва айни вақтда катта майдонларда қўллаш имкониятини беради. Феромоннинг ҳаводаги қуюқлиги 10^5 молекулалар $см^3$ дозадан юқори бўлганида ҳашаротларни дезориентациялаш яхши натижа бериши тасдиқланган. [8, 17]

Зараркунанда популяциясининг ривожланиши давомида сунъий феромон шундай қуюқликда тутилиши керак. Шунинг учун бу ерда феромоннинг препаратив шаклларини танлаш энг бутун ривожланиш даври давомида моддаларнинг бир меъёрда тўлиқ буғланишини таъмин этмоғи керак. Феромон ташувчи сифатида ҳар хил материаллардан, жумладан резина халқача, уч қаватли полимер ленталар, фиброкапсулалар ва ҳоказолардан фойдаланилади. [9]

Табиийки, эркак капалакларни дезориентациялаш учун кўп миқдорда феромонлар сарфланади. У шу қадар каттаки, бу усулни амалда қўллаш муаммо бўлиб қолади. Масалан, И.Я.Гричановнинг (1985) маълумотларига кўра, ғўза тунлами капалакларини дезориентациялаш учун ҳар гектарга 20-25 г феромон талаб этилади. Бу муаллифнинг шундан иборатки, бунда тажриба майдони катта бўлмаган. [10,11]

Тутқичларда фойдаланиладиган елимли фиксатор ўрнига феромон-стериллиантлар, шунингдек феромон-инсектицид аралашмалари ёрдамида капалакларни қириш усуллари истиқболи ҳисобланади.

Б. **Баклашка тутқичлар** Пахтачиликда ғўзани кўсак қуртидан қисман ҳимоя қилиш мақсадида ҳашарот тутқичларнинг “қўлбола” воситаси – мослаштирилган “баклашкалар” 1995 йиллардан буён ишлатилиб келинмоқда.

Юқориси кесиб олинган баклашка ғўза шоналашга кирган пайкалга қалин қилиб узун қозиқларга ўрнатилади. Баклашка ичига махсус тайёрланган ачитқи эритма қуйилиб, ғўза тунламининг капалакларини жалб этишга мўлжалланади. Феромонли тутқичлардан фарқ қилган ҳолда, бундай тутқичга тунламнинг фақатгина эркак зоти эмас, балки урғочилари ҳам илиниши назарда тутилади. [14, 15]

Бу эса, ўсимликларни ҳимоя қилиш вазифасини тўғридан-тўғри бажаради. Бу усул рационализаторлик таклифи бўлиб, илмий томондан тасдиқланмаган ҳолда жорий этилган эди. Кейинчалик олиб борилган илмий тадқиқотларимиздан шу нарса аён бўлдики, баклашка усули олдига қўйилган вазифани тўлиқ бажара олмаган ҳолда, қисман зарари бор.

Яъни унга кўпроқ ўзга ҳашаротлар илиниб (қўнғиз, пашша, капалаклар) тунламлардан эса кўпроқ илдиз кемирувчиларнинг эркак зоти илинган. Ғўза тунламининг капалаклари (эркак ва урғочиси) жуда оз миқдорда (бошқа ҳашаротларга нисбатан 2-11%) илинган. Бундан ташқари илинган ҳашаротларнинг 18-44 % ини фойдали ҳашаротлар (олтинкўз, хонқизи) ташкил этган. [16, 20]

Баклашка усулини жорий этишга анчагина маблағ талаб этилади. Оддийгина ҳисоблаб кўриш шуни кўрсатадики, ҳар бир баклашкага 100 сўмдан сарфланганда мавсум мобайнида (3 ойда) 1 гектар ерга 15-16 минг керак бўлади.

Шундай қилиб, илмий нуқтаи назаридан “баклашка” усули ўзини оқламаслиги исботлаб берилди.

В. Электр фотоспектрли тутқич. 2003-2004 йиллари асосан Андижон вилоятининг мутахассислари ва раҳбарияти томонидан Хитой ХДР дан электр фотоспектарли ҳашарот тутқичлари келтирилиб қўлланила бошланди.

Асосий мақсад – ғўза тунламига (кўсак қуртига) қарши курашиш учун унинг капалакларини йиғиб ўлдириш. Ушбу тутқичнинг изоҳини ўқиганингизда ҳақиқатда ҳам бунга амин бўласиз, чунки унда электр ёрдамида ёнадиган махсус лампа бўлиб, унинг шуъласи мақсадга мувофиқ равишда мўлжалланган ҳашаротнигина жалб этиши керак. Аммо амалда ундай бўлиб чиқмади. [18]

Икки йил мобайнида Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятларининг далаларида ўтказган махсус кузатувлардан шу нарса аён бўлдики, июнь-июль ойларида ҳар бир тутқичга бир кечада 0,5-1,5 кг турли ҳашарот намуналари илинган. Илинган ҳашаротларнинг ичида 13-35 та ғўза тунламининг капалаги бўлса, қолганининг кўп қисмини қўнғизлар, пашшалар, чивин, тўрқанотлилар, парда ва ярим қаттиқ қанотлилар ташкил этган. [19]

Буларнинг орасида агробиоценозда энтомофаг вазифасини бажарадиган турлари ҳам кам эмас. Масаланинг бошқа томони ҳам аҳамиятлидир. Яъни табиатда турли ўсимлик гуллари айни ҳашаротлар орқали чангланади. Ғўза ҳосилдорлиги ҳам ёввойи ва маданий ариларнинг етарлича бўлганлига боғлиқ.

Хулоса, килограммлаб ҳашаротларни йиғиб ўлдириш табиатни заифлаштириб, ҳосилдорликни пасайтириб юборади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари. Ш.Т.Хўжаев, Э.А.Холмурадов. Тошкент “Фан” нашриёти – 2009 йил.

2. Муродов С.А. Умумий энтомология курси. – Тошкент, “Меҳнат”, 1986- 271 б.
3. Олимжонов Р.А.Энтомология - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1977 – 275 б.
4. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё Қишлоқ хўжалиги зараркунандалари, - Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962- 693 б.
5. Алимуҳаммедов С.Н. Адашкевич Б. Одилов З.К. Хўжаев Ш.Т. ғўзани биологик усулда ҳимоя қилиш. – Тошкент. Мехнат, 1990- 172 б.
6. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги ўсимликлари ҳамда маҳсулотларининг зараркунандалари ва уларга қарши кураш – Тошкент “Ўрта олий мактаб”, 1962- 693 б.
7. Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A. (2006). Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley. O ‘zbekiston biologiya jurnali, 36.
8. Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш. (2021). Качественный и количественный анализ некультивируемых рыб в выростных прудах рыбхоза «Наманган балык». *Academic research in educational sciences*, 2(5), 726-733.
9. Ахмаджонова, С. Ш., & Каюмова, О. И. (2021). Биология фанини ўқитишда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш. Общество и инновации, 2(4/S), 42-45.
10. Ахмаджонова, С. Ш., & Рахимова, Д. Х. (2020). К экологии щелкунов (*coleoptera*, *elateridae*) Ферганской долины. Общество и инновации, 1(2/S), 319-322.
11. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). Farg ‘ona vodiysining ayrim dendrofil shiralari (*Homoptera*, *Aphidoidea*) bioekologiyasi. Academic research in educational sciences, 2(6), 1289-1299.
12. Mirzakhalilovich, Y. M., Nabibullaevich, K. F., & Abdulazizovna, K. B. (2021). Ecological-Geographical Distribution Of Aphids (*Homoptera aphidinea, Aphididae*) In The Fergana Valley.
13. Mukimov, M. K. A., Mirzakhalilov, M. M., & Nazarov, M. S. (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. The American Journal of Applied sciences, 3(05), 140-047.
14. Юнусов, М. М., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2021). Қаттиққанотлиларни йиғиш ва улардан коллекциялар тайёрлаш. Scientific progress, 1(4), 103-107.
15. Ахмаджонова Садокатхон Шокировна, Хамзаев Рафик Азимович, & Халимов Фазлитдин Закирович (2019). Трофические связи Agriotes meticulosus (*Coleoptera*: *Elateridae*) в естественных и искусственных биоценозах. Бюллетень науки и практики, 5 (7), 20-27.
16. Муқимов Мухаммад Карим Адхамович, Мирзахалилов Мираббос Мирзакарим Ўғли, Назаров Мухаммадрасул Шаропович, & Шарипова

Барно Салимовна (2022). Сравнительная оценка морфобиологических показателей амурского чебачка (*Pseudorasbora parva*) как инвазивного вида. Science and innovation, 1 (D2), 50-54. doi: 10.5281/zenodo.6596120

17. Ахмедов, М. Х., & Ахмаджанова, С. А. (2011). К экологии щелкунов (*Coleoptera, Elateridae*) ферганской долины. Аспирант и соискатель, (2), 157-159.
18. Mirzaxalilovich, Y. M., & Nabibullayev, X. F. (2022). Asalarilarda parazitlari keltirib chiqaradigan kasalliklar. Theory And Analytical Aspects Of Recent Research, 1(5), 478-480.
19. Юлдашева, Ш. (2010). Влияние почвенно-климатических условий на биологию и распределение ореховых вредителей. In Актуальные проблемы энтомологии: Материалы научно-практической конференции. Фергана (p. 7).
20. Marupov, A. A. (2021). Biology and harmfulness of long-beetled beetles (*Coleoptera*: *Cerambycidae*) flowing on poplars. Scientific Bulletin of Namangan State University, 3(1), 56-61.

XXI ASR BIOLOGIYA ASRI

Ernazarova J.X.

Kenjayeva S.N.
JDPI akademik litseyi

Annatatsiya.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida tabiiy fanlarning tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Ushbu masalalarga oid bilimlarni beruvchi ta’lim yo‘nalishi hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtiruvchi sohalardan biri biologiya fanidir. Zero biologiya fani tabiat tizimidagi organizmlar, jumladan, kishilar va ularning atrof – muhit bilan munosabatlariga doir tushuncha, voqelik, hodisa va jarayonlarni tadqiq quluvchi fandir. Organizmlar ayniqsa, kishilik jamiyati yashar va rivojlanar ekan, uning faoliyati muqarrar ravishda atrof - tabiat bilan bevosita yoinki bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham yurtboshimizning tabiat unsurlari yoki majmualariga qarata aytilgan har bir so‘zlari ekologik holat va ekotizimlar xavfsizligiga borib taqaladi. Ekologik xavfsizlik esa eko tizimlarning ya’ni organizmlar yashaydigan tabiiy muhitning abiotik, biotik va antropogen omillar ta’sirida turli ko‘lam hamda tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan va ularning davomiyligidan saqlanganlik holatidir.

Kalit so'zlar: biologiya, o’qitish metodikasi, ekologiya, o’qitishning dolzarb muommolari, zamonaviy biologiyaning yutuq va kamchiliklari.

«BIOLOGIYA» fanining dolzarbligi va o‘qitish strukturasi. Biologik bilim negizida rivojlanadigan ekologik bilim mamlakatimizda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, Respublika Konstitutsiyasida ham qayd etilgan. Asosiy qonunimizda: “Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, - deb ta’kidlangan.

Zero, ekologik xavfsizlikni nafaqat mahalliy, balki milliy, mintaqaviy va global miqyosda ta’minlashga har bir kishi hissasini qo‘shmog‘i kerak.

Insoniyat va jamiyatlar rivojida kelajak avlod milliy va umumbashariy moddiy meros va boyliklarning yuqori ahamiyati haqida tasavvurga va bilimga ega bo‘lishi kerak:

- Biologiyaning predmeti, tushunchalari, tarkibiy qismlari, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini;
- O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini ta’minlash imkonini beruvchi tuzilmani vujudga keltirish, uning milliy mustaqillikni mustahkamlash va milliy taraqqiyotdagi ahamiyatini;
- globallashuv jarayonlari va ekologik tahdidlarni;
- ekologik ma’naviyatdagi milliy va umuminsoniy jihatlarini;
- uning tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy zaminlarini, inson ekologik ma’naviyati shakllanganligining asosiy mezonlarini bilishi kerak.

Ekologik ma’naviyat inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan birini tashkil qiladi. U millat abadiyligini va mamlakat taraqqiyotini ta’minlashdagi

ustuvor omil hisoblanadi. SHuning uchun ham birinchi Prezidentimizning “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ekologik ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir – oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.»[8] - deb ta’kidlaganligi bejiz emas. Uning ana shu muhim roli va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, milliy - ma’naviy tiklanish, yoshlarni yuksak ma’naviyat sohibi va barkamol inson qilib tarbiyalash mustaqillik yillarida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Bu dasturni tuzishda hisobga olinishi kerak bo‘lgan birinchi masala bo‘lsa, ikkinchidan, mamlakatimiz taraqqiyoti va milliy tiklanishimizning hozirgi bosqichida yuzaga kelgan yangi dolzarb masalalardan kelib chiqqan holda o‘quvchi yoshlarni ekologik ma’naviyatini rivojlantirish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalashning yangi uslublari va omillarini izlab topish hamda ularni dasturda aks ettirish ham zarur bo‘ladi.

O‘qitishning maqsad va vazifalari

Jamiyatimizda ta’lim-tarbiya tizimini sog‘lom insonparvarlik yo‘nalishida qayta tashkil etish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, barkamol, ma’naviy dunyosi boy, axloqiy pok, komil insonlarni tarbiyalash kechiktirib bo‘lmaydigan, davlat ahamiyatiga, millat kelajagiga molik vazifa bo‘lib turibdi. «Biologiya» fanini o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimida o‘qitilishi ham ana shu muhim vazifani amalga oshirilishiga xizmat qilmog‘i lozim.

Umumiy biologiya fani hayotning fan o‘rganadigan hamma rivojlanish darajalariga doir asosiy qonunlarni o‘z ichiga oladi:

- Biologik jarayonlar va xodisalarning mexanizmlari sohasidagi ajobiy kashfiyotlar bilan tanishtiradi.
- Odamning biosferada tutgan o‘rnini va uning biosfera uchun javobgarlik hisini uyg‘otadi.
- Integratsiyalovchi ahamiyatga ega.
- Ilgari o‘rganilgan va organik olamning asosiy qonuniyatlariga bo‘ysunadigan faktlar tarixiy naqtai nazardan sistemalashtiradi.
- Rivojlanish jarayonlarining dialektik xarakterini (irsiyat va o‘zgaruvchanlik xodisalarning, progress va regressning, assemilyasiya va dissimilyasiya va boshqa protsesslarning o‘zaro qarama-qarshiligini) tushunishni o‘rgatadi.

-Hayot va butun organik olam xodisalarining moddiy xarakterda ekanini faktlar asosida izohlaydi.

- Tabiat g‘oyat xilma-xil va murakkab bo‘lishiga qaramay uni bilish mumkin ekanligi haqida asosli dalillarga ega bo‘ladi.

[8] Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008. 4-бет.

-O‘quvchilarni falsafiy masalalarga yaqinlashtirib, ularda dunyoqarash fikrlarini shakllantiradi.

- Organik olam uchun umumiy bo‘lgan va hozirgi vaqtda insoniyat oldida turgan eng zarur muammolarni o‘z ichiga oladigan hayot qonuniyatlarini o‘rgatadi.

- Qonunlarni bilish asosida tabiatdan oqilona foydalanish, uni qo‘riqlash va ko‘paytirish kabi malaka va ko‘nikma shakllanadi.

- Tabiat va jamiyat hodisalarini to‘g‘ri izohlash qobiliyatini hosil qiladi.

- O‘z ish faoliyatida bio ekologik ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ko‘nikma vam alakasini shakllantiradi.

Biologiya fanini rivojlantirish istiqbollari shundan iboratki, bu fan odamzotga uni oziq-ovqat bilan ta’minlashga, kasalliklarni bartaraf etishga, umrni uzaytirishga, uning hayotini ta’minlovchi tabiat ne’matlarini qayta hosil qilishga, boshqa har qanday fandan ko‘ra ko‘proq bag‘ishlangandir.

Biologiya qonuniyatlarini bilish natijasida tabiatni muhofaza qilish, biosferani ifloslanishidan saqlash ayniqsa, irsiy kasalliklar, mutatsiyalar (ichkilikbozlik, chekish, giyohvandlik, ahloqsizlik natijasida kelib chiqadigan kasalliklar)ning oldini olish imkonlari, uy hayvonlarning selmahsul zotlarini yaratish, ekinlarning serhosil navlarini yaratish kabi vazifalarni amaga oshirish uchun biologik bilimning ko‘nikma va malakalari shakllanishi zarur.

Ma’lumki, ekologik buzilishlar yaqin qarindosh-urug‘larning nikohlanishi, turmush tarziga to‘liq rioya qilmaslik va boshqa sabablarga ko‘ra tug‘ilgan bolalarning o‘sishi va rivojlanishida irsiy, yurak qon – tomir sistemasi, ruhiy (nevroz) kasalliklar, nafas va ovqat hazm qilish organlarida surunkali kasalliklar ko‘plab uchramoqda, bunday muamolardan tashqari oldimizda tabiatning qayta hosil qiluvchi kuchlarini buzmagan, balki butun choralar bilan unga ko‘maklashgan holda “Uning resurslardan qanday foydalanish mumkin?” degan katta muammo turibdi. Bu kabi muammolar esa biologiya fanining nazariy bilimlariga asoslangan holda amaliyot asosida kengroq o‘rganishni taqazo etadi.

Hozirgi davrda hamma sohada fanning o‘rni va mavqei tobora ortib bormoqda, Yangi texnika va texnologiyaga keng yo‘l ochish, uni malakali boshqara oladigan va ayni chog‘da ekologik madaniyatni o‘zida mujassamlantirgan, ma’naviy barkamol kadrlarga ijtimoiy talab tobora ortib bormoqda.

Ma’lumki, ilmiy - texnika inqilobining ijtimoiy tabiiy oqibatlari butun taraqqiyparvar insoniyatni jiddiy tashvishga solayotgani sir emas. Binobarin, ro‘y berayotgan fan va texnika rivojini har bir jamiyat ekologik muhitini sog‘lomlashtirish bilan uzviy bog‘liq holda borishini ta’minlash favqulodda muhim vazifalardan biridir

O‘quvchilarimiz xalqimizning boy tabiiy boyliklar merosini umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan uyg‘un holda o‘rganib o‘zlarida ijobiy ma’naviy-ma’rifiy sifatlarni shakllantirishlari lozim.

Inson va tabiatning uyg‘unligini ta’minlashga jamiyat va tabiat o‘zaro ta’sirining muvofiqlashtirishga qaratilgan ahloqiy, umuminsoniy qadriyatlarga

asoslanish tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishga qaratilgan harakatlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi g‘oyalar, xulosalar tizimi ekologik mafkurani tashkil etar ekan, O‘zbekistonning milliy mafkurasi ham inson va tabiat munosabatlarini, ularni garmonizatsiyalash, ya’ni tabiatni muhofaza qilish vazifasini o‘z ichiga oladi.

O‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi. Biologiya fani avvalo o‘quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqada.

Biologiya o‘quv fani sifatida o‘z maqsadi, vazifalari, ob’ekt, uslubiyati, uslubi vositalariga suyanib ish ko‘rish bilan birga fizika, kimyo, geografiya, tibbiyot, falsafa, estetika, madaniyatshunoslik, pedagogika, milliy istiqlol g‘oyasi kabi fanlar va Fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur fan inson ma’naviy-intelektual o‘sishida, ijtimoiy munosabatlarning ma’naviy-axloqiy, hodisaviy asoslari kabi masalalarda uslubiyat, uslubiy va mazmunan bir-birini to‘ldirib kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa ma’naviy yuksak komil insonning muhim mezonlaridan biri ekologik mafkura mustahkam bo‘lishi, millati maqsad va manfaatlarini to‘liq anglagan bo‘lishi lozimdir.

Hozirgi zamon biologiyasining umumiy me’zonlari. XX asr fani insoniyatga qator shunday ixtirolar sovg‘a qildiki ularning har biri jamiyatning madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim rol o‘ynab, sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarila oldi. Bularga «kompyuter», «atom», «Er yo‘ldoshi» va «gen» lar kiradi. Bu atamalar bir tomondan jamiyat taraqqiyotini yangi, yuqori bosqichlarga ko‘targan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ular sotsial-iqtisodda va tadqiqot izlanishlarda kompleks fanlarning shakllanishiga sababchi bo‘ldi.

DNK molekulasi haqida yangi ma’lumotlar . 1953 yilda AQSH biokimyogari Uotson va Angliya fizik olimi Krik tomonidan DNK molekulasining kashf qilinishi biologiya fanini butunlay o‘zgartirib yubordi. Bu mo‘‘jizakor molekulani ehtiyotkorlik bilan mexanik ravishda tortilganda DNK yana 2 marta uzayishi mumkin. Inson tanasi, to‘qima va a’zolarining shakllanishi uchun DNK molekulasida irsiy belgilarning kamida 3 milliard xili joylashgan bo‘lishi kerak. Bu kichik shriftda yozilgan 500 varaqli mingta kitobga joylashtirilgan kimyoviy ma’lumot hisoblanadi. To‘qima, a’zolarimiz, soch va terimizning rangi shakllanayotganda DNK ning replikatsiyasi asosida irsiy axborot hujayradan hujayraga ko‘chirilganda 500 varaqli 1000 ta kitob 20 minutda mutlaqo xatosiz ko‘chiriladi, DNK strukturasining aniqlanganligiga sal kam 50 yil bo‘lsa ham bu ajoyib molekulaning yangi-yangi sirlarini 2-3 yilda olimlar tomonidan kashf qilinmokda. Koinotning «qora qutisi» bundan 15-20 milliard yil ilgari «katta portlash» asosida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bo‘lsa, har qanday tirik jonzotning tiriklik faoliyati, uning botiniy, zohiriy ko‘rinishi va yashash muddati aynan shu DNK ga bog‘liq bo‘lganligi uchun uni zaminimizdagi hayotning «sirli sandig‘i» desak xato qilmaymiz. DNKni tirik jonzotning hayot tarzi rejalashtirilgan kompyutorni disketiga o‘xshatish mumkin.

Genomika fani. So‘nggi 10 yilda markazi AQSH da joylashgan «odam genomi» deb nomlangan xalqaro loyiha ta’sis etilgan. Bu rejaga asosan odamning genetik matni bo‘lgan 3 milliard nukleotidlarning ketma-ket joylanish tartibini sekvenirlash (aniqlash) yoki badiylashtirsak bu insonning hayot kitobini o‘qish demakdir. Bunday bahaybat, katta sonli genetik axborotni o‘qishni moddiy va texnikaviy vositalar tufayli amalga oshirish og‘ir. Robot, avtomatlar va EHM orqali genomni aniqlash 2003 yilga kelib ma’lum bo‘ldi. Odam genomi avval 50-100 ming gendan iborat deb qabul qilingan edi.Mazkur ilmiy ish asosida inson genomi 30-35 ming genlardan tashkil topganligi aniqlandi.

Hozirgi kungacha genlar haqidagi ma’lumotlar ularni yakka holda tadqiq qilish asosida olib borilgan. Oxirgi yillarda esa genetika fanida nukleotidlarning aloxida faoliyatidan farqli, keng qamrovli bo‘lgan majmuasini o‘rganadigan soha shakllanib, uni genomika deb yurgizila boshlandi. Olimlarni genlarning alohida faoliyatidan ko‘ra ko‘proq ularning o‘zaro, bir-birlariga ta’sir qiluvchi omillar natijasida bir butun yuritma sifatida ishlash tizimi qiziqtirib kelmokda. Genlarning bunday faoliyatini oydinlashtirishda biochip usuli qo‘l kelmokda (kibernetika sohasidagi mikrochiplarga o‘xshash). Bular kichik plastinkalar bo‘lib, minglab bir-birlaridan qatiy masofada o‘ta aniq asboblar orqali nuqtalar belgilanadi. Hujayraning qaysi holatida qanday gen faoliyat ko‘rsatishini mazkur biologik usul orqali kuzatish mumkin.

Genomdagi DNKning noma’lum tomonlaridan biri xromosomada uning juda ko‘p mikdorda bo‘lganligi bo‘lib, oqsil sintezida faqat bu molekulalarning 3-5 %i ishtirok etashi aniqlangan. Demak biz genning yoki DNK faoliyatining faqat 3-5% ni bilamiz xolos. Genlarning "ortiqcha" qismi haqida har xil fikrlar bo‘lib, molekulyar biologiya fanining asoschilaridan Nobel mukofotining sovrindori, DNK molekulasining strukturasini aniqlashda katta xizmat qilgan olim F. Krik DNK ning noma’lum qismini «chiqindi», «xudbin» deb evolyusiya jarayonida keraksiz bo‘lib to‘planib qolgan deb taxmin qilgan edi.

So‘nggi yillarda DNK ustidagi tadqiqot ishlari genning bu ortiqcha qismi har qanday ichki va tashqi omillarga o‘ta turg‘unligi, mutatsiyaga berilmaydiganligi va evolyusiya jarayoniga ularning aloqasi yo‘qligi aniqlandi. Nuklein kislotaning bu «chiqindi»si uning ajralmas qismi ekanligi aniq bo‘lsa ham, uning aniq faoliyati noaniq bo‘lib kelmokda edi. YAqinda rus olimlari DNK ning bu ortiqcha qismi ustida olib borgan tadqiqot ishlari uning bo‘lajak organizmning shakllanishida zamon va makon vazifasini bajaruvchi o‘ta kuchli «genetik kompyuter» vazifasini bajaruvchi omil ekanligi aniqlandi. Demak DNKning bu «chiqindi»si bo‘lajak organizmning shakllanishida ishtirok etadigan va genetik axborotlarni zahirada saqlovchi magnit tasmasi desak xato bo‘lmaydi.

Genomika sohasining rivojlanishi mikrobiologiya fanining katta yutuqlarni qo‘lga kiritishiga sababchi bo‘ldi. 20 dan ortiq biologik turlarning genomi aniqlandi. Bularga xavfli va yuqumli kasallik tarqatuvchi (sil, tepkili terlama, oshqozon yarasi va hokazo) mikroorganizmlar kiradi. Patogenli bakteriyalarning

genom strukturasini aniqlash ularga qarshi vaksinalar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Genomika fanining rivoji tibbiyot genetikasining taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilib, irsiy kasalliklarning yuritmasini aniqlashda qo‘l kelmoqda. Genomika usuli inson shaxsini ko‘rsatgichlari orqali o‘ta yuqori aniqlik bilan belgilash va uning hozirgi kunda amaliyotda qo‘llanilayotganligi jamiyat taraqqiyoti uchun ijobiy hodisadir.

Kriminalistika fani biror shaxsning aybdor yoki aybdor emasligini aniqlovchi genomli usul yoki genli daktiloskopiya bilan boyidi. Mazkur usul uchun, tomchi qon, sochning bir tolasi, tirnoqning kichkina bo‘lagi, terlaganda ajralgan suyuqlikning qoldig‘i, sperma, so‘lak, qazg‘oq bo‘lsa bas, bular qaysi shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatishi mumkii. Bulardan tashqari odamlar o‘rtasidagi qarindoshchilik, farzandning ota yoki onasiga aloqadorligini yoki aksincha, aloqasi yo‘qligini genom usuli bilan o‘ta yuqori aniqliqda belgilash mumkin.

Genomika fani hozirgi kunda jamiyat tarixi, etnografiya, lingvistika va boshqa gumanitar-ijtimoiy fanlarga kirib bormoqda. Bunday sohalarga biologiya fanining tarmoqlari bo‘lmish antropologiya, paleontologiya va evolyusiya nazariyalari ham jalb qilinmokda.

Tarix fanidagi bahsli muammolar, jumladan qadimda ayrim qabila va elatlarning kelib chiqish manzillari, millatlarga aloqadorligini aniqlashda tarixchi olimlar emas, balki nechog‘liq aniq to‘g‘rilashda tarixchi olimlarning fikri bilangina emas, balki genom usullari bilan ham hal qilinishi mumkin ekanligini ko‘rsatmokda. Har bir millat, elatlarning genomida ularga tegishli muayyan genlar aniqlanib (markerli genlar), ularning mikdoriga qarab ayrim axborotga ega bo‘lish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, bunday biologik rejalar hozirgi kundagi insoniyat o‘z oldiga qo‘yayotgan fazoni o‘zlashtirish programmasidan ham o‘zining mohiyati va ahamiyati bo‘yicha kam bo‘lmasdan, uning amalga oshirilishi ancha arzonga tushishi bilan farqlanib, bu rejalar XXI asrda zaminimizdagi har bir shaxsga aloqadorligi bilan qimmatlidir.

Tabiatda keng tarqalgan viruslarni begona genlarni tashuvchi shpritsga o‘xshatish mumkin. Ular hujayraga yaqinlashib o‘z genetik ashyosini xuddi ukol qilgandek yuboradi. Begona genni qabul qilgan hujayra kasallanib, tuzalishi yoki halok bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda virus geni hujayra genomiga mustaqkam joylashib, uniig komponentiga aylanib o‘ziga o‘xshash viruslarni sintezlovchi makonga aylantiradi. SHunday kilib viruslarga tadqiqotchi xoxlagan genni joylab u tufayli hujayra genomiga o‘tkazish mumkin. Demak viruslar begona genlarni tirik hujayraga transduksiya qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Begona genlarni sun’iy yo‘l bilan bakteriya va hayvonlarning xujayralariga yuborishning bir necha usullari mavjud. Masalan, rak kasali bilan kasallangan odam shishidagi DNK si ajratib sichqondan ajratilgan hujayralarga laboratoriya sharoitida yuborilganda gonomi o‘zgarib, transformatsiyaga uchragan hujayralar paydo

bo‘lgan. Aynan shu rak kasalini tarqatuvchi hujayralarni sichqonga yuborilganda ularda saratonga xos shish paydo bo‘lgan.

Transgenli o‘simlik va hayvonlarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. Oxirgi yillarda Amerika va Evropadagi ayrim firma xodimlari transgenli (begona genli) hayvon va o‘simliklarni yaratmokdalar.

Parazit, zararli zamburutlar tufayli kasallik tarqatuvchi organizmlarga qarshi, turg‘un immun tizimi yuqori bo‘lgan transgenli o‘simlik navlari etishtirilmokda. Bakteriyalardan hashoratlarga qarshi sintezlanuvchi oqsil geni ajratilib uni no‘xat genomiga kiritilganda unda hashoratlarga qarshi sintezlanadigan oqsil hosil qiluvchi yangi nav etishtirildi. Bu hashoratlar mazkur o‘simlikning ildiz, poya yoki bargini kemirsa o‘sha daqiqalarda halok bo‘ladilar.

Belgiyalik tadqiqotchilar Evropa bozoriga har qaiday garbitsidlarga chidamli karam navi bilan kirmoqdalar. Ekilgan maydonga har xil gerbitsid sepilsa o‘sib chiqqan begona o‘tlarning hammasi halok bo‘lib, ko‘rsatilgan karam navi esa bemalol o‘saberadi. Ayrim olimlar bunday navga qarshi chiqib, (ularning fikriga ko‘ra) ma’lum vaqtdan keyin mazkur karam navining aynan o‘zi Evropada begona o‘tga aylanadi, u bilan kurashish uchun yangi geninjenerlik usullarini qidirish kerak deydilar.

1994 yili Belgiyalik olimlar Xerman nomli transgenli buqa zotini etishtirdilar. Mazkur buqa genomiga ayol sutidagi oqsil genini joylashtira oldilar. Bu buqa «qizi»ning sut tarkibi ayollarnikiga yaqin keladi va yosh bolalar uchun sifatli ozuqa hisoblanmokda. Oddiy sigir sutida temir ionlarini tashuvchi oqsil juda kam. Xerman nomli transgenli buqa zotidan paydo bo‘lgan sigirlarda esa ko‘rsatilgan protein etarli miqdorda bor ekan. Agar yosh bolani ona sutidan ajratib ozuqa sifatida uzoq muddat sigir suti berilsa, ularda temir etashmasligi va kam qonlik kasalliklari kuzatilgan. Bu kasallikka Xerman buqaning «qiz» sigirlari yordam bera olishi mumkin.

Zararli genlarning faoliyatini to‘xtatish, buzish yoki ularning mahsulotlari bo‘lmish maqsadli RNK larni maqsadsiz nusxalari bilan almashtirib, saraton va virusli kasalliklarga qarshi kurash ishlari olib borilmokda.

Rakli hujayralarga alohida yoki genlar majmuasini yuborib ularning bo‘linishini to‘xtatish yoki ularni butunlay halok qilish (apostoz) usuli bilan rak terapiyasini amalga oshirish ishlari yo‘lga qo‘yilmokda.

1997 yili SHotlandiyalik professor YA. Bilmud somatik hujayralardan klonlashtirish usuli orqali laboratoriyada buzoqni hosil qilganligi haqida dunyoda shov-shuvga sababchi bo‘lgan xabarni e’lon qildi. Mazkur buzoq jinsiy yo‘l bilan emas, balki somatik xujayradan hosil bo‘lgani uchun sigirning avlodi bo‘lmay undan nusxa ko‘chirilishi yoki kserokopiyasi deb qaralmokda. Bu ilmiy ish olimlar o‘rtasida keskin tortishuvlarga sababchi bo‘lib, bir guruh tadqiqotchilar tajribaning tozaligiga shubhalanib, bunday ilmiy izlanishlarni tezda taqiqlashni da’vat qilmokdalar. 1997 yilning oxirlarida Xavay universitetining professori YA. Michuchi boshchiligidagi bir guruh olimlar

sichqonlarning somatik hujayralaridan klonlash tufayli 7 dona sichqonni laboratoriyada hosil qilganliklarini ilmiy jamoatchilikka e'lon qildilar.

1998 yilning iyun oyida Perdyu (AQSH) universitetining olimlari bitta sichqondan 50 dona uning «bola»larini klonlash yo'li orqali etishtirib laboratoriya sharoitida ko'rsatilgan hayvon bachadonida filning tuxum xujayrasi pishib etilganligi aniqlangan. Boshqacha aytganda filning dunyoga kelishida sichqon onalik vazifasini bajargan.

Ma'lumki, sichqon va fil oila, tur bo'yicha bir biridan uzoqda turuvchi hayvonlar bo'lib biologik qonunga ko'ra jinsiy yaqinlashishi mutlaqo mumkin emas. Har bir jonzot odatda begona, nojins to'qimani qabul qilmaydi. Sichqondagi biologik to'siqni engish uchun o'lgan fillardan jinsiy hujayrani ajratib tezlikda muzlatadilar. Kerakli joy va vaqtda muzlatilgan filning tuxum hujayralarini eritib bir nechta sichqon a'zosiga implantatsiya qilingan. O'nlab implantatsiya qilingan sichqonlarning ichida faqat bittasida urug' otalanib embrion rivojlana boshlagan.

Olimlar laboratoriya sharoitida oddiy sichqon organizmini har qanday hayvonni dunyoga keltirish uchun «fabrika» sifatida foydalanish mumkin degan fikrni amaliyotda isbotladilar.

SHov-shuvga sababchi bo'lgan ilmiy xabarlardan yana biri 1998 yil dekabr oyida Janubiy Quriyadan olingan. Seul universitetining bir guruh olimlari somatik hujayralarni klonlash usuli bilan odam embrionini olganliklari haqida axborot berdilar. Ular 30 yoshli ayoldan otalangan tuxum hujayrasidagi yadroni olib, xuddi shu ayolning somatik hujayrasidagi yadro bilan almashtiradilar, Natijada gibrid hujayra laboratoriya sharoitida bo'linib odam embrionining mikrokoloniyasi hosil bo'la boshlagan. Hosil bo'lgan embrion hujayralarni bachadonga implantatsiya qilinsa u erda homila shakllanishi ehtimoldan xoli emas, deb hisoblamokdalar. Lekin tajribalarning birinchi bosqichida gibrid hujayra ko'paya boshlaganda hukumat vakillarining buyrug'i va axloq qoidalariga to'g'ri kelmaganligi uchun mazkur tajriba ishlari to'xtatilgan. Olimlarning ayrimlari bunday ishlarning tozaligiga shubhalanmoqdalar. CHunki izlanishlarning uslubiyoti ochiq e'lon qilinmagan.

Biologiya fani yutuqlarining salbiy tomonlari. Hujayraning genomiga gen injenerligi, biotexnologiya usullari bilan biologik, kimyoviy va fizikaviy ta'sir qilishning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda kutilmagan salbiy natijalarga sababchi bo'lishi mumkin. Insoniyat genetik agentlar ta'sirida kutilmagan, yangi kasalliklar paydo bo'lishiga tayyor bo'lishi kerak. Dunyodagi tibbiyot xodimlari har qanday bemorlikni engamiz deb turganda spid xastaligi jamiyatga qanday «sovg'a» keltirganini yaxshi bilamiz. Afsuski, bu kasallik bilan jiddiy kurashadigan usullar hali topilgan emas.

Maqsadga muvofiq yaratilgan yangi zot, nav yoki genetik agentlar tadqiqotchilarning nazoratidan tasodifan yoki atayin chiqib, jamiyat uchun ofatga aylanishi mumkin. Masalan, 1950 yillarning oxirida olimlar hayotchan, kasalga chidamli, boli kam bo'lgan Afrika asalarisi bilan Janubiy Amerikada nimjon, kasalga chidamsiz, lekin mahsuloti ko'proq turlarini o'zaro chatishtirish natijasida

«odamxo‘r» asalari zoti dunyoga keldi. 1960 yillarda tasodifan fanga aloqasi yo‘q odam bu o‘ta agressiv hosili juda kam asalarilarga "rahm" qilib, tashqariga chiqarib yuboradi. Ular intensiv ravishda ko‘payib tezda Janubiy Amerikadagi erli asalarilarni tabiatdan siqib chiqardilar. Hozir esa ular SHimoliy Amerika, Kanadaga etib keldilar. Olimlar bu tasodifiy asalari zotlaridan qanday qilib qutilish yo‘llarini bir necha yildan beri izlamoqdalar.

4. Abdolhossein Dalimi " *In vitro* and *in vivo* antileishmanial effects of aloe-emodin on *Leishmania major"* 2014.
5. НАРЗИЕВ, Ш., & ШАРОПОВА, Г. ВЛИЯНИЕ ИНТЕРАКТИВНОЙ ИГРЫ НА РАЗВИТИИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ. *EDAGOGIK AHORAT*, 49.
6. Ali et al., 2012; Boudreau and Beland, 2006a, b.
7. Aburjai and Natsheh, 2003; Eshun and He, 2004; Radha and Laxmipriya, 2015
8. Рахматов, О. Б., & Юсупов, Д. А. (2021). БУХОРО ВИЛОЯТИДА АТОПИК ДЕРМАТИТ КАСАЛЛИГИ БИЛАН КАСАЛЛАНГАНЛАРНИНГ ЁШГА ВА ЖИНСГА НИСБАТАН АЖРАТИЛИШИ. *Scientific progress*, *2*(6), 1718-1729.
9. Raxmatov, O. B., & Xayitova, N. D. (2021). The use of "Sulfatcet-R"–Gel in Combination with Zinc Ointment to Determine its Effectiveness Against Acne Disease. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, *2*(6), 227-230.
10. Махмудов, Ф. А., & Латипов, И. И. (2019). АТОПИЧЕСКИЙ ДЕРМАТИТ: ИММУНОПАТОГЕНЕЗ И СТРАТЕГИЯ ИММУНОТЕРАПИИ. *Новый день в медицине*, (4), 195-200.
11. 10. Rivers Jk,Frederiksen PC, Dibdin C:A prevalence survey of dermatoses in the Australian neonate.J Am Acad Dermatol 1190;23:77-81.
12. Latipov, I. I., Axmedovich, M. F., & Hamza o'g'li, O. J. (2021). EVALUATION OF THE QUALITY OF LIFE OF VITILIGO PATIENTS BY THE EFFECTIVENESS OF COMBINATION THERAPY USING THE DERMATOLOGY LIFE QUALITY INDEX (DLQI). *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *2*(10), 55-63.
13. Рахматов, О. Б. (1998). *Клинико-аллергологическая характеристика вирусного гепатита В на фоне сочетанного течения лямблиоза* (Doctoral dissertation, –БухМИ, 1998.–16 с).
14. Xayitova, N. D., & Raxmatov, O. B. (2022). HUSNBUZAR KASALLIGINI DAVOLASHDA RETIN-A DORI VOSITASI BILAN RUX PREPARATINING BIRGA QO'LLASHDAGI SAMARADORLIK. *Conferencea*, 230-231.

15. Dumont-Wallon G., Dreno B.Specificity of acne in women older than 25 years//Presse Med 2008.Vol.37.P.585-591.
16. Raxmatov, O. B., & Xayitova, N. D. (2022). HUSNBUZAR KASALLIGINI DAVOLASHDA RUX VA DOKSISIKLIN DORI PREPARATLARINING BIRGALIKDAGI SAMARADORLIKNI ANIQLASH. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, *2*(1), 20-23.
17. Maxmudov, F. A., Raxmatov, O. B., Latipov, I. I., Rustamov, M. K., & Sharapova, G. S. (2021). Intravenous laser blood irradiation in the complex treatment of patients with cutaneous leishmaniasis. *湖南大学学报 (自然科学版)*, *48*(9). https://johuns.net/index.php/abstract/114.html
18. Makhmudov, F. A., & Gulomova, S. K. (2021). Changes in skin leishmaniasis after local treatment. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(1), 1744-1749. https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=1&article=279
19. Maxmudov, F. A., & Latipov, I. I. (2019). THE IMMUNOPATHOGENESIS OF ATOPIC DERMATITIS AND STRATEGY OF IMMUNOTHERAPY. *Новый день в медицине*, (4), 53-57.
20. Thomas P.Habif,MD Professor.James L.Campbell-Jr,MD MS Professor. Kojenniye bolezni .Diagnostika i lecheniye.110-118.
21. Samadovna, S. G., & Akhmedovich, M. F. (2022). Aloe Extract, Factors of the Rapid Onset of the Stage of Scaring in Zooonous Leishmaniasis. *Eurasian Medical Research Periodical*, *9*, 77-81.
22. Шаропова, Г. С. (2022). Изучить Эффективность Экстракта Алоэ При Местном Применения Зоонозного Лейшманиоза. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, *3*(1), 216-220.
23. Шаропова, Г. С. (2022). Экстракта алоэ при зоонозном лейшманиозе. Один из факторов быстрого наступление стадии рубцевания. *Science and Education*, *3*(5), 181-187.
24. Ахмедович, М.Ф. (2022). ОСНОВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПЕРЕД НАЧАЛОМ ЛЕЧЕНИЯ КОЖНОГО ЛЕЙШМАНИОЗА. *Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал* , *3* (4), 326–330.
25. Khaitov K.N., Makhmudov F.A., SIGNIFICANT SYMPTOMS BEFORE TREATMENT FOR CUTANEOUS LEISHMANIASIS //New Day in Medicine 7(45)2022 223-226 https://l.clck.bar/25df8
26. Ozodov, J. H. (2022). Retrospective Analysis of Pathological Changes in the Skin of Patients With" Cold-19". *Eurasian Medical Research Periodical*, *10*, 106-108.
27. Ozodov, J. H., & Raxmatov, O. B. (2022). Assessment of Skin and Mucosal Changes During Acute Illness And Remission of Covid-19 Patients. *Eurasian Medical Research Periodical*, *10*, 109-112.

PEDAGOGIKA FANLARI

ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Мавланова Саидахон Умаровна
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали, (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада **ё**шларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг педагогик-психологик хусусиятлари, уларда маънавий камолот ва ватанпарварлик сифатларини шакллантиришда психологик нуқтаи назардан ёндашиш, психологик ёндашув асосида таълим ва тарбияни ташкил этиш масалари ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: ватанпарварлик, педагогик-психологик хусусиятлар, психологик модел, аксиологик ёндашув, феноменологик элемент

Аннотация. В данной статье говорится о педагогико-психологических особенностях воспитания молодежи в духе духовности, воспитания и патриотизма, о психологическом подходе к формированию духовной зрелости и патриотизма, о вопросах организации воспитания и обучения на основе психологического подхода.

Ключевые слова: патриотизм, педагогико-психологические особенности, психологическая модель, аксиологический подход, феноменологический элемент

Annotation. This article talks about the pedagogical and psychological features of educating young people in the spirit of spirituality, upbringing and patriotism, about the psychological approach to the formation of spiritual maturity and patriotism, about the organization of education and training based on a psychological approach.

Keywords: patriotism, pedagogical and psychological features, psychological model, axiological approach, phenomenological element

XXI асрда халқлар ва миллатлар ўртасида ижтимоий-иқтисодий интеграция тобора ривожланиб боргани сари, миллий қадриятлар ўртасидаги чегараларнинг “йўқолиш” ҳолатлари кузатилгани ҳолда миллий ўзлик, тарихий шаклланган миллатга хос қадриятлар, урф-одатлар, миллий маданият ва тилни сақлаб қолишга бўлган уриниш, аждодларнинг моддий-маънавий меросини келажак авлодга бус-бутун етказиш, ёшларга ватанпарварлик ҳиссини сингдириш масалалари ижтимоий-гуманитар фанларнинг муҳим масалаларидан бири бўлиб, педагогик жиҳатдан ўқитиш ҳамда психологик ёндашув асосида таълим ва тарбияни ташкил этиш муаммоси ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлиб қолмоқда.

Ижтимоий омилларни барқарорлаштирадиган миллий-маданий қадриятлар ҳар бир даврда шу заминда яшаётган миллатнинг онги, дунёқараши ҳамда узоқ тарихий ривожланишга эга бўлган ҳаётий

тажрибаларидан далолат беради. Бу тажрибалар асосида ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар негизида тарбиялаш ҳамда уларда миллий ғурур ва ифтихор туйғусини шакллантириш, миллий онг ва маънавий юксалиш механизмининг ижтимоий функциялари қарор топтирилгандир. Таъкидлаш лозимки, бу механизм бир марталик бўлмасдан, йиллар ва асрлар давомида мукаммаллаштирилиб, миллий менталитетга хос бўлган онг ва тафаккур маҳсули бўлган сифатларнинг мавқе ва мақомини ўзида сақлаб қолган ҳолда аждодлардан авлодларга трансформация қилинадиган буюк ва масъулиятли жараёндир.

Шу нуқтаи назардан олиб қарайдиган бўлсак, бунги кунда жамиятимиз таълим тизимининг асосий вазифаси, миллий ўз-ўзини англаш механизмларини шакллантириш, умуминсоний қадриятлар тизимини ривожлантиришга йўналтирилган таълим жараёнини замонавий педагогик-психологик моделини яратиш зарур бўлиб, у ёшларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашда устуворликни сақлаб қолиши талаб этилади.

Ёшларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган таълим-тарбия жараёнининг педагогик-психологик моделини яратишда аксиологик, феноменологик ва услубийликни ҳисобга олиш ва унинг асосий элементларини замонавий нуқтаи назардан мувофиқлаштириш масалаларига эътибор қаратиш лозим.

Адабиётлар таҳлилига кўра, шахснинг маънавий камолоти ва маданий юксалиши ҳамда ватанпарварлик туйғуси умуминсоний ва ахлоқий масала ҳисобланиб, тарихий ривожланиш босқичига эга бўлган ижтимоий қадриятлар тизимига мансуб тушунчадир. Бу, энг аввало, онгли фаолият турига мансубликни таъкидлаб, ҳар бир шахснинг ўз-ўзини ҳимоя қилиш, манфаатдорлик туйғусини қарор топтириш, табиийликдан ижтимоийликка айланган эҳтиёжларининг ҳиссий туйғу билан алмашиниши, ўз яшаш жойларини турли босқин ва бегоналардан ҳимоя қилиш истаги бўлиб, узоқ тарихий тажриба натижасида шаклланган, аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган ижтимоий онг маҳсулидир.

Аксиологик ёндашувда нутқнинг ҳар бир элементи ўзида инсон ҳаётининг йўналиши ва мотивациясини белгилаб берувчи қадриятлар мажмуини ўзида мужассам этувчи омилларни сингдирган ҳолда, ёшларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган таълим-тарбия жараёнини педагогик-психологик концептуал жиҳатлари уйғунлигини таъминлаган ҳолда ривожлантириш назарда тутилади. Аксиологик ёндашув ёшларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ҳиссий таркибий қисмини очишга имкон беради.

Ёшларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг педагогик-психологик моделида феноменологик элемент муҳим устуворлик касб этиб, мақсадлилик, руҳий барқарорлик, қатъиятлилик, жумардлик каби инсонийлик сифатларини шакллантиришга хизмат қилади. Бу жараён таълим

тизимининг ажралмас қисмига айланиши асосида мақсад қилинган ҳар қандай ахлоқий тарбия негизларини сингдиришга қаратилган ёндашувлар мазмунини белгилаб, самарадорлигини оширади.

Ёшлар хулқ-атворининг маънавий-ахлоқий ривожланишидаги камчиликлари, маълум формадан оғиш ва жамият томонидан қабул қилинган ижтимоий меъёрларга мос келмаслик ҳолатлари кузатилиши табиий ҳолдир. Бу жараёнлар уларнинг руҳиятида содир бўладиган маълум ўзгаришлар натижаси ҳисобланиб, маънавий-ахлоқий хусусиятига ўзининг салбий жиҳатларни кўрсатади.

Ёшлар хулқ-атворида намоён бўладиган бу каби психологик ҳолатларни бартараф этишда психологлар, педагоглар, ота-оналар ҳамда масъул жамоат ташкилотлари ҳамкорлигининг ўзи самарасиз бўлиб, бунда, энг аввало, психологик-педагогик ва ташкилий-педагогик шарт-шароитларини таъминлаш тақозо этилади. Бу жараёнда болаларнинг индивидуал психологик ва ёш хусусиятларини ҳамда ахборот маконидаги фаоллиги, болага таъсир этувчи объектив ва субъектив омилларнинг психологик механизмлари таҳлил этилмоғи лозим.

Педагогик таълимни такомиллаштириш ижтимоий аҳамиятга эга бўлиб, ёшларнинг маънавий онгини шакллантириш ва ватанпарварлик руҳини тарбиялаш жараёнига, уларнинг ўз-ўзини англаш ва ўзини намоён қилишига таъсир кўрсатиб, шахс сифатида жамиятни маънавий-маданий ва ижтимиоий-иқтисодий ўзгартиришларига дахлдорлик ҳиссини уйғотади.

Маънавий-ахлоқий муносабатларнинг психологик моҳияти инсоннинг ижтимоий алоқалари ва бошқа одамлар билан муносабатларини тушуниши, ўзини англаш ва шахс сифатида ўзини такомиллаштирган ҳолда жамият идеалига интилишини англатади. Жамият идеали бу ўзида ватанпарварлик сифат ва фазилатларини шакллантирган, ҳар қандай ҳолда унинг ҳимоясига шайликни ўз бурчи деб билган шахсдир.

Бугунги кунда кишилик жамияти ёшлар ва уларнинг маънавий-ахлоқий хулқи ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш билан боғлиқ кризисли даврни бошдан кечираётганлиги сир эмас. Инсоният ўз тадрижий тараққиётининг энг мураккаб даврини бошдан кечирмоқда. Сабаби, ёшларни информацион хуруж ва тарғиботлар асосида миллий ва умуминсоний ғоя ва мафкурадан оғдириш, ирода кучини сафарбар этиши лозим бўлган эътиқоддан узоқлаштириш борасида турли кучлар ўз манфаати йўлида фойдаланмоқда. Бир сўз билан айтганда, ёшларнинг тарбияси билан шуғулланадиган “жонкуяр ва фидоий тарбиячилар” сони борган сари ортиб бормоқда. Улар жамиятнинг турли соҳаларида, жумладан, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, диний ва маънавий соҳаларида амалга оширилаётган туб ўзгаришларни ўз манфаатлари йўлида бузиб кўрсатиши ёки ранг-баранг ва мафтункор ҳолда ёшлар аудиториясига тақдим этиб, инсоний қадриятларни четга сурган ҳолда ўзларининг сохта ва пуч ғоя негизида шакллантирилган “оммавий маданият”и ортидан эргаштиришга ҳаракат қилиб, бу борада психологиянинг

таъсирчан механизмаларидан фойдаланмоқда. Бунинг негизида ёшларни ҳаётий ориентацияси издан чиқиб, давлат ва жамиятга хизмат қилиш, бурч ва масъулият масалалари ҳақидаги қарашлар аста-секин йўқолиб, ватанпарварлик туйғусидан мосуво бўлмоқда.

Ёшларда маънавий камолот ва ватанпарварлик сифатларини шакллантиришда психологик нуқтаи назардан ёндашиши ижтимоий воқеликни англаш ва унинг моҳиятини тушунишга янги имкониятларни очиб берган ҳолда тарихий хотира билан трансформацион алоқаларни таъминлашга хизмат қилади. Бу жараён ватанварварлик тушунчасини инсон онгида пайдо бўлиш элементларини ҳаётий зарурат асосида юзага келганлигини, инсон ўзи томонидан яратилган воқеликлар таъсир доирасига тушиб қолганлиги ҳамда ўзини асраш ғоялари атрофида англанган фаолият турига ўтиш, ўзи яшаб турган ҳудуд ва заминга инсонпарварлик нуқтаи назаридан ёндашиш лозимлигини тасаввурлар оламида шакллантиради.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги таълим ва тарбияни ташкил этишда педагогик технологияларнинг замонавий методларидан мақсадли фойдаланган ҳолда, юқорида таъкидланган илмий-назарий қарашларга мувофиқ ёшларни маънавий-маърифий ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш омилларини моделлаштириш зарур бўлиб, ҳиссий замонавий дунёқараш ҳамда миллий анъана ва умуминсоний қадриятларнинг идентификацияси ҳаётий заруратдир. Бу жараёнга илмий нуқтаи назардан ёндашиш миллий халқ қаҳрамонлари, давлат ва жамият учун ўз илми ва тафаккури билан юксак ҳисса қўшган шахслар, муҳим тарихий воқеалар жамият ёшларининг шахсий муносабатлари ривожланишида янги ижтимоий мотивацион замин бўлиб хизмат қилади.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб қатиат билан ҳаракат қилайлик// Унинг ўзи. Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, - Т.: - Б.476.
3. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир// Унинг ўзи. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. Б-507-510.
4. Бозоров О. Миллий ғоя ва тарғибот самарадорлиги. Тошкент: Маънавият, 2018. Б.14-15.
5. Нуркова В.В. Свершенное продолжается: Психология автобиографической памяти М. : Изд-во Университета РАО. 2000. – С
6. Бузыкина Ю.С. Национально-психологические характеристики и проявление агрессивности у молодежи разных этнических групп / Ю.С. Бузыкина // Мир науки. – М. – 2018. – Т. 6. – №4. – С. 37.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Sharifjonova Kamolaxon Tohirjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim)
mutaxasisligi 2-bosqich magistranti
kamolasharifjonova4@gmail.com

Annotatsiya. maqolada inklyuziv ta’lim jarayonining xususiyatlari, afzalliklari, inklyuziv ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, inklyuziv ta’limning afzalliklari, maxsus o‘yinlar, maxsus ehtiyoji bor bolalar, do‘stona muhit, birdamlik.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasini oshirish, imkoniyatlarini yanada kengaytirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarorida bu masalalarga alohida to‘xtalib o‘tildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririda inklyuziv ta’lim tushunchasi birinchi marotaba qo‘llanildi. Inklyuziv ta’lim – fransuzcha “inclusif” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom ya’ni sog‘lig‘i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi.[9] Inklyuziv ta’lim deganda biz imkoniyatlari cheklangan bolalar va sog‘lom bolalarning birga o‘qishi degan tor ma’noni tushunmasligimiz kerak. Aslida bu degani har ikki turdagi bolalarning bir xil sharoitda, bir xil e’tibor ostida, tabaqalashtirishsizlarsiz ta’lim olishini nazarda tutadi. Ushbu ta’lim turi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, bolalarning jamiyatga kirisha olishi. Ya’ni maxsus ehtiyojga ega bolalar faqatgina davolash maskanlari yoki yaqin qarindoshlari davrasida qolib ketmaydi. Boshqa bolalar singari o‘zini jamiyatning teng huquqli a’zosi deb biladilar. Shunday ekan, bugungi kunda o‘sib borayotgan har bir yosh avlod o‘zini Vatanga kerakli deb bilishi, jamiyat uchun foydali shaxs deb hisoblashi, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalana olishi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Inklyuziv ta’limda faoliyatini olib borish pedagoglardan yuksak mahorat talab qiladi. O‘qituvchilar bilimni shunchaki, og‘zaki tarzda bolalarga aytib beribgina qolmay, balki o‘zlari amaliyotda ko‘rsatishlari va bilimni egallashda bolalarga yordamchi bo‘lishlari lozim. Har bir o‘quvchiga alohida shaxs – qobiliyat egasi deb qarashlari juda muhimdir. Bunda berilgan topshiriqlarni baholashda o‘quvchilarning bilim doirasi bilan birgalikda qobiliyat, qiziqishlarini ham inobatga olish kerak. Bu o‘quvchilarni o‘zlarini alohida shaxs deb hisoblashlariga,

[9] Inklyuziv ta'lim: afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari va tavsiyalari - Jamiyat - 2022 (drunkentengu.com)

tanqidiy fikrlarini erkin bayon eta olishlariga yordam beradi. Pedagoglar dars jarayonini qiziqarli, yanada tushunarli bo‘lishi uchun turli o‘yinlardan foydalanadilar. O‘yinlarni tanlashda quyidagilarga e’tibor berish juda muhimdir:

- Birinchi o‘rinda shaxs qadr-qimmati turishi lozim. Qadr-qimmat qobiliyatga yoki shaxs yutuqlariga bog‘liq bo‘lmasligi lozim. Bunda muhimi o‘yinda ishtirok ekanligi, natija nisbiy ekanligi tushuntirilishi lozim;
- Har bir o‘quvchining farqlarini hisobga olgan holda, ularning barchasini minimal darajadagi ta’lim darajasiga erishtirishga yordam berishi kerak;
- Oddiy bolalarda hamdardlik, sabr-toqat, bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- O‘quvchilar bir birlarini qo‘llashlari, yordam berishlari, do‘stona munosabat hosil qilishi.

L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog‘ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g‘oyani ilgari suradi.[10] Shunday ekan dars jarayonida sinfda sog‘lom muhitni shakllantirish, bolalarni imkoniyatlarini to‘la ochib berishga harakat qilish lozim. Mashg‘ulot uchun o‘yin tanlashda avvalo bolalardagi qaysi imkoniyat cheklanganligiga e’tibor qaratish muhimdir.

Masalan, tayanch-harakat apparatining buzilishi. Tayanch-harakat buzilishlariga ega bolalarga yurish, predmetlarni ushlash va ushlab turishda qiynaladigan; o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari shakllanmagan, cheklangan masofada bo‘lsa ham, mustaqil ravishda harakat qila oladigan, harakat buzilishlari o‘rtacha bo‘lgan; qisman o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bolalar, mustaqil ravishda harakat qiladigan, o‘z-o‘zini parvarish qilish ko‘nikmalariga ega, lekin ba’zi harakatlarni noto‘g‘ri bajaradigan bolalar kiradi.[11] Biz quyida mayda motorika mashqlari va ularni rivojlantiruvchi o‘yinlarni ko‘rib chiqamiz:

Mayda motorika – bu qo‘l va ko‘zning kichik mushaklarining muvofiqlashtirilgan ishidan kelib chiqadigan vosita harakati.[12] Qo‘lning mayda motorikasini rivojlantirishda kichik predmetlar bilan amalga oshiriladigan: konstruktorlar, turli xil mozaikalar, qiziqarli jumboqlar, munchoqlardan buyum yasash, sanoq tayoqchalari, urug‘lar va boshqalar; yasash, chizish va turli xildagi hunarmandchilik ishlari orqali bajariladigan; o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishning elementar ko‘nikmalarini rivojlantirish (tugmalarni taqish va yechish, bog‘ichlarni bog‘lash va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan; predmetlar konturi ustida chizish, bo‘yash, kataklar va qoliplar asosida chizish bo‘yicha mashqlar; suv, qum, lentalar, rezina bantlar va boshqalar bilan amalga oshiriladigan o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofidir. Bu harakatlar orqali bolalarning qo‘l muskullari harakati yaxshilanishiga erishish mumkin. Bunday o‘yinlarda, albatta, sinfdagi sog‘lom bolalar imkoniyati cheklangan bolalar bilan birgalikda topshiriqlarni bajarishi, bir birlariga yordam berishi lozim.

[10] Vigotskiy L.S. Defekt i sverxkompensatsiya. // “Problema defektologi”. M., 1996. –S. 42.
[11] biologiya.edu.uz›kontent/yoshfiziologiyasi/2/2.pdf
[12]

Ko‘rish qobiliyatining buzilishi. Ko‘rish qobiliyatining buzilishi — shaxsning shakllanishi va rivojlanishining butun jarayoniga ta’sir qiladigan vizual idrokning cheklanishi yoki uning yo‘qligida namoyon bo‘ladigan psixofizik nuqson.[13]

Ko‘rishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlaganda esa e’tibor berilishi lozim bo‘lgan bo‘lgan bir qancha talablar mavjud. Masalan, xonaning yorug‘ligi, sinf xonasidagi jihozlarning o‘rnini doimiy saqlash, xona rangi, partaning bo‘yi va shu kabilar. Bunday nuqsoni bor bolalar bor sinflarda o‘yinlar o‘tkazishda obyektlarni namoyish etishda vizual idrokni yaxshilaydigan fonlardan foydalanish, predmetlarni qora va oq fonda yoki yashil (tinchlantiruvchi), jigarrang (sokin, kontrastli) yoki to‘q sariq rangda (rag‘batlantiruvchi) fonda namoyish etish, predmetni va fonni rangga moslash, shu orqali uni barcha detallarda yaxshiroq ko‘rishga erishish, predmetlar katta, yorqin, shakli va detallari bo‘yicha aniq bo‘lishini ta’minlash, obyektlarni bir-biridan alohida ajralib turadigan qilib joylashtirish, ular bir qator va nuqtada birlashib ketmasligiga harakat qilish lozim. O‘qituvchi o‘z nutqiga e’tibor berishi kerak. O‘qituvchining nutqi ifodali va aniq bo‘lishi kerak, dars davomida qilayotgan, yozayotgan, chizayotgan yoki tajriba o‘tkazgandagi barcha harakatlarni nutq orqali ifodalash muhimdir. Chunki, bola eshitish orqali ko‘proq ma’lumot oladi va tasavvur qiladi. Masalan, ko‘rishda nuqsoni bor bolalar bilan 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan “Uy hayvonlari” bo‘limida quyidagicha o‘yin tashkil etish mumkin:

Buning uchun ferma rasmi, maketi, uy hayvonlarining maketlari va rasmlari kerak bo‘ladi. Bunda maket va rasmlar bir xilligiga e’tibor qaratish zarur. Bunda bolalarga dastlab maketdagi uy hayvonlarini joylashgan o‘rni bilan tanishish vazifasi beriladi. Bunda bolalardagi ko‘rish va teginish yordamida predmetlarning xususiyatlarini va farqlarini aniqlash qobiliyati mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. So‘ngra bolalar rasmlarni xuddi maketdagidek qilib ferma rasmiga joylashtirishi so‘raladi. Bu o‘yin orqali bolalarning diqqati rivojlantiriladi, buyumlarni sezgi orqali his qilib yanada yorqinroq ko‘rishiga imkon yaratadi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar — bu tovushlarni aniqlash va tushunish qobiliyati to‘liq (karlik) yoki qisman (zaif eshituvchilar) pasaygan bolalar. shitish qobiliyati bolaning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Eshitish qobiliyati yordamida bola tovushlarni tushunishni, tovushlarga taqlid qilishni va gapirishni o‘rganadi. Eshitish qobiliyati bolaga intellektual rivojlanish, xavfli signallarni eshitish, yo‘nalishni aniqlash, boshqa bolalar bilan muloqot qilish va aloqa qilish ko‘nikmalarini egallash imkonini beradi.[14] Eshitish qobiliyatining yo‘qolishi bolani muhim ma’lumot manbasidan mahrum qiladi va uning intellektual rivojlanishini cheklaydi. Biroq, bu xususiyatlar mashg‘ulotlarda maxsus usullar va texnik vositalardan foydalanish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Eshitishdagi nuqsonlar nutqning rivojlanishiga

[13] Mo‘minova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 - 270 b

[14] Mo‘minova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 - 270 b

va bolalarda fikrlash, xotira, e'tibor, idrok, tasavvur, xulq-atvor va shaxsiyatning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda uzoq muddatli xotirada eslab qolishga o'rgatish savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savol-javob faqat o'tilayotgan mavzu bo'yicha emas, balki o'tilgan mavzular yuzasidan bo'lsa ham maqsadga muvofiq. Matn bilan ishlaganda bunday o'quvchilarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish kerak. Bu eshitishda nuqsoni bor bolalarning fikrlash xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin turlaridan ko'proq sujetli-rolli o'yinlardan foydalanish mumkin. Sujetli-rolli o'yin jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlariga berilgan roller asosida kata odamlar hayoti, ularning faoliyati va o'zaro munosabatini ifodalaydi. O'yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularning bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi. O'yin jarayonida bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydi. O'yinning xarakterli xususiyatlaridan biri hayotda qo'llaniladigan predmetlarni boshqa maqsadda qo'llashdir. Predmetlarni o'yin jarayonida qo'llashda sog'lom bolalar nomini osongina boshqa predmet nomiga almashtira oladilar. Eshitishda nuqsoni bor bolalarga esa bu biroz qiyinchilik tug'diradi. Chunki bunday bolalar predmetga qo'yilgan shartli nomga emas, predmetning xususiyatiga ko'proq e'tibor beradilar.

Yana shunday nuqsonlardan biri – bu nutqiy nuqson. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda pedagog quyidagilarni e'ttiborga olishi lozim:

- bolalar bilan aniq va to'g'ri gaplashish;
- nutq materialiga e'tibor berish: she'rlarni yodlash, rasmlar asosida suhbatlar o'tkazish, bir qator rasmlardan hikoyalar tuzish, ertaklarni qayta aytib berish;
- bolalar bilan sahnalashtirilgan ertak, teatr o'yinlari, qo'g'irchoq teatrlarini o'tkazish uchun mavjud bo`lgan va turli xil materiallardan tayyorlangan jihozlardan foydalanish;
- fonetik o'yinlar va nafasni normallashtirishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish;
- nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarga atrofdagilar do'stona munosabatda bo'lishlari ustidan nazorat qilish lozim. Chunki tanqid va masxara qilish uning nutqini yomonlashtirishi, bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'lumki, o'yin bolalarning tabiiy holatidir. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar turmush mavzusiga oid o'yinlarni ko'proq yaxshi ko'radilar, chunki ular uncha keng tasavvurni talab etmaydi va har kuni kuzatiladigan tanish sahnalardan iborat bo'ladi. Lekin o'yin faoliyati nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqi me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan ancha sust bo'ladi va o'yin yangi detallar bilan kengaytirilmaydi.

Yuqorilardan ko'rinadiki, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda pedagoglardan alohida mahorat talab qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ular ham jamiyatning ijtimoiy qatlami ekanligini, teng huquqli jamiyat a'zosi

ekanliklarini turli usul va vositalar orqali tushuntirish talab etiladi. Bunda esa bizga o‘yinlar eng yaxshi yordamchi vosita sanaladi. Dars jarayonida ma’lumotlarni oson o‘zlashtirishlari, sinfdagi qolgan o‘quvchilardan ajralib qolmasliklarini oldini olish uchun har bir bolaning psixologiyasini, imkoniyatlarini, qiziqishini, iqtidorini inobatga olish zarur. O‘yinlarni tanlashda ham bu xususiyatlarga e’tibor berish talab etiladi. Bolalar o‘yinlar orqali darsni o‘zlashtirsin va o‘zidagi iqtidorni kashf eta olsin. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin. Inklyuziv ta’lim bolalarning ma’naviy va jismoniy o‘sishlarida samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vigotskiy L.S. Defekt i sverxkompensatsiya. // “Problema defektologi”. M., 1996. –B. 42.
2. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Shokir Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik – Toshkent, 2001.
3. Mo‘minova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 -270 b

Internet ma’lumotlari

4. Inklyuziv talim: afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari va tavsiyalari - Jamiyat - 2022 (drunkentengu.com)
5. **biologiya.edu.uz**›kontent/yoshfiziologiyasi/2/2.pdf

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Dadaboyeva Matluba Xoshimjon qizi
QDPI magistranti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim berish jarayonida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion usullardan foydalanishning afzalliklari metodik asosi yoritilgan.

Kalit so’zlar: innovatsion metodlar, interaktiv metodlar, motiv, usul, metod, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil fikrlash, zamonaviy ta’lim.

Hozirgi globallashuv davrida fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublari keng joriy etilmoqda.Ayniqsa, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunida o`qitish jarayonida ilg`or, zamonaviy pedagogika texnologiyalarni keng ko`lamda tadbiq etish barcha turdagi ta`lim muassalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan ekanligi ta`kidlanadi.

O‘quvchilarning bilishga qiziqish ikki asosiy yo‘l bilan tashkil etiladi. Birinchisi, o‘quv materialining o‘zi o‘quvchilarda bilimga qiziqishni paydo qiladi. Chunki o‘rganilmagan yangi narsa insonlar tomonidan qiziqish bilan o‘rganiladi. Ikkinchi tomondan o‘quvchilarning bilish faoliyatini qiziqarli tashkil etish, innovatsion metodlar, didaktik o‘yinlar orqali bilimga qiziqtirish mumkin.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko‘proq interaktiv metodlarga e’toborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so‘zi inglizcha – *interaction,* ya’ni inter – aro, o‘zaro, act – harakat ma’nosini anglatadi.) Interaktiv usullar – bu o‘zaro harakat ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir.[15]

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib,

[15] G’afforov T. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.- Toshkent: “Tafakkur”,- 2012. B - 85

ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, keys-stady, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar, skarabey, bumerang, sinkveyn, suratli diktant kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o’quvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, o‘quvchilarning darsga faol qatnashishiga, bilimlarini egallashga undaydi. Masalan,“Men kimman yoki nimaman?” o’yini.

“Men kimman yoki nimaman?” o’yini o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, topqirlikka, izlanuvchanlikka, to’g’ri xulosa chiqarishga o’rgatish va nutq ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bu o‘yinda mavzuga doir shakl, biror predmet rasmi yoki kasb – hunar tasvirlangan rasm bo’lishi mumkin. Doskaga bir o’quvchi chiqariladi va uning boshiga aniqlanadigan narsa, shakl, rasm kiydiriladi. Kiydirilgan narsani o’quvchi ko’rmaydi. Sinfdagi o’rtoqlarning boshidagining belgilarini navbat bilan aytib turadilar. Ular aytib turib belgilarni diqqat bilan eshitib, mushohada qilib, o’zining kimligini, ya’ni boshidagi shakl, narsaning nomini topishi kerak bo’ladi. Bu o‘yinni 1- sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida “Mening oilam”, “Uy hayvonlari”, “Foydali sabzavotlar” mavzularida qo‘llash o’quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

“Takrorla” usulida o’quvchilarning topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiriladi. O’quvchilarning lug’at boyligini boyitadi, og’zaki nutqini rivojlantiradi va mantiqiy fikrlashga o’rgatiladi.

Bu o‘yinda beshta yoki oltita o’quvchilardan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o’quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o’quvchi birinchi o’quvchi aytgan terminni qaytaradi va o‘zi ham bitta so‘z aytadi. Uchinchi o’quvchi avvalgi ikkita so‘zni qaytaradi va bitta so‘z qo‘shib aytadi. Qaysi o’quvchi adashib ketsa yoki aytilgan so‘zlardan qaytarib aytsa o‘yindan chiqadi. Shu tariqa o’quvchilar guruhi davom etadi. Bu o‘yinni tashkil etishdan maqsad aniq bo‘lishi va o‘quvchilarning qaysi bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga e’tibor qaratilishi muhim. Masalan, sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni ayting:

1-o‘quvchi: chiroyli
2-o‘quvchi: chiroyli- baland
3-o‘quvchi: chiroyli- baland - odobli
4-o‘quvchi: chiroyli- baland- odobli- katta
5-o‘quvchi: chiroyli – baland – odobli- katta- qizil

O‘quvchi so‘zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo‘l qo‘yasa o‘yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda 4- sinf ona tili darslarida “So‘z turkumlari”, “ Sifat yasovchi qo‘shimchalar”, “Ot so‘z turkumi” mavzularini o‘rganishda, 1- sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida “Mening oilam”, “Uy hayvonlari”, “Oy Yerdan kattami” va boshqa mavzularni o‘rganishda ham bu usuldan foydalanish mumkin.

Ayniqsa bu o‘yin darsalarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo‘l keladi. Bunday usullar o’quvchilarda bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O’quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.

Boshlang’ich sinf ona tili darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta’lim olishga shaxsan mas’ullikni his qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta’sirchanligini oshiradi, o’quvchilarni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Innovatsion usullardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi, o‘quvchini fanlarni qiziqarli tarzda tashkil etishiga olib kelishi bilan o`quv materiallarini o`quvchilar tomonidan yuqori darajada o`zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday ekan, har bir o`qituvchi o`qitishning ilg`or, samarali usullarini izlab topishi, yoxud ma`lum bo`lgan usul unumli, ijodiy ravishda mashg`ulotlar jarayonida qo`llashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni
2. G’afforov T. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: “Tafakkur - 2012.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, -2004.
4. Qosimova K. va boshqalar. “Ona tili o’qitish metodikasi” Boshlang’ich ta’lim fakultetlari talabalari uchun darslik. - Toshkent: “Nosir”, -2009.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Shodiboyeva Mohinur Abduraxmon qizi
Guliston Davlat Universiteti, "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Maktabgacha ta`lim - ertangi kunimizga zamin" dir. Bugungi kunda maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** intellektual salohiyat, qobiliyat, iste`dod, o`yin, syujetli-rolli o'yinlar, abstrakt bilimlar, genetika va irsiyat.

Abstract. As the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev noted, "preschool education is the basis of our future". Today, the development of the intellectual potential of preschool children is one of the most important issues. This article covers topical issues of developing and improving the intellectual potencial of preschool children.

Keywords: intellectual potential, ability, talent, play, role-playing games, abstract knowledge, genetics and heredity.

Аннотация. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Миромонович Мирзиёев, «Дошкольное образование – это основа нашего завтрашнего дня». На сегодняшний день развитие интеллектуального потенциала дошкольников является одной из актуальных проблем. В данной статье освещены актуальные вопросы развития и совершенствования интеллектуального потенциала дошкольников.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, способность, талантб игра, сюжетно-ролевые игры, абстрактные знания, генетика и наследственность

Kirish. Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Masalan, Shvetsariyalik psixolog J. Piaja o'zi olib borgan tadqiqotlar asosida ta'kidlashicha, 7-8 yoshdan kichik bolalar raqam bilan bog'liq faoliyatga qodir emas. Shuningdek, bolaning psixik rivojlanishida ta'lim mazmunining o'zgarishi va uning ta'siri haqida L.A.Venger, P.YA.Galperin, D.B.Elkonin, V.V.Davidov va boshqalar asarlarida keng tadqiq etilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasining asosiy vazifalarijismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya berib borishdan iboratdir. Psixologlar fikricha bu yoshda bolada bilish jarayonlari rivojlanib borganligi sababli unga o`rgatilgan har bir yangilikni tez ilg`ab oladi, ongiga singdirib boradi.Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bola ongini tez rivojlantiradi.Intellektual-psixologik o`yinlar bolani har tomonlama komil shaxs bo`lib shakllanishidagi asosiy

vositalardan biridir. Maktabgacha ta`lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo`lib shakllanishida didaktik o`yinlar asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Intellektual-psixologik o`yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin: 1. Buyumli o`yinlar(o`yinchoqlar, tabiiy materiallar) 2. Stol ustida o`ynaladigan o`yinlar 3. So`z o`yinlari Ta`lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017- yil 30-sentabrda PF5198 - sonli “Maktabgacha ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g`risida” gi farmoni qabul qilinib, unda maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog`lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash asosiy maqsad qilib belgilangan.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektual salohiyatining rivojlanishida ulardagi tug`ma qobiliyat va iste'dod muhim ahamiyatga ega. Tug`ma qobiliyatga ega bo'lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg`ab oladilar va tez o'zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar. Ammo, barcha yoshlarimizga ham birdek tug`ma talant, qobiliyat va iste'dod nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borishdek muhim vazifa birinchi navbatda pedagoglarimiz va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, o'quv muassasalari, korxona, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Kattalar tug`ma aql sohiblari bo`lgan bolalarning yo`lini to`sishni yaxshi ko`radilar. Bolaga “uni qilma”, “bu senga foyda keltirmaydi” kabi so’zlarni ko’p ishlatishadi. Unga xato qilib, xulosa chiqarib, uni to’g’irlash uchun yo’l topishiga sharoit yaratib bermaydilar. Kattalarning talab hamda vazifalaridan charchagan bolalar bora-bora hafsalasiz va umidsiz bo`lib, xushchaqchaq ko`ngillarini berkitib oladilar, qalblarida borini o`rtoqlashmay qo`yadilar. Fikrlarini ochiq bildirmaydilar. Bolaga bunday munosabatda bo`lish ularni o`z ichki olamlariga badarg’a qilish, demakdir. Natijada esa, ularni u olamdan ortga qaytarish qiyin kechadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishidagi dolzarb masalalar Chirchiq davlat pedagogika instituti va Toshkent viloyati maktabgacha ta`lim boshqarmasi bilan hamkorlikda Chirchiq shahar 35-sonli maktabgacha ta`lim tashkilotida 2018-yil 8-dekabr kunidan, Qibray tumani 20-sonli maktabgacha ta`lim tashkilotida 2020-yil 10-sentabr kunidan ishini boshladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bu fikriy faoliyatning ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o‘zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlash rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo‘lsa, u o‘zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo‘ladi. Shu

tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin: 1) ta’lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, 2) o‘zlashtirilgan usullar qo‘llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi, 3) shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishi. Ushbu mavzu yuzasidan davra suhbatlari o`tkazildi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari psixologlari bilan tajribalar almashildi.

Natijalar. Bolada intellekt ona qornidan rivojlanishni boshlaydi. Bolalarda Asosiy intellektual rivojlanish bosqichi maktabgacha va maktab yoshiga tòg`ri keladi. Genetika va irsiyat intellektual salohiyatga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Kimdir tabiatan tez hisoblaydi, kimdir tug`ilganidan boshlab matematikani yaxshi kòradi, kimdir gapirishdan oldin kuylaydi. Bolalarda aloqa va bilim qobiliyatlarini rivojlantiradigan faoliyatning muntazamligini ta`minlash orqali intellektni rivojlantirish mumkin. Temperament va xarakter xususiyatlarini o`rganish maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchisining intellektini rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Ota-ona bilan munosabat va oiladagi emotsional muhitni me`yoriy darajaga keltirish bola intellektini rivojlantirishga poydevor bo’lib xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ota-onalari bilan intellekt, intellektual salohiyat va uni rivojlantirishning dolzarb masalalari to`g`risida suhbat uyushtirildi. Ota-onalar o`zlariga kerakli ma`lumotlarga ega bo`lishdi.

Xulosa. Faoliyatning umumiy turi aniqlangach, bolalar tomonidan ayrim usullar turli darajada qo‘llanilishi mumkin. O‘quvchilar faoliyatning nisbatan yuqori shakllari va turlariga (shuningdek, aqliy) masalan, aniq va abstrakt bilimlarni bog‘lay olish va o‘zaro nisbatini aniqlay bilishga o‘rgatilishi lozim. Bolaning fikrini ham tez-tez inobatga olib turilsa, uning o`z-o`ziga bo`lgan ishonch hissi ortadi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o‘zgarishi va murakkablashishi sodir bo‘lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o‘zgarishlarni, ya’ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o‘zgaradi, usullar yig‘ilishi va o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bola ko‘p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o‘zgaradi. Qizlar va o`g`il bolalar yetuk va komil shaxs bo`lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo`lsa zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Bunda ota-ona, oila muhiti muhim o`rin egallaydi. O`rgimchak to`ridek dunyoni egallab olgan elektron olam bolalarning ongu shuurini butunlay egallab olmasidan oldinroq ularda hayotda har bir narsaning me`yorini bilish ko`nikmasini hosil qilishimiz va bunga o`zimiz ham amal qilishimiz juda zarur. Zero bola aytganni emas, ko`rganini qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intintellektual salohiyatini rivojlantirish orqali yuksak intellekt sohiblarini tarbiyalashimiz bizning asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta'limtizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 5198-sonliFarmoni. 2017-yil 30-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y.,06/17/5198/0043-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
2. Ta`lim to`g`risidagi qonun T.: 23 sentabr 2020-yil
3. O‘zbekiston respublikasining qonuni Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019- yil 14-dekabrda ma’qullangan (1)
4. N.M Aksarina, Go`dak bolalar tarbiyasi, T.:1983.(50)
5. R.G`.Qodirov, yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.:2005,(6-9)
6. G.R To`xtasinova, T.I. O`rmonova, Bolalar bog`chasida intellektual psixologik o`yinlar T.:2005(4-5)
7. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi, T.: 2010.
8. M. Atayev, Islomda bolalar huquqlari, T.: 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSTRUKTIV FAOLIYAT VA TEXNIK IJODKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Tasheva Nasiba Salimovna
Toshkent shahridagi Puchon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning konstruktiv faoliyat va texnik ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda turli zamonaviy usullardan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan. Xususan, robototexnika va lego qurilmalaridan foydalanishning afzalliklari, bunda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, diqqat, tafakkur, lego konstruksiyalash, robototexnika, ijod, texnik ijodkorlik, faoliyat, mashg'ulot, kompetensiya.

Bugun zamonaviy dunyo ta'lim oldiga murakkab vazifalarni qo'ymoqda: bolani undan alohida intellektual qobiliyatlarni talab qiladigan kelajakdagi jamiyat hayotiga tayyorlash.

Hozirgi zamon o'zgarishlar davri, davlatimizga nostandart qarorlar qabul qilishga qodir, ijodiy fikrlaydigan, o'z g'oyalarini amalga oshira oladigan, jamiyatga foyda keltira oladigan insonlar zarur. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ta'lim tizimini isloh qilishni maktabgacha ta'limdan boshlash zarur, chunki aynan ushbu davrda bola shaxsini shakllantirishning barcha fundamental tarkibiy qismlari ta'minlanadi.

Rivojlanayotgan maktabgacha ta'lim faoliyatining asosiy mexanizmi maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida sifat o'zgarishlariga yordam beradigan innovatsiyalarni aniqlash va rivojlantirishdir.

Maktabgacha ta'limning sifati maktabgacha yoshning o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, bolalar tomonidan katta hajmdagi bilimni o'zlashtirishdan iborat emas, balki olingan bilim bilan ishlash usullarini o'zlashtirish, zarur shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash sohasidagi asosiy yo'nalishlar bolaning rivojlanishi uchun innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim faoliyatini tashkil etishga qaratiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axborot kompetensiyasiga vaqt va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar doimiy ravishda oshib bormoqda. Hozirgi vaqtda bolalar bog'chasida lego dizayni va o'quv robototexnikasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Lego konstruksiyalash - bu ko'p qirrali lego elementlaridan foydalangan holda ijodiy modellashtirishga (qurilish o'yinlari) asoslangan samarali faoliyat.

Ta'lim robototexnikasi - bu yangi, dolzarb pedagogik texnologiya bo'lib, u bilimlarning istiqbolli yo'nalishlari: mexanika, elektronika, avtomatlashtirish, konstruksiya, dasturlash va texnik dizayn kesishmasida joylashgan. Ushbu texnologiya fan va texnikaning eng ilg'or yo'nalishlarini ifodalaydi, bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda nisbatan yangi fanlararo yo'nalishdir.

Robototexnika O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga to'liq mos keladi va to'garaklarda qo'shimcha mashg'ulot sifatida o'qitilishi mumkin. Ushbu faoliyat barcha yoshdagilar uchun mos keladi – maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib talabalargacha u bilan shug'ullanishi mumkin.

Тақиқланган экинларни етиштириш жиноятларини олдини олиш ва фош этишдаги биргаликдаги ва келишилган фаолият муайян даражада процессуал, тезкор-қидирув, маъмурий ва ташкилий бошқарув хусусиятига эга бўлиши мумкин.

Бундан ташқари тақиқланган экинларни етиштириш жиноятларини олдини олиш ва фош этишда тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширишдаги тегишли, нисбатан мустақил босқичларида ҳамкорликнинг кўплаб вазифалари аниқ хусусиятга эга бўлади.

Биринчидан, тақиқланган экинларни етиштириш жинояти ҳақида хабар келиб тушуши ва унинг ҳал этилиши босқичида - жиноят аломатлари борлигидан далолат берувчи дастлабки маълумотларни аниқлаш бўйича, “иссиқ” излар бўйича биргаликда ишлаш, воқеа жойини ўрганишни хамда текширишни ташкил қилиш.

Иккинчидан, тақиқланган экинларни етиштириш фактлари бўйича тезкор-қидирув фаолияти натижаларидан фойдаланган ҳолда жиноят ишини қўзғатиш босқичида – тезкор-қидирув фаолияти материаллари жиноят иши қўзғатиш учун асос бўладиган[28] материалларни таҳлил қилиш ва баҳолаш, дастлабки тартибда текшириш, қўшимча маълумотлар излаш, тезкор-қидирув маълумотларидан жиноят иши қўзғатиш учун сабаб ва асослар сифатида фойдаланиш борасидаги вазифалар туради.

Учинчидан, дастлабки тергов босқичида - тақиқланган экинларни етиштириш ҳолатлари бўйича тезкор-қидирув фаолияти натижаларидан исботлашда, терговчига ёрдам ва кўмак беришда, айрим тергов ҳаракатларини амалга оширишда, терговчининг алоҳида топшириқ[29]ларини тўлиқ, сифатли ва вақтида бажаришда, тергов тактикасида фойдаланиш учун йўналтирувчи тезкор ахборот тақдим этишда фойдаланиш вазифалари.

Шу ўринда терговчининг процессуал қонунчилик асосида тезкор бўлинмаларга жиноят иши юзасидан берадиган ёзма топшириғи бўйича Т.Р.Саитбоев, А.А.Хамдамов, С.Н.Гордеевлар қайд этишларича, “ёзма

[28]Ўзбекистон Республикаси 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунининг 19-моддаси. Манба https://lex.uz/docs/2107763. (Мурожаат санаси 29.08.2022).
[29]Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 36-моддаси.Манба https://lex.uz/docs/111460. (Мурожаат санаси 29.08.2022).

топшириқ бериш ва тезкор-қидирув тадбирларини ўтказиш жиноят процесси ва тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорликнинг процессуал шакли сифатида назарда тутилган"[30]. Бундан келиб чиқади-ки, тезкор ходим ва терговчиларнинг ёки бошқа соҳавий хизмат ходимларининг ягона мақсадга (жиноятчиликка қарши курашиш) қаратилган ҳамкорлигининг нопроцессуал (норасмий) шакли ҳам мавжуд бўлиб, бизнинг нуқтаи назаримиз бўйича ушбу шакл кўпроқ, тезкор хизматларнинг фаолиятига алоқадор материаллар бўйича маълумотларни иссиқ ҳолатда тергов органлари билан бўлишиш ҳамда тергов ҳаракатларини режалаштиришда кўпроқ намоён бўлади.

Шу боис ҳамкорликни ташкил қилиш муаммоси ҳам объектив равишда юзага келади ва ечимини талаб қилади. Бу ҳол аввало куйидагиларни тақозо этади:

- Муаммони қўйиш ва уни ҳал қилиш вазифаларини ифодалаш;
- Ишга солинадиган куч, восита ва усулларни белгилаш;
- Эҳтимол тутилган ҳамкорлик режасини ишлаб чиқиш;
- Алоқа, ахборот алмашув усул ва воситаларини белигилаш;
- Ҳамкорликнинг бориши ва натижаларини назорат қилиш;
- Ҳамкорлик қилувчи суъектлар фаолиятига якун ясаш.

Тақиқланган экинларни етиштириш жиноятларини аниқлаш, олдини олиш фош этиш бўйича ҳар йили республика бўйича ўтказиладиган комплекс «Қора-дори» кенг камровли тезкор-профилактик тадбири давомида таркибида гиёҳванд моддаси бўлган тақиқланган экинларни етиштириш, ёввойи ҳолда ўсаётган наша ўсимликларини аниқлаш ва йўқ қилиш юзасидан давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамда бошқа манфаатдор муассасалар билан ҳамкорликдагитадбир ўтказилади. Мазкур тадбирни муваффақиятли амалга ошириш мақсадида ҳар бир ички ишлар органлари ҳамкорлик қилувчи орган ва муассасалар билан тайёргарлик кўриш босқичида куйидагилар амалга оширадилар:

- мавжуд статистик, тезкор маълумотларнинг таҳлили ҳамда вужудгакелган тезкор вазиятни ҳисобга олган ҳолда тадбир учун чора-тадбирлар режалаштириш;

- ички ишлар органларининг биринчи раҳбарлари томонидан тадбирни амалга ошириш юзасидан фармойиш ва чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқидилар;

- соҳавий хизмат раҳбарлари ва малакали ходимлардан иборат «Махсус штаб» тузилади, устувор йўналишлар белгиланиб, ҳар бир шаҳар, туман ёки тармоқ ички ишлар бўлимларига тадбир бўйича масъул этиб малакали раҳбар ходимлар бириктирилади;

[30]*Хамдамов А.А., Саитбаев Т.Р., Гордеев С.Н.* Научно-практический комментарий к Закону Республики Узбекистан «Об оперативно-розыскной деятельност» / Отв. Редактор Ш.Т.Икрамов. – Т., 2015. –С.104.

- «Махсус штаб» жалб этилган куч ва воситалардан унумли фойдаланиш, маълумотларни умумлаштириб, таҳлил килиш хамда иш самарадорлигини ошириш юзасидан тегишли чора-тадбирлар белгиланади;

- ҳокимликлар қошидаги наркотик моддаларни назорат қилиш минтақавий комиссияси хамда бошқа манфаатдор идоралар ва жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликда тадбирни амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар режаси тузилиб ташкиллаштирадилар;

- тадбирга жалб килинган куч ва воситалар таркибидан махсус қидирув гуруҳлари ҳамда кўчма-ҳаракатланувчи постлар ташкил қилиниб, уларни тегишли махсус техника, транспорт ва алока воситалари билан таъминлайдилар;

- таркибида гиёҳванд моддаси бўлган тақиқланган экинларни етиштирувчи ҳамда унга алоқадор шахслар бўйича ички ишлар органларига келиб тушаётган тезкор маълумотлар таҳлил қилиниб, таҳлилга асосан зарурий тезкор-қидирув тадбирларни амалга ошириш чоралари кўрилади;

- муқаддам наркотик моддалар билан боғлик жиноятлар содир этган, гиёҳвандлик ва заҳарвандликка чалинган шахсларнинг барчаси гиёҳванд ўсимликларни ва тақиқланган экинларни етиштириш билан боғлиқ жиноятларга алоқадорликлари текширилади. Алоҳида эътибор яшаш уйи ва ёрдамчи хўжаликларига, шунингдек гидропоника усулида етиштириш мумкин бўлган жойларни тақиқланган экинларни етиштириш жиноятларни аниқлашга каратилади;

- ходимлар ўзларига бириктирилган хизмат кўрсатиш ҳудудида таркибида гиёҳванд моддаси бўлган ўсимликларни ва такиқланган экинларни етиштирувчи ва уларнинг савдоси билан шуғулланаётган шахсларни аниқлаш мақсадида ҳамкорликдаги тезкор-кидирув тад*бирлари ташкил этиш ва амалга ошириш чораларини кўриб чиқадилар.*

Шу ўринда тақиқланган экинларни етиштириш фактларини аниқланиши бўйича айримтаҳлилий маълумотларни кўриб ўтишимиз ўринлидир. Унга кўраТошкент вилояти, Фарғона вилояти, Самарқанд Қашқадарё ва Бухоро вилоятларида ўртача кўрсатгичда ЖҚБ ходимлари томонидан 38,8 фоиз, тергов органлари томонидан 5,7 фоиз, ички ишлар органларининг бошқа соҳавий хизматлари томонидан 50,5 фоиз, бошқа ҲМҚОлар томонидан 4,9 фоизни ташкил этмоқда[31]*. Статистик маълумотларнинг таҳлилидан кўринмоқда-ки, тақиқланган экинларни етиштириш билан ҳолатларни аниқлашдаички ишлар органларининг тезкор бўлинмалари ва бошқа соҳавий хизматларининг ўртасидаги ҳамкорлик масалалари ҳали ҳамон танқидий назар билан ёндашишимизга асос бўлмоқда.*

тақиқланган экинларни етиштириш жиноятларини аниқлаш, уларни олдини олиш хамда фош этиш бўйича ҳамкорлик масаласида ягона тўхтамга келтирувчи, барча учун очиқ бўлган умумий ҳаракатларини

[31]Ўзбекистон Республикаси ИИВ Тергов департаментининг 2020 йил 15 декабрдаги 18/7579 сонли хати.

белгилаб берувчи норматив ҳужжатнинг мавжуд эмаслиги бугунги ҳал қилиниши керак бўлган муаммо сифатида қолмоқда.

Масалан, Ўзбекистон Республикасининг ҳудудининг 21,3 фоиз ҳудуди тоғлар ва тоғ оралиғи ботиқ ҳудудлардан иборат бўлиб[32]мазкур ҳудудлар аксар ҳолатларда чорвачилик ва боғдорчилик мақсадларидафойдаланилади.Ушбу ҳудудларга эгалик қилаётган юридик шахсларҳамда ўрмон фонди ҳисобидаги ерларда хизматолиб борувчи шахслар билан ҳамкорлик масалаларини етарли деб айта олмаймиз. Биргина **ўрмон фонди ерлари ва давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтзор ва бутазорлар[33]да эгасиз тақиқланган экинларни аниқлаш масаласи норматив ҳуқуқий хужжатларда ёритилмаган.**

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “**Ўрмон қўриқчилиги тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида**”ги 2008 йил
9 сентябрдаги 203 сон,**“Давлат ўрмон хўжалиги органларининг фаолиятини такомиллаштириш ва ўрмон хўжаликларининг чегара ҳудудлари табиий ресурсларидан фойдаланиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 10 сентябрь кунидаги 717-сонли қарорларининг ҳамкорлик масалалари бўлимида тақиқланган экинларни аниқлашда ички ишлар билан ҳамкорлик масалалари киритилмаган. Ваҳоланги ушбу ҳудудлар тақиқланган экинларни етиштириш учун қулай бўлган жойлар ҳисобланади ва аниқланган аксар ҳолатларда эгасиз (безхоз) ўсимлик сифатида йўқ қилинади.**

Тақиқланган экинларни етиштириш жиноятларини аниқлаш ва уларни олдини олиш хамда фош этиш бўйича ўтказиладиган махсус тезкор-профилактик тадбирлар давомида бошқа соҳавий хизматлар билан ҳамкорликда қуйидаги ҳаракатлар амалга оширилади:

- таркибида гиёҳванд моддаси бўлган ўсимликларни ва тақиқланган экинларни етиштириш ҳолатларининг олдини олиш мақсадида жамоатчилик вакиллари билан ҳамкорликда маъмурий ҳудудлар белгиланган муддатларда батафсил кўздан кечирилади;
- тезкор қизикиш уйғотувчи шахсларнинг томорқалари ва ёрдамчи хўжалик томорка майдонлари кўздан кечирилади;
- бириктирилган ҳудудда ёввойи ҳолда ўсаётган наша ўсимликлари аниқланиб, уни йўқ қилиш чоралари кўрилади, айбдор шахсларни ҳаракатларига қонуний баҳо берилади;
- тезкор хизмат ходимлари ва профилактика инспекторларининг алоқасидаги ноошкора манбаларга таркибида гиёҳванд моддаси бўлган

[32]http://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11738-yer-yuzasi-geologik-tuzilishi-va-foydali-qazilmalari. (мурожаат санаси 02.09.2022).

[33]Ўзбекистон Республикасининг «Ўрмон тўғрисида»ги ўзбекистон республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида 2018 йил 16 апрелдаги 475-сон қонунининг 7,8-моддалари. Манба:https://lex.uz. (Мурожаат санаси 02.09.2022).

ўсимликларни ва тақикланган экинларни етиштирувчи ҳамда олди-сотдиси билан шуғулланувчи шахсларни аниқлаш бўйича топшириқлар берилиб, улардан олинган маълумотлар пухта текширилиши таъминланади;

- тақикланган экинларни етиштиш жиноятларини содир этаётган шахсларни аниқлаш бўйича махсус техника воситалари имкониятларидан унумли фойдаланиш чоралари кўрилади;
- ўтказилаётган тадбирнинг мақсад ва моҳияти ҳамда унинг натижаларини кенг омма эътиборига етказиш максадида оммавий ахборот воситалари орқали чиқишлар мунтазам равишда ташкиллаштириб борилади.

Тақиқланган экинларни етиштириш билан боғлиқ жиноятларга оид маълумотни текширишда ҳамкорликда амалга ошириладиган чора-тадбирлар куйидагилардан иборат.

Таркибида гиёҳвандлик моддаси бўлган ўсимликлар (кўкнор ёки каннабис) ва тақиқланган экинларни етиштириш тўғрисидаги мавжуд маълумотни текшириш ва ҳукуқбузарликларни олдини олиш мақсадида терговчи, тезкор вакил, профилактика инспектори, эксперт, зарур бўлган холларда эса кинолог хизмат ити билан ва бошқа ходимларни жалб қилган ҳолда тергов-тезкор гуруҳи **тузилади.**

Маълум бир жойда таркибида гиёхвандлик моддаси бўлган ўсимликлар ёки тақикланган экинларни етиштириш жинояти содир этилганлиги ёки унинг излари борлиги ҳақида маълумотни текшириш учун ходиса жойини кўзлан кечиришини айнан ўша жойда имкон қадар зудлик билан тергов-тезкор гуруҳи **амалга оширади.**

Кечиктириб бўлмайдиган ҳолларда ҳодиса содир бўлган жой жиноят иши кўзғатилишидан олдин хам кўздан кечирилиши мумкин.

Катта майдонлар ва бинолар суриштирувчи еки терговчи томонидан холислар иштирокида кўздан кечирилади.

Тергов-тезкор гуруҳи**га тайинланган рахбар ходим (аксарият холатда терговчи) томонидан гуруҳ аъзоларига мавжуд маълумотнинг тафсилотлари етказилади ва хар бир ходимга бажарилиши лозим бўлган вазифалари белгилаб берилади.**

Ҳодисажойигачиқилишиданаввал гуруҳрахбаритомонидантергов-тезкор гуруҳи**аъзоларининг (терговчи, тезкор ходим, профилактикаинспектори, эксперт-криминалист ва кинолог) экипировкаситекширилади.**

Тақиқланган экинларни етиштириш жинояти аниқланган ҳодиса жойида тергов-тезкор гуруҳи таркибида иштирок этган тезкор ходим таркибида гиёхвандлик моддаси бўлган ўсимликлар ва тақиқланган экинларни етиштиришда гумон қилинган шахс (шахслар)ни қўлга олади, кочиб кетишини, ўз-ўзига тан жарохат етказишини, тадбир иштирокчиларига жисмоний қаршилик кўрсатишини ва далилий ашёларни йўқ қилиб юборилишини олдини олиш чораларини кўради;

тергов-тезкор гуруҳи таркибида ходиса жойига чиққан терговчи, профилактика инспектори ва бошқа ходимлар билан ҳамкорликда текширув ишларини ташкил этади;

таркибида гиёҳвандлик моддаси бўлган ўсимликларни қонунга хилоф равишда парвариш қилиш ёки сақлаш ҳолати аниқланган манзилда мазкур уй-жойда мавжудшахсларни ҳамда уларнинг бу жойда бўлиш сабабларини аниқлайди;

жиноят тафсилотлари юзасидан тақиқланган экин майдони эгалари ва бошқа тезкор қизиқиш уйғотувчи шахслар орасида батафсил сўров ўтказади;

таркибида гиёхванд моддалари бўлган ўсимликларни экиш, парвариш қилиш ёки сақлаш ҳолати бўйича кўздан кечириш ўтказиладиганҳудуд ва объектларда ўзга шахсларнинг киришини ва чиқишини вақтинчалик тўхтатишни таъминлайди;

ҳуқуқбузарлик содир этишда гумон қилинаётган шахсларнинг қўшимча яширинча гиёхвандлик воситаларни сақлаши мумкин бўлган жойларини аниқлаш чораларини кўради;

ходиса жойида тергов-тезкор гуруҳининг рахбари - терговчининг мазкур иш буйича берган кўрсатма ва топшириқларини бажаради.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда фикримизча, тақиқланган экинларни етиштириш билан боғлиқ жиноятларни аниқлаш, олдини олиш ва фош этишда ички ишлар органлари тезкор бўлинмаларнинг бошқа соҳавий хизматлар билан ҳамкорлигини ташкил этиш ва амалга оширишдабарча ходимлар учун танишиш ва билиши мумкин бўлган ягона ёндошувга асосланган ҳаракатларини белгилаб берувчи норматив ҳужжатнинг мавжуд эмаслигига оид муаммога ечим сифатида куйидагиларни келтириб ўтамиз.

- Республикаси ички ишлар органлари учун ҳар йили ўтказиладиган қорадори тадбири ва тадбирдан кейинги пайтларда ходимлар нима иш қилиш ва қандай ҳаракатланишини аниқ белгилаб берувчи норматив ҳужжат қабул қилиш хамда ходимларга ҳужжат билан танишиш, ўрганиш имкониятини бериш;
- Ички ишлар органлари ходимларини хамкорликдаги ҳаракатларини якка ҳолда аниқлаган ва фош этган жиноятларга нисбатан кўпроқ рағбатлантириш боришни моддий ва маънавий қўллаб қувватлашнийўлга қўйиш.

Шу ўринда ҳамкорликни тўғри ташкил қилганда мақсад муштараклигини унга эришишдан ўзаро манфаатдорликни юзага келтиришини таъкидлаш муҳим. Ҳамкорликдаги фаолиятнинг самарадорлиги уни мувофиқлаштиришга ҳам боғлиқ. Мувофиқлаштириш, шунингдек, ички ишлар органлари фаолиятида қонунийликни мустаҳкамлашга ҳам хизмат қилади. Ҳамкорлик қилишда ички ишлар органлари фаолиятининг

самарадорлигини оширишга, жиноятларни содир этилишини камайтиришга, шунингдек, қонунийликни мустаҳкамлашга асосий эътибор қаратилади[34].

Фойдаланилган адабиётлар

1. Икрамов Ш.Т. ва бошқ. Тезкор-қидирув хизматлари фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асослари ва ички ишлар органларининг бошқа соҳавий хизматлар билан ҳамкорлиги: Ўқув қўлланма. –Т., 2013. –Б.24.
2. Матчанов А.А. Организация деятельност следователя по розыску скрывшегося обвиняемого: Автореф. дис… канд, юрид, наук, -Т., 2006. -24 с.
3. Д.Э.Каримова. Совершенствование взаимодействия следователя органов внутренних дел с подразделениями уголовного розыска. Дисс…на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по юридическим наукам. -Т., 2018. -29 с.
4. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 30 ноябрдаги ЎРҚ-651-сонли Қонунига асосан киритилган (28[1]-модда—01.12.2020 й., 03/20/651/1577-сон).
5. *Закурлаев А.К., Пулатов Ю.С.* Оперативно-розыскная деятельность. Учебное пособие. –Т., 2014. –С.124-126.
6. Ўзбекистон Республикаси “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунининг 13-моддаси. Манба: https://lex.uz/docs/2107763. (Мурожаат санаси 29.08.2022).
7. Қаранг: Ўша манба. -15-модда. Манба: https://lex.uz/docs/2107763. (Мурожаат санаси 29.08.2022).
8. *Саидов А.Х.* ва бошқалар. Жиноятчиликка қарши курашда халқаро хамкорлик: Маърузалар курси. –Т.,2012. –Б 4-5.
9. Ўзбекистон Республикаси 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунининг 12-моддаси. Манба https://lex.uz/docs/2107763. (Мурожаат санаси 31.09.2022).
10. *Рахимхўжаев Р.Н.* Жиноят қидирув ва терроризмга қарши кураш аппаратлари тезкор-қидирув фаолиятида ҳамкорликнинг назарий жиҳатлари./Жиноятчиликка қарши курашда тезкор аппаратлар фаолиятини такомиллаштиришнинг долзарб муаммолари., Илмий мақолалар тўплами. –Т., 2015. –Б 138.
11. Ўзбекистон Республикаси 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунининг 19-моддаси. Манба https://lex.uz/docs/2107763. (Мурожаат санаси 29.08.2022).
12. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 36-моддаси. Манба https://lex.uz/docs/111460. (Мурожаат санаси 29.08.2022).
13. **13.***Хамдамов А.А., Саитбаев Т.Р., Гордеев С.Н.* Научно-практический комментарий к Закону Республики Узбекистан «Об оперативно-

[34]Қаранг: *Икрамов Ш.Т.* ва бошқ. Тергов аппаратларининг ички ишлар идораларининг бошқа соҳавий хизматлари билан ҳамкорлиги: Ўқув-методик қўлланма. –Т., 2013. –Б.17

розыскной деятельност» / Отв. Редактор Ш.Т.Икрамов. –Т., 2015. –С.104.

14. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Тергов департаментининг 2020 йил 15 декабрдаги 18/7579 сонли хати.

15. http://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11738-yer-yuzasi-geologik-tuzilishi-va-foydali-qazilmalari. (мурожаат санаси 02.09.2022).

16. Ўзбекистон Республикасининг «Ўрмон тўғрисида»ги ўзбекистон республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида 2018 йил 16 апрелдаги 475-сон қонунининг 7,8-моддалари. Манба: https://lex.uz. (Мурожаат санаси 02.09.2022).

17. *Икрамов Ш.Т.* ва бошқ. Тергов аппаратларининг ички ишлар идораларининг бошқа соҳавий хизматлари билан ҳамкорлиги: Ўқув-методик қўлланма. –Т., 2013. –Б.17.

СУРУНКАЛИ АЛКОГОЛИЗМ, ГИЁҲВАНДЛИК ЁКИ ЗАҲАРВАНДЛИККА МУБТАЛО БЎЛГАН ШАХСЛАРНИ МАЖБУРИЙ ДАВОЛАШГА ЮБОРИШДА ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ

Боборахимов Аброр Бахрамович
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси
Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва криминология кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада мажбурий даволаш, наркологик ёрдам, наркологик касаллик, мажбурий даволашга юбориш тушунчаси ва унинг профилактикаси, касалликка мубтало бўлишнинг асосий сабаблари, унга имкон берувчи шарт-шароитлар ва олдини олиш усуллари, фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, давлат органлари, жамоат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари вазифалари тахлил қилинган.

Калит сўзлар: гиёҳванд, ичкиликбоз, фуқаробай, маҳаллабай, профилактика, шахс, хавфсиз маҳалла, хавфсиз ҳудуд, ижтимоий омиллар, ижтимоий хавфли касалликлар,

Маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт профилактикасини ташкил этиш бўйича мутлақо янги тизим яратилди. Хусусан, ҳар бир маҳалла, оила ва шахс кесимида жиноятчиликнинг сабабларини аниқлаш ва уларни бартараф этишда “фуқаробай”, “оилабай” ва “маҳаллабай” ишлаш орқали ҳуқуқбузарликларнинг ижтимоий профилактикасини таъминлаш амалиёти жорий этилди. “Хавфсиз маҳалла” ва “Хавфсиз ҳудуд” тамойиллари асосида ички ишлар органларининг Миллий гвардия ва маҳалла жамоатчилиги билан ҳамкорликдаги ишлари қисқа вақт ичида ўзининг ижобий натижасини бераётгани биз учун катта аҳамиятга эга.

Ачинарлиси, гиёҳвандлик ва спиртли ичимликлар таъсири остида оғир жиноятларнинг содир этилишига, оилалар ва миллат генофондининг бузилишига сабаб бўлмоқда. Статистик маълумотларга кўра дунёда 500 миллиондан ортиқ одам гиёҳвандлик дардига йўлиққан. Унинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этмоқда. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади. Шу билан бирга, жаҳонда содир этилаётган жиноятларнинг 57 фоизи гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади. Шу боисдан, гиёҳвандликка қарши курашни кучайтириш мақсадида БМТ томонидан «Наркотик моддалар тўғрисида»ги, «Психотроп моддалар» ҳамда «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш туғрисида»ги конвенциялар қабул қилиниб, 1987 йил 7 декабрдаги 47/112-сонли резолюциясига кўра «26 июнь – Халқаро наркотик моддаларини суистеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш куни» деб эълон қилинган [1].

Давлат идоралари аксарият ҳолларда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини фақатгина ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг

вазифаси сифатида баҳолаб, оқибатда ушбу фаолиятга лозим даражада эътибор қаратилмаган.

Тиббий йўсиндаги мажбурлов даволаш чораларини халқаро миқёсда қўллаш соҳасида бир қатор халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, улар, биринчи навбатда, руҳий касал шахслар ҳуқуқларининг ҳуқуқий, ижтимоий ва бошқа кафолатларини етарли даражада таъминлашга қаратилган. Жумладан, руҳий касалларни мажбурий даволашда.

Инсон ва фуқароларнинг асосий ҳуқуқ ва эркинликлари 1948-йилдаги Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, 1966-йилдаги Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида халқаро пакт, 1966-йилдаги Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида халқаро пакт каби халқаро ҳужжатларда ўз ифодасини топган. Мазкур ҳужжатларда инсонларнинг турли соҳалардаги (шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий) асосий ҳуқуқлари, шунингдек, ҳуқуқий тенглик, камситишларни тақиқлаш каби ҳуқуқий мақомнинг асосий тамойиллари мустаҳкамланган.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги чора-тадбирларнинг аниқ манзилга йўналтирилмаганлиги ва уларга комплекс ёндашилмаётганлиги, шунингдек ҳуқуқбузарликларнинг тизимли равишда содир этилишига доир сабаб ва шарт-шароитларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш самарадорлиги мавжуд эмаслиги кутилаётган натижаларни бермасдан келган. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш бўйича фаолиятни мувофиқлаштиришнинг таъсирчан тизимини яратиш, қонун бузилишларининг олдини олиш ва уларни бартараф этишнинг замонавий ташкилий-ҳуқуқий механизмларини жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 март кунидаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2833-сонли Қарори ишлаб чиқилди. Ушбу Қарорнинг 5-бандига асосан хафтанинг ҳар пайшанба куни “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куни” тадбирлари ўтказилиб келинмоқда [2].

А.В. Веселовская фикрига кўра, тиббий мажбурлов даволаш чоралари тушунчаси стационар шароитда психиатрик ёрдам кўрсатадиган тиббий ташкилотда мажбурий даволаниш сифатида белгиланади [3]. Таклиф этилаётган таърифнинг афзаллиги кўриб чиқилаётган чора-тадбирларнинг шахсни жамиятдан ажратиб қўйиш, жазосизлиги, тиббий табиати, ижро этиш тартиби каби муҳим критерияларининг белгисидир.

Шу билан бирга, айрим олимлар мажбурий даволаш номини кўриб чиқилаётган чора-тадбирларга нисбатан қўллаш мутлақо тўғри эмас деб ҳисоблашади. Натижада, улар қайта номланиши керак деган фикрни илгари сўрадилар. Масалан, тадқиқотчи Н.В. Жарко “мажбурлов даволашни” “тиббий мажбурлов чоралари” деб номлашни таклиф қилади. Унинг қайд етишича, ушбу номни ўзгартириш тиббий йўсиндаги мажбурлов

воситаларини ҳуқуқбузарлик ёки жиноят содир этиш учун қўлланиладиган бошқа ҳуқуқий чоралардан фарқлаш имконини беради. Шунингдек, у ўрганилаётган масала нуқтаи назаридан ҳуқуқий ва тиббий тушунчалар ўртасида зарур алоқани яратади [4].

Назаримизда, мажбурий даволаш чораларини қайта номлаш зарурлиги ҳақидаги баҳс кўпроқ терминологик хусусиятга эга. Номни ўзгартириш бўйича тақдим этилган ёндашувлар кўриб чиқилаётган чора-тадбирларнинг моҳиятига таъсир қилмайди, шунинг учун уларни юридик техника нуқтаи назаридан қайта номлаш мақсадга мувофиқ эмас деб биламиз.

Фикримизча, **мажбурий даволаш** — наркологик касалликларга чалинган шахсларга нисбатан суднинг қарори асосида мажбурий даволаш учун мўлжалланган муассасаларда кўрсатиладиган наркологик ёрдам тури. Мажбурий даволаш фақат суд орқали амалга оширилади. Наркологик ёрдам наркологик касалликлар профилактикасини, наркологик касалликларга чалинган шахсларни текширишни, уларга маслаҳат беришни, ташхис қўйишни, уларни даволашни, тиббий-ижтимоий реабилитация қилишни ўз ичига олувчи ихтисослаштирилган тиббий ёрдам тури. Наркологик касаллик (сурункали алкоголизм, гиёҳвандлик, заҳарвандлик) психоактив моддаларга патологик ружу қўйиш, улардан сурункали заҳарланишнинг психосоматик (руҳий ва жисмоний) ҳамда ижтимоий оқибатлари билан тавсифланадиган сурункали касаллик ҳисобланади. Наркологик касалликка чалинган шахс ўзига нарколог шифокор томонидан наркологик касаллик ташхиси қўйилган шахсдир. Наркологик касалликларга чалинган шахсларни тиббий-ижтимоий реабилитация қилиш наркологик касалликларга чалинган шахсларнинг ҳаёт фаолиятига доир чекловларни бартараф этишга ёки компенсация қилишга, йўқотилган ижтимоий алоқаларини ҳамда ижтимоий мақомини тиклашга, меҳнат ва маиший шароитларга мослашувини таъминлашга қаратилган тиббий, психологик, тарбиявий, таълимга оид, ижтимоий, ҳуқуқий чора-тадбирлар тизими. Наркология муассасалари аҳолига наркологик ёрдам кўрсатувчи наркология марказлари, шифохоналари, диспансерлари, психоневрология диспансерлари тузилмасидаги бўлинмалар, туман (шаҳар) тиббиёт бирлашмаларининг наркология кабинетлари ҳисобланади.

Мажбурий даволашнинг қуйидаги турлари қонунда назарда тутилган:

а) мажбурий амбулатория кузатувида бўлиш ва норкологик касаллик мутахассисида даволаниш;

б) умумий тартибли наркологик касалликлар шифохонасининг соғлиқни тиклаш бўлимида мажбурий даволаниш;

в) умумий тартибли наркологик касалликлар шифохонасининг соғликни тиклаш махсус бўлимида мажбурий даволаниш.

Мажбурий даволаш чоралари ичкиликбозлик, гиёҳвандлик ёки заҳарвандликка йўлиққан шахслар томонидан жиноят содир этилган тақдирда, суд бундай шахсларга нисбатан жазо тайинлаш билан бирга, мажбурий даволаш чорасини ҳам тайинлаши мумкин [5].

Аҳоли ўртасида наркологик касалликларга чалинишни олдини олиш, уларга наркологик ёрдам кўрсатиш сифатини ошириш давлат ижтимоий сиёсатининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

2022 йил 16 май куни қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолига наркологик ёрдам кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ 244-сон Қарорида наркологик касалликларнинг олдини олиш, ташхис қўйиш ва даволашни янада такомиллаштириш, наркология хизматининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва кадрлар салоҳиятини ошириш, наркология муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш, соҳага ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий етиш орқали қоғозбозлик ва бюрократияни камайтириш масалаларига урғу берилиб, уларнинг ечимлари норматив жиҳатдан белгилаб берилди.

Мазкур норматив ҳужжат 14 та банд ва 4 та иловадан иборат. Ушбу қарорда аҳолига наркологик ёрдам кўрсатиш тизимини янада такомиллаштиришнинг 4 та устувор йўналишлари белгилаб олинган бўлиб, наркологик касалликларнинг олдини олиш, уларни эрта ташхислаш ва даволаш, беморларни тиббий-ижтимоий реабилитация қилишнинг яхлит моделини жорий қилиш орқали аҳолига самарали наркологик ёрдам кўрсатиш тизимини шакллантириш биринчи йўналишни ташкил этади.

Қарорга кўра, 2023 йил 1 январдан бошлаб;

- ✓ ички ишлар органларига ўз ташаббусига кўра наркологик касалликларга чалинган шахсларни мажбурий даволашга юбориш юзасидан ҳужжатларни тайёрлаш ва расмийлаштириш ҳуқуқи берилади;
- ✓ наркологик касалликларга чалинган шахсларни мажбурий даволашга юбориш бўйича барча тиббий текширувларни наркология диспансерларининг ўзида, зарур ҳолларда бошқа муассасаларда амалга оширилади;
- ✓ наркология диспансерларидаги мавжуд койкалар ҳақидаги маълумотларни реал вақт режимида олиш имконияти яратилади;
- ✓ наркологик касалликларга чалинган шахсларни мажбурий даволашга юбориш тўғрисидаги ишларни электрон тарзда судларга юбориш ва судлар томонидан уларни видеоконференцалоқа режимида кўриб чиқиш мумкин бўлади;
- ✓ наркология диспансерларидаги мавжуд бўш койкалар сони тўғрисида маълумотларни реал вақт режимида олиш имкониятини берувчи ахборот тизими ишлаб чиқилади, ҳамда Олий суд ва ИИВга ушбу тизимдан фойдаланиш имконияти яратилади.

Шунингдек, 2023 йил 1 январдан бошлаб Республика ихтисослаштирилган наркология илмий-амалий тиббиёт маркази ва унинг ҳудудий филиалларининг амбулатор ва стационар бўлимларида 1 ставкадан фаолият кўрсатувчи тиббий психолог ёки психотерапевт лавозимлари жорий этилади. Тиббиёт бирлашмалари таркибида камида 10 ўринли мастлик

ҳолатида бўлган шахсларга тиббий ёрдам кўрсатиш туманлараро пунктлари ташкил этилади.

Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги билан биргаликда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан наркология диспансерлари ёки туман (шаҳар) даволаш-профилактика муассасаларига олиб келинган Пробация назоратидаги шахсларни алкоголли ичимликлар, гиёҳвандлик воситалари таъсирида ёки ўзгача тарзда маст ҳолатда еканлигини аниқлаш бўйича тиббий текширувдан ўтказиш тартибини жорий этиш юклатилди [6].

2021 йил 29 ноябр куни қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Президент фармони билан ишлаб чиқилган 2022 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини ривожлантириш стратегиясининг 15 бандида соғлиқни сақлаш вазирлиги қуйдагиларни назорат қилиш вазифаси юклатилди:

- ўткир алкоголли мастлик ҳолатида жамоат жойларида бўлган, мустақил ҳаракат қилиш ёки адашмай йўл топиш қобилиятини йўқотган ҳамда ўзининг ҳаракатлари билан жамоат хавфсизлигига таҳдид соладиган шахсларга мастлик ҳолатини бартараф этиш мақсадида тиббий ёрдам кўрсатиш чораларини амалга ошириш;
- алкоголизм, гиёҳвандлик, токсик моддаларни истеъмол қилиш, ўзгаларга хавф туғдирадиган бошқа касалликларга чалинган шахслар, шунингдек, руҳий касалларни тиббий ижтимоий реабилитация қилиш ишларини амалга ошириш;
- ижтимоий хавфли касалликларга чалинган, алоҳида тоифалардаги шахслар учун белгиланган санитария нормалари ва қоидаларига ҳамда жамоат жойларида бўлиш учун чекловларга риоя этилишини назорат қилиш юклатилди [7].

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, сурункали алкоголизм, гиёҳвандлик ёки заҳарвандликка мубтало бўлган шахсларни даволаш улар томонидан содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликларни олдини олишда замонавий илғор иш усулларни амалиётга жорий этиш, айниқса бу борада фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, уларда қонунга ҳурмат ва итоаткорлик ҳиссини кучайтириш борасида давлат органлари, жамоат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари билан ҳамкорликда чора-тадбирларни амалга оширишни бугунги даврнинг ўзи тақозо этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 14 март кунидаги ПҚ-2833-сонли Қарори – https://lex.uz/docs/3141186
2. Ўзбекитон Республикаси ССВдан олинган 2020 йилдаги статистика ҳужжатларга асосан.

3. Васеловская А. В. Принудительное лечение в медицинской организации, оказывающей психиатрическую помощь в стационарных условиях, по Уголовному кодексу Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. – Томск, 2020. – 212 с. – с. 13.

4. Жарко Н. В. Принудительные меры медицинского характера (уголовно-правовой аспект): автореферат… дисс. канд. юрид. наук. – Рязань, 2015. – 144 с. – с. 26.

5. Ўзбекистон Республикаси “Наркологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида” 2020 йил 27 октябр кунидаги ЎРҚ-644-сон Қонуни. – https://lex.uz/ru/docs/5069150?ONDATE=29.01.2021%2000

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолига наркологик ёрдам кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2022 йил 16 майдаги ПҚ 244-с қарори. https://lex.uz/ru/docs/6017645

7. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сонли Фармони. https://lex.uz/docs/4124831

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТЕЗКОР БЎЛИНМАЛАРИНИНГ КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ТЕЗКОР ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Машарипов Тахир Эгамбердиевич
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси
Тезкор-қидирув фаолияти кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада коррупция жиноятларнинг келиб чиқиши, уларнинг сабаблари ва ҳуқуқий оқибатлари ёритилган. Ўзбекистон Республикаси давлат органлари, айниқса Ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари томонидан коррупциявий жиноятларга қарши курашиш фаолиятининг ҳуқуқий асослари ва тезкор профилактикасини ташкил этиш тартиби кўрсатилган. Шунингдек, мақолада ҳуқуқий таҳлил орқали коррупцияга қаршиш курашиш давлат сиёсий механизмлари очиб берилган.

Калит сўзлар: коррупция, қарши курашиш, жиноят, Ички ишлар органлари, тезкор бўлинмалар.

Ўзбекистонда мустақил тараққиёт йилларида қонун устуворлиги асосларига путур етказувчи, иқтисодий ўсиш суръатларини сусайтирувчи, мамлакатимиз барча фуқаролари манфаатларига катта зарар етказувчи коррупцияга қарши курашиш борасида салмоқли қадамлар ташланди.

Давлатимиз раҳбари томонидан Ўзбекистон Республикасининг Тараққиёт стратегиясида белгилаб берилган вазифаларнинг ҳаётга татбиқ этилиши нуқтаи назаридан Ўзбекистонда коррупцияга қарши кураш чинакам глобал аҳамият касб етмоқда. Мазкур стратегиянинг 84-мақсадида коррупцияга мойил соҳа ва тармоқларни аниқлаш, коррупциявий омилларни бартараф этиш тизимининг самарадорлигини ошириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш белгиланган.

Кўриниб турибдики, ушбу стратегик устувор вазифани амалга ошириш учун давлат нафақат иқтисодий ва сиёсий ривожланишнинг юқори суръатларини таъминлаши, балки коррупцияга қарши кураш бўйича миллий сиёсатни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш ва коррупция даражасининг бир неча баробар қисқаришига эришиш ҳам ниҳоятда муҳим ўрин тутади [1].

Коррупция (*лот. corrumpere* — маънавий (ахлоқий) бузилиш, *лот. corruptio* — порага сотилиш, айниш) бирор мансабдор шахснинг қонунчиликка ва ахлоққа зид равишда ўзининг бошқарув ваколатлари ва ҳуқуқларидан шахсий манфаатлар мақсадида фойда олишидир. Мансабдор шахсларни сотиб олиш, уларнинг порага сотилиши ҳам коррупция дейилади. Атама одатда сиёсий соҳада фойдаланилади. Деярли барча давлатларда коррупция жиноят сифатида қаралади.

“Коррупция” сўзи одатда, мансабдор шахс ёки хизматчининг бошқа манфаатдор шахслар (жиноятчилар) билан келишиб, эгаллаб турган лавозими билан боғлиқ қандайдир ҳаракатларни содир этиши ёки ҳаракатлардан ўзини

тийиб туриши эвазига иккинчи томондан уларга моддий йўсиндаги манфаатлар берилишини англатади.

Демократик қадриятлар қарор топиб бораётган бир вақтда давлат хизматчилари томонидан коррупциявий жиноятларнинг содир этилиши давлат ҳокимиятининг обрўсизланишига, давлатнинг сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий тизимига путур етказишга, натижада амалдаги ҳокимиятга нисбатан норозиликка сабаб бўлади. Коррупциянинг маълум бир давлатда ривожланиши эса охир оқибат ўша давлатнинг таназзулига олиб келади.

Мамлакатимизда ҳуқуқий демократик давлат қуриш, фуқаролик жамиятини шакллантириш ва қонун устуворлигини таъминлаш жараёни тобора чуқурлашиб бораётган даврда мансабдор шахслар томонидан коррупцион жиноятлар, жумладан, порахўрлик, ўзгалар мулкини ўзлаштириш, талон-тарож ва бошқа уюшган жиноятларнинг содир этилиши республикамиз иқтисодий, сиёсий ва маънавий ҳаётида туб ислоҳотларнинг муваффақиятли ўтказилишига жиддий путур етказмоқда.

Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши ва Коррупцияга қарши курашиш агентлиги фаолияти йўлга қўйилди. “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида” ва “Давлат харидлари тўғрисида” муҳим қонунлар қабул қилинган. Бу қонунлар Янги Ўзбекистон учун мутлақо янги босқичдир. Коррупцияга қарши курашиш мақсадида ҳар бир вазирлик ва идораларда, шунингдек, хўжалик бошқаруви органларида комплаенс-назорат тизими босқичма-босқич жорий этилмоқда. Бюджет харажатларининг шаффофлигини таъминлашга хизмат қилувчи openbudget.uz; d.xarid.uz; e-xarid.uz; cooperation.uz каби махсус ахборот дастури ва порталлари ишга туширилди. Ходимларни давлат хизматига очиқ танлов асосида ишга қабул қилиш тизими яратилди [2].

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов “....худбинлик ва лоқайдлик, қариндош-уруғчилик ва маҳаллийчилик, коррупция ва манфаатпарастлик, бошқаларни менсимасликка бу иллатлардан жамиятимизни бутунлай халос этиш тўғрисида ўйлашимиз лозим” [3] деб ҳақиқатни айтгандилар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “....жамият ривожига ғов бўлаётган яна бир иллат – бу коррупция балосидир. Бундай хатарга қарши курашиш мақсадида “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонунни тезроқ амалиётга жорий этиш чора-тадбирларини кўришимиз лозим” [4] деб таъкидлаб ўтганлар. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни 2017 йилда қабул қилиниб, мазкур қонуннинг 3-моддасида коррупция тушунчасига қуйидагича: “коррупция яъни, шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеийидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш демакдир” [5] деб ҳуқуқий изоҳ берилди. Шунингдек ушбу қонунни ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси

Президентининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон республикаси қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори [6] қабул қилиниб, мазкур қарор асосида коррупцияга қарши курашиш бўйича Давлат дастури, коррупцияга қарши курашиш бўйича республика идоралараро комиссиясининг таркиби, коррупцияга қарши курашиш бўйича республика идоралараро комиссияси тўғрисидаги Низом тасдиқланди.

Коррупция жиноятининг моҳияти шундан иборатки, у энг аввало уюшган жиноий тузилмаларга мададкор бўлиш ёки тўғридан-тўғри ёрдам бериш учун давлат хизматининг имкониятларидан фойдаланади. Бу эса жиноятчилик ва коррупция жамиятга келтирадиган салбий оқибатлар туфайли жамият хавфсизлиги ва барқарорлигига тўғридан-тўғри таҳдиддир. Қонун чиқарувчи органлар масъулиятни кучайтириб, ўзгартишлар киритиб, ижтимоий муносабатларнинг ўсиши ва у билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг ва жиноятларнинг кўпайишини кузатиб боришга ҳаракат қилмоқда. Бироқ, кўпгина ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар учун қонун ҳужжатларидаги бўшлиқлар аниқ ва ҳар доим ҳам жавобгарлик тамойилларига мос келмайди: адолатлилик, тенглик, айбсизлик презумпцияси, жавобгарликни фарқлаш ва бошқалар шу жумладан [7].

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида коррупция билан боғлиқ ижтимоий хавфли қилмишлар кўрсатиб ўтилган бўлиб улар қуйидагилардан иборат: ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш (ЖК 167-м); жиноий йўл билан топилган мулкни олиш ёки ўтказиш (ЖК 171-м); бюджет ва смета-штат интизомини бузиш (ЖК 184^{1}-м);тижоратда пора эвазига оғдириб олиш(192^{9}-м);ҳокимият ёки мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш (ЖК 205-м);ҳокимият ёки мансаб ваколати доирасидан четга чиқиш (ЖК 206-м); ҳокимият ҳаракатсизлиги (ЖК 208-м); мансаб сохтакорлиги (ЖК 209); пора олиш (210-м); пора бериш (ЖК 211-м); пора олиш-беришда воситачилик қилиш (ЖК 212-м); давлат органининг, давлат иштирокидаги ташкилотнинг ёки фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органининг хизматчисини пора эвазига оғдириб олиш (213-м); давлат органи, давлат иштирокидаги ташкилот ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи хизматчисининг қонунга хилоф равишда моддий қимматликлар олиши ёки мулкий манфаатдор бўлиши (214-м); адолатсиз ҳукм, ҳал қилув қарори, аж рим ёки қарор чиқариш (ЖК 231-м); тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралашиш (ЖК 236-м); жиноий уюшма ташкил этиш (242-м); жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш (243-м) каби жиноятларни ташкил этади.

Коррупцияга қарши курашувчи субъектларга Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси; Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати; Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги;и Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги; Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш

департаменти ҳамда қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа давлат органлари коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни амалга оширади.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг коррупцияга қарши курашиш миллий тизимидаги фаолияти кўп қиррали хусусиятга эга. Бу “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонунга мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги жиноятчиликнинг, шу жумладан, унинг коррупциявий таркибий қисмининг профилактикаси ва унга қарши курашишнинг асосий субъектларидан бири эканлиги билан боғлиқ. Вазирлик ушбу соҳадаги ваколатларини амалга оширган ҳолда бошқа давлат ҳокимияти органлари, давлат органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқаролик жамияти институтлари ва фуқаролар билан ўзаро ҳамкорлик қилади [8].

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Жиноят қидирув бош бошқармаси [9] таркибида Коррупция ва иқтисодий жиноятларга қарши курашиш бошқармаси фаолият олиб бормоқда. Ҳозирги кунда мазкур бошқарманинг туман-шаҳар, вилоятларда ҳам бўлинмалари ташкил этилган бўлиб, ушбу тезкор-қидирув бўлинмалари асосан коррупцияга, иқтисодий ҳамда хўжалик фаолияти соҳасидаги жиноятларга қарши курашиш билан шуғулланади.

Ички ишлар органлари тезкор-қидирув бўлинмаларининг тезкор ходимлари томонидан коррупция билан боғлиқ жиноятларни тезкор-қидирув профилактикасини ташкил этишда қуйидаги вазифалар амалга оширилиши талаб этилади: *биринчидан,* коррупция билан боғлиқ бўлган жиноятларни келтириб чиқарувчи шароит ва сабабларни аниқлаш ҳамда уларни бартараф этиш бўйича чоралар кўриш; иккинчидан, мазкур жиноятлар хусусида аҳоли орасида тарғибот ишларини ўтказиш,жиноятларнинг профилактикасига жамоатчиликни кенг жалб этиш; учинчидан, коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг юзага келиши, тайёрланаётган ёки содир этилган жиноятларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этиш; *тўртинчидан*, коррупция билан боғлиқ жиноятларни тез ва тўла очилишини таъминлаш; *бешинчидан,* коррупция билан боғлиқ бўлган жиноятларни содир этиб тергов ва суд органларидан яшириниб юрган, жиноий жазони ўташдан бўйин товлаётган жиноий гуруҳ аъзоларини қидириб топиш каби тадбирлар амалга оширилади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ички ишлар органлари тезкор-қидирув бўлинмалар ходимлари томонидан коррупция билан боғлиқ жиноятларни тезкор-қидирув профилактикасини ташкил этишда ички ишлар органларининг соҳавий хизматлари, айниқса прокуратура органлари ҳамда давлат хавфсизлик хизмати ходимлари билан ҳамкорлик самарали йўлга қўйилиши, мазкур жиноятларга қарши курашишда ўзининг ижобий самарасини беради.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Тургумбаев Е.З. Опыт борьбы с коррупцией в органах внутренних дел Республики Казахстан // Вестник Сибирского юридического института МВД России. 2010. № 5. С. 144-150.
2. Бекмуродов Б. Роль общественности в борьбе с коррупцией. // Информационно-аналитический журнал “Антикоррупционный дайджест Узбекистана”. 2021. Том 1 № 1. – с. 33-36. https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol1-iss1-pp33-36
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – 176 б.
4. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови// Ўзбекистон Республикасининг сайланган Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси: www. uza.uz.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги ЎРҚ-419-сон “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 2-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 февралдаги ПҚ-2752-сон “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 5-сон, 62-модда.
7. Kalauov S.A., Khalmuratov A.O. Legal regulation of current problems in the administrative liability area for road safety. // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. September 16, 2022: № 2 (9) pp. 54-58. https://zenodo.org/record/7085369#.Y2CiBWdByUm
8. Ильичев И.Е. МВД России в системе противодействия коррупции // Проблемы правоохранительной деятельности. 2019. № 1. С. 28-42.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги 5005-сон “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 15-сон, 243-модда.

KONSTITUTSIYA-BIZGA BERGAN HUQUQ VA ERKINLIKLAR

Qadambayeva Ozoda Umid qizi
Ijtimoiy fanlar fakulteti 1 kurs yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

V.R.Topildiyev
Yuridik fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada bosh qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi, unda belgilangan huquq va erkinliklar, burch va majburiyatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquq,erkinliklar, xalq, fuqaro,j amiyat.

Hozirgi kunda siz-u biz yashayotgan dunyoda qaror topgan davlatlarning ko'pchiligida davlat va fuqarolarning munosabatlarini tartibga soluvchi hujjatlar mavjud. Shunday hujjatlardan eng kuchli ta'sir doirasiga ega bo'lgani bu – Konstitutsiyadir.Konstitutsiya (lotincha:constitutio –"tuzilish","tuzuk") -davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini,hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi.Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. O'zbekistonda yangi konstitutsiya ishlab chiqish g'oyasi mustaqillik e'lon qilinguncha, hali ittifoq mavjud paytdayoq vujudga kelgan edi. Shu davrdayoq yangi Konstitutsiyani qabul qilish uchun ma'lum sabablar, yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kela boshlagan edi. Jumladan, O'zbekistonda prezidentlik instituti vujudga keldi, saylov tizimi o'zgartirilib, muqobil saylovlar o'tkazila boshlandi, markaz bilan Respublika munosabatida yangi holatlar vujudga keldi, kommunistik partiya hukmronligiga barham berildi.

Mustaqillik uchun qo'yilgan shahdam qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi Konstitutsiya yaratish uchun ham asos bo'ldi.Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengash sessiyasida shu hujjat prinsiplari asosida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish zarur, degan xulosaga kelindi va Prezident Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun komissiya tuzildi. Bu ittifoq roziligisiz qilingan katta voqea edi. Komissiya keng vakillik xarakteriga ega bo'lib, uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, Toshkent shahri vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jalik rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar, mutaxassislar kiritildi.

Oliy Kengash o'ninchi sessiyasida komissiya tarkibi qisman o'zgartirildi. 1991-yil Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiyaning birinchi majlisi o'tkazilib, komissiya a'zolari va yetakchi mutaxassislardan tashkil topgan, 32 kishidan iborat ishchi guruh tuzildi. Uning vazifasi sifatida loyiha tayyorlash bo'yicha barcha ishlarni muvofiqlashtirish belgilanib, Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash uchun 6 ta kichik guruh tashkil qilinib, ularning har biriga Konstitutsiyaning muqaddimasini, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquq, erkinlik, burchlari, fuqaro va jamiyat, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi bo'limlarini tayyorlash yuklandi. Kichik guruhlar tarkibiga 50 nafar olim,

ilmiy xodim, mutaxassislar jalb etildi. Komissiya raisi ishchi guruh oldiga: konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasini o'rganish; boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik borasida qo'lga kiritgan yutuqlarini hisobga olish; keng xalq ommasi diliga yaqin va tushunarli bo‘lgan siyosiy-huquqiy hujjat yaratish vazifasini qo'ydi.[35]

O'zbekiston Prezidentining quyidagi so'zlari konstitutsiyaviy komissiya faoliyatini yaqqolroq ko'rsatadi.“… Islom Abdug‘aniyevich Karimov rahbarligida 1990-yil iyun oyida tuzilgan komissiyaning ikki yillik mashaqqatli mehnati natijasida Konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi, so'ngra uchinchi loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu komissiya a'zosi sifatida men ham shu tarixiy jarayonda ishtirok etganimni doimo faxr bilan eslayman. Konstitutsiyaning yaratilishi bilan bog‘liq qizg'in bahs-munozaralar, turli g’oya va fikrlar hali ham xotiramda”.[36] Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrda tayyorlab bo’lindi. U muqaddima, olti bo’lim,158ta moddadan iborat edi. O’zbekistonning mustaqillikka erishishi loyiha ustida ishlashni yanada jonlantirib yubordi. Konstitutsiyada siyosiy, iqtisodiy mustaqillik o’z aksini topishi kerak edi. Shular asosida loyiha takomillashtirilib, 1992-yil bahorida 149 moddadan iborat ikkinchi variant tayyorlandi. 1992-yilning kuz oylarida O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2-marta matbuotda e’lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Shu voqeadan so’ng, 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasi bo’lib o’tdi. Bu sessiya tarixiy sessiya bo’lib, tarixiy ahamiyatga ega masalani muhokama qildi. Ushbu sessiyada Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya raisi, O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ma’ruza qildilar. Ma’ruzada Konstitutsiya loyihasi batafsil bayon qilib berildi va deputatlar muhokamasidan o’tdi.Sessiyada loyihaga 80ga yaqin o’zgartirish, qo’shimcha, aniqliklar kiritildi. Loyihaning har bir moddasi, bobi, bo’limlari alohida-alohida muhokama qilinib, tegishli asosli takliflar inobatga olinib, o’zgartirishlar kiritilgandan so’ng, qabul qilinish uchun ovozga qo’yildi. Deputatlar yakdillik bilan muqaddima, olti bo’lim,yigirma olti bob, 128 ta moddadan iborat konstitutsiyani qabul qildilar. Ushbu Konstitutsiyamiz xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ongi va madaniyatini aks ettirdi. Chunki uni ishlab chiqishda va muhokama qilishda butun xalq ishtirok etdi.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”[37] ,

[35] **O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. B.39.**

[36] SH.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent. O‘zbekiston. 2018. B.5.

[37] SH.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining qabulqilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2017 yil. 8 dekabr.

degan so'zlar bilan Konstitutsiyamizga ham, uni vujudga keltirgan xalqimiz ongiga ham aniq ta'rif berilgan.Konstitutsiyamiz davlatchiligimiz tarixida qabul qilingan eng demokratik Konstitutsiya bo'ldi. Unda shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarda birinchi marta shaxs ustuvorligi, inson va uning huquqi, qadr-qimmati, sha'ni oliy qadriyat sifatida belgilandi, insonning yashash huquqi asosiy huquq sifatida mustahkamlab qo'yildi. (13-modda). Iqtisodiyotning bozor munosabatlari tamoyillari asosida mustahkamlanishi belgilandi; konstitutsiya asosida ko'ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi belgilandi; hokimiyatni tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mustahkamlandi; fuqarolik jamiyati asosi sifatida o'zini-o'zi boshqarish organlari mavqei konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yildi va xalq suvireniteti, davlat suvireniteti, davlat hokimiyati manbalarini mustahkamladi. Masalan, Konstitutsiyamizning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir'', degan qoidalar mavjud.Shundan, agar hokimiyat totalitar bo'lsa, xalqning tabiiy huquqlarini buzsa, xalqda unday hokimiyatni ag'darib tashlash huquqi bo'ladi. Bu xalq suvirenitetining haqiqiy ma'nosini ko'rsatadi"[38]. Ta'kidlash joizki, qonunlarni ishlab chiqishda ko'p asrlik milliy huquqiy me'ros va qadriyatlarimizga tayangan holda xalqaro huquqning umum'etirof etilgan qoidalari barobarida, rivojlangan demokratik davlatlarning huquqiy tajribalarini atroflicha o'rganilgan va buning natijasida haqiqiy sharqona, o'zbekona yaratuvchanlik yo'li shakllanganligini faxr bilan e'tirof etsak arziydi. Shu bilan birga, konstitutsiyalar ma'lum taraqqiyot mahsuli, ma'lum mamlakatda yashayotgan xalqning ongi, dunyoqarashi mahsulidir. Unda tarixiy taraqqiyot tajribasi, milliy qadriyatlar, xalqning ma'naviy va axloqiy turmush tarzi, albatta, aks etadi, bu har bir mamlakatning konstitutsiyalarida umumiylik bilan birga, o'ziga xos xususiyatlar bo'lishini taqozo etadi. "Konstitutsiya insoniyat tarixida taraqqiyotning ma'lum vaqtida, yangilikning eskilik ustidan, erkinlikning haqsizlik ustidan,taraqqiyotning turg'unlik ustidan g'alabasini qonuniy mustahkamlagan hujjat bo'lib, u insonning or-nomusi, qadr-qimmati, mol-mulki himoyachisidir", degan ta'rif konstitutsiyaning o'rnini ko'rsata oladi. Konstitutsiyaning vujudga kelishi insoniyat tarixi taraqqiyoti mahsuli bo'lib, u butun dunyoda rivojlanishga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Tabiiyki har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir"[1] , – degan so'zlari nafaqat O'zbekiston Konstitutsiyasiga, balki umumjahon konstitutsiyalariga berilgan bahodir. "Xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish – Konstitutsiyamizning bosh maqsadidir"[2], – degan so'zlar uning mohiyatini yanada ishonchli ko'rsatib beradi. Shuningdek, Konstitutsiya boshqa qonunlar kabi faqat yuridik hujjat sifatidagina namoyon bo'lmay, u siyosiy hujjat hamdir. Chunki Konstitutsiya jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni ham tartibga solishga ta'sir etadi. Masalan, hozirgi konstitutsiyalar faqat shaxs va davlat munosabati, hokimiyat tizimini mustahkamlab qolmay, jamiyatdagi boshqa tuzilmalar faoliyatini ham

[38] **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2021 y. 7– modda.**

tartibga solmoqda, masalan, jamoat birlashmalari, oila va boshqalar. Bundan tashqari, konstitutsiyalarda inson va davlat munosabatida inson manfaatlarining ustunligini ta’minlovchi, hokimiyat faoliyatini cheklovchi, davlatga aniq majburiyatlar yuklovchi normalar kengroq o’rin olmoqda.Har bir mamlakatning konstitutsiyasiga xos eng asosiy xususiyat bu—konstitutsiyaning asosiy qonunligidir. Konstitutsiyaning umumiy xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi va ularga qo'yiladigan umumiy talablar bo’kishini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari xamisha ustivor, birlamchi kuchga egadir. Boshqa qonunlarning barchasi u yoki bu tarzda konstitutsiyaviy meyorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro‘yobga chiqaradi. Uning asosida normativ huquqiy-hujjatlar ishlab chiqiladi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi kuchli axloqiy zaminga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g‘oyalari mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning “insonga qaratilganligi” xususiyatini alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Konstitutsiyaning markazida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlari turadi[39].

Xulosa qilib aytganda, o’z huquq, erkinlik va burchlarimizni yanada chuqurroq anglashda qonunlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya huquq va erkinliklarni mustahkamlash bilan birga, fuqarolar zimmasiga burch va ma’suliyatlar yuklaydi. Konstitutsiyani bilgan kishi o’z xatti-harakatini qonun doirasi ichida amalga oshiradi va boshqa kishilarning, jamiyat va davlatning huquqi hamda erkini hurmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. B.39.
2. SH.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent. O‘zbekiston. 2018. B.5.
3. SH.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining qabulqilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2017 yil. 8 dekabr.
4. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2021 y. 7– modda.
5. Топилдиев В.Р. Олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари. Т., 2018. -Б.9.

[39] Топилдиев В.Р. Олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари. Т., 2018. -Б.9.

KONSTITUTSIYA - BOSH QOMUSIMIZ

M. Bozorova
Ijtimoiy fanlar fakulteti 1 kurs yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

A.A.Insopov
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati, ilk qabul qilingan konstitutsiyalar va ularning insonlar hayotida tutggan o'rni masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyasi, sud tizimi, saylov tizimi, Yusuf Xos Xojib, AQSH Konstitutsiyasi, Mustaqillik Deklaratsiyasi, Oliy Kengash.

Jahonda har bir konstitutsiya birlamchi qonun sifatida davlat faoliyatining asosiy yo`nalishlari, uning suvereniteti, tuzilishi va boshqaruv shakli, siyosiy tartiboti hamda davlat huquqiy hayotining asosini tashkil etadi, shu bilan birga, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati doirasi hamda shakllantirilish tartibi sud tizimi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini belgilab beradigan oliy yuridik kuchga ega xuquqiy hujjat sanaladi. Konstitutsiyaning ibtidosi aslida qadimgi Afina huquqiy hujjatlari bo'lsa ajab emas. "Konstitutsiya" so'zi lotinchada constitutio – tuzum, tuzilish ma'nosini anglatadi. Konstitutsiya" atamasi Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo'lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Ya'ni, Qadimgi Rimda imperatorlar tomonidan kontitutsiyalar qabul qilingan[40]. Bundan qariyb to'rt ming yil avval qadimgi Bobilda yaratilgan Xammurapi qonunlarida ham konstitutsiyaga xos ko'pgina jihatlar o'z aksini topgan.[41]

Konstitutsiya tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozir biz tasavvur etadigan konstitutsiyalarning paydo bo'lganiga hali uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ba'zi manbalarda dastlabki konstitutsiya sifatida 1787 yili Filadelfiyada qabul qilingan AQSH konstitutsiyasi tilga olinadi. Aslida undan oldin qabul qilingan konstitutsiyalar ham bor. Bu dunyodagi eng kichik davlatlardan biri – San-Marino (hamma tomondan Italiya hududi bilan o'ralgan) Respublikasining 1600 yilda qabul qilingan asosiy qonunidir. 1710 yil 5 aprelda qabul qilingan Filipp Orlik konstitutsiyasini ham ba'zida Yevropaning ilk konstitutsiyasi sifatida e'tirof etishadi.

Sharq mamlakatlarida diniy ta'limot, xususan, islom dini ko'rsatmalari, shariat qoidalari konstitutsiya vazifasini ham bajarib kelgan. Bundan tashqari, ulug' ajdodimiz Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga bosh lovchi bilim") asarida davlat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lishi lozimligi teran yoritilgan. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar"i bu borada bebaho siyosiy, huquqiy, ma'rifiy qo'llanma bo'lib, undagi ko'pgina g'oyalar hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

[40] Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. Дарслик Т., "Янги аср авлоди" 24-25 бетлар.
[41] https://huquq.uz/2020/11/23/dunjo-konstitucijalari/

Bugungi kunda mutlaq ko`pchilik davlatlar o`z konstitutsiyalariga ega, biroq huquqiy hayotida konstitutsiyasi mavjud bo`lmagan Isroil, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya kabi davlatlar ham topiladi va ular orasida taraqqiyotning yuksak cho`qqisiga erishgan davlatlar ham talaygina. Nima bo`lgan taqdirda ham, davlat mavjud bo`lishi uchun zaruriy elementlardan biri bo`lgan konstitutsiyaning mavjudligi davlat faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishiga nazar soladigan bo`lsak, ushbu olamshumul tarixiy voqeaning asoslari sovet davriga borib taqaladi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquq subyektiga aylanishi, mustaqil davlat sifatida jahonga tanilishi ham Konstitutsiya qabul qilinishini talab qilardi. Aslini olganda, “Mustaqillik Deklaratsiyasi“ qabul qilingan O‘zbekiston Oliy Kengashining 1990 -yil 20-iyunda bo‘lgan ikkinchi sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiya O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo‘jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida qariyb 2,5 yil ishladi[42].

Olib borilgan izlanishlar natijasida Konstitutsiyaviy komissiyaning 1991-yil 12-aprelda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida komissiya a’zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tuzildi. Konstitutsiya bo‘limlarini tayyorlash bo‘yicha 50 kishidan iborat 6 ta kichik guruhlar tuzildi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, bu qonunga Konstitutsiyaviy maqom berilishi Konstitutsiyaviy komissiyaning mas’uliyatini yanada kuchaytirdi.

Komissiya tomonidan Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiya rivojlanishining jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g‘oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi. Dastlabki muqaddima, 6 bo`lim, 158 moddadan iborat konstitutsiya namunasi 1991-yilning oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo`lindi. Biroq ushbu loyihada ma`lum kamchiliklarning mavjudligi hamda mukammal emasligi bois, uning ustida yanada jiddiyroq ishlash kerak edi. Shu sababdan 1992-yilning bahorida esa 149 moddadan iborat ikkinchi variant ishlab chiqildi. Odatda ko`pgina davlatlar Konstitutsiyasi nufuzli ekspertlar, deputatlar tomonidan ishlab chiqilib, so`ngra parlamentda qabul qilinadi. Bunday hujjatlar mutaxassis nuqtai nazaridan yuqori baholarga sazovor bo`lsa-da, unda xalqchillik, xalq ruhiyati yetishmaydi. O`zbekiston Konstitutsiyasining o`ziga xos jihati shundaki umumhalq

[42] R.H.Murtazayeva va boshqalar. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Toshkent:.2022. B. 68.

muhokamasiga qo‘yilishidir. 1992-yil 26-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Muhokama 2 oyga yaqin davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e’lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Birinchi Prezident I.A.Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi[43].

Oliy Kengashning 1992-yil dekabrda bo‘lgan XII sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qilindi. Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e’tirof etilgan qoidalariga amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining tajribasidan foydalanildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, O`zbekiston Reapublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida 1992-yilning 8-dekabrida 80 ga yaqin o`zgartirish va aniqliklar kiritilgan holda davlatchiligimiz asosi bo`lgan Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiya 128-modda, 6 bo‘lim, 26-bobni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi va Konstitutsiya qabul qilingan sana umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e’lon qilindi.

Savol tug`iladi, Konstitutsiyani o`rganish nima uchun kerak? O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining sakkiz yilligi munosabati bilan o`tkazilgan yig`ilishda aynan ushbu savolni o`rtaga tashlab, “Ming afsuski bu sir emas-ko`pchiligimiz Konstitutsiyaning ma`no-mazmunini yaxshi bilmaymiz, uni sinchiklab o`rganmaymiz. Vaholanki, agar Konstitutsiyamizning mohiyatiga kirib borsak, mag`zini chaqsak, bugun oldimizda turgan ko`pgina savollarga, muhim muammolarni yechishda javob topishimiz mumkin”[44], - deb javob bergan edi.

Ushbu nutqdan so`ng Konstitutsiyani o`rganishga e`tibor yanada kuchaytirildi hamda asosan ta`lim tizimidagi muassasalarida “Konstitutsiyani o`rganish kursi” o`qitilishi belgilandi. Mazkur kursning asosiy maqsadi o`sib kelayotgan yosh avlodga Konstitutsiyaning nafaqat davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida, balki xalqimizning kundalik hayotida ham yuksak o`rni mavjudligini uqtirishdan iborat qilib qo`yildi. Bugun O`zbekiston taraqqiyot yo`lining yangi bosqichiga kelib ham aholining Konstitutsiya to`g`risidagi bilimlari va qarashlarini yanada kengaytirish davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Xususan, 2020-yilining dekabrida

[43] R.H.Murtazayeva va boshqalar. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Toshkent:.2022. B. 69.
[44] И.А.Каримов. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2001. Б.134-135.

Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan o`tkazilgan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev o`z nutqida mazkur masalaga alohida e`tibor qaratdi va unga ko`ra: “...Bosh qonunimizni chuqur o`rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so`zsiz amal qilish – barchamizning burchimizdir”[45]- deb ta’kidlab o‘tadi.

Qayd etish joizki, dunyoning eng rivojlangan davlatlarining konstitutsiyalari bilan bemalol tenglasha oladigan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o`tgan davr mobaynida bir qancha o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan. Chunonchi, ushbu davrda Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari, inson huquqlari, erkinliklari va burchlari, O`zbekistonning ma`muriy-hududiy tuzilishi, chegaralariga doir huquqiy normalar o`zgarishsiz qoldi. Kiritilgan barcha tuzatishlar faqatgina davlat hokimiyatini tashkil etish bo`limiga kiritilgan o`zgartirishlar hisoblanib, u ham bo`lsa mamlakatimizda demokratik tartibot shakllarini yanada kengaytirish, davlat hokimiyatini tashkil etish va boshqarishda fuqarolarning ishtiroki va ta`sirini har tomonlama kengaytirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsiyaviy va odil sudlovning o`rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan tuzatishlardir.

Umuman olganda, insonparvar Konstitutsiya hisoblanuvchi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy davlatchiligimiz asoslarini, mamlakatimizning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma`naviy hayotini tartibga soluvchi, inson huquq va erkinliklari himoyasini kafolatlovchi, fuqarolarning asosiy burchlarini belgilab beruvchi, davlat faoliyatining asosiy yo`nalishlarini yuridik jihatdan asoslovchi yagona qonun sifatida qaralib, uni chuqur bilish orqaligina Vatanga sadoqat, jamiyatga hurmat paydo bo`lib, belgilangan normalarga ixtiyoriy ravishda amal qilishga olib keladi.

Ma’lumki 2022 yil 20 iyun kuni muxtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev respublika Konstitutsiyaviy komissiyasi a’zolari bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida davlat rahbari Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish yuzasidan fuqarolar tomonidan bildirilgan ayrim takliflarga munosabat bildirish asnosida o‘z takliflarini ilgari surdi. Prezidentimiz, dastavval, konstitutsiyaviy islohotlarning bugungi kundagi zaruratiga qisqacha to‘xtaldi. Uning ta’kidlashiga ko‘ra, bugungi kun hamda kelgusida davlat va jamiyatda insonning o‘rni, davlat va jamiyat faoliyatidagi ustuvor siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ma’naviy-gumanitar tamoyillar, aholi farovonligi hamda jamiyat va davlat taraqqiyotini ta’minlashda konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyatini aniqlab olish davr taqozosi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, «asosiy qonunimizni bugungi hayot talablariga mos holda yangilashni” talab etadi.

Xulosa qilib aytganda “Konstitutsiyamiz o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra xalqimiz tafakkurining mahsuli bo‘lib, u davlatni davlat, millatni millat sifatida tanitadigan qomusnoma” bo‘lib, uning barcha moddalari dunyoda umume’tirof

[45] Ш.М.Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2018, 3-том Б. 59.

etilgan tamoyillar, xalqaro huquq normalari va boshqa bir qator xalqaro hujjatlardagi umuminsoniy tamoyillar mazmuni bilan xamoxangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. Дарслик Т., “Янги аср авлоди” 24-25 бетлар.
2. И.А.Каримов. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2001. 275 б.
3. Ш.М.Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2018, 3-том, 400 б.
4. R.H.Murtazayeva va boshqalar. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Toshkent:. 2022. 348 б.
5. https://huquq.uz/2020/11/23/dunjo-konstitucijalari/

FILOLOGIYA FANLARI

LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF NICKNAMES IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES (as the example of english and uzbek languages)

Nazarov Ziyoviddin Muhammadrasul ogli
Ferghana State University, Linguistics (English Language)
nazarovziyoviddin@gmail.com

Abdullayev Ziyodbek Mansurovich
Ferghana State University, German and French languages departament PhD
nursuh@mail.ru

Abstract. In the article, there is information given about linguopragmatic characteristics of nicknames in different systemic languages (as the example of English and Uzbek languages).

Key words*:* language, foreign language, nickname, systems, features.

Introduction: World people‘s culture differs that it was like, people to live condition, life level various to look have Like this they are mentality and character characteristics are also different.

Uzbek culture and manners features English from culture sharp difference does especially nicknames and nicknames to the front when stopped this more bright manifestation will be Why, English in culture nickname, that is nicknames put usual case considered friendly near relationship means Uzbek cultural in the system this very inappropriate and rough relationship sign is considered.

Nicknames structure aspect according to many to species have is considered Including:

- People for placed nicknames;
- Animals for placed nicknames;
- Lifeless goods, buildings for placed to nicknames is divided.

English in culture a person nicknames as a middle name confession will be done and it is called "Nickname". Nickname is often near to the relationship introductory persons in the middle used, official didn't happen to the tune have will be Uzbek in the language nicknames of individuals external appearance, defect and disadvantages or achievements as a result according to if named, English in the language nicknames own personal freedoms based on is selected and it is insulting and discrimination from the tone far away will be Uzbek in the language while basically discrimination and defects over to laugh based on, less cases personal individual achievements and intelligence to levels is based on Uzbek in the language sometimes to the ear nickname the term is also used.

Nickname this to individuals special term being human _ known one activity conduct in terms of selected is a nickname. Animals for etc placed nicknames all in the states and they are in culture big to the difference have not _ Basically to animals etc placed Nicknames of animals external structure, volume and

apparently looking is called. Lifeless object, building and to structures placed names basically comparative and praise feature have is portable _ and own in the sense of to the language is taken. Like that names - city, village and regions can also be used

For example:

- Second Switzerland - Zomin ;
- The jewel of Samarkand the case the ground.

Nickname (Arab. — to get rid of, get rid of to be) - something creator (poet, writer, scientist and that's it as) or political of characters himself for choose received second name _ Har one the author a nickname certain goals in the eye held without uses. For example: public in the middle own creativity emphasizing to show, from one 's name dissatisfaction, certain danger, threat escape, hide and other.

East art and literature representatives, big scientists to themselves different to things, quality and properties hint in the style of (Ulugbek - Muhammad Taragai, Navoi, Lutfiy, Babur, Mujrim Obid, Munis, Zavqi), occupation, profession relatively (Gulkhani, Charkhi), born or lived to the place relative to (Bukhari, Koshgari, Marginani, Nasafi, Tarazi, Khorezmi, Khojandi, Chusti, Shoshi, Yugnaki, Yassavi), living style or in part hint as (Gadoi, Garibi, Uzlat, Muqimi, Furqat) and another to factors karab nickname those who received or chosen ones. Many in the East and in the West creators only nickname with famous were _ For example, Beruni - Abu Rayhan Muhammad ibn Ahmad, Nawai - Ghiyaziddin son Alisher, Resident - Muhammad Aminkhoja son, Aybek – Musa Tashmuhammad son, Yashin - Kamil Numanov, Chusti - Nabikhan Khojayev ; Stendhal - Henri Marie Bayle, George Sand - Aurora Dupin and another some poets suddenly more than nickname with (Navoi - Foni ; Mujrim - Abid ; Nadir - Uzlat - Mahjur ; Nadira - Maknuna - Komila like), sometimes one how many a poet one nickname with creation those who did.

East classic of literature almost all representatives, the majority scientists and some political characters known nickname have were _ Nickname of application in literary studies importance big : bayoz, devon, complex such as manuscript sources in the texts applied nickname because of belongs to of works authors determined. Navoi nickname that's it meaningful importance " Lison uttayr " in the work as follows explains : Scene debosiyu poem essay, Who is a pseudonym nozimi tam/ osidur. who is this moment together found privilege Ne varaqkim, nazm did avin ok _ Who is this ? Sa'di either Nizami's of course, Yo this Khusrav 's, this Jami's it's worth it.

Current in the day your nickname a poet or the writer own Name and surname without addition used appearance occurs : Ghafur Ghulam, Abdulla Qahhor, Izzat Sultan, Jamal Kamal, Usman Azim and other. English in the language nickname as follows classified. A nickname (also called a) is a pencil name) person by assumed to be hidden done fake name Quality : nickname.

From nicknames which uses writers this different reasons according to they do For example, JK Harry Potter novels famous the author Rowling his own the first crime the novel publication did (Kuko's call, 2013) Robert Galbraith nickname with. " Imagination and hopeless publication reach very Excellent "It's done, " he said Rowling identity when determined.

American writer Joyce Carroll Oates (also Rosamond Smith and Lauren Kelly aliases under novels publication) emphasizes, " pen name " about " too great, even to the children special has been thing have : you who writes to the instrument fictitious name, and not attached you " (Writer 's Faith, 2003).

The following examples and to observations see _ Also see :

Nickname — 1) of a person appearance, behavior, training or something feature looking to be given second name. Mac, Jorah Pason, Scientist Worry, Zakir Cold, Abdullah Khoroz such as of names second part It is L. Usually, L. is used place and to the goal looking positive or negative to the meaning have will be Literary in the works artistic tool is also used as Writer and of the poet from this purpose character or of the image certain from the side exaggeration, his any feature development, returns escape and work color your language is to do L.'s some of them in literature in general gone _ For example, Majnun (crazy) of Qays, Kohkan (mountain). kazar) of Farhad L. is ; 2) classic literature during nickname in the sense of applied word _ For example, Navoi in his works himself about "al- mulaqab bin - Nawai " (" Nawai nicknamed received ").

List of references

1. Uzbekistan national from the information of the encyclopedia (2000-2005).
2. https://mpradist.ru/uz/chto-takoe-prozvishche-klichka-kakoe-laskovoesmeshnoe-miloe-prozvishche-pridumat.html
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nickname
4. https://zapchina.ru/uz/horse/insulting-nicknames-for-guys-by-name-whatis-a-nickname-and-how-to-come-up-with-a-nickname/
5. https://02stroy.ru/uz/kozyrki-i-navesy/klassnye-niki-na-angliiskom-dlyaparnei-psevdonimy-dlya-devushek.html
6. https://valenteshop.ru/uz/angliiskie-niki-s-perevodom-dlya-parneiprikolnye-i-krasivye-niki/
7. https://dinelli.ru/uz/bolezni/derzkie-niki-dlya-parnei-na-angliiskompsevdonimy-dlya-devushek-krasivye.html
8. https://uz.eferrit.com/taxallus

ZULFIYA QUROLBOY QIZI IJODIDA AYOL RUHIYATI VA IJTIMOIY HAYOT TASVIRI

Odilov Xurshidbek
FarDU magistranti

Annotatsiya. maqolada Zulfiya Qurolboy qizi ayol obrazini yaratish mahorati, ayol ruhiyatini ochishdagi ayo ijodkorning ijod laborotoriyasi, ayol xarakterini o‘zgarishida tashqi omillar ta’siri kabi masalalar ilmiy jihatdan asosli tarzda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: obraz, xarakter, tip, ijtimoiy hayot, detal va uning turlari, ayol ruhiyati tasviri, ijod jarayoni, tashqi omillar.

Аннотация. В статье научно раскрываются способности Зульфии Курольбой к созданию женского образа, творческая лаборатория художницы по раскрытию женской психики, влияние внешних факторов на изменение женского характера.

Ключевые слова: образ, характер, тип, социальная жизнь, деталь и ее виды, образ женской психики, творческий процесс, внешние факторы.

Annotation. In the article, Zulfiya Kurolboy's ability to create a female image, the creative laboratory of the artist in opening the female psyche, and the influence of external factors on the change of the female character are revealed scientifically.

Key words: image, character, type, social life, detail and its types, image of female psyche, creative process, external factors.

Har qanday badiiy asarda yaratilajak obraz, avvalo yozuvchining kishilarga va hayotga munosabatini aks ettirish vositasi hisoblanadi. Ayni chog’da u muallifning hayot hodisalariga bergan estetik bahosi hamdir. Har bir personaj o’zida yozuvchining estetik idealini u yoki bu darajada tajassum etadi. Bu vazifani bajarish uchun o’sha obraz muayyan ijtimoiy sharoitda, ruhiy-ma’naviy muhitda harakatlanishi zarur. Bu tabiiy ravishda ro’y berishi zarur. Mabodo, san’at asarida muallif hayotdagi mavjud narsalarga, voqea-hodisalar va odamlarga, ularning taqdiriga faqat sun’iy, rasmiy taqlid qilish maqsadi bilan yondashsa, bu badiiy asar emas, mahorat bilan yasalgan narsalar majmuasidangina iborat bo’lib qoladi. Bunday sun’iylikdan holi bo’lish uchun san’atkorning estetik tafakkuri aniq va barqaror bo’lmog’i shart [1, 56.]

Asarni tahlil qilish, uni har tomonlama o’rganish uchun uni shunga o’xshash boshqa bir asar bilan taqqoslab tahlil etish lozimdir. Shu sababli taniqli adabiyotshunos va tanqidchi Yo’ldosh Solijonov Zulfiya Qurolboy qizi asarlarini yana bir yozuvchimiz Salomat Vafo asarlari bilan taqqoslagan holda, uning badiiy go’zalligini, yozuvchining estetik idealini yanada yorqinroq ranglarda ochib berishga erishgan.

Badiiy adabiyotda inson obrazini to’laqonli yaratish, uni o’quvchi ko’z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret,badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi. Xuddi mana shu unsurlar badiiy adabiyotda to’laqonli inson

obrazini yaratishdagi eng muhim omillar sanaladi. Chunki o'quvchi ko'z oldida qahramon xarakteri, uning tuzilishi, shakl-u shamoyili to'liq ochib berilmasa, bu qahramon o'quvchi uchun mavhum bo'lib qoladi.

Fransuz san'atshunosi Ippolit Ten (1828-1893)ning hikoya qilishicha, amerikalik oddiy bir askar teatrga tushib, "Otello" spektaklini tomosha qiladi. Sahnada Otello rashk o'tida yonib, sevimli xotini, pok Dezdemonani bo'g'ib o'ldirar ekan, tomoshabin askar undan bag'oyat nafratlanib ketadi va Otello-aktyorni otib tashlaydi.[2, 237]

Zulfiya Qurolboy qizining "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" asarlarida bevosita bozor munosabatlari avjiga chiqqan sharoitda shakllangan, tafakkuri uyg'ongan, o'zligini anglagan va anglay olmagan odamlar toifasi haqida hikoya qilinadi. Shu narsani alohida ta'kidlash o'rinliki, har bir adib tanlagan mavzu va muammoga o'z estetik ideali nuqtai nazaridan yondashadi. Bu asarlarda bozor boshqaruvi sharoitida ayol shaxsining o'rni va qismatiga alohida e'tibor berilgan. "Armon asirasi" romani qahramonlari Nasiba, Hulkar Armon, Zuhra "Mashaqqatlar girdobi"dagi Nargiza, Sanobar, Gulruh va boshqa epizodik xarakterdagi ko'plab personajlarning har biri o'quvchida turlicha taassurot qoldiradi. Yaratilgan bu obrazlarning har-biri katta-kichikligidan qat'iy nazar, o'z g'oyaviy-badiiy yukiga ega ekanligini alohida qayd etish zarur. Biroq qahramon mana shu yukni yozuvchi ko'zlagan manzilga olib bora oldimi, o'z vazifasini qay darajada ado etdi degan savol bilan yondashadigan bo'lsak, ijodkorning badiiy saviyasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov Zulfiya Qurolboy qizini Salomat Vafo asarlari va qahramonlari bilan o'zaro qiyoslaydi. Ikkala adibaning umumiy jihatlari sifatida turli toifalarga mansub bo'lgan ayol qahramonlarining har bir harakati, o'yi orqali davrining muhim muammolariga ishora qiladilar. Saltanat Vafoning "Ovoraning ko'rgan-kechirganlari" asarlaridagi tasvirlangan Saltanat, Malika, Maqsuda kabi ayol qahramonlar tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Nasiba va Maqsuda- oddiygina uy bekasi, Hulkar Armon va Saltanat ijodkorlar toifasidan, Malika- o'qituvchi, Gulruh- shifokor, Nargiza va Sanobar, Zuhralar oldi-sotdi savdosi bilan shug'ullanib, boyishni orzu qilgan ayollar hisoblanadi.

Zulfiya Qurolboy qizi davr manzarasi, bozor iqtisodiyoti kun tartibiga qo'yayotgan muammolarni kengroq qamrab olishga urinadi. Ayrim firibgarlarning lotoreya o'yini orqali boyib ketayotgani, kun sayin ko'payib borayotgan xususiy gazetalarning sahifalarida e'lon qilinayotgan yengil- yelpi, oldi- qochdi va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi maqolalar odamlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazayotgani Hulkarning afsus- nadomatli o'ylari orqali o'z ifodasini topgan. Shunisi muhimki, yozuvchi yaratgan har bir obraz katta-kichikligidan, muhim yoki nomuhimligidan qat'iy nazar, o'zi mansub bo'lgan tabaqaning xarakterli xususiyatlarini mujassam etishi bilan yozuvchi g'oyaviy niyatining aniq ifodalanishiga yordam beradi. Avvalo, yozuvchining estetik ideali musaffoligi

bilan e'tiborni tortadi. U hamma narsadan poklik, ezgulik unsurlarini qidiradi. Masalan, "Armon asirasi" romanidagi Nasiba eri Donishning o'limidan so'ng jinsiy ehtiyojni xayoliga mutlaqo keltirmagan holda, qo'pol va bezori kimsa Talgatga ayollik mehrini bag'ishlab, uni ham jismoniy xastalikdan, ham miyasiga o'rnashib qolgan yovuzlik niyatidan xalos etadi. Eri tashlab ketib beva qolgan Hulkar Armon ham hayotda, ham ijodda pokiza axloqini namoyon qiladi. Bu borada o'zi namuna ko'rsatibgina qolmay, balki yomon yo'lga kirib ketgan Nasiba va Zuhrani izlab topib, tanbeh beradi. Yoki "Mashaqqatlar girdobi"ga tushib qolgan Gulruh o'zining tashqi go'zalligi bilan emas, balki axloqiy pokizaligi, muomalasining shirinligi bilan nafaqat mardikorlarning, ayni chog'da, butun vujudidan "allaqanday yovuzlik hidi keladi"gan Po'lat Damirovichni ham, qo'lini qayoqqa uzatsa yetadigan boshliq Hakim Nazarich ham tiz cho'ktiradi. Bu ayollar o'zlarining axloqiy go'zalligi bilan o'zgalar axloqining o'zgarishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.[1, 58]

Shu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizining obraz yaratish mahoratiga yana bir bor tasannolar ayta olamiz. Chunki u o'z asarlarida farishtaga qiyos etilajak ayol zotini butun go'zalliklari bilan, holbuki tashqi go'zalligi bilan ichki dunyosining betakrorligi bilan tasvirlay oladi. U yaratgan ayollar obrazi va ularning ruhiyati shunday o'ziga xos xususiyatlarga egaki, ularda barcha ayollarga xos bo'lgan umumlashma va fazilatlar o'z ifodasini topa oladi. U o'z asarlarida ayollarni turli taqdir qiyinchiliklari bilan sinaydi va bu sinovlar orqali ularning nechog'lik kuchli hamda irodali ekanliklarini yana bir bor ko'rsatib beradi. Bu qiyinchiliklar ichida Zulfiya Qurolboy qizi ayolning pok nomini hamda uning ulug'vorligini har qanday holatda ham saqlab qola oladi. Uning qahramonlari hayotdagi chang-g'uborli, bo'ronli ko'cha va g'urbatli manzillardan o'zlariga hech qanday g'ubor, chang yuqtirmasdan bemalol shahdam qadamlar bilan o'z or- nomuslarini himoya qila oladilar.

Shu o'rinda Yo'ldosh Solijonovning bu qahramonlar haqida keltirgan yana bir fikrini keltirib o'tmoqchiman. Binobarin, san'at asarining bosh maqsadi azal-azaldan insonga xos ehtiroslarning qandayligidan qat'iy nazar, poklantirishga yo'naltirish va shu yo'l bilan kishilarni yaxshilikka o'rgatishdan iborat bo'lib kelgan. Faylasuf Gegelning ta'kidlashicha, san'at insonning axloqiy kamolotini tarbiyalash uchun, eng avvalo, "dag'allikni jilovlashi, ehtiroslarni madaniylashtirishi kerak". Shu jihatdan Nasiba, Hulkar Armon va Gulruhlarning xarakteri ibratlidir. Nasiba romanning boshidan-oxirigacha bir dunyo ehtiroslar qurshovida yashaydi. Ishga bormayotgan "dangasa", pul topib kelishga "no'noq", oila ro'zg'orini eplolmayotgan "noshud" eri Donishga dastlab qo'rs, dag'al, betgachoparlik bilanmuomala qiladi. Eri vafot etganidan keyin esa, birdaniga muloyimlashadi, uning o'limida o'zini aybdor deb biladi. Eriga o'z vaqtida ko'rsatolmagan mehrini ayollarni qiynab azoblashdan lazzatlanadigan xudbin Talgatga in'om etadi. Erining ruhi oldida qarzdorlik hissi tufayli ayol tabiatida paydo bo'lgan qo'rqinch, andisha, rahm-shafqat, hayajon va iztirob unga tinchlik bermaydi. Bu his- tuyg'ular bir-biri bilan tinimsiz kurashadi. Natijada, Nasiba

bozorga ham chiqmay qo'yadi, pul topishni, o'zi va bolalari qanday kun kechirishini o'ylamaydi. Har kuni Talgatni yo'qlab boradi, uni ovqatlantiradi, uyini tozalaydi, kirini yuvadi. Nasiba bu ishlarni bir bemorning ko'nglini olish, uning hasta tani va ruhiga bardamlik bag'ishlash niyatida beminnnat bajaradi. Ayol o'zining mana shunday pokiza axloqiy go'zalligi bilan Talgat tafakkurida tomir otgan yovuzlikni ezgulik sari yo'naltiradi.[1, 60]

Ayol hamma zamonlarda ham poklik, ezgulik timsollari sifatida talqin qilinib kelingan. Xuddi mana shu aqidalarga amal qilgan holda yozuvchimiz ham har qanday holatda ham uning bokiraligini, axloqiy yetukligini ko'rsatib bergan. Ammo hayotda hamma narsa bir xil, faqat yaxshiliklardangina, go'zalliklardangina iborat bo'lib qolmagani singari ayollarning ham barchasini birday yaxshi deb tushunish to'g'ri emas. Sanobar kabi qahramonlar aynan mana shu fikrni bildirib o'tish uchun asarda keltirib o'tilgan. Agar asarda bu kabi obrazlar bo'lmaganida edi, bu holat asar qimmatini biroz tushurib yuborgan bo'lar edi. Chunki har qanday asar voqealari hayotdan olib yozilgan bo'ladi va biz hayotda bu kabi ayollarni uchratishimiz mumkin bo'ladi. Zulfiya Qurolboy qizi ularni ochiq-oydin irodasizlik, xayosizlik kabi illatlar bilan tasvirlamaydi. Ularni hech qanday ayb ish bilan ham qoralamaydi, faqatgina hayot majburiyati bilan ularning qalbida paydo bo'lgan bu kabi tuyg'ularni berib o'tadi xolos. Salomat Vafo esa ularni qanday bo'lsa shundayligicha ochiq-oydin tasvir etadi. Bu esa yozuvchi idealining qanday ekanligini yana bir bor ko'rsatib bergan.

Eng asosiysi ijodkorimiz qahramonlari o'z baxtlarini o'z qo'llari bilan bunyod etadilar va bu baxtning qadriga yeta oladilar. Bunga misol qilib chiroyda tengi yo'q Gulruh, Hulkar Armonlarni keltirishimiz mumkin. Adibamiz qahramonlari hayotga ishonch bilan boqa oladilar va ularda ko'pchilik erkakalarda uchramaydigan iroda, ishonch, bardosh kabi hislatlarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa uning qahramonlari eng katta yutug'idir.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida zamonaviy ayol va uning badiiy-estektik funksiyasiga, ayniqsa, milliy qadriyat sifatida oilaviy an'analarni saqlab qolish, turli g'oyaviy tazyiq, vaqtinchalik hoyu havaslarga berilgan erkaklarga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish, o'zining azaliy vazifasi – avlodlar davomiyligini saqlash, ularni ma'nan sog'lom bo'lib voyaga yetishi hamda o'tish davrida oila a'zolari ongida yuz bergan o'zgarishlarni avlodlar hayotiga ta'sir etmasligiga harakat qilishi yoritilgan. Natijada ma'nan jasoratli ayollarning badiiy tasvirini yaratishga erishilgan.[5. 129-bet]

Adabiyotlar ro'yxati

1. Solijonov Y. Ko'zgudagi hayot. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2013. 55-60 betlar
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari Toshkent,O'zbekiston, 2002
3. Zulfiya Qurolboy qizi "Armon asirasi" romani. Toshkent. "Sharq" 2006 yil
4. Zulfiya Qurolboy qizi "Mashaqqatlar girdobi" romani. Toshkent. "Sharq" 2007 yil

5. Jo‘rayeva M. Zamonaviy o‘zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi. Monografiya. T. “Mumtoz so‘z”. nashr. 2021-yil

THE ROLE OF SEMANTICS OF MEDIA TEXTS IN THE MODERN LIFE

Mirzakhmetova Makhmuda
Uzbekistan State University of World Languages
2nd year master student

Abstract. Since the end of the twentieth century, media language undergoes major changes. This process is driven by important innovations in the field of mass communication, which, in turn, is caused by serious technological and social change on a global scale. In review phenomena and processes that characterize the current state of the language of the media are analyzed: “blurring” of the boundaries of media genres; heterogeneity (polymodality) of mass media language; significant impact of media language on general language norm; ways of influence of media communication on society. It was also analysed the role of semantics of media texts in today’s progress.

Key words: media texts, semantics, media language, mass communication.

Abstract. Since the end of the twentieth century, media language undergoes major changes. This process is driven by important innovations in the field of mass communication, which, in turn, is caused by serious technological and social changes on a global scale. In the review phenomena and processes that characterize the current state of the language of the media are analyzed: "blurring" of the boundaries of media genres; heterogeneity (polymodality) of mass media language; significant impact of media language on general language norm; ways of influence of media communication on society. It was also analyzed the role of semantics of media texts in today's progress.

Key words: media texts, semantics, media language, mass communication.

Semantics (from the ancient Greek "σημαντικός" - "denoting") of a text in a broad sense is a characteristic of its relationship with reality, the semantics of a media text is an area of study of a language that functions in the social space in the texts of mass communication, it is relation of linguistic expressions with designated objects of media reality. Media reality is a significant socio-cultural phenomenon, a product of mass communication that exists in the multimedia environment, network space of symbols and creates a mythological picture of the world modernity.

In the second half of the twentieth century, the term media has firmly entered intolinguistic terminology, and at the end of the century, a new concept of media language began to take shape. This process is driven by major innovations in the media and communications: the development of new technologies, the change in the format of traditional media, the formation of a global information space[46]. Technological and social shifts have affected the language of the media. Such changes required a rethinking of its key properties and the development of new approaches to their analysis.

[46] Соколова В.М. Язык СМИ как объект изучения испанских ученых: (На материале исследований конца XX – начала XXI в.) // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. – М., 2019. – № 5.

The classical interpretation of the relationship between media text, reality and a journalist is based on the a priori assertion of the need to convey objective and complete information. It is within the framework of this theory that the division of information into descriptive (lat. descriptio - "description"), prescriptive (lat. prescripuo - "prescription"), valuative information is justified (lat. valeo, it. valuta - "cost, value") and normative (lat. porma)[47]. At the same time, the process of their formation and relationships is presented as progressive and dialectical. The need to describe reality to the audience in all its diversity of manifestations is superimposed by social attitudes (prescriptions) and stereotypes shared by the journalist, which leads to the subjectivity and evaluation of the transmitted information, which is expressed in the approval of certain rules and norms of behavior.

Highlighting the media text in the language system, it should be noted that its distinguishing features are the previously noted intentionality, attitude to a dynamically changing reality, semantic unambiguity in information genres and a multi-level hierarchy of meanings in analytical and artistic journalistic genres, the presence of visually transmitted meanings. Media text projects additional meanings, thereby generating an augmented reality that has a difference from objective reality in connection with the specifics of human psychophysiology and culture in general. The semantic structure of a media text cannot be separated and studied separately from the cognitive process. The focus of the media text on the audience a priori forces to cognize the meaning, interpret the text not in terms of abstract sign structures, but with a cognitive pragmatic purpose.

The semantics of analytical media texts differs from the semantics of information ones due to the fact that the semantics of analytical materials is built within the framework of cognitive semantics, where logic, coherence and consistency in the construction of meanings come to the fore, which in turn directly affect the ability to adequately interpret the meanings conveyed by the author. At the same time, the typology characteristic of information genres also extends to analytical materials.

It is in analytical materials that the need for a logical organization of a media text is most accentuated. Analytical materials are ambiguous, for their understanding requires effort and knowledge of the laws of correct thinking. The semantics of analytical materials can be influenced by the composition of the text, the semantic structure of the text, the way of presentation, and the organization of the material.

One of the varieties of natural language that has a media form of its expression is the language of radio and television. By their own linguistic parameters of speech heard on radio and television could be classified as a colloquial style, if it were not for the need to maintain the framework of the literary norm, which is initially present in any media text. Nevertheless, we can talk about the simplification of the language in modern media, which reflects the general

[47] Прохоров, Е.П. Введение в теорию журналистики / Е.П. Прохоров. – М.: Аспект Пресс, 2011

trend towards economy of language resources, characteristic of many world languages.

Tendencies to strengthen the author's principle, on the one hand, and orientation to the addressee, on the other hand, change the genre and content characteristics of media texts. Corresponding changes have been observed in the British media for two decades, similar trends are developing in the domestic media. Among examples of N.V. Malykhina calls the development of a genre that integrates the features of reportage and interviews. Its forms have changed, they "have undergone hybridization, but at the same time they have the core features of a classic reportage or interview"[48]. The development of materials that combine cognitive, aesthetic and entertaining properties (in the British media they are called feature texts) also proceeds in similar ways. From the Anglo-Saxon tradition, articles of instructions came to the Russian media, which in the British media are considered as a subspecies of feature, and in Russia, they are called "карточки". It is significant at the same time that today the author of a media text builds his material, focusing more on the position of the reader than on the laws and frameworks of genres adopted earlier. For example, advisory materials are built on the principle of separate blocks consisting of one or two paragraphs. They contain a question asked by the addressee and an answer. Headings referring to certain topics are concretized, the introduction to the rubric consists of a general presentation of the situation and the issue. This format for presenting information is used, for example, by the online publication Meduza: «По всей России жгут траву. Зачем? И куда звонить?»[49]. More detailed materials created with the participation of experts on given topics are built according to a similar principle: the question is formulated from the audience; the text is divided into small blocks of four to five sentences, corresponding to one question or fact [ibid.].

The content and stylistic features of media texts belonging to different genres are also formed based on the perception of the reader. For example, the dramatization of the composition, aimed at empathy, has a deep psychological effect. They are achieved by bright details and images, idioms, direct speech of heroes and experts.

Another noticeable direction of innovation in the language of the mass media is manifested in frequent deviations from the normative vocabulary. Slang, jargon, obscene vocabulary, "images of the bodily bottom" (in the terminology of M.M. Bakhtin) have become commonplace in media texts, especially in network communication. high expressive the charge of previously taboo linguistic elements makes it possible to use them with opposite evaluative signs - to express both the extreme degree of rejection and the most intense approval. Nowadays, similar words and expressions are also found in an official speech: "So, from the TV

[48] Малыхина Н.В. Динамические тенденци медиатекстов в российских и британских медиа // Вестн. Моск. ун-та.
[49] Малыхина Н.В. Динамические тенденци медиатекстов в российских и британских медиа // Вестн. Моск. ун-та.

screen, B. Obama's associate J. Biden, congratulating the boss on his success, once said: This is a big f-ing deal.

Among the key linguo-pragmatic categories of media texts is the concept of the reliability of the information contained in them. In recent decades, there has been a revival of researchers' interest in this issue, including in the field of mass communication. M.Yu. Panchenko, analyzing the category of reliability as applied to media commercial advertising, notes its dependence on the perception of a communicative situation by a particular individual. The sign of reliability or unreliability is attributed, according to M.Yu. Panchenko, in many cases the addressee[50].

In the semantic analysis of modern media text, it is impossible to do without the analysis of the visual component. Visual texts fit into the semantic parameters of both primary signs (natural languages) and secondary sign systems, as they express meaning both with the help of natural language and with the help of artificially created sign systems, such as audiovisual signs and sign systems.

When making sense of an audiovisual sign, both verbal and kinesic components are involved, which can be between themselves both in a relationship of complete absorption of one by the other, and complement each other with meanings.

The visual channel of information transmission refers to certain human senses and conveys already formed meanings, encoded in a certain way within the sign system of a certain culture. The semantics of the visual is conventional and associated with cultural codes. As Umberto Eco notes, “even where one speaks of naturalness and immediacy, one is dealing with culture, convention, system, code, and, therefore, ultimately with ideology. Semiology stands its ground here too, because it understands its tasks as the translation of the natural into the social and cultural”[51]. The visual component of culture is communicative and connected with the objective world by means of encoding the meaning for its further fixation and translation.

It should also be noted that within the framework of visual communication, semantics is forced out of the space of communication, the visual ceases to be mediator between subject and reality. Meaningful focus messages are shifted from textual to visual. The visual component in the text from the accompanying element becomes prevalent.

Literature

1. Соколова В.М. Язык СМИ как объект изучения испанских ученых: (На материале исследований конца XX – начала XXI в.) // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. – М., 2019. – № 5.
2. Прохоров, Е.П. Введение в теорию журналистики / Е.П. Прохоров. – М.: Аспект Пресс, 2011

[50] Панченко М.Ю. О лингвопрагматическом аспекте достоверности рекламного текста: на материале немецкого языка // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 9.
[51] Эко, У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию / У. Эко. – СПб.: Симпозиум, 2006. – 544 с.

3. Малыхина Н.В. Динамические тенденци медиатекстов в российских и британских медиа // Вестн. Моск. ун-та.
4. Панченко М.Ю. О лингвопрагматическом аспекте достоверности рекламного текста: на материале немецкого языка // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 9
5. Эко, У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию / У. Эко. – СПб.: Симпозиум, 2006. – 544 с.

E’TIBOR – AYOLGA ZARUR UNSUR

Qurbonova Dilnoza Toxirovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanib, yurtimizda oila va ayollar masalasi davlat siyosati darajasiga yetdi. Chunki, ayol jamiyatning negizi hisoblangan oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanish bilan birga jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, Vatanimiz ravnaqi va osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qiladigan barkamol insonlarni voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi.

Калит сўзлар: хотин-қизлар, гендер, бандлик, оила, ижтимоий, маданий.

Аннотация. В новом Узбекистане обеспечение законных прав и интересов женщин, повышение их экономической, социальной и политической активности определено как одно из важных направлений стратегии развития общества, а проблема семьи и женщины в нашей стране вышла на уровень государственной политики. Поскольку женщина считается основой общества, она имеет место в обществе, а также заботится о детях в семье и является важным фактором в воспитании всесторонних людей, которые будут служить развитию и миру нашей страны. и благополучие нашего народа.

Ключевые слова: женщины, гендер, занятость, семья, социальная, культурная.

Abstract. In the new Uzbekistan, ensuring the legitimate rights and interests of women, increasing their economic, social and political activity is defined as one of the important directions of the society development strategy, and the problem of the family and women in our country has reached the level of state policy. Because a woman is considered the backbone of society, she has a role in society, as well as taking care of children in the family, and is an important factor in raising all-round people who will serve the development and peace of our country and the welfare of our people.

Key words: women, gender, employment, family, social, cultural.

“Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi”.
Sh.Mirziyoev

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta’minlanganligi masalasi davlatlar rivoji hamda

demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelgan.

Insoniyat tarixini qadim ibtido zamonlardan buyon ayollarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ular erkaklar bilan bir qatorda ham oilani, ham jamoa ishlarini bajarib kelgan. Keyingi tariximizga nazar tashlasak ayol oila, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanib qolmay, o‘z turmush o‘rtog‘ining eng yaqin maslahatgo‘yi bo‘lganligini, o‘z zamonining taniqli shoirasi, davlat rahbari bo‘lganligini, turmush o‘rtog‘i bilan hayot, dunyo tashvishlarini birga tortganini barcha yaxshi biladi. Sharqda ayniqsa ayollarga hurmat cheksiz bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol bo‘lganlar. Bular sirasiga To‘maris, Saroymulkxonim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin va boshqa shu kabi ayollar kiradilar.

Dunyoda jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko‘rsatadigan mezonlar ko‘p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma’naviy kamolotini belgilovchi, ta’lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo‘ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralsa, ayollarni ulug‘lab, ardoqlab, boshiga ko‘tarib yashaydigan xalq o‘zining yuksak madaniyati va oliyjanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ayolsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo‘lmasligiga to‘la ishonch hosil qilamiz.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Ayollarni izzat–ikrom qilish, ulug‘lash, ardoqlash, og‘irini yengil qilish ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas udumdir. Ma’lumki muqaddas Qur’oni Karimning eng katta suralaridan biri – “Niso”, ya’ni “Ayollar” deb ataladi. Alloh Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo‘lishga da’vat etadi va bu ilohiy so‘zlar zamirida albatta teran hikmat mujassam” [1].

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat ko‘rsatish xalqimiz uchun azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan.

Biz oilani ilk tarbiya o‘chog‘i sifatida e’tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni tarbiyalanuvchilarini boshqaruvchi zot – Ona! Albatta ona yaratganning buyuk mo‘jizasidir, chunki ona avlodlar davomiyligini, oila tinchligini ta’minlaydi, barkamol avlodni tarbiyalaydi, kelajakni yaratadi.

Darhaqiqat, Allohning mo‘jizasi bilan Payg‘ambarimiz Muhammad Alayhissalomni dunyoga keltirgan zot – ayol, Amir Temurni beshigini tebratgan zot ham ayol, Navoiyni oq sut berib katta qilgan ham ayol, tunlarni bedor o‘tkazib, Ulug‘bekni voyaga yetkazgan ham ayol. Shunday ekan, ayol kishiga eng avvalo millat tarbiyachisi sifatida qaramoq lozim. Shu o‘rinda aytish joizki, xotin-qizlarning ilm-ma’rifatli, madaniyatli bo‘lishi, ya’ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o‘rni ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri izchil tashkil etishda faol ishtirok etadi. Zero, ayol fuqarolik jamiyati kelajagi bo‘lgan yosh avlodni

tarbiyalash hamda, farzandlar tafakkurini o‘zgartirish bilan bog‘liq o‘ta dalzarb va muhim masalalarni hal qilish qudratiga egadir.

Alloma va mutaffakkirlar ham baxtli, tinch oila qurish, oila baxtini saqlab qolish, turmush qiyinchiliklarini yenga bilish hamda farzandlar tarbiyasi ayollarga xos hususiyatlar va ularga amal qilish kabi o‘gitlarni meros qilib qoldirganlar. Ular qoldirgan ta’limotlarining bugungi kunda ham ahamiyati beqiyosdir.

Buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning “ Mahbub ul qulub ” asarida ayollarning oiladagi o‘rni haqida quyidagi fikrlar berilgan. “Agar kelin yaxshi bo‘lsa, barcha holatlarda senga hamdam bo‘ladi. Uyning osoyishtaligi ham, xonadon orastaligi ham undandir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda intizom bo‘ladi, uy anjomlari tartibda va saranjom bo‘ladi” [2].

Tarixga nazar solsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma’rifatparvarlari M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning Oila boshqarish tartiblari asarida shunday fikrlar bor: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya’ni shunday qilishimiz lozimki farzandlarimiz imonli, fidokor bo‘lib ulg‘ayib, o‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur” [3: 97-98 b].

Vatan oila deb atalmish qo‘rg‘ondan boshlanadi. Demak, oilaning poydevori mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham mustahkam poydevoga ega bo‘ladi.

“Oilani asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkini emas”. “Oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq” [4: 9 b]. Ushbu g‘oyalar Fitratning Oila asarida o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ayollarning o‘rni qanchalik yuqori bo‘lsa, oila mustahkamligidagi o‘rni ham beqiyosdir. Bugungi kunda O‘zbekiston axolisining salkam 17 milionini ayollar tashkil etadi. Bizning mamlakatimizda xotin-qizlar ijtimoiy faolligi va gender masalalariga katta e’tibor berilib kelinmoqda.

Yaqin yillar mobaynida O‘zbekistonda ayollarga bo‘lgan munosabat, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambliyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta’kidladi: “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko‘paydi” [5].

Darhaqiqat, ayollarning o‘rnini oila qo‘rg‘onidan tortib, deputat kursisigacha ko‘rishimiz mumkin.

Jahon tarixiga e’tibor bersak, juda ko‘p mamlakatlarda ayollarning jamiyatdagi o‘rnini yo‘qotishga, ularda uy va oila bilan bog‘liq asosiy vazifalardan tashqariga chiqmaslikka harakat qilishgan. Bu paytlarda g‘arb mamlakatlarida

hattoki ayollar aholining eng quyi pog‘onasi kabi saylov huquqidan chetlatilgan va davlat boshqaruvida ular ishtirok etishmas edi.

Tarixan davlat boshqaruv organlaridagi rahbarlik lavozimlarini erkaklar boshqarib kelishi amaliyotda ko‘proq. Ayolni esa uy bekasi, o‘qituvchi, shifokor, tarbiyachi kabi lavozimlarda ko‘rar edik. Mamlakatimizda har jabhada ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar qilinmoqda. Bugun yangi O‘zbekistonning poydevori qurilmoqda. Uchinchi renessans davriga kirib borishda xotin-qizlarga e’tibor, ularga bo‘layotgan munosabat o‘zgarayotgani, avvalo ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, qobiliyat iqtidorlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilishida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tuzildi;
- “2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” qabul qilindi;
- Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi va Qonunchilik palatasida Oila va ayollar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi;
- Vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo‘yicha maslahat kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yildi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022-yildagi PF-81-son Farmoni bilan, oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etildi. .

Ayni paytda aholi bilan muloqotlar o‘tkazilishi tufayli minglab xotin-qizlar bo‘sh ish o‘rinlariga ega bo‘lishmoqda, qaysidir yordamga muxtoj, bemor onaning davolanishi uchun moddiy ko‘mak berilayotgan bo‘lsa, xotin-qizlarga oilaviy sharoitlarini yaxshilashlari, ularning bandligi ta’minlanishi uchun imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarning o‘z tadbirkorliklarini yo‘lga qo‘yishlari uchun yo‘naltirilayotgan imtiyozli kreditlar tufayli ko‘plab oilalar farovonligiga sabab bo‘lmoqdi. Tibbiyot tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlarda ham onalar va bolalarning, bo‘lg‘usi onalar qizlarning salomatligini asrash masalasi muhim o‘rin tutmoqda. Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglikmasalalari qo‘mitasi tomonidan xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish holati, ular o‘rtasida ko‘p uchrayotgan kasalliklar oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom ettirmoqda va doimiy nazoratda. Bugungi kunda respublikaning barcha xududlarida jami 16.5 mln. Nafar ayolga 226 ta statsionar tug‘ruq muassasalari tomonidan tibbiy xizmat ko‘rsatib kelinmoqda. 18 yoshgacha bo‘lgan 10.8 nafar bolaga 235 ta bolalar davolash profilaktika muassasalari xizmat ko‘rsatmoqda [6].

So‘nggi yillarda ayollarimizni katta va kichik biznes egalari, oliy vakillik organlari deputatlari tuman va shahar hokimlari lavozimlarida ko‘rishimiz mumkin. Asta-sekin xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib bormoqda.

Konstitusiyamizda ayollar qadr-qimmati, huquqlar himoyasi bo‘yicha insoniy meyorlar belgilangan. Alohida qayd etish kerak, bugungi kunda xotin-qizlarning

huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 46-moddasida “Xotin-qizlar hamda erkaklar teng huquqlidirlar” deya mustahkamlab qo‘yilgan[7].

“Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy tamoyillari mavjud bo‘lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymasligi, ochiqlik va shaffoflikdir”. “Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasidagi keng qamrovli islohotlar, albatta bu borada huquqiy asoslar yaratilgani va takomillashtirib borilgan bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir”, – deb yozadi Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi raisi M. Qodirxonova[8].

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizning chinakam baxtli yashashi, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, intellektual va ma’naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarini hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Buni yorqin misoli sifatida 2019 yil 3 sentabrda ikkita muhim hujjat – “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilinganligi asoslidir [9]. Mazkur qonun gender, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish – bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Chunki zo‘ravonlik xotin-qizlarning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy, jismoniy salomatligiga zarar yetkazish barobarida, bir qator ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o‘z huquqlarining kamsitilishiga duch kelishadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyevaning “Prezident ayollarni hokimlikka tasdiqlayman – deb turganda, biz ularni zo‘ravonlikdan asray olmayapmiz” [10] - degan so‘zlari bejiz emasligiga aminmiz. Afsuski, “Ayol kishini gul bilan ham urib bo‘lmaydi”, degan naqlni unutib qo‘yganlar ham topiladi. Dunyoda eng tengsiz ne’mat hisoblangan hayot insonga Allox taolo tomonidan bir martagina ato etiladi. Uni farog‘atda yashagan el-yurtga, odamlarga yaxshilik istaganlarning umri mazmunli kechadi, ularga hamma havas qiladi, bunday insonlardan yaxshi nom, ezgu ishlar qoladi. Zero, tinchlikni ulug‘ ne’mat deb e’lon qilgan dinimizda – bu yo‘lda nafaqat amal bilan, balki so‘z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash,

shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning xotin-qizlarga qaratayotgan yuksak e’tibori – biz ayollarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, jamiyat va oilada mavqeini yanada oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlash – har bir ayol yurtimizda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu borada, 2020 yil 20 fevral kuni “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Bunda, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishni belgilab berilgan qator vazifalar ko‘ndalang qo‘yildi [11].

Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohadagi samarali mehnati, ayniqsa, oila, farzandlar tarbiyasidagi betimsol xizmatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi. Ayolning ilmli bo‘lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh urug‘lari va qolaversa, butun jamiyatning ilmli, madaniyatli bo‘lishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda Xitoy faylasufi Konfusiy aytgandek, “Erkak ilmli bo‘lsa – nari borsa bir kishi ilmli bo‘ladi, ayol ilmli bo‘lsa – millat ilmli bo‘ladi” [12: 48 b]. Demak, qadimdanoq ayollarning ilmli, oqila, fozila bo‘lishidan butun jamiyat manfaatdor bo‘lib kelgan. Yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e’tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va xatto xarbiy sohada xizmatlari beqiyos. Zotan, ayol yuksalsa, butun bashariyat yuksaladi, degan ibora bor.

Bugun Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarimiz azizu mukarramlikning baland shohsupalariga olib chiqilayotgani ham aynan ushbu hikmatning bardavomligidan dalolatdir. Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda: “Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug‘ ne’mati, tengsiz mo‘jizasi deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi”[13]. Darhaqiqat, ayol qaysi davr, qanday mavqe, qay bir sharoitda bo‘lmasin, baribir muqaddas zot bo‘lib qolaveradi.

Prezidentimiz bir qator Farmon va qarorlari davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog‘liq vazifalarni belgilab, ularni mas’uliyatini yanada oshirdi. Xususan, “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biri hisoblanadi [14].

Xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ulardagi salohiyatning namoyon etilishi uchun jamiyatda yaratilgan imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirish o‘z-o‘zidan oilalarning mustahkamlanishi, jamiyat taraqqiyoti rivoji, qolaversa, xalqaro miqyosda ham mamlakatimiz nufuzining yanada yuksalishi, farzandlar tarbiyasining yaxshilanishi, xotin-qizlardan aksariyatining nafaqat o‘z oilalari uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun, jamiyat

rivoji uchun fidoyilarcha mehnat qilishlarining faollashuvi, huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida ayollar ishtirokining bundan-da ko‘payishiga ko‘maklashishi muqarrar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81 sonli Farmoni qabul qilindi [15]. Ushbu Farmon yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning yana bir muhim bosqichini boshlab berdi. Zero, inson qadrini ulug‘lash, avvalo ayolga hurmat va ehtirom, mo‘tabar onalarimizni e’zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro‘yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Ayol oilada turmushning asosiy tirgagi. Oilaning har bir a’zosi uchun mehribon va mushfiq ayollar jamiyat farovonligi uchun ham juda muhim shaxs. O‘z oilasida bir gala farzandlar parvarishi, ta’lim-tarbiyasidan ortib, jamiyatda ham katta va zalvorli vazifalarni zimmasiga olgan, uni sharaf bilan uddalab kelayotgan fidoyi ayollar zamonamizning chinakam qahramonlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oilaning ma’naviy axloqiy kamol topishi, uning yo‘nalishlari va ustuvorliklarini hamda oilada xotin-qizlarning tutgan o‘rni mutaxasislar va jamoatchilikning diqqat e’tiborida turgan muammolardan ekanini hisobga olib, quyidagi takliflarni berish mumkin:

- xotin-qizlar bandligini ta’minlash hamda muammolarini o‘rganish;
- ayollarning huquqiy madaniyati va diniy savodxonligini oshirish;
- mehnatda band bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvatlashda imtiyozli yondashuvlarni qo‘llash;
- ayollarning tadbirkorligini, kasanachilik va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmni joriy etish zarur;
- xotin-qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitish va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik;
- jamiyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;
- ayollarning oliy ma’lumotga ega bo‘lish darajasini oshirish;
- xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash;

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy “ko‘zgusi” – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma’naviyat va madaniyat, ma’rifat, qo‘yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo‘shadigan hissasi va o‘sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida “Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan dunyoni tebratadi”, degan naql bejiz vujudga kelmagan. Zero, ayol oilada

farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishi bilan birga, jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmog‘i lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi” -2020. -8 mar.
2. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Sano-standart, 2018. -192 b.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -Toshkent: Ma’naviyat, 2020. -112 b.
4. Fitrat A. Oila. – Toshkent: 2016. -144 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assamblyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // “Yangi O‘zbekiston” -2020. -24 sen.
6. **6**.Oriat dono radiosining 2021 yil 30-noyabrdagi “Yangiliklar” dasturidan
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2014. -76 b.
8. M. Qodirxonova Ayolga hurmat va ehtirom farovon va fayzli hayotimizga mustahkam poydevordir. // Yangi O‘zbekiston -2022. -18 avg.
9. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni // Xalq so‘zi. -2019. -3 sen.
10. https:// kun.uz
11. Jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Xalq so‘zi -2020. -20 fev.
12. Konfusiy “Sultonlarga nasihat risolasi” История китайской философии. – Москва, 1989. -48 b.
13. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Yangi O‘zbekiston -2022. -8 mar.
14. “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4235-sonli qarori // Xalq so‘zi -2019. -mar.
15. “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni https://lex.uz/ru/docs/

ALISHER NAVOIY MEROSIDA MEHNAT TARBIYASINING TALQINI

Baratova Nasiba Turopovna
Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM
Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy merosida mehnat tarbiyasining qay tariqa talqin etilganligi yoritilgan. Mehnat va tarbiya haqidagi fikrlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat, hayot, asarlar, Alisher Navoiy, «Nazmul-javohir» asari, «Mahbub-ul-qulub» asari, "Hayratul-abror" beshinchi maqolatidagi "Hotami toy" hikoyasi, qanoat, sabr, halimlik.

Ключевые слова: Работа, жизнь, произведения, Алишер Навои, произведение «Назмул-джавахир», произведение «Махбуб-уль-Кулуб», повесть «Хотами той» в пятой статье «Хайратуль-аброр», довольство, терпение, мягкость.

Key words: Work, life, works, Alisher Navoi, the work "Nazmul-javahir", the work "Mahbub-ul-Qulub", the story "Hotami toy" in the fifth article of "Hayratul-abror", contentment, patience, gentleness.

Mehnat- inson hayoti, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mehnat farovon hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat insonlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashash mumkin emas. Mehnat inson hayotini bezaydi, sermazmun qiladi, boyitadi va shu jarayonda insonlar o'z sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar.

Mehnat insonni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mehnatga o'rgatish zarur.

Mehnat faqat hayotiy zaruriyat va moddiy farovonlik manbai bo'lib qolmay, yoshlarga yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi, loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik xislatlarini paydo qiladi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha ma'naviy-ma'rifiy merosimiz ularning sermashaqqat mehnatining natijasidir.

Insoniyatning taraqqiyot davriga qarab chiqar ekanmiz, barcha davrlarda yosh avlodni mehnatsevar bo'lishga alohida e'tibor qaratilgan. Buni biz xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, Sharq mutafakkirlarining asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Mehnat tarbiyasi masalalari O'rta Osiyolik mutafakkir olimlarning bizga meros bo'lib qolgan ma'rifiy asarlarida o'z aksini topgan. Ma'rifatparvarlar yoshlarning mehnat ta'limi va tarbiyasiga alohida e'tibor berib, turli asarlarda yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do'stlik va insoniylik kabi oliyjanob fazilatlar mehnat orqali vujudga kelishini hikoyalar, rivoyatlar orqali ko'rsatib

berganlar. Ular yoshlarni kasb-hunar o'rganishga, har kim o'zi qiziqqan va o'ziga munosib faoliyat bilan shug'ullanishiga da'vat etganlar.

Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlar mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga ilm-fanga nisbatan muhabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo'la olgan insongina o'z kuchi hamda aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu zakovatiga qattiq ishona olgan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni ham yechimini topa olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson ahamiyatini yoritar ekan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan yaratilgan «Nazmul-javohir» asarida quyidagicha bayon etiladi:

Kim olim esa nuqtasida barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo'q ilm axmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.

Mazkur to'rtlikning mazmunida ilmli, oqil odam o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta'minlashga xizmat qiladi degan g'oya o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Mutafakkir «Mahbub-ul-qulub» asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Har ko'cha-ko'yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.

Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko‘rdim. Xasislar va karamlar yetkazgan yara va bergan malhamni ko‘nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba’zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do‘stlar bu hollardan xabarsiz va ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir...

Bu xildagi hamsuhbat va do‘stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rinadiki, har toifaning xislatlaridan ma’lumotlari va har tabaqaning ahvolidin bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”.

Asar uch qismdan iborat. Alisher Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, asarning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe’l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe’llar, ularning o‘ziga xos jihatlari; uchinchi qismida esa yaxshi fe’l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etiladi.

Alloma mazkur asarda kishilarni munosib va nomunosib kishilar tarzida ikki toifaga ajratadi. Har bir insonning hayotda uchraydigan nomunosib kishilarni yaxshi xulqli insonlardan ajrata olish layoqatiga ega bo‘lishi muhim ekanligi, yomon xislatlarga ega kishilar bilan munosabatda bo‘lishdan saqlanish lozimligini uqtirib o‘tar ekan, bu borada “Mahbub ul-qulub” asari yordamidan foydalanish foydadan holi bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Mazkur holat Alisher Navoiyning shaxsiy hayotiy tajribalari asosida yoshlarni komil inson bo‘lib voyaga yetishishga undashishidan dalolat beradi. Mutafakkir yoshlarning asar mazmunida o‘z ifodasini topgan hayot saboqlaridan o‘zlari uchun tegishli xulosalarni chiqarib olishlariga umid bildiradi.

XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug’lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayrat-ul abror”, “Farxod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub” asarlarida bayon etilgan. A. Navoiy haqida Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday fikr bildiradi: “Inson qalbining quvonchi qayg’usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg’usi ham bizning ongi shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko’p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo’lamiz”.[52]

Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunarni va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan kishilar bo’lishini orzu qiladi. Bola tarbiyasida bilim va tarbiyani birga

[52] Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat. 2009. 47-48-betlar.

olib borish kerakligini, bolaga yaxshi ta’lim-tarbiya va odob o’rgatishni ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy mehnatni baxtli hayot manbai va ayni choqda jamiyatning boyligi ham, faqat mehnat tufayli inson kamol topishi mumkinligini aytib o’tadi. Inson hayotida mehnat muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy o’z asarlarida o’z qahramonlarini mehnatsevar, kasb-hunarli qilib tasvirlaydi.

Alisher Navoiy inson o’z hayotida halol mehnat qilish kerakligini, ya’ni mehnatsiz rohat bo’lmasligini ta’kidlaydi.

Yosh avlodni mehnatsevar etib tarbiyalashda Alisher Navoiy asarlaridan qanday foydalanish mumkin degan savol tug’iladi?

“Hayratul-abror” beshinchi maqolatidagi “Hotami toy” hikoyasi va “Farxod va Shirin” dostonidagi Farxodning fazilatlarini tasvirlab tushuntirishimiz mumkin. Bu dostondagi Farxod obrazini shunday tasvirlaydi: Farxod mehnatsevar, odobli, kasb-hunarlarni egallagan, xalqparvar inson. U o’z mehnati bilan xalqqa yordam beradi, xalqni og’ir mehnatdan xalos etadi. U o’zining shunday fazilatlari tufayli Shirinning muhabbatiga sazovar bo’ladi.

Alisher Navoiy inson hayotida mehnat muhim ahamiyat kasb etishini kasb etib, “yuk chekmaq ila kishiga zebolik erur” deydi:

Mehnat aro har kimki, tahammul yo’q anga,
Tarvijg’a mutlaqo taxayyul anga.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi rolini ko‘rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: «Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi.

Yoshlarni ko‘zga ulug‘ ko‘rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug‘vor biladi. O‘ziga qarshi xalq tomonidan bo‘ladigan hurmatsizlik eshigini bog‘laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo‘liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo‘lgach, kattalarga allaqachon bo‘lishini ko‘rarsan.

Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi, adab tarkidan do‘stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu’ do‘stlik ko‘zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug‘lik yetkazadi.

Tazozu’li va adablilarga ta’zim va hurmat yetadi va u urug‘ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to‘plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang‘ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o‘rnashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo‘lsa, adabi va tavozu’ evaziga ta’zim paydo bo‘ladi»

Demak, yaxshi xulqning asosi bo‘lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo‘g‘ini sanaladi. g‘anoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko‘ngillik) kabi ijobiy

fazilatlarning odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo‘lishiga urg‘u berib o‘tadi. Mutafakkir insonga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to‘laqonli ta’rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir – naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug‘i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkizadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo‘ladi qanoat qo‘rg‘ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog‘liklardir – u yerga chiqsang dushman va do‘stga qaramlikdan xalos bo‘larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotkorlik urug‘ining mevasi farovonlik»

Alisher Navoiy qanoatni to‘ldiruvchi insoniy fazilatlar sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat ekanligi ta’kidlab o‘tadi. Mazkur xislatlarning bir-biriga yaqinligi hamda ularni insonning obro‘-e’tiborini yuksak darajaga ko‘tarishga xizmat qiluvchi xislatlar sanalishini aytib o‘tadi. Ayni o‘rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta’rif beradi: «Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o‘rtoqdir – suhbati zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og‘ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so‘zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so‘ngida sog‘liq yuz beradi».

Asarda saxiylik sifatiga esa insoniylikning haqiqiy mezoni deya ta’rif beriladi. Alisher Navoiyning talqinicha, saxiylik, saxovat odamlarning mushkulini oson qilish maqsadida ularga beriladigan minnatsiz yordamdir. Alloma insonlarni bir-birlariga nisbatan saxovat ko‘rsatishga da’vat etadi. Himmatlilik, muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu fazilatlarga ta’rif berar ekan, mutafakkir quyidagi fikrlarni qayd etadi: «Saxiylik (qo‘li ochiqlik) kishilik bog‘ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o‘lkasining to‘lqinli daryosi, balki u to‘lqin daryosining asl gavharidir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og‘irligini ko‘tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o‘sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og‘ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik». «Muruvvat karamning urug‘-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bo‘lsa izzat va hurmatga sazovor bo‘ladi» kabi fikrlar asosida esa muruvvat deb ataluvchi xislatga ta’rif beriladi. Alisher Navoiy karam va muruvvat sifatlarini ota-onaga qiyoslasa, vafo va hayoni esa egizak farzandlardir deya ta’kidlaydi.

AYOL MA’NAVIYATINING O‘ZGARISHIDAGI OMILLAR

M.Jo‘rayeva
FarDU,(PhD) dotsenti

X.Odilov FarDU magistranti

Annotatsiya. Maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning qissachilik mahorati, xarakterlar to‘qnashuvi, ayol qismati, ayol xarakterini o‘zgarishida tashqi omillarning o‘rni, ayol va erkak munosabati, ayollar ruhiyati tasviri, oila psixologiyasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: obraz, xarakter, ruhiyat, oila psixologiyasi, ayol xarakteri, tashqi muhit, ayol va erkak munosabati.

Аннотация: В статье рассказывается о повествовательном мастерстве Абдукаюма Юлдошева, конфликтах характеров, женской судьбе, роли внешних факторов в изменении женского характера, взаимоотношениях женщины и мужчины, изображении женской психики, семейной психологии.

Ключевые слова: образ, характер, психика, семейная психология, женский характер, внешняя среда, женское и мужское отношение.

Annotation: The article talks about Abduqayum Yoldoshev's storytelling skills, character conflicts, female destiny, the role of external factors in the change of female character, female and male relationship, depiction of women's psyche, family psychology.

Key words: image, character, psyche, family psychology, female character, external environment, female and male relationship.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Otchopar yohud o‘n uchinchi uy” qissasida bozor mavzusi orqali ayollar xarakteri va ma’naviyatida sodir bo‘lgan tub o‘zgarishlar ochib berilgan. Asarning nomlanishi ham o‘quvchi diqqatini darhol o‘ziga tortadi. Aslida Otchopar (Ippodrom) mashhur bozorning nomi. Ikkinchi tomondan, otchoparso‘zi manfaatlar yo‘lidagi to‘qnashuvlar foyda ketidan quvishlar to‘xtamaydigan joy, hamma narsa sotiladigan va sotib olinadigan maskan, nafs yo‘lidagi poygalar hech qachon tinmaydigan maydon ma’nolarida ham anglashilishi mumkin. “O‘n uch” raqamiga kelsak, bunda ham chuqur ramziy ma’nolar bor. Ko‘pgina xalqlarda 13 raqami xosiyatsiz hisoblanadi. Yana bir tomondan esa 13 taqsimlanmaydigan raqam. Qissadagi personajlar taqdirini ko‘z oldimizga keltirsak, Nozima bilan Flora – Janna rejalashtirgan foyda o‘rtada taqsimlanmay qoladi, aksincha, kutilmagan fojealarga olib keladi. Nozima bilan Osiyo opa o‘rtasidagi hamsoyalar ustidan davraboshlik uchun pinhona kurashlar ham ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan fojealarga olib keladi. Pirovard oqibatda qissaning bosh qahramoni ruhiy xastalikka duchor bo‘lganida ham shifoxonaning aynan 13 raqamli palatasiga yotqiziladi.

Qissa voqealariga turtki beruvchi asosiy hodisalar nurab borayotgan sho‘rolar hukmronligining so‘nggi yillaridan boshlanadi. Iqtisodiy bo‘hronlar, boshboshdoqlik, odamlarning asta-sekin tabaqalarga ajrala boshlashi, nihoyat, bozor iqtisodiyotining boshlanishi pallalaridagi ijtimoiy-maishiy hayotda ro‘y

bergan voqea-hodisalar qissa syujetining asosini tashkil qiladi. Narx-navolarning keskin oshib borishi, odamlarning tirikchilik dardida o‘zini o‘tga-cho‘qqa urishi, asta-sekin oradan ko‘tarilayotgan mehr-oqibat tushunchalari qissada bosqichma-bosqich realistik tasvirlarda ifodalanadi. Ana shunday sharoitda yangi davrning yangi qahramonlari maydonga chiqa boshlaydilar. Bunday yangi qahramonlar sirasiga ayollarni ham kiritishimiz mumkin. Shulardan biri “Nozimaxon yangi zamonning yangi ayollaridan, ya’nikim otchoparning beli baquvvat sohibalaridan edi”.

Yozuvchining Nozimaga bergan ta’riflari, tashqi qiyofasi tasviri, ayrim xatti-harakatlari o‘quvchida dastlab salbiy fikr uyg‘otadi . Biroq uning qalbiga chuqurroq kirib borgani sari o‘quvchi ko‘z o‘ngida Nozimaning tashqi ko‘rinishi, yurish-turishi, fe’l-atvori bilan zamonaviy bozor ayolining tipik obrazini namoyon qila boshlaydi. Nozima o‘zining xarakteri bilan qissadagi boshqa bekorchi ayollardan o‘zining axloqan pokizaligi, halolligi, to‘g‘ri so‘zligi, eriga vafodorligi, ishonuvchanligi bilan tubdan farq qiladi. Yozuvchi ayol tabiatiga xos bu azaliy fazilatlarning qiyinchilik bilan saqlanib qolishini otchopar bozori muhitidagi illatlar bilan goh oshkora, goh pinhona to‘qnashuvlar jarayonida aks ettiradi. Natijada xarakterlar yuzma-yuz uchrashuvlar jarayonida ham,ichki to‘qnashuvlar tarzida ham o‘sib o‘zgarib boradi. Taniqli adabiyotshunos U. Normatov ta’kidlaganidek, so‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida paydo bo‘layotgan bu “Yangi inson bu tuyg‘ulardan voz kechmasligi, aksincha, ularni yanada ravnaq ettirib borishi kerak. Chunki, axir, ota-ona, aka-ukalar ham xalq deb atalgan ummonning tomchilari emasmi? Xalq baxti uchun kurashar ekanmiz, shu xalq yonginamizda turgan vakillari bizning yordamimizga, madadimizga muhtoj bo‘lganida nega ular uchun jon kuydirmasligimiz kerak”. [1, 68- bet]

Nozima ana shunday tuyg‘ularga, mehrga to‘la ayol. U erta-yu kech bozorda boylik orttirish uchun emas, balki ota-onasi, aka-ukalari, ayniqsa nogiron singlisining sog‘ligini yaxshilash uchun ishlaydi. Qishloqdagi qarindosh-urug‘lariga yordam qo‘lini cho‘zadi. U zamona zayli, tirikchilik taqozosi bilan bozorchi bo‘lib qolmagan. Bu ayol o‘zini bozorchi deb hisoblaydigan, foyda ketidan tinmay halloslab, o‘zining insoniy qiyofasini yo‘qotib qo‘yadigan ayrim kimsalar toifasidan ham emas.Shu bilan birga asarda bozorni o‘z uyim deb biladigan yana bir necha bozorchi ayollar ham uchraydiki, bu toifadagi qahramonlar “Faqat “o‘zim bo‘lay” birov uchun jon koyitish kerak bo‘lsa saratonda qo‘li sovqotadigan, lekin foyda chiqadigan joyda lo‘lining eshagini sug‘orishlar ham qaytmaydigan odamlar oz emas”[1, 68-bet] ligini isbotlaydi.

Ana shunday insonlar sirasiga asardagi Qo‘zivoy bo‘lsa, yana biri odamlarga firib berishda ustasi farang, boshqalarning boshiga kulfat keltirishdan toymaydigan Flora kabilar kiradi. Biz aynan Qo‘zivoy obrazi orqali tashqi ko‘rinishidan qanchalik shaldir-shuldir bo‘lmasin, uning vositasida Nozimaning aslida ichki olami nechog‘lik boyligi, nafsoniyati kuchliligini, insoniy oriyatni, ayollik nomusini har narsadan ustun qo‘ya olishini bilib olamiz.

Adabiy asarda xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan yana biri personaj nutqidir. Zamonaviy nasrda dialog salmog‘ining ortishi barobari personaj nutqining obraz yaratishdagi mavqei ham kuchaydi. Mohir yozuvchi personaj nutqini individuallashtirish orqali uning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy holatdagi ruhiyati haqida o‘quvchiga ko‘p narsalarni yetkaza oladi. Aytish kerakki, dialoglarda personaj nutqi muallifning qisqa, lo‘nda sharhlari bilan ta’minlanadi. Personajning yuz-ko‘z ifodasi, mimikasi, undagi fiziologik o‘zgarishlar haqida ma’lumot beruvchi detallar dialogda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ular personaj nutqini "eshitish" va uning xatti-harakatini "ko‘rib turish" imkonini — sahnaviylik effektini yaratadi, ya’ni, inson obrazining to‘laqonli, jonli chiqishini ta’minlaydi. Adabiyotshunoslikda inson obrazi bilan bog‘liq holda badiiy obrazning yana bir muhim xususiyati — uning o‘z xarakter mantiqidan kelib chiqqan holda harakatlanishiga alohida diqqat qilinadi. [2, 77-bet]

Bozor muhitining shafqatsiz o‘yinlari, turli falokatlar, foiz hisobiga ko‘payib ketgan qarzlar, omborxonaning kutilmaganda yonib ketishi, keskin o‘zgargan tanish – bilishlar, qo‘ni-qo‘shnilarning muomala-munosabatlari oxir-oqibatda Nozimani eng nafratlanadigan odami – Qo‘zivoydan ham qarz so‘rashga majbur qiladi.

Nozimani qarz so‘rashga majbur qilgan kimsa Osiyo opadir. Osiyo opa boylik ilinjida, mashina minish orzusida Nozimani Qo‘zivoyga qo‘shib bermoqchi bo‘ladi. U Nozimaning oilaviy ahvolidan yaxshi xabardor,shuning uchun sizga yordam beraman, ishingiz yurishib ketadi, deb (aslida pul evaziga) uni badnom qilmoqchi bo‘ladi va bunga erishadi ham.Flora esa ochko‘zligi tufayli, Nozimaga do‘st tutinib, uni katta qarzga chuv tushirib, qochib ketadi.

Muallif Nozima xarateridagi eng yetakchi xususiyatlarni bozor fonida to‘laqonli ochib bera oladi. Bozor muhitining dahshatli sinovlari er-xotin Nozima va Samadni nechog‘lik birlashtirsa, undagi yovuzlik, manfaatparastlik, tubanlik, nafs Qo‘zivoy va Osiyo opa singari ikki xil tabiatli kimsaning til topishiga ham imkoniyat yaratadi. Osiy opa va’da qilingan jaraq-jaraq pul evaziga Nozimani badnafs Qo‘zivoyning iflos to‘shagiga yetaklab boradi.

Takabburlik, ta’na qilish, ayb qidirish eng qabih illatdir. Kishining tabiati ushbu illatlar bilan bulg‘ansa, bu uning ishi, faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Takabbur kimsalarning o‘zida yo‘q halollikni boshqalardan talab qilishi juda kulgili tuyiladi. Chunki bu dunyoda barcha bir-birini ko‘rib, kuzatib yuradi. Qissadagi Osiyo opa, Flora shundaylar toifasidan. Osiyo opa obrazi orqali shafqatsizlarcha ochib tashlangan voqelik, hayotiy haqiqat, bir umr rolga kirib yashagan, o‘zini bekamu ko‘st ko‘rsatadigan, yo‘q omadini ko‘z-ko‘z qiladigan, aslida g‘arib va mushtipar Nozimaning haqiqatni tan olishga majbur qiladi.

Flora tuban va qabih ayollardan bo‘lib, birinchidan, bozor muhitidagi manfaatparast, razil, firibgar kishilarning tipik timsoliga aylangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Nozima xarakteridagi biz bilmagan, kutmagan ijobiy qirralarini kashf etishimizga yordam beradi. Bozorning shafqatsiz o‘yinlari, kutilmagan falokatlari

bor. Nozimaning ana shunday kutilmagan holga tushib, kasodga uchrashiga Flora sababchidir. Nozimani tengsheriklikda Hindistondan mol olib kelib foyda haqidagi avrashlari bilan kattagina pulga chuv tushirib ketgan Flora ham tovlamachiligi uchun emas, o‘zini Hindistonga parvoz chog‘ida aviahalokatga uchraganligiga ishontira olganligi uchun larzaga soladi. Nozima ketgan pullariga emas, Floraning yosh joni juvonmarg bo‘lgani uchun esankirab qoladi. Aslida esa firibgar Flora bu nayrangni ataylab uyushtirgan, samolyot haqidagi e’lon ham soxta edi. Yozuvchi Osiyo va Flora obrazlari vositasida bozor muhiti hamda bozor odamlarining naqadar shafqatsiz ekanligini ifodalashga erishgan. Ammo muallifning asosiy g‘oyaviy-niyati Nozima xarakteri orqali ilgari suriladi. Uning sabr-toqatli ayolligi, tushkunlikka berilmasligi, har qanday murakkab vaziyatda ham o‘zligini boy bermasligi muttaham va firibgarlarni tahlikaga soladi. Nozima – tadbirkor ayol. Biroq, u boshqa ayollardan bolalarcha soddaligi, beg‘uborligi,eng asosiysi ishonuvchanligi bilan voqealar rivojida tobora ochilib boradi.

Qo‘zivoy Nozimani jisman mavh etsa-da, uni ruhan sindira olmaydi. Nozima ayollik or-nomusi, eriga sodiqligi yo‘lida so‘nggi tomchi kuchi qolguncha kurashadi. Mehr-muhabbatini bag‘ishlagan yagona erkak Samadga oxirgi lahzada ham xiyonat qilmaydi. Shu o‘rinda U.Hamdamning “Muvozanat” romanidagi Zahro obrazi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Zahro boy, puldor Mirazimning xotini bo‘lsa-da, u eriga xiyonat qiladi. Oygul esa yo‘qchilikka chidolmay Yusufni tashlab ketadi. Nosir Zohidning “Qasos” qissasida Lobar yo‘qchilikdan, dangasalikdan zinoga yo‘l qo‘yadi. Shu yo‘l bilan kun o‘tkazadi. Solih Qahhorning “Daydi qizning daftari” asarida bir qancha ayollar Shohida, Hurshida, Tahmina kabilar hamko‘ngilning quli, hayotga yengillik bilan boquvchi ayol sifatida gavdalanadilar. Shu jihatdan Kaniza, Oygul, Lobar, Shohida, Hurshida, Tahmina kabi obrazlar bilan qiyoslanganda, Nozima farishta ayol. U botqoqlikka botganda ham qiyin vaziyatda qolganiga qaramay, sadoqatli yor sifatidagi qiyofasini yuqotmaydi. Muallif pozitsiyasida Nozima umr yo‘ldoshi Samadga qulday sadoqatli deb ko‘rsatiladi. Nozima esa yo‘qchilikka ham, to‘qchilikka ham chidab, hayotda xursand yashaydi. Hayotning og‘ir-qiynoqlarida ham, taqdirning turli tuman o‘yinlarida ham u eriga xiyonat qilmaydi.

Bu yerda personaj odamlar o‘zligini unutgan, vijdon, or-nomus o‘zidan quvib yuborgan jamiyat vakili sifatida har tunda o‘z makoniga, egasi ruhiyatiga, vujudiga kirish uchun yashirinib kelayotgan vijdon bilan kurashadi. Asliyatini o‘zidan quvishga urinadi. O‘tgan asrning so‘nggi o‘n-o‘n besh yilida adabiyotimizda yuqoridagi kabi obrazlarni yaratish holati uchrab turgan. Masalan, Usmon Azimning “Dasht haqida ballada” asarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan dasht bilan birga shakllangan xarakter, ichki olamning asardagi obraz bilan Toshkentga kelgani, biroq lirik sub’ekt uni qabul qilolmasdan, vokzalda qoldirib, o‘zi shaharda yangicha qiyofaga kirgani haqidagi fikr ifodalanga[4.54-bet]. Bunday o‘xshashlik o‘sha paytda yangi inson konsepsiyasini yaratishga bo‘lgan intilish anchayin dolzarb muammo bo‘lgani bilan izohlanadi. Biroq A.Yo‘ldoshev mazkur asarida

azaliy muammoni o‘ziga xos ichki monolog, personajning o‘zi-o‘zi bilan suhbati ko‘rinishida, nasriy yo‘l bilan ochiq bayon etgan.[5. 70-bet]

Asardagi Salima opa, Osiyo opa, Flora (yana bir ismi Janna) o‘zining manfaati yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan, boylik evaziga, o‘zgalarni aldab, nopok yo‘llarga undovchi ayollardir.

Ko‘rinadiki, asardagi bu uchala ayollar o‘ziga xos xarakterga ega. Biroq yozuvchi o‘zining mazkur qissasida g‘oyaviy maqsadi, badiiy idealidan kelib chiqib, voqea- hodisalarni xolis tasvirlashga harakat qilgan. Qahramonlarning insoniy qiyofasini belgilashda jamiyatda tutgan o‘rni, turmush tarzi, o‘zini qanday tutishini emas, qalb go‘zalligini asosiy mezon qilib belgilagan. Shuning uchun ham asardan kelib chiqadigan asosiy xulosa – inson har qanday muhit va sharoitda ham inson bo‘lib qolishi uning o‘ziga bog‘liqligidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Normatov U. Ijodkorning dahlsiz dunyosi. T., “Mumtoz so‘z”, 2008. 68-bet.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. “Yangi asr avlodi” nashr. 2004. 77-bet
3. Yo‘ldoshev A. A. Puankare: hikoya va qissalar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 77-86.
4. Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995.- B.54. (432 b.)
5. Jo‘rayeva M. Zamonaviy o‘zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi. Toshkent. “Mumtoz so‘z” nashriyoti. 2021 yil.

SOTSIOLINGVISTIKA FANINING SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

To‘raliyev Bahodir
TerDu magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sotsiolingvistika fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, fanning shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar, fan haqidagi dastlabki qarashlar, fan rivojiga hissa qo‘shgan olimlar kabi masalalar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Sotsiologiya, lingvistika, sotsiolingvistika, X. Karri, sotsiolingvistikaning rivojlanish bosqichlari, prognoz.

Sotsiolingvistika fani tlshunoslikning yangi tarmoqlaridan biridir. U tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasidagi soha bo‘lsa-da, bu soha etnografiya, tarix, falsafa, ijtimoiy psixologiya kabi fanlar bilan ham uzviy bog‘liq sohadir. Bu sohaning rivojlanishi, asosan til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, boshqacha aytganda tilning rivojlanishida jamiyatning tutgan o‘rni, jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati kabi muammolarning yechimini izlash bilan bog‘lanadi. “Tilning ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi dastlabki fikrlar XVII asrning boshlarida vujudga kelgan edi. Jumladan, Ispaniya Salaman universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarning yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog‘liq ayrim shakllar ham mavjud bo‘ladi. Bular: qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto bolalarning tillaridir”[53]. Yuqoridagi fikrlar sotsiolingvistika haqidagi dastlabki qarashlar hisoblanadi. Chunki bu davrda rasman sotsiolingvistika haqida biror o‘rinda fikr yuritilmagan edi. “Sotsiolingvistika termini tilshunoslikda ilk bor 1952-yilda amerikalik tadqiqotchi X. Karri tomonidan tadbiq etilgan. Bu termin ostidagi tushunchalar, umuman, tilshunoslikning allaqachon paydo bo‘lganligini anglatish bilan birga, undan asosiy ko‘zlangan maqsad tilning umumbashariy tushuncha sifatida paydo bo‘lganligini e’tirof etishdir. 20-30-yillarda rus tilshunos olimlari bu fanni ikki xil nomlash asosida o‘rganib keldilar. “Сотсиалная лингвистика”, “Сотсиолингвистика” kabi atamalar o‘sha davr ruhi bilan bog‘liq tarzda hosil qilingan edi. Keyinchalik, aniqrog‘i 50-yillarga kelib “Sotsiolingvistika” terminini hayotga tadbiq etish ma’qul variant deb topildi. Negaki, tilning hayot bilan, jamiyat bilan chambarchas bog‘liqligi, milliy anana va milliy qadriyatlarning yuzaga kelishi sotsiolingvistika terminiga mosdir”[54]. O‘sha davrlarda tilning jamiyatdagi o‘rni , tilning jamiyatsiz mavjud bo‘lmasligi, til jamiyat bilangina rivojlana borishi, til va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi kabi aspektlar bu sohani rivojlantiruvchi omili bo‘ldi. 20-40-yillarni sotsiolingvistikaning birinchi rivojlanish davri deyish mumkin. Bu davrga kelib

[53] Степанов Г. В. Типология языковых состояний *и* ситуаций в странах романской речи. -М., 1976. С 22

[54] Худойназаров Икром Социолингвистика (услубий қўлланма), Қарши-2008. 4-бет

ko‘plab tilshunoslar va sotsiologlar bu sohada tadqiqotlar olib borishgan. “XX asrning birinchi yarmida Fransiya, Rossiya, Chexiya tilshunoslik maktablarida tillarning ijtimoiy tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Rus tilshunoslari I.A.Boduen de Kurtene, Y.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M.Selishev, G.O.Vinokur, fransuz tilshunoslari F.Bruno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, shved tilshunoslari Sh.Balli, A.Seshe; belgiyalik tilshunos J.Vandries, chex tilshunoslari B.Gavranek, A.Mateziuslaming ilmiy g‘oyalari sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishiga turtki bo‘ldi”[55]. Aynan shu yillardan boshlab tilning sinfiy tabaqalar o‘rtasidagi variantlari haqida fikrlar yuritila boshlangan. “20-40-yillarda tilshunoslikda sotsiolingvistikaning funksional doirasi kengaydi. Akademik Y.N.Marr “Til va jamiyat muhim hodisadir”, − deydi. Chunki tilda sinfiy tushunchalar mavjud, chunki u jamiyat a’zolariga xizmat qiladi. Lekin til va tafakkur, til va xalq, til va jamiyat, til va davlat, til va millat, til va elatlar kabi muammolar til sinfi asosida yuzaga keladi”[56]. Sotsiolingvistikada til siyosati ham muhim omil hisoblanadi. Milliy tillarni o‘rganish prinsiplari, tillarning bir-biriga ta’siri, ularning adabiy va noadabiy variantlari kabi masalalar bilan 50-60-yillarda qiziqib boshlandi va bu borada biroz rivojlanishlar ham kuzatildi. Shu o‘rinda o‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistik qarashlarning boshlanishi sifatida jadidlarning til borasida amalga oshirgan islohtlarini aytish mumkin. O‘sha davrlarda ilm-fan sohasida katta inqilob yasagan jadidlardan biri Abdurauf Fitrat o‘zbek tilining imkoniyatlarini sinchiklab o‘rgangan va o‘zbek tilining qoidalarini yaratgan. Tilga oid qarashlarini “Sarf” va “Nahv” asarlari orqali asoslab bergan. Tilning ichki xususiyatlarini va tarkibini jiddiy tahlil qilgach shunday fikrga kelgan: “…Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan biri arab, forsi(y) adabiyotining hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg‘andir. Tilimizning sof shaklini daladag‘i el-aymoqlarimizda ko‘ra olamiz. Dalada yashag‘an el-aymoqlarimiz orasida unlaring jon ozug‘i bo‘lib turg‘an dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashulalar, qo‘shiqlar bor. Shunlaring hamasini buyuk bir diqqat bilan xalq og‘zidan chiqqani kabi yozib olish kerak”[57]. Yuqoridagi fikrni o‘zbek tilshunosligidagi dastlabki sotsiolingvistik qarashlardan biri deyish mumkin.

Sotsiolingvistikaning uchinchi bosqichi sifatida 70-80-yillar e’tirof etiladi. Bu davrga kelib sotsiolingvistik tamoyillar anchayin mustahkamlanib, fanga doir masalalar va muammolar aniqlab olindi. “70-80-yillarda ijtimoiy tilshunoslikning tadqiqot obyekti kengayib, mustahkamlandi. Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritildi: a) umumiy masalalar; b) til aloqasi masalasi; v) til birlashmalari va ularning rivojlanishi; d) tilning ijtimoiy va hududiy masalalari”[58]. Aynan shu davrda Yevropada ko‘plab lingvistik asotsiatsiyalar ham shakllantirildi. Til

[55] Sh. Usmonova, N. Bekmuxamedova, G. Iskandarova “Sotsiolingvistika” (o‘quv qo‘llanma), Toshkent -2004, 4-bet
[56] Eshankulova Nargiza “Sotsiolingvistikaning fan sifatida rivojlanish tarixi” “PEDAGOGS” international research journal, Volume-9, Issue-2, May - 2022
[57] Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Manaviyat, 2009. – 141-bet.
[58] Eshankulova Nargiza “Sotsiolingvistikaning fan sifatida rivojlanish tarixi” “PEDAGOGS” international research journal, Volume-9, Issue-2, May - 2022

siyosatiga katta ahamiyat berildi. Til masalalari umumiy va xususiy jihatdan tahlil etildi. Tillarning bir-biriga bo‘lgan ta’siri natijasida hosil bo‘lgan hodisalar: bilingvizm, diglossiya, pjin tillar, kreol tillar kabi masalalar to‘g‘risida tadqiqotlar olib borildi. Sotsiolingvistikaning taraqqiyot bosqichlarini 4 davrga bo‘lish mumkin:

1-bosqich −20-40-yillar;
2-bosqich−50-60-yillar;
3-bosqich−70-80-yillar;
4-bosqich hozirgi davr sotsiolingvistikasi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiolingvistik tadqiqotlar tillarning jamiyat hayotidagi o‘rnining ortib borayotganligini, tilning leksik bazasi boyib borayotganini, jamiyat sohalarining rivojlanishi tilda ham o‘z aksini topishini, yonma-yon yashovchi qo‘shni davlatlar tilining o‘zaro ta’sirini, xalqaro tillarning boshqa tillarga ta’sirini, blingvizm, diglossiya va poliglossiyalarning ham ortib borayotganligini aniqlab bermoqda va bu ma’lumotlar ma’lum bir tilning o‘n yoki yigirma yildan keyingi ko‘rinishi haqida prognozlar yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, ma’lum milliy tilning yo‘qolib ketmasligi, uning rivojlanishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun nazariy va statistik ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойназаров Икром Социолингвистика (услубий қўлланма), Қарши – 2008. 58 бет
2. Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova “Sotsiolingvistika” (o‘quv qo‘llanma), Toshkent – 2004, 83 bet
3. Eshankulova Nargiza “Sotsiolingvistikaning fan sifatida rivojlanish tarixi” “PEDAGOGS” international research journal, Volume – 9, Issue-2, May – 2022
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Manaviyat, 2009.
5. Степанов Г. В. Типология языковых состояний *и* ситуаций в странах романской речи.– М., 1976.
6. http://www.genderi.org/tilshunoslikka-kirish-fanining-predmeti.html?page=60
7. Vikipedia
8. Arxiv.uz
9. portal.guldu.uz

SOTSIOLINGVISTIKA FAN SIFATIDA

Sayyora Jabborova
Termiz davlat univesriteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda davlat tilini rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar, tilshunoslik sohalarining rivojlanishi haqida til va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi, munosabatlarining rivojlanishi sotsiolingvistikaning rivojlanishi uning tilshunoslik sohasini rivojlanishidagi roli, uning muammolari va uni bartaraf etish yo‘llari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, sotsiolingvistika, til, millat, madaniyat.

Bugungi taraqqiylashgan davrda har bir davlat o‘z oldiga davlat tilini rivojlantirish va uni ommalashishiga alohida e’tibor bersishni maqsad qilib olgan. Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning zamirida davlat tili roli beqiyos. Til bu insonlar orasida kommunikatsiya, muloqot vazifasini bajaruvchi vosita hisoblanib, til millatning asososiy belgisi sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekistonda 1989- yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng davlat tilini rivojlantirish, uni ayniqsa, yoshlar orasida ommalashtirishni alohida siyosat darajasiga ko‘tardi. Davlat tilini rivojlantirish borasida qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Davlat dasturlarida davlat tilini rivojlantirishga oid bandlar kiritildi. Keyingi yillarda mamlakatimizda milliy tilimizning rivoji, barqarorligi, ravnaqi yo‘lida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilyapti. O‘zligimiz asosi bo‘lgan ona tilimiz haqida donishmand inson, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov o‘ttiz yil avval “Til millatning bosh belgisidir” — deya bong urgan, milliy tilimizning himoyasi uchun qalqon bo‘lgan edi[59].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni 2019-yil 21-oktabrda imzolandi.

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

Davlat tilini rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tilshunos olimlar o‘zbek tilini taraqqiylashishi uchun o‘zlarining ilmiy ishlarida tilshunoslikning turli sohalarini yoritishga harakat qilmoqda. Tilshunoslikning psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika sotsiolingvistika kabi sohalarni misol qilishimiz mumkin.

Sotsiolingvistika – ikkita fan – sotsiologiya va tilshunoslik tutashuvida paydo bo‘lganligini bilamiz. Sotsiolingvistika eng yosh va tilshunoslikning eng jadal

[59] https://yuz.uz/uz/news/til-millatning-bosh-belgisi-uning-istiqbolini-belgilovchi-muhim-omillardan-biridir

rivojlanayotgan sohalaridan biri[60]. Sotsiolingvistikaning fanlararo tabiati ko‘plab olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Biroq, bu e’tirof o‘z-o‘zidan savolga javob bermaydi, bu fan – sotsiologiya yoki tilshunoslik tutashuvidan hosil bo‘lgan. Bu bilan kim shug‘ullanadi – professional sotsiologlar yoki professional tilshunoslar (esda tutingki, “sotsiologistika” atamasini ishlatgan birinchi olim sotsiolog bo‘lgan).

Ijtimoiy hodisalar tomonidan til hodisalarining shartliligini hisobga olgan holda tilshunoslik tadqiqotlari shu asrning boshlarida Fransiya, Rossiya, Chexiya Respublikasida katta yoki kichik intensivlik bilan amalga oshirildi. AQShdan tashqari, ilmiy an’analar vaziyatni belgilab berdiki, tilning ijtimoiy institutlar, jamiyat evolyutsiyasi bilan aloqasini o‘rganish bu mamlakatlarda hech qachon “sof” tilshunoslikdan tubdan ajratilmagan.

Zamonaviy sotsiolingvistika uchun eng muhim g‘oyalar XX asrning birinchi yarmida I.A.Boduen de Kurtene, E.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M.Selishchev, V.V.Vinogradov, G.V.Vinogradov kabi taniqli olimlariga tegishli.Shu bilan birga sotsiolingvistika asoschilaridan biri, amerikalik tadqiqotchi Uilyam Labov sotsiolingvistikaga “tilni ijtimoiy kontekstda” o‘rganuvchi fan sifatida ta’rif beradi. Asosiy maqsad, biz ushbu noaniq ta’rifni hal qilsak, sotsiolingvistlarning e’tibori tilning o‘ziga, uning ichki tuzilishiga emas, balki u yoki bu jamiyatni tashkil etuvchi odamlarning tildan qanday foydalanishiga qaratishdir. Bunda tilning qo‘llanilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha omillar – so‘zlovchilarning o‘zlarining turli xususiyatlaridan (ularning yoshi, jinsi, ta’lim va madaniyat darajasi, kasb turi va boshqalar) ma’lum bir nutqning xususiyatlarigacha e’tiborga olish zarur. Til — jamiyat boyligi, u jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma’naviy turmushida ro‘y beradigan barcha voqea hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi; til ayni ma’noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo‘ladi.Tilning, dastlabki paydo bo‘lishi masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning kelib chiqishi haqida ko‘plab nazariyalar, ta’limotlar paydo bo‘ldi. Lekin bu nazariya va ta’limotlar tilning kelib chiqish masalasini hanuzgacha uzil-kesil hal qilib bera olgani yo‘q. Hozirgi kunda O‘zbekistonda sotsiolingvistikaga e’tibor qaratishi zarur bo‘lgan eng muhim muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin: til va millatning o‘zaro ta’sirlashuvi; til va madaniyatning aloqasi va o‘zaro ta’sirlashuvi; bilingvizm (ikki tillilik) va diglossiya (bir tilning bir-biriga ijtimoiy qarshi qo‘yilgan turli xil kichik tizimlarining o‘zaro ta’siri)ning ijtimoiy jihatlari muammosi; til siyosati muammosi (davlat, ijtimoiy guruhlar tomonidan tillarning yoki til tizimchalarining funksional taqsimlanishini o‘zgartirish yoki saqlab qolish maqsadida, yangi lisoniy me’yorlarni joriy qilish yoki eskilarini saqlab qolish maqsadida amalga oshiradigan choratadbirlar majmuyi) va boshqalar.

[60] Вахтин Н.Б. (ред.) Социолингвистика и социология языка. Хрестоматия. СПб.: Издательство Европейского университета в Санкт-Петербурге. 2012. - 588 с

O‘zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning tilga ta’siri masalasi “Tilshunoslikka kirish” qo‘llanmasida alohida to‘xtalgan bo‘lsa ham til va jamiyat muammolari ancha avvalroq tilga olina boshlangan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida ozmi-ko‘pmi shunga oid qaydlar bor. M.Mirtojiyev va N.Mahmudovning “Til va madaniyat” risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so‘z ketgan o‘rinlar mavjud.Keyingi yillarda bu boradagi tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaydi.Shu ma’noda hozirgi zamon sotsiolingvistikasidan sotsial va hududiy dialektlarni shunchaki qayd qilish, lingvistik tabiatini tushuntirishgina emas, balki ulardan unumli foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish ham talab etiladi. Zero, adabiy tilni boyitish, o‘zlashma terminlarga milliy muqobillarni topishda sotsial va hududiy dialektlar muhim leksik-semantik manba bo‘lishi aniq. Birgina sud-huquq tizimi leksikasida afv, vaj, garov, gumondor, gumonlanuvchi, ijrochi, ish, tadbir, o‘zlashtirish so‘zlarining ixtisoslashgan, maxsuslashgan yangi ma’nolaridan adabiy tilni boyitish va rasmiy uslub imkoniyatini kengaytirishda foydalansa bo‘ladi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tilga kamdir-ko‘pdir ta’sirlar bo‘lib turadi. Ba’zan uzoq vaqt tilning biror sathi jamiyat, inson omili bilan bog‘liq ta’sirlarga, o‘zgarishlarga uchramaydi yoki tilga ta’sir umummilliy miqyos kasb etmaydi. Biroq yozuv va imlo borasidagi o‘zgartirish yoki yangilanishlar umummilliy miqyosda, jamiyatning ongli aralashuvi ostida hal qilinadi. Hatto hukumat bunday lisoniy jarayonlarga faol ta’sir o‘tkazadi (o‘zbek-arab, o‘zbek-lotin, o‘zbek-kirill va yana o‘zbek-lotin alifbolarining joriy etilishida shuni kuzatish mumkin), milliy manfaatlar yuzasidan lisoniy jarayonlarni nazoratga olish, tartibga solishda ishtirok etadi. Tilning jamiyatga ta’siri natijalari tilshunos qayd qila biladigan til materiallarida ifoda topmaydi, balki ijtimoiy hayotning o‘zida bo‘y ko‘rsatadi[61].

Xullas til va jamiyat doimiy aloqada. Chingiz Aytmatov aytganiday: “Xalq tili oliy darajadagi hodisadir. Har bir til umuminsoniy dahoning mulkidir. Qaysi xalqqa mansub bo‘lishidan, taraqqiyotning qaysi bosqichida bo‘lishidan qat’iy nazar, hech bir tilni e’tiborsiz qoldirishga haqqimiz yo‘q”[62]. Shunday ekan, til va jamiyat o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq. Fan va ta’lim, madaniyat va san’at, texnika va mamlakat taraqqiyoti til va jamiyat aloqasining asosiy omillaridir. Bunday aloqa jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansub jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayishidir, xullas, til va jamiyat doimo bir-biri bilan aloqada bo‘ladi. Sotsiolingvistikaning rivojlanishi jamiyat va inson omili bilan bog‘liq ekanligini yakuniy xulosamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlari ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.:O‘zbekiston, 2016.
2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qattiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-T.:2017.

[61] https://yuz.uz/uz/news/til-va-jamiyatning-ozaro-munosabati
[62] https://www.slideshare.net/Olga1994/ss-31477487

3. Вахтин Н.Б. (ред.) Социолингвистика и социология языка. Хрестоматия. СПб.: Издательство Европейского университета в Санкт-Петербурге. 2012. – 77 с
4. O‘z.milliy ensiklopediyasi.2000-2005-yil
5. Qo‘shoqova B. “Tillarning o‘zaro munosabatlari va rivojlanishi qonuniyatlari” 3,4- betlar
6. Odilov Y.”Til vajamiyatning o‘zaro munosabati” 2020- yil

Internet sayti

7. https://yuz.uz/uz/news/til-millatning-bosh-belgisi-uning-istiqbolini-belgilovchi-muhim-omillardan-biridir
8. https://yuz.uz/uz/news/til-va-jamiyatning-ozaro-munosabati
9. https://www.slideshare.net/Olga1994/ss-31477487

MULOQOT – SHAXSLARARO AXBOROT ALMASHINUV JARAYONI

Sirojidinova Dilraboxon Baxtiyor qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomida gi Toshkent axborot texnalogiyalari universiteti
Farg'ona filiali Xorijiy tillar kafedrasi assistant o'qituvchisi

Annotatsiya. Quyida berilgan maqola muloqot masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda moloqotga ta'sir ko'rsatuvchi tomonlar haqida ham ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek shaxslararo muloqotda e'tibor berilishi kerak bo'lgan vositalar ham ta'kidlab o'tilgan.Maqola yordamida muloqot jarayoning tashkillanish bosqichlari ham yoritib berilgan va ba'zi bir misollar yordamida yoritib ketilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, axborot, verbal, noverbal, diolog, monolog,tilshunoslik.

Annotation. The following article is devoted to the issue of communication, and it also provides information about the parties influencing the communication. Also, the tools that should be paid attention to in interpersonal communication are highlighted. The steps of the communication process are highlighted with the help of the article and are highlighted with the help of some examples.

Key words: Communication, information, verbal, non-verbal, dialogue, monologue, linguistics.

Аннотация. Следующая статья посвящена вопросу коммуникации, а также предоставляет информацию о сторонах, влияющих на коммуникацию. Также выделены инструменты, на которые следует обратить внимание в межличностном общении, с помощью статьи выделены этапы процесса общения и выделены с помощью некоторых примеров.

Ключевые слова: общение, информация, вербальное, невербальное, диалог, монолог, лингвистика.

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari va hokazolarni bir-birlariga yetkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, hissiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt

sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi. Til vositasida olib boriladigan muloqot verbal, ya'ni so'zli deyiladi.Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni *noverbal* vositalar deyiladi. Buyuk rus yozuvchisi *L.Tolstoy* odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. *G.M.Andreyeva*ning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda hududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bevosita yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksi. *Noverbal* muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tkazib davra qurib o'qitgan ma'qul emish, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan hamda emosiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan. *Paralingvistik* ta'sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan "Albatta bajaraman!", desa ishonamiz, albatta. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqlarini o'stirish choralarini ko'rish

zarur. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin. Yuzma-yuz muloqotda kommunikantlar bir-birlarini nafaqat eshitib, balki ko'rib ham turganliklari bois vaziyat, imo-ishora va talaffuzga suyanib ish yuritadilar. Muloqotning bu turi aytilmoqchi bo'lgan fikrning xatti-harakat, ko'z va yuzlardagi ifodalar, talaffuz ohanglari yordamida adresatga tezroq va osonroq yetib borishligi bilan ajralib turadi.

Masofali muloqotda makon va zamonga ko'ra kommunikantlar o'rtasida ma'lum bir masofa bo'ladi. Muloqotning bu turiga telefon yoki xat orqali aloqa qilish (fikr almashish)lar kiradi.Bevosita muloqot yuzma-yuz suhbat, ma'ruza kabi masofasiz muloqot bilan bog'liq. Bavosita muloqot turlariga telefon, telegraf, radio, televideniye kabi texnik vositalar, xat, gazeta kabi qog'oz orqali bo'ladigan aloqalar kiradi. Og'zaki muloqot o'z belgilariga ko'ra masofasiz, bevosita muloqot turiga kirsa, yozma muloqot masofali va bavosita muloqot hisoblanadi. Muloqotning har ikki turi o'ziga xos qulaylik (afzallik) va noqulaylik jihatlariga ega. Jumladan, so'zlovchi og'zaki muloqotda o'z fikrini murakkab grammatik qurilishlarsiz turli nolisoniy vositalar yordamida ancha erkin bayon etish imkoniga ega bo'lsa, yozma nutqini tahrir qilish orqali yanglish yozilgan fikrlarni to'g'rilash, matn ta'sirchanligini oshirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Og'zaki va yozma nutq vaziyat, holat bilan bog'liq holda adresatga turlicha ta'sir etadi. Jumladan, o'qituvchi darsda, notiq ma'ruza paytida, gu-voh sudda, sevishganlar uchrashuv paytida o'z fikrini o'qib bersa, bu matn qanchalik mazmundor bo'lmasin ta'sirsiz bo'ladi. Ammo notiqning o'sha mazmunli ma'ruzasi matbuotda eolon qilinsa, uslub nuqtai nazaridan u ma'ruza paytida o'qib berilganidan ko'ra adresatga kuchliroq ta'sir etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Brief information about the history of lingvoculturology." So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazaryasi.ilmiy-uslubiy jurnali,131-134b D.B.Sirojidinova
2. Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b
3. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. 144 б.
4. Маҳмудов Н. Маданий нутқ муаммолари//Таолим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. – Тошкент "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1999, 7-19-б.
5. Жабборов Ж. Муомала маданияти // Мулоқот, 1997. 5-с

XORIJIY SOTSIOLINGVISTIKA FANINI O‘RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Umarova Farida Qurbonmurodovna
TerDU, 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Keyingi yillardagi tilshunoslik sohasidagi bo‘layotgan o‘zgarishlar yangidan yangi u bilan bog’liq bo‘lgan, biroq o‘rganish obyekti ma’lum darajada lingvistikadan farq qiluvchi sohalarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ldi. Jamiyatning har bir sohasi foydalanuvchi –til aslo to‘xtamaydi va u doimo rivojlanishdadir. Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning bir bo‘lagi bo‘lgan xorijiy sotsiolingvistika fani va uning o‘rganilishi muhim jihat ekanligi, tillarning jamiyatdagi rolini belgilovchi xususiyattiyatlari, dunyoning rivojlangan o‘ntalik davlatlarida tilning darajaviy qo‘llanishi nechog’lik ahamiyatga egaligi, sotsiologiya va xorijiy sotsiolingvistika fanining farqli va o‘xshash jihatlarini ajratish muhim omil ekanligi haqida fikr va mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xorijiy sotsiolingvistika, til variantlari, tilning darajaviy qo‘llanishi, til, jamiyatshunoslik, sotsiolingvistik struktura.

Xorijiy sotsiolingvistika fani maxsus fan sifatida dunyodagi eng rivojlangan davlatdagi til siyosati, mohiyati, qo‘llanish vaziyatini o‘rganadi va tavsiflaydi.[9] Ushbu fan o‘ziga yondosh “Lingvokulturologiya”, “Psixolingvistika”, “Nazariy tilshunoslik masalalari”, “Pragmalingvistika’’, “Matn tilshunosligi” kabi fanlar bilan birga ish ko‘radi.

Fanning o‘rganish obyekti eng rivojlangan o‘nta davlat: AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya mamlakatlarining tillari, ularning maqomlari, ijtimoiy vazifasi, til jamoalarida tillarning qo‘llanish holati, jamoa a’zolarining davlat tillariga munosabati, ularni amalda ishlatish darajasini aniqlashdan iboratdir. Labov sotsiolingvistikani aniq chegaralangan fan sifatida boshqa fanlardan ustun turishini aytadi. [1] Albatta, bu o‘rinda tilning darajaviy qo‘llanish holati, jamoa a’zolarining davlat tillariga bo‘lgan munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy sotsiolingvistikaning shakllanishida amerika olimlarining xizmatlari beqiyos. Ular lisoniy variantivlikni til ichki tizimidagi o‘zaro munosabatlar nuqtai nazaridan emas, aksincha, tilni ijtimoiy o‘zaro bog’langan turli variantlarga ajralishi jihatidan o‘rganadi. Amerika sotsiolingvistlari tilga yaxlit va bir turdagi tizim sifatida emas, balki jamiyatning mikro ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lgan o‘zaro aloqador ost tizimlar ta’rzida munosabatda bo‘ladi.

Turli nazariy qarashlarga ega bo‘lgan Amerika sotsiolingvistikasi pozitiv falsafaning tamoyillari, ayniqsa, semantik g’oyalar ta’sirida bo‘lib, ular ijtimoiy antropologiyada mujassamlashgan. Til ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘z ichiga olgan madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tasavvur qilinadi.

Ervinn-Trip kommunikatsiya jarayonidagi muloqot ishtirokchilarning verbal muomalasiga sotsiolingvistikaning predmeti deb qaraydi.[2:336]

Nemis tilshunosligida esa asosiy diqqat e’tibor dielektlar, me’yor muammosi, adabiy til, so‘zlashuv tili va dialektlarning munosabatini o‘rganishga qaratiladi.

Keyinchalik GFR tilshunoslari til va jamiyat o‘zaro munosabatlarining turli jihatlarini tasvirlaydigan fanni nomlash uchun “sotsiolingvistika” va “til sotsiologiyasI” terminlaridan foydalangan. X.Gipper sotsiolingvistika doirasiga jamiyat turli qatlamlarining o‘ziga xos nutqiy muomalasi bilan bog’liq masalalarni, til sotsiologiyasi diorasiga esa til va jamiyatning o‘zaro ta’siri bilan bog’liq masalalar majmuyini kiritishni taklif qiladi.[3:100] B.Shliben esa har ikkala fan ham lisoniy va nolisoniy ta’sirlar o‘rtasidagi farqni tadqiq etadi, deya talqin qiladi.[4:111] Tilshunoslarning qayd qilishicha, standartlashgan adabiy til sotsiolingvistika uchun alohida qiziqish uyg’otmaydi, bu fan, avvalo, til variantlarini tashkil etishni maqsad qiladi.

Xorijiy sotsiolingvistika fani tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlaridan til amalda taraqqiyotning ijtimoiy shartlangan umumiy qonuniyati, jamiyatning tilga tilning jamiyatga ta’sirini o‘rganishdan iborat ekanligi bilan farqlanadi.

Muayyan mamlakatda hayot kechirayotgan har xil elat va millatlarning bir-biriga ta’siri, tillar aro munosabat, tillarning ijtimoiy hayotdagi vazifa va xizmatlarida avvalgi davrlarda mutlaqo ko‘zga tashlanmagan jihatlarning voqealanishi sotsiolingvistikaga oid izlanishlar, g’oyalar, dunyoqarashlarning yuzaga chiqishiga turtki bo‘ldi. Bu fanning shakllanishi uchun sotsiologiya fani asos va poydevor vazifasini o‘tadi ,albatta.Biroq ko‘p millatli rivojlangan davlatlarda yangidan yangi va rang-barang til shakllarining dialektlar tarkibida, ba’zan esa alohida til sifatida mavjudligi boshqa til unsurlaridan uning farqli va o‘xshash jihatlarini hamda qo‘llanish darajasini o‘rganish kerakligini taqozo etdi.

Rivojlangan mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlar maqomi va mavqei turlicha bo‘lganidek, tillarning yoyilish qo‘llanish doirasi ham o‘zgacha. Shu jihatdan tillar vaziyati xususida haqiqatga mos xulosalarga kelish, tillarning jamiyat hayotidagi rolini belgilash, ertangi holatini bashorat qilish “sotsiolingvistika”, chunonchi, “Xorijiy sotsiolingvistika” fanining asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Xorijiy sotsiolingvistikaning vazifalaridan biri til variantlarini lingvistik va ijtimoiy funksional jihatdan o‘rganishdir.Olimlar zamonaviy taraqqiy etgan jamiyat uchun bir til jamoasida bir qancha lisoniy variantlarni qo‘llash muhim deb hisoblashadi. Bunday fikrlar amerika olimlarida ko‘proq uchraydi. Aslida lisoniy variantlarning yuzaga kelishi, uni yoqlovchi xalqlarning mavjudligi hududiy va mahalliy tillarning nufuzini oshirib, davlat tilining obro‘siga qaysidir darajada putur yetkazishi mumkin .O‘z navbatida har bir tilning tarafdorlari malum miqdorda zirhlanishga harakat qilishadi, go‘yo o‘z sha’nini himoya qilgandek.

Mikro darajadagi asosiy e’tibor muloqot vaziyatining imkoniyatini hisobga olgan holda nutq hodisasining ijtimoiy tahliliga qaratiladi.Til sotsiologiyasi mikro tahlilning unsuri “muloqot akti” hisoblanadi.Til sotsiologiyasining mikrodarajasi nutq va shaxslararo muomalaning xususiyatlari bilan qiziqadi.

Bu fan maxsus fan sifatida o‘ziga xos metod, usul va o‘rganish metodologiyasiga ega. U.Brayt fikriga ko‘ra, “Sotsiolingvistika - bu ajoyib tarzda o‘sayotgan bola. Biroq uni voyaga yetishi hali tugallanmagan”[5:34-41].

Sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi.Agar aniqlik kiritadigan bo'lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Bunday holda sotsiolingvistning vazifasi til strukturadagi va ijtimoiy strukturadagi o'zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo'ladi. Ya'ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo'shma variantsiyalashuvini ko'rsatib berish hatto u yoki bu yo'nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir.[6:8] Agar ushbu sohaning asosiy tushunchasini aynan farqlilik, deb izohlanadigan bo'lsa, u holda tadqiqotlarning muhim yo'nalishlari til farqlarining shartlanganligi bilan bog'liq bo'lishini ko'rish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, dealektlar ikki guruhga bo'linadi: hududiy va ijtimoiy. Ba'zan qaysidir hududda ijtimoiy dealektlar muhim o'rin tutsa, ayrim davlatlarda hududiy dealektlarning nufuzi balandroq[7:229]. So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asosiy dealekt farqlanishi bilan birga, ulardan ba'zilari o'zining farqlarini yo'qotib boradi. Biroq muhim jihat shundaki, ayrim dealekt farqlarining kamayishga nisbatan kuchayganligi kuzatiladi[8].

Xullas, "Xorijiy sotsiolingvistika" fani o'ziga yondosh bir nechta fanlar bilan birgalikda ish ko'radi. Biroq alohida fan sifatida o'ziga xos metod va metodologiyasiga, maxsus tadqiqot obyekti hamda alohida yo'nalishiga ega fan hisoblanadi. Fanni o'rganishning amaliy ahamiyatii quyidagicha:

– jamiyatning tilga tilning jamiyatga ta'sirini o'rganish;

– nutq hodisasining ijtimoiy jihatini tahlil qilish;

– ko'p millatli rivojlangan davlatlarda dealektlar tarkibida bo'lgan rang-barang tillarning shakllarini o'rganish;

– til sotsiologiyasi va sotsiolingvistika terminlarini o'zaro farqlash;

– rivojlangan davlatlarda tillarning yoyilish-tarqalish darajasini o'rganish;

– til variantlarini funksional jihatdan tahlil qilish;

– lingvistik strukturada tildagi qo'shma variantlashuvni ochib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Labov W.Phonological correlates or social stratifikatsion.- Amerika, 1964.
2. Эрвин-Трипп С.М. Язык Тема Слушател Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике \///. Сотсиолингвистика.– Москва, 1975.
3. Cipper F. F. Soziclingvistik oder. Eine Einfuxrung.2-e Aufe statgardus, 1978.
4. 4.Schlicben-I-iange, B.Soziolingvistik Lexikon der Cermanisticsben linguistic Auf Tobingen, 1973.
5. Брайт У. Введение параметри сотсиолингвистикы// Новое лингвистики вып \/ /.–Москва, 1935.
6. H.Dadaboyev, Sh.Usmonova. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014.
7. Lippi Green. English with an accent language, ideology and discrimminationin the United states.-London, 1997.

8. Usmonova SH., Kalonova D. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari// lingvist.// – Toshkent: Akademnashr, 2012.
9. www.unesco.org.culture/ ich. Index. Php? RZl

СОМЕРСЕТ МОЕМ АСАРИДА ИНСОН ТУЙГУСИ (“ОЙ ВА САРИҚ ЧАҚА” РОМАНИДАНТАГИГА ЧИЗИБ ЎҚИЛАДИГАН САТРЛАР)

Матякубова Шахноза Илхамбек кизи
стажёр ассистент
Самарканд давлат тиббиёт университети
Тиллар кафедраси инглиз тили ўкитувчиси

Аннотация. Инглиз адиби Уильям Сомерсет Моэм номи кўпчилик адабиёт ихлосмандларига таниш. Ёшлигидан илм олишга қизиққан, ўқиб-ўрганиб, шифокор бўлган ижодкор адабиёт оламига кириб келгач, ўз касбини ташлайди, бор куч-ғайратини ижодга бағишлайди. Бирин-кетин чоп этилган асарлари унга шуҳрат келтира бошлайди. Ёзувчининг ўзи эътироф этганидай, “Ой ва сариқ чақа” романи ҳақиқатан ҳам унинг шоҳ асарларидан бири бўлиб, асар муаллифи ўткир нигоҳи орқали кўз ўнгида содир бўлган ҳаётий воқеликни бадиий талқинда очиб берган.

Калит сузлар: ўткир нигох,куч гайрат, мўйкалам сохиби, муккасидан кетиш, бадиий латофаат, ёзувчилик, роман, песа.

Абстракт. Имя английского писателя Уильяма Сомерсета Моэма знакомо большинству любителей литературы. Художник, который с юности интересовался учебой, выучился и стал врачом, войдя в мир литературы, бросил свою профессию и всю свою энергию отдал творчеству. Его произведения, издаваемые одно за другим, начинают приносить ему известность. Как признавался сам писатель, роман «Луна и желтое дитя» действительно является одним из его шедевров, и автор произведения своим острым взглядом раскрывал происходившую на его глазах жизненную действительность в художественной интерпретации.

Ключевые слова: острый взгляд, энергия, творчество, художественная грация, письмо, роман, страсть.

Abstract. The name of the English writer William Somerset Maugham is familiar to most literature lovers. The artist, who was interested in learning from his youth, studied and became a doctor, when he entered the world of literature, he gave up his profession and devoted all his energy to creativity. His works, published one after another, begin to bring him fame. As the writer himself admitted, the novel "Moon and Yellow Child" is really one of his masterpieces, and the author of the work revealed the life reality that happened in front of his eyes in an artistic interpretation through his sharp gaze.

Key words: sharp eyes, energy, creativity, artistic grace, writing, novel, passion.

Инглиз адиби Уильям Сомерсет Моэм номи кўпчилик адабиёт ихлосмандларига таниш. Ёшлигидан илм олишга қизиққан, ўқиб-ўрганиб, шифокор бўлган ижодкор адабиёт оламига кириб келгач, ўз касбини ташлайди, бор куч-ғайратини ижодга бағишлайди. Бирин-кетин чоп этилган асарлари унга шуҳрат келтира бошлайди. Ёзувчининг ўзи эътироф этганидай, “Ой ва сариқ чақа” романи ҳақиқатан ҳам унинг шоҳ асарларидан бири

бўлиб, асар муаллифи ўткир нигоҳи орқали кўз ўнгида содир бўлган ҳаётий воқеликни бадиий талқинда очиб берган. Шу билан бирга, воқеа ичида воқеанинг ривожланиб бориши, асар қаҳрамони Чарльз Стриклендниng қирқ ёшидан кейин рассомликка муккасидан кетиши, у ва унинг дўстлари атрофида кечган инсоний муносабатлар, мўйқалам соҳибининг фожиавий қисмати ўқувчини чуқур фалсафий мушоҳадага ундайди, ҳаёт ҳақидаги тасаввурини бойитади. Қуйида асардан олинган парчаларни эътиборингизга ҳавола этамиз.

Туйғу ҳамма тушунадиган тилда ифодаланади

“Ой ва сариқ чақа” романидан

тагига чизиб ўқиладиган сатрлар

Таниқли инглиз ёзувчиси Уильям Сомерсет Моэм (инглизчада: William Somerset Maugham; 1874, Париж — 1965, Ницца) Парижда, инглиз элчихонасида хизмат қилган юрист оиласида туғилган. Болалигидаёқ ота-онасидан ажралган Сомерсет Англиядаги қариндошлари қўлида тарбияланади. Дастлаб Гейделберг университетида адабиёт ва фалсафа йўналишида, кейинчалик Лондондаги тиббиёт мактабида таҳсил кўрган. Моемнинг шу йилларда кечирган ҳаёти материаллари асосида ёзилган «Ламбетлик Лиза» (1897) романи машҳур. Шундан кейин Моэм врачлик ихтисосидан воз кечиб, ёзувчилик билан шуғулланган. У асосан Франциянинг жанубий томонларида яшаб, 60 йиллик адабий фаолияти давомида кўплаб роман, ҳикоя, песа, адабий-танқидий этюд ва мемуар асарлар ёзган.

Моэм 1-жаҳон уруши йилларида Британия разведкасининг ходими сифатида бир қанча мамлакатлар, шу жумладан, Россияда ҳам бўлган ва «Эшенден ёки Британия агенти» (1928) ҳикоялар тўпламида шу ҳақда нақл қилади.

Моем илк пьесаси — «Леди Фредерик» (1907) нинг катта муваффақият қозонганидан рағбатланиб, «Номаълумлик» (1920), «Садоқатли хизмати учун» (1932) ва «Шеппи» (1933) пьесаларини ёзган. Унинг пьесаларида 20-а.нинг 1-ярмидаги инглиз жамияти ҳаёти манзаралари акс этган.

Сомерсет Моэм «Ой ва чойчақа» (1919), «Ширин кулча ва пиво» (1930), «Театр» (1937) ва бошқа романлар муаллифи.Адибнинг «Инсоний эҳтиросларзалвори» (1915) автобиографий романи, айниқса, машҳур бўлиб, унда роман қаҳрамони — ёш йигит ва у билан тўқнашган кишилар талқинидаги нозик психологизм ҳаёт манзараларининг кенг тасвири билан туташган ҳолда асарга ўзгача бадиий латофат бағишлаган. «Нотаниш одам Парижда» ва «Ой ва чойчақа» романлари ўзбек тилига таржима қилинган.

Санъат туйғуларни намойиш этиш шакли, туйғу эса ҳамма тушунадиган тилда ифодаланади.

* * *

Агар одам дарёга тушиб кетгудай бўлса, яхши ёки ёмон сузишидан қатъи назар, сув қаъридан қутулмоғи шарт, акс ҳолда, дарёга ғарқ бўлади.

* * *

Инсон табиатида афсоналар тўқишга иштиёқ кучли бўлади. Шунинг учун ҳам одамлар ўзларига ўхшаган кишиларнинг ҳаёти тўғрисида ҳаммани ҳайрон қолдирадиган ва сирли ҳикоялар тўқишга интилишади. Кейинчалик ўзлари тўқиган афсоналарга ўзлари ҳам ишониб қолишади. Бу ўртамиёна ҳаётга қарши романтиканинг исёнидир.

* * *

Инсон шуҳратга ўч бўлади, баъзида шуҳрат учун ёвуз душманга эшикни очиб беришга ҳам тайёр туради. Душман эса бундай одамни ялтоқилик билан ўз тарафига оғдиради, тўдадан ажраб инсон бўлиб шаклланишига йўл қўймасликка интилади.

* * *

Чинакам инсон жамият фаровонлиги шахсий фаровонликдан юқори туришини англай бошлайди.

* * *

Инсонни инсоният, жамият билан боғлаб турган ришталар жуда мустаҳкам ришталардир.

* * *

Изтироб одамни олижаноб қилади, деган гапга кафиллик бериб бўлмайди. Бахт гоҳида одамда шундай туйғулар уйғотиши мумкин. Лекин изтироб аксарият ҳолларда одамни майдакаш ва қасоскорга айлантиради.

* * *

Гўзаллик ғаройиб ва ҳар кимга ҳам насиб этавермайдиган, санъаткор аҳли оғир руҳий изтироблар туфайлигина дунёга келтирадиган ноёб ҳодиса. У кашф қилингандан кейин ҳам ҳамманинг тиши унга ўтавермайди. Гўзаллик — санъаткор бизга чалиб берадиган куй. Юрагимизда бу куй акс-садо бериши учун билим, ҳиссиёт, фантазия керак одамга.

* * *

Умрингда сен кўрмаган, сени мутлақо танимайдиган одамлар қўлларинг билан яратган мўъжизани кўриб ҳаяжонланишлари, ўзларини қўярга жой тополмай қолишларини кўриш ғоят лаззатли бўлса керак. Шуҳрат кимга ёқмайди? Одамлар юрагида қўрқув ва изтироблар уйғотадиган туйғудан кўра шуҳрат афзалроқ бўлса не ажаб?

* * *

Мен учун энг муҳими – кўнглим кўриб турган нарсамни чизиш.

* * *

Севги бу ғамхўрлик ва назокат дегани… Севгида раҳмдиллик, ёқтирган одамини авайлаш, ҳимоя қилиш туйғуси, унга яхшилик қилиш, хурсанд этиш истаги мавжуд. Ҳарҳолда бу туйғуда усталик билан пардага ўралган худбинлик ҳам яширинган, шу билан бирга, унда маълум даражадаги журъатсизлик ҳам бор.

* * *

Мен ўзимни ҳаммавақт ҳам ахлоқий камолот учун курашувчи сифатида кўрсатишдан ийманганман. Агар шундай қилинса, одам ўзига бино қўйган кимсага айланиб қолиши ҳеч гап эмас. Юмор туйғусидан маҳрум бўлмаган одам учун бу ғоят ёқимсиздир.

* * *

Одамлар кўпинча ўз бошларига турли фалокатларни ёғдириш учун қўлларидан келган барча ишларни амалга оширишади-да, кейинчалик ўз ақлсизликларининг касофатидан бир амаллаб қутулиб қолишади.

* * *

Ҳаёт ғоят шафқатсиз. Ҳеч ким бу дунёда не сабабдан юрибди-ю, қаёққа кетаётганини билмайди. Итоаткорлик ҳаммамизга хос хусусият. Биз хотиржамликнинг ғаниматлигини қадрламоғимиз керак. Токи қисмат бизни топмагунча ҳаётда ҳам хотиржам ва тинчгина яшашни ўрганмоғимиз лозим. Оддий одамлардаги севгининг қадрини билмоқ жоиз. Уларнинг омилиги бизнинг билимдонлигимиздан яхшироқ. Бамайлихотир, Яратганнинг берганига шукрона қилиб, итоаткорлик билан яшамоқ керак. Ҳаётнинг бутун фалсафаси шу.

* * *

Теран ва ёрқин яратилган разил одам характери ёзувчини кўпроқ ўзига жалб этади. Менимча, Шекспир ой нуридай мусаффо Дездемонага қараганда, Ягони яратаётганда кўпроқ лаззатланган бўлса керак. Эҳтимол, ёзувчи аҳли товламачи ва ярамас одамларнинг образларини яратаётганда табиат томонидан ўзига жойланган, лекин маданий дунё урф-одатлари ва қонунлари туфайли онг остига яширинган туйғуларни қаноатлантиришга ҳам ҳаракат қилади. Фантазияси орқали яратаётган образларига ўзидаги “мен”нинг бир қисмини ҳам ҳадя этади. Унинг бу қувончи озодлик қувончи ҳамдир. Ёзувчи ҳукм чиқаришдан кўра кўпроқ ўрганишга даъват этилган.

* * *

Мен лоқайдликни кўксига қалқон қилиб олган одамни нишонга олиб, дабдаласини чиқаришни мўлжаллардиму, лекин афсуски, унинг сўзларида ҳақиқат учқунлари ҳам бор эди. Ахир биз бошқалар устидан ҳукмронлигимизни кўпроқ онгсиз равишда уларнинг бизнинг фикримизга қандай муносабатда бўлишларига қараб белгилаймиз, таъсиримизга тушишни истамайдиганларни ёмон кўра бошлаймиз. Инсон ғурури учун бундан кўра шафқатсизроқ алам йўқ.

* * *

Одамларнинг қандайлиги ишларида аён бўлади. Кўпчилик ўртасида эса ўзини қандай кўрсатишни хоҳласа, шундай кўрсатишга ҳаракат қилади.

* * *

Ўзига ниқоб кийиб юрадиган одам вақт ўтиши билан бу ниқобга ўрганиб қолади ва ҳақиқатан ҳам аввалига қандай кўринмоқчи бўлса, ўшанга ўхшаб қолади. Лекин ўз китоби ва расмларида у ўзини ҳимоя қила олмайди. Унинг даъволари эса ҳавойилигини кўрсатади. Тараша тарашалигича қолади-да.

* * *

Ҳеч қандай кучанишлар ўртамиёна асарни олий асарга айлантира олмайди. Дидли заршунос эскиздаёқ уни яратган рассомнинг қалбини кўра олади.

* * *

Одамлар гўзал сўзини шу қадар бепарво талаффуз этадиларки, натижада бу сўз ўз маъносини йўқотади-да, фикр юритилаётган нарса гўзаллиги ва улуғлигидан маҳрум бўлади.

* * *

Биз бошқалар билан ўз қалб хазинамизни зўр бериб баҳам кўрмоқчи бўламиз, лекин улар бундан қандай баҳраманд бўлишни билишмайди. Зеро, биз ҳаётда улар билан биргаликда елиб борамиз. Лекин уларни доимо ҳам тушунавермаймиз, улар ҳам бизни тушунавермайди. Биз бегона юртда бу ердагиларнинг тилини деярли билмасдан яшаётган одамларга ўхшаймиз. Улар бизга жуда кўп ажойиб теран фикрларни айтмоқчи бўлишади-ю, аммо биз тушунишимиз учун энг содда сўзларни гапиришади. Уларнинг миясида бир-биридан қизиқроқ ғоялар ғужғон уради-ю, бироқ ўта содда сўзлар билан чекланишади.

* * *

Назаримда, шундай одамлар бўладики, улар туғилишлари керак бўлган жойдан бошқа масканларда таваллуд топишади. Тасодифият уларни муайян ўлкага итқитиб ташлайди-да, умр бўйи ўзлари кўрмаган ватанлари фироқида азоб чекадилар… Туғилган юртида бегоналар билан яшайди, ўзлари ҳам бошқаларга бегона бўлиб қолишади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Vikipediya" sayti materiallari
2. Uilyam Somerset Maugham: G. E. Ionkis tomonidan iste'dodning qirralari
3. www.modernlib.ru saytining materiallari
4. www.bookmix.ru saytining materiallari
5. Jahon adabiyoti: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/ Sh. Normatova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 - 96 b. ISBN 978-9943-05-162-1 : B.s.

ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ЭМОТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ

Ахмедова Саодат Шухрат қизи
Свободный соискатель кафедры
«Арабской филологии» ТГУВ

Аннотация. В статье представлен анализ роли и значения категорий эмотивности и оценки в языке на примере русского и арабского языков, а также способы их оформления и формального выражения.

Ключевые слова: категория эмотивности, категория оценки, лингвистика эмоций, глагольные формы.

Целый ряд естественных и гуманитарных наук, объектом которых является человек, — социология, психология, философия, этика, медицина, физиология, биохимия и т.д. — занимается исследованием эмоций. В их число входит и языкознание, потому как, представляя собой один из адаптивных механизмов индивида к окружающей его действительности, эмоции опосредуют различные сферы человеческой деятельности, в том числе и коммуникативную деятельность. Речевое высказывание обладает свойством выражать различные эмоции, что всегда отмечалось в языковых исследованиях, но в качестве специального объекта изучения оно оформилось лишь в течение последних десятилетий. Возникновение и интенсивное развитие нового направления в языкознании — лингвистики эмоций или эмотиологии [5] — подтверждает значимость и продуктивность исследований в этой сфере.

В настоящее время в области изучения лингвистики эмоций описана теоретическая и практическая значимость изучения эмоций и эмоциональных состояний как феноменов человеческого сознания в рамках современной когнитивной лингвистики (О.О. Будянская, А. Вежбицкая, В.И. Шаховский, Т.А. Трипольская и др.).

Связь эмоции и оценки считается одной из важнейших проблем при анализе эмоциональных состояний. Так, в истории изучения эмоций с позиции разных философов вопрос о взаимосвязи и взаимодействии этих двух категорий был очень актуальным: оценка соотносилась с различными аспектами теории эмоций. Теории эмоций, в основе которых лежит оценка, возникли в английской моральной философии XV в. (лорд Шефтебери, Ф. Хатчесон, Д. Юм), и позднее в Европе в XVIII—XIX вв. (Ф. Брентано, М. Шелер и др.) [3. С. 226].

Основанием единой модели глобального описания всего множества эмотивной лексики может служить категория эмотивности.

Существует узкое и широкое понимание эмотивности. Во втором случае эта категория охватывает все языковые средства отображения эмоций. Подобное осмысление категории эмотивности предполагает, что она объединяет семантически близкие языковые единицы разных уровней. Практически любая деятельность человека связана с эмоциональными

переживаниями, так что эмотивность является неотъемлемой частью жизни человека. Базовые эмоции универсальны, благодаря чему оказывается возможным существование типовых эмоционально значимых ситуаций межкультурного и внутрикультурного общения. Эмоции, которые составляют базу человеческой деятельности, не могут не получить определенного отражения в том или ином языке [1. С. 52—53].

При рассмотрении категории эмотивности на материале лексики арабского и русского языков встает проблема эмотивного значения, в единой структуре которого содержится сема эмотивности того или иного ранга, т.е. значение, в котором каким-либо образом представлены (выражены или обозначены) эмотивные смыслы.

Между эмоциональными состояниями и их причинами в картине мира, а также психических свойствах человека есть согласование по оценке: люди обычно огорчаются в связи с плохими событиями, и наоборот — радуются хорошим новостям. Причины этого — эмоциональные состояния, которые, собственно, и оцениваются совершенно по-разному. Зачастую эти причины являются абсолютно нейтральными событиями, получающими оценочное значение конкретно в каждой ситуации.

Их оценка принадлежит всей ситуации (субъект эмоционального состояния + предикат + причина), а не событию как таковому. То есть при разных подходах к изучению роли оценки в эмоциональном состоянии происходит учет двух важных факторов — оценка самого переживания (как приятного или неприятного) и оценка ситуации как «+» или «-». Оценка как семантическое понятие подразумевает ценностный аспект значения языковых выражений, который может интерпретироваться как «А» (субъект оценки) считает, что «Б» (объект оценки) — хороший или плохой [3. С. 5].

Учитывая вышесказанное, можно отметить, что структура оценки может быть выражена следующей формулой:

A r B (субъект — оценка — объект), где предикат r характеризуется рядом признаков, которые и определяют индивидуальность и своеобразность оценочного отношения субъекта к объекту. Среди этих признаков как раз и обнаруживаются и особым образом выражаются каждая из таких категорий, как эмотивность и оценочность, эмоциональность и рациональность, аффективность и т.д.

В то же время оценка является составляющей различных языковых выражений. Она может быть выражена элементами, словами и даже группами слов и высказываниями. Лексическая система языка настолько универсальна и подвижна, что целые слои лексики используются для передачи оценочных значений. Сюда относятся прилагательные, например: прекрасный, ужасный; существительные, содержащие в своей семантической структуре компонент оценки: кляча, ябеда и др.

Однако особое место среди слов с компонентом оценки занимают глаголы, которые представляют основной интерес в рамках данной статьи.

Хотя арабский и русский языки являются генетически не родственными, с одной стороны, и разносистемными — с другой, оба они обладают богатой морфологией, в которой центральное место занимает глагол, характеризующийся многообразием грамматических категорий и лексико-грамматических разрядов в рамках этих категорий.

Так, оценка может содержаться в наименованиях действия:

— безобразничать — т.е. вести себя плохо —

arbada — tashaka — salaka suluk alashkiya;

в пропозициональных структурах глаголов:

— радоваться (актант, каузирующий радость, всегда хороший для субъекта) —

fariha — surra — jazila — ibtahaja — tariba;

— огорчаться (актант плохой для субъекта) —

takaddara — tahassara — shajiya — asiya — ightamma;

— восхищаться чем-либо (объект восхищения имеет знак «+»)

aajaba bi — ibtahaja — istaajaba — ibtatana bi [6].

Таким образом, оценка может даваться абсолютно по разным основаниям и критериям, среди них: «истинность/неистинность», «важность/неважность» и т.п. Но необходимо отметить, что основная сфера значений, соотносимых с категорией оценки, непосредственным образом связана с критерием «хорошо/плохо».

Важнейшей особенностью оценки является выражение субъективного фактора, который непосредственно связан с объективным фактором. В любом высказывании ценностное отношение между субъектом и объектом подразумевается.

Вопрос о первичности в оценке эмоционального или рационального факторов считается одним из ведущих в аксиологии и сталкивает последователей теории объективизма и субъективизма в теории оценок. Для эмотивистов первичной является эмоция как реакция на происходящие события, эмоция и определяет оценку. Объективисты полагают, что в эмоциях скрыты суждения и что в любом случае эмоции и отношения зависят от суждений о том или ином положении вещей в действительности. В зависимости от того, как меняется суждение, меняется и сама эмоция [3. С. 40].

Следует отметить, что в языке практически не встречаются высказывания, выражающие чисто эмоциональную оценку, ввиду того, что язык предполагает наличие и рационального аспекта. Поэтому собственно разделение двух сущностей — рационального и эмоционального — по сути условно. Однако язык различает способы выражения этих двух видов оценки, имеет необходимый арсенал средств для их разделения, отмечает разные реакции на них адресата.

В случае если в высказывание включен предикат мнения, усиливается рациональность оценки, например:

Я считаю его опытным педагогом.

Одной из важнейших характеристик способа выражения оценки — возможность ее интенсификации и деинтенсификации — усиление признака «хорошо» или «плохо». Интенсификаторы составляют ряды единиц, соотнесенных друг с другом определенным образом. Интенсификация может быть выражена в семантике слов, ср.: любить — обожать:

— обожать

Abada — ashiqa — hama — ahabba(hu)

— любить

hawa — wadda — wamiqa — alaqa — istahsana [6].

Говоря непосредственно о специфике выражения эмотивности в арабском языке, необходимо отметить, что каждая из глагольных единиц содержит дополнительные категориальные признаки — каузатива, состояния, итеративности и пр. Это, в первую очередь, обусловлено спецификой словообразования в арабском языке и, в частности, особенностями образования арабского корня (глагол в арабском и других семитских языках имеет развитую систему производных основ, которые меняют определенным образом значение первоначальной основы, придавая ей добавочные оттенки и значения), а также тем, что арабский язык характеризуется высокой степенью продуктивности синонимии, в том числе и на уровне глагольных единиц.

Исследование глагольного фонда лексической системы арабского языка в сопоставлении позволило выявить ряд грамматических и семантических типов глаголов эмоционально-оценочного отношения.

По мнению А. Вежбицкой, эмоциональные концепты могут быть истолкованы через использование ряда семантических универсалий. Если обратиться, например, к глаголу жалеть, каждое из этих понятий несет свой смысловой оттенок. За"! (Он пожалел его / Он посочувствовал ему). ^ (Он пожалел его / Он проявил к нему милосердие) [2. С. 38].

Анализируя значение слова, которое дает словарь, а также его использование внутри контекста, приходим к мысли, что слово также несет оттенок сострадания, сочувствия чужому несчастью — милосердия. Основное значение слова 1и достаточно далеко от понятия жалеть и означает оплакивать усопшего. Второе значение слова, действительно, может быть передано глаголом жалеть: (Он пожалел его).

Глагол, который словарь также предлагает в качестве возможных эквивалентов понятию жалеть, оказывается в большей степени связан со значением испытывать нежность либо привязанность.

Например: (нежность = жалость, сочувствие матери), однако в сочетании слово приобретает иной оттенок и переводиться будет как чувствовать любовь, привязанность к родине либо ностальгия по родине [Там же].

Значимость эмоциональной стороны человеческой личности обусловливает существование широкой группы эмоциональной лексики, которая служит для выражения эмоций и эмоциональной оценки объекта речи, а также для отражения внутреннего мира человека в любой языковой культуре. Эмоциональная картина мира состоит из эмоционально маркированных перцептивных образов и представлений, отраженных внутренним миром человека, и выражается специфически в языковом отношении [4].

Вообще, категория оценки является универсальной ввиду того, что не существует языка, в котором бы не разграничивалось «хорошее» и «плохое». Однако каждый из существующих языков (среди них — русский и арабский) индивидуально и идиоэтнически выражает эти оценочные значения. Объяснить это можно тем, что категория оценки является составляющей содержательной стороны языка, отражение картины мира в сознании говорящего осложняется рядом факторов.

Таким образом, ввиду того, что язык является специфическим отражением действительности с разных сторон, показывает мир с объективной стороны, через имеющиеся в мире предметы, свойства, действия человека и его мысли, чувства, в нем представлено взаимодействие действительности и человека в различных аспектах.

Использованная литература

1. Апресян Ю.Д. Недавние американские исследования в области эмоций и эмоциональной лексики // Семиотика и информатика. — Вып. 34. — М., 1995.
2. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. — М., 1999.
3. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. — М.: Едиториал УРСС, 2002.
4. Синельникова И.Л. Образные сравнения как элемент эмоциональной картины мира (на материале французского языка) // Форум русистов России, стран Северной Африки и Ближнего Востока: Сборник научно-методических статей и сообщений / Под общей ред. Т.М. Балыхиной. — М.: Изд-во РУДН, 2006.
5. Шаховский В.И. Эмоции и их концептуализация в различных лингвокультурных контекстах // Русистика. — Киев, 2001. — Вып. 1.
6. Борисов В.М. Русско-арабский словарь / Под ред. В.М. Белкина. — М.: Изд-во «Валерий Костин», 2004.

XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA TO'Y MAROSIMI

Xolmaxmedova Nodira
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, maqollarda to'y marosimi tasvirlarini tahlil etish orqali o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlarning adabiyotda aks etishining o'ziga xosliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, umuminsoniylik, individuallik, qahramon ruhiyati, maqol.

Аннотация. В статье раскрываются особенности отражения традиций узбекского народа в литературе посредством анализа примеров фольклора, в частности образов свадебного обряда в пословицах.

Ключевые слова: народность, универсальность, индивидуальность, духовность героя, пословица.

Abstract. The article reveals the features of the reflection of the traditions of the Uzbek nationality in literature through the analysis of folklore examples, in particular, the images of the wedding ceremony in proverbs.

Key words: nationality, universality, individuality, spirituality of the hero, proverb.

Adabiyot xalq hayotini aks ettirar ekan, u, albatta, ijtomoiy turmushdagi milliy, umuminsoniy jihatlarni badiiy ifodalashi tabiiy bir holdir. Milliylik va umuminsoniylik adabiyotning ruhida chuqur iz qoldiradi.

V. G. Belinskiyning ta'kidlashicha, san'atkor o'z asarida insonni aks ettirar ekan, o'sha inson ko'lanka emas, balki jonli odamning o'zi bo'lishi kerak; u jismoniy tuzilishga, xarakterga, axloqqa, o'z odatiga, xullas, uni hayotdagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi barcha individual xossalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, u muayyan millatga va ma'lum tarixiy davrga mansub bo'lmog'i darkor. Negaki, biror millat yoki xalqqa tobe bo'lmagan inson haqiqiy inson emas. Demak, badiiy asarda aks etgan milliylik san'atkorning xizmatigina bo'lib qolmasdan san'atning bevosita zarur sharti hamdir. Shu sababli, milliylik qanchalik aniq va chuqur aks ettirilgan bo'lsa, san'at asari badiiy jihatdan shu qadar yetuk bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy urf – odatlaridan biri bo'lmish to'y marosimi hamisha shod–u xurramlik, yoshlik, go'zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o'tkaziladigan ajoyib bayramdir. Bu marosim barcha xildagi xalq san'ati, ashula, raqs bilan o'tkaziladi. U aslida asrlar osha sinovdan o'tgan, milliy asosda nishonlanadigan marosim hisoblansa–da, har bir davrda takomillashib, muttasil boyib kelgan. Bugungi kundagi to'y marosimlari bir necha asrlar oldingi marosimlardan ancha farq qiladi. Ayrim udumlar bugungacha saqlangan bo'lsa, ba'zilari rivojlanish natijasida umuman yo'qolib ketgan.

O'zbek to'ylari shaklan rang – barang bo'lib, ular bir – birlaridan o'tkazilish tarzi, ishtirokchilar tarkibi, vazifalari hamda ijro etiluvchi aytim va qo'shiqlari jihatidan keskin farqlanadi. Bular: beshik to'ylari, xatna (sunnat) va nikoh to'ylari.

Xalqimizning xursandchilik bilan o‘tadigan bunday milliy marosimlari badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topgan bo‘lib, adabiy janrlarning deyarli barchasida biz to‘y marosimi tasvirini kuzatishimiz mumkin.

Ota – bobolarimizning o‘tkir zehni mahsuli bo‘lgan maqollarda to‘y bilan bog’liq holatlarni ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Kerilganning uyiga bor,

Maqtanganning to‘yiga bor[4, 461].

Ushbu maqolda o‘zbek xalqining kamtarligi, mehmondo‘stligi kabi xislatlari o‘z aksini topgan. “Mehmon otangday ulug‘”, deydi xalqimiz. Har qancha mag’rur va sarbaland kishi bo‘lmasin, o‘zbek uyiga kelgan mehmon oldida o‘zini kamtarona va sertakalluf tutishi kerak. Bu ota – bobolarimizdan qolgan, qon – qonimizga singib ketgan xususiyatdir. Boshqacha bo‘lishi mumkin emas. Maqtanganning to‘yiga bor. To‘y xalq bilan o‘tadi. To‘yga izzat – ikrom qilib kelgan barcha mehmonlarga e’tibor berib, ko‘nglini toppish oson ish emas. Ko‘pchilikning ko‘nglini topish bir kishining ko‘nglini topishdan ko‘ra qiyinroq.

Har kim to‘ygan to‘yini maqtar[4, 463].

Bu maqolda “to‘yish” ma’nosi keng ma’noda qo‘llangan, ya’ni to‘yga kelib do‘stlar diydoriga to‘yish, yaxshi suhbat va xush kayfiyatlar bilan dasturxonga qo‘yilgan noz- ne’matlarga to‘yish, xush ovoz san’atkorlarning xonishlari-yu raqqosalarning go‘zal xiromlariga to‘yish uchun boriladi. Mabodo dasturxondagi noz – ne’matlar bekam-u ko‘st bo‘lib, yoningizda yaxshi suhbatdosh bo‘lmasa ham to‘yda o‘tirgandek bo‘lmaydi kishi. Aksi bo‘lsa ham to‘y kamchilik bilan o‘tgandek tuyuladi. Har taraflama yaxshi o‘tgan to‘yni, albatta, barcha maqtaydi. Bu esa to‘y egalariga ham xush yoqadi.

To‘yga borsang, to‘yib bor,

Yomonliging qo‘yib bor[4, 462].

Ushbu maqolni o‘ziga xos to‘yga boorish yo‘riqnomasi deb qabul qilsa bo‘ladi. Chunki to‘yga kishi faqat qornini to‘ydirish, tansiq taomlar yeyish uchun emas, balki vaqtini xush kayfiyatda o‘tkazish va madaniy hordiq olish, yor-u do‘stlar bilan diydor ko‘rishish uchun boradi. Axir to‘y xursandchilik, bayram, shodiyona kundir. To‘yga borayotgan kishi, albatta, qalbida ezgu tilaklar bilan to‘yxonaga tashrif buyurishi lozim. Birovning xursandchiligiga sherik bo‘lish ham bir san’atdir.

To‘yga – qo‘shiq,

Azaga – yig’i[4, 462].

Kuy – qo‘shiq, raqs, yaxshi kayfiyat, shodlik – xurramlik to‘yning ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan mana shular bilan kelgan mehmonlarning ham, mezbonlarning ham ko‘ngli ko‘tariladi. Bularsiz to‘yni tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘z o‘rnida, azada yig’i – sig’i bo‘ladi. Chunki yaqin insonidan ayrilganlar yig’i bilan o‘zini ovutadi, ko‘ngli bo‘shaydi.

To‘yganga – to‘y, to‘ymaganga – tomosha[4, 462].

To‘y insonning eng baxtli, quvonchga to‘la kuni bo‘lganidan keyin unda, albatta, turli – tuman o‘yin – kulgular, tomoshalar o‘tkaziladi. To‘yga kelgan

mehmonlar dasturxondagi noz – ne'matlardan tashqari uyushtirilgan sahna ko'rinishlarini ham tomosha qilib, kayfiyatlari ko'tarilishi tabiiy bir holdir. Maqolda ana shu holatlar nazarda tutilmoqda.

O'g'ilning to'yi – o'yin,
Qizning to'yi – qiyin[4, 463].

Bu maqol zamirida o'z farzandini begona joyga berishning qiyinligi, qizini uzatgan ota – onaning to'ydan keyin farzandini o'ylab qayg'urishi kabilar nazarda tutilgan. Bir kun ichida farzandi uyidan ketganiga ota – onaning ko'nikishi qiyin bo'ladi. O'g'ilni uylantirgandan keyin ham u ota – onasining yonida bo'ladi, kelin ham ular bilan birga yashaydi. Shuning uchun ham ota – onalar o'g'lining to'yida bitta farzandi ikkita bo'lganiga quvonib o'ynaydi. Qizining to'yida esa bolasining o'zidan uzoqlashayotganiga xafa bo'ladi. Lekin qizining baxtini topganidan xursand ham bo'ladi.

To'yning bo'ldi – bo'ldisi qiziq[4, 462].

To'yning o'ziga yarasha katta tashvishlari bo'ladi. To'y qiluvchi kishilar ana shu marosim ishlari bilan ovora bo'lib vaqt o'tganini ham bilmay qolishadi. To'ydan bir necha kun oldin tayyorgarlik, to'y o'tgandan keyin yig'ishtirish ishlari bilan bo'lishadi. To'y arafasida yaqin qarindoshlar bir necha kun davomida to'yxonada xizmatda bo'lishadi. Yaqinlar bir - birining diydoriga to'yishadi. Bu kunlarda qiziq voqea – hodisalar ham bo'ladi. Maqolda "bo'ldi – bo'ldi" deya to'y tayyorgarliklari nazarda tutilmoqda.

To'yga borsang, burun bor,
Burun borsang, o'rin bor[4, 462].

To'y ko'pchilik bilan bo'ladi. Unga qarindosh – urug'lar, qo'ni - qo'shnilar kelishadi. Maqolda "burun" so'zi ko'p ma'noli so'z sifatida qo'llangan bo'lib, "ertaroq", "oldinroq" degan ma'noni bildirmoqda. Demak, to'yga ertaroq borgan kishi yaxshi joyda, ko'ngliga xush yoqqan joyda o'tirish imkoniga ega bo'ladi. Kech qolgan esa bundan bebahra qolishi mumkin.

Umuman, adabiyot xalqning hayoti, kasb – kori, ijtimoiy ongini aks ettirish yo'li bilan uning milliy xarakterini ifodalaydi. Adabiyotning milliy xususiyatlari: millatlar hamda xalqlarning o'ziga xos alomatlari; ijtimoiy – siyosiy, tabiiy – geografik, ruhiy xususiyatlari; qahramonlarning tili, tashqi ko'rinishi, kiyim – kechagi, urf – odati; xalqning ijtimoiy va siyosiy hayoti, uning ijtimoiy – iqtisodiy tajribasi, milliy manfaatlarini nechog'li aks ettirganligi bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
2. Hoji Muin. To'y va aza marosimi haqinda // Mehnatkash tovushi, 1919. 22 – mart.
3. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARNING SEMANTIK MAYDON ASOSIDA TADQIQI

Qayumova Sayyora Topvoldi qizi
Farg’ona davlat universiteti,
Lingvistika (ingliz tili) mutaxassiligi magistranti
shohrux771ja@gmail.com

Dona Satvoldievna Usmonova
Farg’ona davlat universiteti,
head of English language department
dona_usmonova@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola do'stlik haqidagi ba'zi ingliz va o'zbek maqollarining semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ayrim maqollarning boshqa tildagi ekvivalentlari tarjimaning bir qancha muhim innovatsion usullarini aniqlash va ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘ziga xosliklarini qarama-qarshi qo‘yish maqsadida ularni boshqa tilda izohlash uchun berilgan. Ushbu ishning natijalari va misollari vatan va unga muhabbat haqidagi va turli mavzudagi ingliz va o'zbek maqollarining ma'nolaridagi ba'zi farqlarni ajratish va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: maqol, lingvokulturologiya, madaniyat, pragmatika, sinonimiya, antonimiya, ekvivalent, kontekst, komponent vatan, ona yurt.

Abstract. this paper is devoted to the analysis of semantic and linguocultural features of some English and Uzbek proverbs about friendship. The equivalents of some proverbs in a target language are given for interpreting them in the other language to find out several important innovative ways of translation and contrasting their peculiarities in the English and Uzbek languages. The results and examples of this paper can help to distinguish some differences in the meanings of the English and Uzbek proverbs about one’s birthplace and other different proverbs and to learn linguocultural peculiarities of them.

Keywords: proverb, linguoculturology, cultureme, pragmatics, synonymy, antonymy, equivalent, context, component, homeland.

Maqollar barcha tillarni o’rganishda o’ziga xos ahamiyatga ega,shular jumlasidan tilimizni ularga boy ekanligini hisobga olgan holda, maqollarni o’rganish o’zbek tilshunosligida ham alohida o’rin egallaydi.Aynan shu holat insonni harakat qilishga va diqqat bilan kuzatib til bo'layotgan o'zgarishlar tarjima san'ati va ikki va undan ortiq tillardagi mavjud leksemalarni yangi qirralarini kashf qilishga undaydi. Maqollarni tahlil qiladigan bo'lsak ularning semantik doirasi juda keng va har bir xalqning o'z mentaliteti madaniyatiga asoslanib ishlatilish o'rni turlicha hisoblanadi. Shu sababli ko'pgina olimlar aynan tilning semantik tadqiqi asosida maqollar va uning ishlatilish o'rni ahamiyat berishadi. Ushbu maqolada ayrim maqollarni nafaqat semantik tadqiqi balki ularning ikki tilda solishtirib qaysi holatlarda ishlatishni tahlil qilib,o'rganib chiqamiz.Inglizlarda ham o'zbeklarda ham aynan vatan tushunchasi va vatanni ulug'lash,oila,xalqparvarlik el-u yurt

uchun fidoyilik,jon kuydurish va rivojlanish muhim ahamiyatga egadir. Ayni hozirgi davrimizda insonlarning bir birga bo'lgan munosabati atrofdagi odamlarning inson rivojlanishidagi o'rni, vatan, uning yoshlar hayotidagi va unib o'sishidagi beqiyos hizmati barcha barchasi muhim ahamiyatga ega. Mana shu tufayli tarjimachilikda va tilshunoslikda bunday maqollarni ishlatilish o'rnini organish muhim. Misol tariqasida ingliz tilidagi " East or west home is best" maqolini oladigan bo'lsak, bu maqolda inglizlar qayerga borsang ham uyingdan yaxshiroq joy topolmaysan hoh u sharqda bo'lsin yoki g'arbda baribir uy yaxshi demoqchi bo'lgan. Aynan shu ma'noni o'zbek tilidagi ko'pgina maqollarda ko'rish mumkin lekin o'zbeklar aynan bu narsani g'arb va sharq so'zlari orqali ifodalamagan. Masalan,"O'z uying o'lan to'shaging ," O'zga yurtda shoh bo'lguncha o'z yurtingda gado bo'l", "Eldan ayrilguncha jondan ayril", "Ko'rpang qayerda bo'lsa ko'ngling o'sha yerda", "Ona yurting oltin beshiging", "Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas" singari maqollarni ko'plab keltirish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilida boshqa tillarga nisbatan maqollar ko'pligi va ularni ishlatish keng tarqalganligi tufayli har qanday mavzudagi maqollarni turli hil ko'rinishda topish qiyin emas. Vatan va el yurt ardog'i haqidagi maqollarda o'zbek xalqi ko'pincha o'z qadriyatlariga asosan so'zlardan foydalanadi masalan, "Ona yurting oltin beshiging" maqolini semantik jihatdan tahliliga to'xtaladigan bo'lsak bu maqolni ingliz tiliga aynan tarjima qilish anchayin mushkul. Bunga asosiy sabab shundaki ingiz xalqi "oltin beshik" birikmasini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, "Ona yurting oltin beshiging" maqoli o'zbeklarda "East or west home is best" maqolining o'rniga equivalent sifatida ishlatilishi mumkin.

Til birliklariga hos bo'lgan sinonimlik va antonimlik xususiyatlari frazeologik birliklarda, ya'ni maqollarda ham keng miqyosda uchratish mumkin. Ba'zan ularning ma'nolari bir xil boladi va sinonimlar conteksda birining o'rniga ikkinchisi ishlatilishi mumkin bo'ladi. Lekin ko'pgina sinonim maqollar birining o'rniga ikkinchisi qo'llanila olmaydi, hatto ularning semantic tuzilishi o'xshash bo'lsa ham. Chunki ularning ma'nosidagi ifoda ma'lum bir darajada bir-biridan farq qiladi, natijada ular turli-xil xolatlarda va vaziyatlarda ishlatiladi, shuning uchun ularning turli progmatik va sotsiolinguistik xususiyatlari bor. Maqollarning ma'lum bir qismi rasmiy xolatlarda yana bir qismi norasmiy(og'zaki) muloqotlarda ishlatiladi. Shuningdek, inglizlarda fraziologik birliklar ko'proq ishlatiladi va bu o'zbek xalqi orasidagi og'zaki nutqda ishlatiladigan maqollar singari ularda ham keng tarqalib ketgan masalan "Home sweet home" huddi o'zbeklarning "O'z uying o'lan to'shaging" maqoliga ma'nodosh sifatida olish mumkin. Lekin rasmiy holatda o'zbek tilida bunday maqollarni koplab uchratish mumkin; "Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar , elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar", "Kishi yurtida shoh bo'lguncha o'z yurtingda gado bo'l". Aynan shu maqolning kelib chiqishi millatimiz o'tmishiga borib taqaladi buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari o'zga yurtda shoh bo'lib ham o'z yurti sog'inchida qalbi hotirjamlik topa olmay bir umr qiynalib yashagan aynan shu sababli o'zbek xalqida

ana shunday maqollar juda keng tarqalgan deb hisoblayman. Ingliz tilida ham ayrim o'rinlarda rasmiy holatlarda "The sun at home warms better than the sun elsewhere" maqolini ishlatilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Yuqoridagi maqollar bir biri bilan semantik jihatdan ya'ni tarjima qilganda ingliz tilidagi maqollar bilan o'xshash lekin struktur jihatdan turlicha maqollardir. Ayrim o'rinlarda o'zbek xalqi vatan tushunchasini yor misolida ya'ni insonning eng yaqin kishisi, suyanchig'i bo'lgan insoni bilan solishtirgan holatda keltirilgan maqollarni ham ko'rishimiz mumkin masalan, "Yordan ayrilsang ham, eldan ayrilma", "Yoringni gul orasidan izla, erkingni -- el orasidan".

Xalq maqollariga murojat etganda, har ikki halqda ham hayvonlar timsolini ishlatilgan o'rinlariga guvoh bolamiz. Masalan, ingliz tilida "Every bird likes its own nest" maqolini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu maqol orqali qushlar timsoli orqali har bir inson o'z uyida joyida aziz bo'ladi va uni yoqtiradi deyilgan va bu maqolni aynan tarjima qilinadigan bo'lsa har bir qush o'z uyasini yoqtiradi deb tarjima qilinadi. O'zbek xalq maqollaridan yuqoridagi maqolgan munosib muqobil variant qilib "Bulbul chamanni sevar odam vatanni " maqolini keltirishimiz mumkin. Aynan shu maqolda huddi ingliz tilida ishlatilgandek, o'zbeklar ham qushlarni majoziy qahramon qilib keltirishgan.

Maqollardagi pand-nasihat xarakteri ularni yanada jonli va kuchli ta'sirchanligini oshiradi. Masalan: Inglizcha "A bad execuse is better than none" o'zbek tiliga –xohlamasdan kechirim so'rash , umuman so'ramagandan yaxshi deb tarjima qilinadi. O'zbekcha muqobil variant sifatida "Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan" maqolini keltiramiz. Ko'rinib turganidek, ushbu maqollar pand-nasihat mazmunidagi ma'noni beradi. Ya'ni, shaxsga har doim shirin so'zli va yaxshi kalomli bo'lish kerakligini anglatadi.Maqolning har ikki tildagi variantlari ham bir xil ma'noni beradi.

Maqollarni o'rganish jarayonida uning tuzulishi, qanday ko'rinishdagi sintaktik butunliklar orqali tashkil topgani muhim omildir. Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi. Aynan shu tomonlari bilan o'zbek va ingliz xalq maqollari juda o'xshashdir. Quyidagi maqollar orqali fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

The absent is always in the wrong- O'zi yo'qning — ko'zi yo'q.
There is no accounting for tastes -Har kim suygan oshini ichadi.
Actions speak louder than words-Gap bilguncha — ish bil.
Advise none to marry or go to war-Har kimning niyati o'zining yo'ldoshi.

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

After dinner sit a while,
After supper walk a mile.
Qorning ochmasdan ovqat yegin,
Qorning to'ymasdan qo'l artgin.

Art is long, life is short.
Ilmsiz — bir yashar,
Ilmli — ming yashar.

O’zbek tilida ba’zan 4 komponentli maqollar ham uchrab turadi. Biroq ingliz maqollari orasida 4 komponentli maqollar kam uchraydi.

Harakating erta bo’lsa,
Kuzda erta o’rarsan.
Mehnatingni halol qilsang,
Huzurini ko’rarsan.

Bir qismli maqollarga nisbatan ko’p qismli maqollar nisbatan tez o’zgarishga moyilroqdir. Sababi ba`zi holatlarda maqol aytuvchining unda ifodalanayotgan ma`noni to’laligicha tushunib yetmasligi yoki eshitganini eslay olmasligi natijasida o’zicha qo’shimcha so’zlar yoki izohlar qo’shishi tufayli maqolning mazmuniga yoki tuzilishiga jiddiy zarar yetkazilishi mumkin.Bunday vaziyatda o’sha maqolda asosiy fikrni tashuvchi so’zlardan birining tushirib qoldirilishi mumkin. Binobarin, maqollarni aytish va tinglash ham alohida e`tibor va ma`suliyatni taqozo etadi.Aks holda beparvolik tufayli maqolning asl ma`nosiga putur yetkazilib, kelajak avlodga noto’g’ri talqinda o’tib qolishi va asl ma’nosiga nisbatan zid ma`noda qo’llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmonova Dona Satvoldievna (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. Проблемы современной науки и образования, (2 (147)), 32-34.
2. Usmonova Dona Satvoldievna, & Madazimov Khabibullo Muzaffarkhon Ugli (2020). Comparative analysis of stylistic devices of the English language poetry. Проблемы современной науки и образования, (2 (147)), 34-36.
3. Usmonova, D. S., & Yusupova, M. I. Q. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES WITH THE COMPONENT “HEART”. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, *2*(11), 94-99.
4. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1, No. 2).
5. Mieder W. International Proverb Scholarship. New York: Garland Publishing, 1993. P. 27-63.
6. Abdullaeva N.E., SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK PROVEBRS WITH CONCEPT OF FRIENDSHIP. January 2017.

TEXNIKA FANLARI

AHOLI YASHASH JOYLARIDAGI DAXA(MASSIV)LARNI KO‘KLAMZORLASHTIRISHNING EKOLOGIYAGA SAMARALI TA’SIRI

Ubaydullayev Abbosjon Azimjon o‘g‘li
Toshkent davlat agrar universiteti magistranti
Abbosjonazimovich1717@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi yashash joylarini ko‘klamzorlashtirish hamda obodonlashtirish orqali ekologiyaga samarali tasirini va holatini yaxshilash borasida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: aholi yashash joylari, ko‘klamzorlashtirish, turar-joy, obodonlashtirish, ekologik qulay shariotlar.

Annotation. This article provides information on the effective impact and improvement of the condition of the environment through landscaping and beautification of residential areas.

Key words: residential areas, landscaping, housing, beautification, environmentally friendly conditions.

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективном воздействии и улучшении состояния окружающей среды посредством благоустройства и благоустройства жилых территорий.

Ключевые слова: жилые массивы, благоустройство, жилье, благоустройство, экологически чистые условия.

Xozirgi kunda Respublikamizda Ekologik muhit o’zgarganligi aholi yashash darajasi yaxshilashib avtomobillar kopayishi sababli atrof muhit ekologiya zararlanmoqda birgina Toshkent shahar Mirzo Ulug’bek tumani Yalang’och massivida 48 ta uy 4417 ta umumiy aholi soni mavjud bo’lib Aholi uchun yetarli kislarod miqdori yetishmaydi Avtomobillar soni esa 1637 tani tashkil qiladi avtomobillardan chiqayotgan gazlar ekologiyaga salbiy tasir ko’rsatmoqda bizni maqsadimiz esa Yalang’och massivda Zaharli gazlarga chidamli darxatlarni ekish va ekologik muhitni barqarorlashtirish kelajak avlod uchun ekalogik muhitni barqarorlashtirish ishlarini bugun olib borishimiz zarurligi ekologik muhit siyosat darajasiga ko’tarilganligi bejiz emas.

Shahardagi yashil daraxtzor ahamiyatini yaxshiroq tasavvur qilishingiz uchun eslatib o'tamiz: 1 gektar daraxtzor yoki butazor **220-280 kg. karbonatangidrid** yutadi va **180-220 kg. gacha kislorod** chiqaradi. Xususan Respublikamiz bo’ylab Yashil Makon Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini e’lon qildi. Loyiha doirasida yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilgan. “Yuksalish” umummilliy harakati O‘zbekistonda daraxtlar sonini oshirishga qaratilgan bu kabi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu maqsadda respublikamizning 6 ta hududida “Bir million daraxt” aksiyasini o‘tkazmoqda.Bugun, 5 noyabr kuni Xorazm viloyatining Urganch tumanida aksiya boshlandi. So‘ng:6 noyabr — Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Bo‘zatov tumani 9 noyabr — Surxondaryo viloyati Angor tumanida hamda Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumanida13 noyabr — Toshkent shahri17 noyabr — Toshkent viloyati Parkent tumanida davom ettiriladi.Daraxtlar. Ular havodagi zararli karbonat angidridni yutib, o‘rniga kislorod ishlab chiqaradi va bizning nafas olishimizga yordam beradi. Ular issiqda salqinlik beradi, atrof-muhitni shovqinlardan himoya qiladi.Ma’lumotga ko‘ra, hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 3 trln atrofida daraxt mavjud. Biroq har bir daqiqada ularning 27 ta futbol maydoniga teng qismi kesilmoqda.Amaliy ishlar vaqti keldi! Aholi yashash punktlarida daraxtlar ekish hamda ularni parvarishlash doimiy jarayondir. Siz ham yashil chellenjga qo‘shiling va xayrli ishga o‘z hissangizni qo‘shing! Aksiyada ishtirok etish istagida bo‘lgan faol fuqarolar o‘zi bilan ko‘chat olib kelishi mumkin.Eslatib o‘tamiz, 2019—2020 yilda o‘tkazilgan “Bir million daraxt” aksiyasi davomida O‘zbekistonning barcha hududlarida jami 3 mln 800 ming tupga yaqin mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi.Ushbu loyiha 1 yillik emas balki yillar davomida uzoqni ko’zlab boshlangan iloyihalardan biri bo’lib shaxsan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev quyidagi vazifalarni belgilab berdilar Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yashil makon" umummilliy loyihasidan o'rin olgan navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, bular:- bahor mavsumida 125 million dona daraxt ko‘chatlarini ekishni samarali tashkil etish;- har bir hududning iqlimiga mos, kam suv talab qiladigan ko‘chatlarni tanlab, ularni yetarli miqdorda yetishtirish uchun ko‘chatxonalarni ko‘paytirish;- “daftarlar”ga kirgan, ko‘chat ekish bo‘yicha tajribasi bor aholiga ko‘chatxonalar tashkil etish va zarur texnika, sifatli nihollar va urug‘lar xarid qilish, ko‘chatlar yetishtirish uchun subsidiyalar ajratish;- ko‘chatlarni yetkazib berishda ochiq-oshkoralikni ta’minlagan holda, ularning narxi asossiz oshib ketmasligi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;- kamida 10 million dona mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini aholiga bepul tarqatish;- xalqaro va respublika ahamiyatidagi yo‘llarning chetlariga 1,5 million dona daraxtdan ixotazorlar tashkil etish. Farmon bilan quyidagilar tasdiqlandi:

2022-2024 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda "yashil bog‘lar"ni barpo etish dasturi; 2022-2024 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda yangi hamda madaniyat va istirohat bog‘lari negizida tashkil etilayotgan "yashil jamoat parklari" ro‘yxatlari; 2022-2026 yillarda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko‘kalamzorlashtirish hududlariga sug‘orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish bo‘yicha dastur; 2022-2026 yillarda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnika va mexanizmlar bilan jihozlash parametrlari.

Ushbu barch loyihalar tub mohiyati va maqsadi Respublika miqyosida ekalogik muhitni yaxshilashga qaratilgan bo’lib kechiktirib bo’lmaydigan vazifa ekanligi shaxsan Prezidentimiz tashabbuslari bilan ilgari surilayotganidan yaqqol namoyon bo’lib turibdi Prezidentimizning “ekologik muhitimizni bizga xech kim chetdan kelib yaxshilab bermaydi va bu ishlarni biz xammamiz bugun bajarishimiz kerak” degan iboralari bejiz emas va men ham ozim istiqomat qilayotgan

Yalang'och massiviga "Zaharli gazlarga chidamli daraxtlarni ekish va uning afzalliklari yutuqlari aholi uchun yetarli kislarod yaxshillikni maksimal darajada ko'paytiish va kelajak avlod uchun sog'lom va barqaror muhitni yaratish darxtlarni saqlab qolish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 sentyabrdagi PQ-3262-sonli "Avtomobil yo'llarining arxetektura- landshaft konstruktsiyasi va obodonlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezdentining "Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Poytaxtimizning ekologik va sanitariya muhitini yaxshilash, mahalliy yo'llarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalari, shuningdek aholi ma'daniy dam oladigan bog' va hiyobonlar tashkil etilishi, shu bilan birga. Keng miqyosda ko'kalamzorlashtirish ishlari amlga oshirilishi ustivor vazifalarimizdan biri" deb takidlanishi ko'kalamzorlashtirish ishlariga doimgidan xam ko'proq ahamiyat berila boshlanganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda tabiatni asrab avaylash, uning boyliklarini kelajak avlodga bekamu ko'st yetkazish dunyo hamjmiyati oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda atrof-muhitga ko'rsatilayotgan qo'pol va shafqatsiz ta'sirlar, shu jumladan , hayvonot va nabodot olami ne'matlaridan, ko'r-ko'rona foydalanilishi oqibatida keskin ekologik vaziyatlar,iqlim o'zgarishlari vujudga kelmoqda,biologik xilma xillikka putur yetkazilmoqda.

Aholi yashash xududlari,bog'-xiyobonlar, sayilgohlar, odamlar tashrif buyuradigan barcha hududlarda manzarali yashil daraxtzorlar barpo etishda o'simlik turlari o'z ko'rki bo'yicha inson ko'z qarashlarida jilolanib borishi bo'yicha joylashtirib borish zarur bo'ladi. Bunda yaproq bargli va nina bargli butasimonlarga ajratilib, ularga o'sib rivojlanishi talab darajasida bo'lishi uchun parvarishlash uslublari bo'yicha agrotexnik tadbirlar olib boriladi. Chunki shox-shabbalari bemalol o'sgan, o'sib rivojlanish ko'rsatkichlari talab darajasida bo'lgan butasimonlar yanada ko'rkam kompozisiyalar namoyon qiladi.

Antropogen omilning ta'siri ayniqsa keskin sezilayotgan shahar sharoitida yashil maydonlarga estetik, sanitariya-gigiena va boshqa funktsiyalarni bajaradigan shahar landshaftlarining asosiy elementi sifatida muhim ahamiyat beriladi. Bu nafaqat "ko'kalamzorlashtirish", balki ekishning sifatli tarkibi ham muhimdir

Ko'kalamzor xududlar barpo etish maqsadida ekiladigan manzarali butasimonlar o'zlarining estetik xususiyatini yo'qotmasligi uchun turli omillarning ta'siri xaqida bar qancha izlanishlar olib borilgan. Mavjud butasimon o'simliklarning organizmlarida rivojlanish bemalol bo'lishi uchun tashqi muhit sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi. Butasimonlarni tashqi ko'rinishi, ya'ni shakli

bo'yicha taksasiyaga oid ko'rsatkichlarining o'zgarib borishi, yashash davrining uzoq va kam umr ko'rishi tashqi muhit sharoitlariga bog'liq xolda o'zgarib boradi.

Har hil turdagi uzoq davom etadigan tashqi ta'sirlarga qarshi mos shakllar va biologik xususiyatlar ishlab chiqildiki, ular o'simliklarni o'sib rivojlanishida ma'lum bir sharoitlar yaratadi. Bu jarayon og'ir iqlimli, garmselli xududlarda ayniqsa uzoq yurtlardan keltirilgan turlarga juda ma'qul bo'ladi. Bular bu xolatlarda mahalliy iqlim va tuproq sharoiti o'rganib chiqilib tumanlashtiriladi. Manzarali o'simliklarning yashash muhiti bizga ma'lumki o'rab turgan barcha landshaft elementlaridan iboratdir. Yashash sharoitlari unumdor yoki unumsiz maydonlar, sho'rxok g'o'shakli yerlar, toshloq maydonlar, havo namligi yuqori darajadagi yoki qurg'oqchil yerlar, sug'oriladigan yoki lalmikor maydonlar, sovuq, issiq, jazirama yoki mo'tadil havo haroratidan iboratdir.

Yuqoridagi ta'sirlarni o'z vaqtida o'rganib borib uni ilmiy va amaliy sohalarda qo'llash, o'simlik olamini bir me'yorda rivojlantirishda yaxshi natijalar bera oladi.

Manzarali butasimonlarni joylashtirishda ularni balandlikka qarab o'sishiga e'tibor beriladi. Chunki ular bog'-park xududlari sayilgoh va hiyobonlarda manzara berish jarayonida bir-birini yopib ketmasdan balki ko'rsata olishi zarur. Balandlagi bo'yicha butasimonlar 2,0 m dan ortiq, 2,0 m gacha va 1,0 m, 0,8m, va 0,5m o'lchamlarda o'sib rivojlanadi.

Manzarali o'simliklarning yana bir estetik ko'rinishi bu ularni o'sib rivojlanish jarayonida uzoq yashab ketishidir. Ma'lumki yaproq bargli butalar ham nina bargli butasimonlar ham uzoq yashashi uchun yaxshi iqlim sharoiti va tuproq tarkibi talab darajasida bo'lishi zarur bo'ladi. Ular juda uzoq yashovchi (100 yildan ortiq) turlar: doim yashil sarv, samshit, qoraqat; uzoq yashovchi (50-100 yil) turlar: yapon behisi, beresklet, kazas archasi, nastarin, tog' qarag'ayi; o'rtacha umr ko'radigan (25-50 yil) turlar: yapon bereskleti, bobovnik, marjon daraxt va kam umr ko'radigan (25 yilgacha) turlar: deysiya, forzisiya, spireya, amorfa, bodom, qorsimon mevali butalarga bo'linadi. Kam yashaydigan o'simliklar biroz o'sib rivojlangandan so'ng o'zining tashqi ko'rinishi va shaklini yo'qotadi. Yaxshi estetik manzara bera olmaydi.

Manzarali o'simliklarni muvaffaqqiyatli o'sib rivojlanishi eng avvalo ularni parvarishlash ishlarini tashkil etib sharoit yaratishga va bu sharoit o'simliklarni talabiga qanday javob berish va ularning me'yorida o'sib rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Manzarali o'simliklar aksincha turli hil sharoitga juda moslashuvchan bo'ladi va shunga ko'ra ular tashqi sharoit o'zgarishlariga bemalol bardosh bera oladi. Shunday xususiyatlari tufayli yangi sharoitga tez moslashadilar. Iqlimlashtirish maydonini ancha kengaytirish imkoniyati tug'iladi, ularni tabiiy o'sish muhitidan tashqari parvarish qilish osonlashadi. Shahardagi yashil daraxtzor ahamiyatini yaxshiroq tasavvur qilishingiz uchun eslatib o'tamiz: 1 gektar daraxtzor yoki butazor 220-280 kg. karbonat angidrid yutadi va 180-220 kg. gacha kislorod chiqaradi.

Daraxtzor havodagi changni kamaytiradi. Shahar ko'chalarida chang bog' va xiyobonlarga nisbatan 2-3 barobar ko'p bo'ladi. Daraxtlar aerozollarni (tutun va zaharli gazlar) 70-80 foizgacha ushlab qolish qobiliyatiga ega. O'simliklar havo namligini oshiradi. 1 gektar daraxtzor xuddi shunday maydonni egallagan suv havzasiga ko'ra 10 barobar ko'proq havo namligini oshiradi. Bog'larda ko'chalarga nisbatan havo namligi 1 -4 foiz ko'proqdir. Bu hali hammasi emas,daraxt barglari quyosh nurlarini 15 foizga ushlab qoladi, shamol kuchini kesadi. Daraxtlar shahar shovqinini ham kamaytirish xususiyatga ega, ayniqsa chinor va teraklar ham buni yaxshi uddalaydi. O'simliklar atrof-muhitga alohida –fitonsidlar chiqaradi, ular esa mikroblarni yo'qatadi. Shaxarlarda yo'l yoqalarga ekilgan archalarning bunday qobilyati kuchlidir.

Shahar sharoitida o'simlik dunyosining salomatlikni saqlashdagi roli bebaholigini ko'pchilik yaxshi bilishadi. O'simlik dunyosi daryolarimizning sersuvligini, yerlarimizning namligini saqlashda, yer ko'chishining oldini olishda juda kata ahamiyatga ega. U – hayvonot dunyosiga boshpana, inson va hayvonlar uchun oziq-ovqat manbai, aholi uchun hordiq chiqaradigan saylgoh. Hayot uchun bebaho oksigan ishlab chiqaruvchi «fabrika».

O'simlik dunyosi 20000 hil turli kimyoviy va dorivor moddalarning manbai. Ruhiy va jismoniy tetiklikning sababchisi. U kishilarni ruxlantiradi, ijod qilishga chorlaydi ilhomlantiradi.

U atmosfera havosini tozalab beruvchi filtr vazifasini o'taydi. Jumladan, 1 ga kashtan daraxti havodagi karbonat agidridning 100 foizini shimib oladi desak, bargi o'rmonning 1 gektari 12 foizni, kashtan 160 foiz, jo'ka daraxti 250 foizni, dub 450 foizni, terak daraxti 700 foiz karbonat angidrid gazini shimib oladi. Avtomobillar ko'p bo'lgan yirik shahar va mahallalarda daraxtzorning ko'pligi havoni turli zararli chang va gazlardan tozalashga imkon yaratadi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, bir gektar qora qarag'ay shox-shabbalari yil davomida 32 tonna changni havodan ushlab qoladi, qayrag'ochli daraxtzorlar 35 tonna, dub 54 tonna, qora qayin daraxti 68 tonna changni ushlab qoladi.

Sanoatning rivojlanishi atrof - muhitni ifloslantirishiga, havo va suv havzalarini ayerozol va gaz shaklidagi chiqindilarni zavod, fabrika issiqlik elektr stansiyalari, isitish tarmoqlari, avtomobillar ko'proq chiqaradilar, bu esa odamlarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa O'zbekistonning keskin kontinental iqlimida bu yaqqol ko'zga tashlanadi.Bu muammo xalqaro axamiyatga yegadir. Yuneskoning bosh sessiyasida «Odam va biosfera» mavzusida keng tadqiqotlar dasturi qabul qilingan.

Hozirgi zamon shahri yoki aholi punkti - bu murakkab imoratlar bo'lib, ular har hil vazifani bajaradilar, yo'llar, maydonlar ochiq joylar, suv havzalari va yashil daraxtzorlar. Hozirgi zamon shahar qurilish me'yorlari bo'yicha aholi punktlarning 50 % maydonida yashil daraxtzor, butalar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Yashil qurilish amaliyoti o'ziga shularni qamrab oladi: bog'lar, barpo yetish, xar hil obyektlarni ko'kalamzorlashtirish sharoitga o'simlik turlarini tanlash, xar hil obyektlarda o'simliklarni joylashtirish va guruhlash va ularga parvarish berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar sategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son qarori
3. Ablayev S.M., Yuldashev Ya.X. //Madaniy o’rmonlar T.:2008.
4. Dosaxmetov A.O. “Aholi turar joylarini ko’kalamzorlashtirish” T.: ToshDAU, 2000 14-15 betlar.
Демпферлар тизимга киритилиши, тебранишлар сўндиргичларининг самарали ишлаш частотасини сезиларли даражада кенгайтиришга имкон берди. Механик тизимда резонанс зонасидан чиқиш мақсадида ҳам тебранишларни динамик сўндирувчиларидан фойдаланишга ҳаракат қилишади. Ҳозирги вақтда бутун дунё бўйича қурилиш соҳасида кўп қатламли резинаметалл таянчлар, сирпанувчи таянчлар, пўлат таянчлар, ёйсимон қўрғошинли таянчлар, гидравлик амортизаторлар, фрикцион демпферлар ва бошқа кўринишдаги сўндирувчи актив ҳимоя қурилмалари кенг қўлланилиб келинмоқда.

Резинаметалл таянчлар. Энергияни ютувчи вазифасини бажарувчи вертикал цилиндрик қўрғошин ўзакли резинаметлл элементларидан ташкил топади [9, 10]. Қўрғошин ўзак вертикал йўналишда юқори бикрликни

таъминлайди. Кучли сейсмик таъсирларда ўзакда пластик деформациялар пайдо бўлади. Бу эса ўз навбатида тебранишларнинг сўнишини 3-5 баробарга оширишга имкон беради. Бундай конструкция сейсмик ҳимоя қурилмаларининг энг тежамкор тизими ҳисобланади. Бу қурилманинг асосий камчилиги унинг фойдаланиш муддати ва ундаги қўрғошин ўзакнинг вақт ўтиши давомида бузилиб кетиши ҳисобланади (1-расм).



1- расм. Резинаметалл таянч

Пружинасимон эластик пўлат таянчлар. Япон олимлари томонидан бино ва иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлигини ошириш учун пўлат таянчлар ихтиро қилинган [11, 12]. Бундай таянчлар зилзила пайтида кўндаланг, бўйлама, вертикал ва айланма тебранишларда ишлашга мослашган бўлиб, мустаҳкамлиги юқори махсус пўлатдан ясалган (2 -расм). Японияда Кобе зилзиласи содир бўлганидан буён, яъни 1995 йилдан ҳар йили қуриладиган биноларнинг 150 дан ортиғида ушбу турдаги таянчлар қўлланилган. Ушбу таянч пойдевор билан бинонинг цокол қисми орасига ўрнтатилади. Зилзила пайтида таянч цокол остидаги пойдеворнинг алоҳида тебранишига имконият яратади. Натижада пойдевор қисми энаргиясининг асосий қисми бинонинг ер устки қисмига ўтмайди. Бу ҳимояни сейсмик мустаҳкам биноларда қўллаш натижасида сейсмик куч деярли икки маротабага камаяди. Бу сейсмик ҳимояловчи таянчнинг камчилиги нам шароитда коррозияга учрайди ва йиллар ўтиши билан ташқи доимий юкларнинг ҳисобига пўлатда чарчаш вужудга келади ҳамда ўз мустаҳкамлигини йўқотади.



2-расм. Пружинасимон эластик пўлат таянч

Ёйсимон шаклдаги қўрғошин таянчлар. Япон олимлари томонидан қўрғошиндан ёйсимон шакл қўринишида сейсмик ҳимояловчи таянч ихтиро қилинган [13, 14]. Таянч қурилма бинонинг цокол ва пойдеворига бикр маҳкамланади ҳамда пойдевор билан бинонинг цокол қисми ўртасига ўрнатилади (3-расм). Бу таянч резинаметалл ва пружинасимон эластик пўлат таянчлар керакли хусусиятни олиш мақсадида биргаликда ишлатилади.

Қўрғошин пластик хусусиятларга эга, шунинг учун зилзила пайтида пойдеворда пайдо бўладиган энергиянинг асосий қисми таянчнинг пластиклик хусусиятлари ҳисобига йўқолади. Бу турдаги ҳимояловчи таячнинг самараси сезиларли бўлиб, сейсмик куч деярли икки маротабадан кўп миқдорда камаяди.




3-расм. Ёйсимон қўрғошин таянч

Маятникли сўндиргич. Баланд бино ва иншоотларда фойдаланиш учун маятникли демпферлар [15, 16] таклиф қилинган. Тебранишларни сўндириш учун демпферлар бинонинг оғирлик марказига мувофиқ танланади ва ўрнатилиш баландлигини ҳам инобатга олган ҳолда ўрнатилади. Маятникли демпферлар ёрдамида энергияни сўндириш оғир юкни пўлат арқонлар ёрдамида осиб қўйган ҳолда амалга оширилади. Юкнинг тебранма ҳаракатини сўндириш учун осиб қўйилган юкка эластик-қовушқоқ

қурилмалар ўрнатилади. Бу орқали юкнинг ҳамма ҳаракати бинонинг тебранма ҳаракатига мослаштирилади.

Экспериментал тадқиқотлар бундай демпферларнинг тебраниш декременти, амплитудаси ҳаракат бошида миқдори ортиши мумкин тебранма ҳаракатнинг кейинги онларида сўниш самараси яққол кўринади. Тебранишларни нисбатан катта амплитудаларда пўлат арқондаги сўндириш, яъни пўлат симлар орасидаги қуруқ ишқаланиш ёрдамида аниқланади.

Сўндириш хусусиятини ошириш мақсадида пўлат арқоннинг пастки қисмига яқин жойларда юкка қўшимча мослама ўрнатиш орқали амалга ошириш мумкин бўлади. Бундай демпферларнинг афзаллиги уларнинг конструкцияларини соддалиги, чидамлилиги ва фойдаланишда қулайлиги ҳисобланади (4-расм).




4-расм. Баланд бинолардаги маятникли сўндиргич

Кинематик таянч. Бино ва иншоотларни сейсмик ҳимоя қилишнинг самарали мосламаларидан бири Россия Федерацияси ЦНИИСК ва Фрунзегорпроект лойиҳалаш институтларда ишлаб чиқилган [17-19]. Сейсмик ҳимоялаш тизими йирик панелли бинонинг пойдевори билан биринчи қават ростверки орасида жойлашган. Тизим ўз ичига нафақат горизонтал, балки вертикал кўчишларни ҳам олдини оладиган, ботиқ юза орасида жойлашган бетонли шпонка, кинематик таянч, чўян шарлар кўринишида тайёрланган ажралувчи боғларни ўз ичига олади. Бундай сейсмик ҳимоялаш тизимини ўрганишда бир неча тажриба синов ишлари амалга оширилган бўлиб, сейсмик мустаҳкам қурилиш амалиётида ўз ечимини топган.

Бундан ташқари сейсмик ҳимояловчи пойдеворлардан бири 1982 йилда Свердловск архитектура институтида ишлаб чиқилган [20]. Бу сейсмик ҳимоя кинематик пойдевор, таянч плита, боғловчи анкер ва шарнир-шайбаларидан ташкил топган (5-расм). Кинематик пойдевор ва таянч плита синфи В25-30 бетондан тайёрланган ва маркаси А-III пўлатдан ясалган арматура билан ясалади. Оралиқ тирқишлар ихтиёрий жгут билан беркитилиб ва шишали мато билан ёпиштирилади ҳамда унинг устидан битум билан қопланади.

Ушбу таклиф қилинган сейсмик ҳимоя таянчи қурилиш саноатида кенг тарқалган устунли пойдеворлардан фарқ қилмай, уни таянч кўтариб турувчи элимент сифатида бинонинг биринчи қавати баландлигида жойлаштириш мумкин бўлади. Ундан ташқари бино кесими бўйлаб нол белгисидан пастдаги грунтда ҳам жойлаштириш имконияти мавжуд бўлади.



5-расм. Сейсмик ҳимояловчи кинематик пойдевор
1 – кинематик пойдевор, 2 – шишали мато ва битум ёрдамида қопланган қатлам, 3 – таянч плита, 4 – параизол жгутлар

Бу турдаги пойдеворлар оддий бино билан таққосланганда сейсмик кучларни бир неча баробарга самарали камайишига олиб келади. Энергияни самарали сўндириши бўйича бундай тизимлар шу кунгача сейсмик таъсирларни камайтириш учун кўпгина қурилиш объектларида қўлланилган.

Хулоса. Сейсмик ҳимоя қурилмаларини қурилиш соҳасида қўллашдан олдин жаҳон миқёсидаги мавжуд ҳимоя тизимлари билан батафсил танишиш ва уларнинг хусусиятларини ўрганиш талаб этилади.

Фаол ва нофаол сейсмик ҳимоя усуллари таҳлили зилзилабардошлик соҳасида янги ечимларни яратиш ва такомиллаштириш имконини беради.

Сейсмик ҳудудларда кўп қаватли биноларни сейсмик таъсирлардан ҳимоя қилиш мақсадида қўлланиладиган фаол сейсмик ҳимоя қурилмаларининг кўрсаткичларини ҳудуднинг интенсивлиги ва геолгиясини ҳисобга олган ҳолда бино лойиҳаланишидан олдин унинг кўрсаткичларига мос равишда танлаш талаб этилади.

Адабиётлар

1. Абдурашидов К.С., Шадманова З.С. Анализ состояния конструкций архитектурных памятников Узбекистана // Журнал. Проблемы механики. –Ташкент,1998. –№3.–С.42–45.
2. Гражданкина Н.С., Рахимов М.К., Плетнев И.Е. Архитектурная керамика Узбекистана. (Очерк исторического развития и опыт реставрации).–Ташкент:Фан, 1968. – 157с.
3. Холмурадов Р.И., Хасанов А.З. Конструкции архитектурных памятников Самарканда. – Самарканд: Графти, 2003. Маньковская Л.Ю. Бибихоним масжиди. –138 с.

4. Асанов А.А. Памятники архитектуры средневекового Хорезма. – Ташкент:Фан, 1971. –103 с.
5. Айзенберг Я.М. Сейсмоизоляция и адаптивные системы сейсмозащиты. - М.: Наука,1983.- С.37-40,139.
6. Коренев Б.Г., Шейнин И.С., Устройство для гашения колебаний механических систем // Бюллетень изобретений,1962,- № 23.
7. Коренев Б.Г., Резников Л.М. Динамические гасители колебаний (теория и технические предложения). –М.: Наука,1988.-с.108.
8. Алексеев А.М., Сбровский А.К. Судовые виброгасители. -Ленинград, Судпромгиз,1962.-с.196.
9. Справочник проектировщика. Динамический расчет зданий и сооружений. -М.: Под редакцией профессоров Б.Г.Коренева, И.М. Рабиновича. Стройиздат, 1984.- с.310.
10. Справочник проектировщика. Динамический расчет специальных инженерных сооружений и конструкций. - М.:. Под редакцией профессоров Б.Г.Коренева, А.Ф.Смирнова. Стройиздат,1986.- С.450.
11. Y.Jiao, S.Kishiki, D.Ene, S.Yamada, N.Kawamura, Y.Konishi. Plastic deformation capacity and hysteretic behavior of U-shaped steel dampers for seismic isolated-buildings under dynamic cyclic loading. Tenth U.S. National Conference on Earthquake Engineering Frontiers of Earthquake Engineering. July 21-25, 2014. Anchorage, Alaska. 150-154 pp.
12. T.Saito. Behavior of response controlled and seismically isolated buildings during severe earthquake in Japan. International scientific journal “Research and development”, Volume 5/2015, Toyohashi, Japan. 31-37 pp.
13. Baoshun Wang, Weiming Yan, Haoxiang He. Mechanical Performance and Design Method of Improved Lead Shear Damper with Long Stroke. International scientific journal of “Shock and Vibration”, Volume 2018, Hindawi Publishing, London, United Kingdom. 31-37 pp.
14. Masayoshi Nakashima, Peng Pan, Dan Zamfirescu, Ruediger Weitzmann. Post – Kobe Approach for Design and Construction of base-isolated buildings. Journal of Japan Association for Earthquake Engineering, Volume 4, № 3, 2004, Kyoto, Japan. 259-264 pp.
15. Nadathur Varadarajan, Satish Nagarajaiah. Wind Response Control of Building with Variable Stiffness Tuned Mass Damper Using Empirical Mode Deco,position/Hilbert Transform. Journal of Engineering Mechanics. Volume 130, Issue 4, 2004, United States. 451-458 pp.
16. Mehdi Setareh, John K.Richey, Thomas M.Murray, Jeong-Hoi Koo, Mehdi Ahmadian. Semiactive Tuned Mass Damper for Vibration Control. Journal of Structural Engineering, ASCE, Volume 133, Issue 2. 2007, UnitedStates, USA. 242-250 pp.
17. Назин В.В. Многоэтажное сейсмостойкое здание// Авторское свидетельство №577287, кл.Е 04 Н 9/02.М.,1977.

18. Иванов Г.П., Макаров С.А. Опора сейсмостойкого здания, сооружения // Авторское свидетельство № 1020552, кл.Е 04 Н 9/02, Е 02 D 27/34 1982.
19. Кулиш В.И. Фундамент сейсмостойкого строительства// Авторская свидетельство №844748, кл Е 04 Н 9/02, Е 02 D 27/34 1981.
20. Чернышев Ю.Г., Чернышева Л.П., Лаптева Н.Н. Сейсмоизолирующий фундамент // Авторская свидетальство № 962558, кл Е 04 Н 9/02, 1980.

ВОДОСНАБЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ И МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ГЕОЛОГИЧЕСКОГО ЗАДАНИЯ НА УЧАСТКЕ КАРАУЛБАЗАР

К.А. Арслонхонов,

А.Д. Кайумов,

Г.Д. Арслонхонова
Ташкентский Государственный Технический Университет
Имени Ислама Каримова

Аннотация. В статье приведены водоснабжение сельских населенных пунктов и сель поиски и разведки изучать слабо солоноватых подземных и пресных вод. В настоящее время представляет одну из самых серьёзных проблем. Поэтому поиски и разведка новых источников питьевого водоснабжения являются острой необходимостью.

В последние годы широко развернулись работы по изучению поровых растворов пород осадочного чехла, позволившие получать принципиально новую информацию о жидкой фазе системы вода - порода в естественных выявление источников хозпитьевого водоснабжения в пределах участка исследований с оценкой их современного использования.

Ключевые слова: Прогноз, отложения, водоснабжения, месторождение, гипергенеза, скважина, бурение, четвертичномеловых, гидрогеология.

Abstract the article presents the water supply of rural settlements and the purpose of the search and exploration to study slightly saline groundwater and fresh water. Currently, it represents one of the most serious problems. Therefore, the search and exploration of new sources of drinking water supply is an urgent need.

In recent years, work has been widely carried out on the study of pore solutions of sedimentary cover rocks, which made it possible to obtain fundamentally new information about the liquid phase of the water-rock system in the natural identification of sources of household water supply within the research area with an assessment of their current use.

Key words: Forecast, sediments, water supply, deposit, hypergenesis, borehole, drilling, quaternary spruce, hydrogeology.

Введение (Introduction). Караулбазарский участок как известно, подземные воды, будучи весьма активным компонентом земной коры, участвуют почти во всех геологических процессах. В связи с переименованием совхоза Караулбазар в одноименный район, строительством и вводом в эксплуатацию Бухарского нефтеперерабатывающего завода развивается промышленность и сельхоз производство, которые способствовали быстрому росту населения. Экономика района базируется на аграрные и промышленные предприятия.

Вопросы водоснабжения в районе исследований, издавна базирующегося на источниках, в основном, поверхностных вод, в настоящее время представляет одну из самых серьёзных проблем. Поэтому поиски и разведка новых источников питьевого водоснабжения являются острой необходимостью.

Проведения авторами литературных поиски и разведки показывает, что согласно Боревский Б.В. и Самсонов В.Т. [1] для методики определения параметров водоносных горизонтов по данным откачек. М., Недра, 1979

В период с 1998 по 2000гг. Сарыташской ГГП в результате маршрутного обследования уточнены источники водоснабжения населения исследуемой территории.

Минерализация подаваемой воды1,2 г/л, жесткость 10,5мг-экв/л. Вода сульфатно–хлоридная натриево-кальциевая. В летнее время года, по опросу населения, в водопроводных кранах вода отсутствует.

Жилой поселок БНПЗ. Построен - новый водовод с Аму-Бухарского канала для хозпитьевого водоснабжения. Минерализация подаваемой воды-1,1 г/л, жесткость 8,3 мг-экв/л. Воды сульфатно-хлоридные натриево-кальциевая. [2]

Сельское население района сосредоточено поселках Дустлик-317хозяйств, с населением более 1000 человек, Джаркак – 745хозяйств, с населением более 2000 человек, Бузачи-280 хозяйств, с населением 1170человек.

Водоснабжение этих поселков до1998 года осуществлялось с Караулбазарского водовода. В 1998 году в связи с дефицитом воды в г.Караулбазар, сельские поселки отключены от водовода, и жители поселка самовольно подключились в водовод Куюмазар-Мубарек. Этот водовод был построен для производственно-технического водоснабжения газоперерабатывающего завода. Минерализация 1,4 г/л,жесткость 10,8 мг-экв/л. Рис.1

В поселках Чулкувар-569 хозяйств, население 2618человек, Тинчлик-560 хозяйств, население 1860 человек. Водоснабжение осуществляется с Караулбазарского водовода.

В поселках Бустон-164 хозяйства, с населением 463человека и Сардобе-40 хозяйств, с населением 210 человек. Водоснабжение осуществляется за счет привозной воды с ближайших водоисточников и поверхностных вод канала «Дружба». [3]




Рис.1 Обзорная карта района работ (Бухарский регион участок Караулбазар)

Метод (Methods). На территории участка «Караулбазар» выделены две перспективные площади с минерализацией подземных вод до 1,5 г/л. В пределах этих площадей находятся 2 разведочных участка.

Разведочный участок 1 В территорию этого участка входит МФЙ Бустон с общей потребностью в питьевой воде 70 м^3/сут (0,81 л/с). Хозпитьевой водой будет обеспечен н.п.Ногоратепа. Для решения вопроса водоснабжения проектом предусматривается бурение разведочной скважины 17р глубиной 300,0 метров.

Разведочный участок 2. В территорию этого участка входит МФЙ Бузачи с общей потребностью в питьевой воде 388,63 м^3/сут (4,5 л/с). Хозпитьевой водой будут обеспечены н.п.Тошкудук, Бузачи и Сардоба. Для решения вопроса водоснабжения проектом предусматривается бурение разведочной скважины 18р глубиной 250 метров.

Необходимо отметить, что при получении положительных результатов при опробовании скважин, для покрытия дефицита в питьевой воде населенных пунктов (при необходимости), будет рекомендовано бурение дополнительной эксплуатационной скважины в пределах МФЙ.

Бурение наблюдательных скважин предусматривается на первом этапе, исходя из результатов первого этапа, корректируется количество, места заложения и глубина разведочных скважин.

Разведочные скважины будут располагаться на территориях МФЙ с последующей их передачей местным органам «Сувокава» для дальнейшей эксплуатации.

Всего объём буровых работ составляет: 8 наблюдательных скважин глубиной от 180 до 350 м общим объемом 1680 п.м.;18 разведочных скважин глубиной от 180 до 350 м общим объемом 3700,0 п.м. Всего – 5380,0 п.м.

После завершения бурения во всех скважинах выполняется комплексный каротаж для уточнения литологического строения и определения интервала установки фильтров. Наблюдательные скважины оборудуются фильтровой колонной диаметром 114 мм, а разведочные скважины до глубины 40,0 метров оборудуются трубами диаметром 219 мм и далее до проектной глубины трубами диаметром 127мм.

Глубина первой колонны обосновывается результатами ранее проведенных гидрогеологических исследований. Установлено, что при опытно-фильтрационных работах динамические уровни в скважинах устанавливаются на глубинах до 20-25м.

На первом этапе перед бурением наблюдательных скважина двух перспективных площадях участка «Караулбазар» предусматриваются наземные геофизические исследования методами ВЭЗ и ВКЭЗ. [4]

Наземные геофизические исследования на площади работ будут проводиться с целью уточнения геолого-литологического строения четвертичномеловых отложений, мощности и условия их распространения, качественной оценки степени водообильности, минерализации подземных вод.

Для решения вышеперечисленных задач проектом предусматривается проведение электроразведочных задач методом ВЭЗ КВЭЗ. Профили ВЭЗ будут заложены на разведочных участках, на местах заложения скважин. Глубина исследований составляет до 400 м, в связи с чем разносы АВ будут иметь длину 2000 м (для ВЭЗ и КВЭЗ).

Протяженность профилей по линиям составляет от 3 до 15 км. Общая длина геофизических профилей составит 75 км. Расстояние между точками 100м. Длина разноса АВ составляет 2000 м с шагом заложения физических точек 100м. Всего количество физ. точек ВЭЗ составляет 760 штук. Из-за сложности геологического строения проектом предусматривается детализация ВЭЗ в объеме 5% и составляет 38 ф.т. КВЭЗ, которые предусматриваются на местах заложения разведочных скважин, длина разноса АВ 2000м (на 10-ти профилях 23 - КВЭЗ) и составляет 75 ф.т. и контрольные точки – 1 к.т или 3 ф.т. Всего количество точек ВЭЗ и КВЭЗ составляет 915 ф.т.

Следует отметить, что район исследований в геологическом отношении относится к сложным, с резко изменяющимся разрезом как в вертикальном, так и в горизонтальном направлениях, и по этой причине шаг исследований будет равняться 100м. Кроме того проектом предусматривается проведение

детальных исследований на участках с резким изменением геолого-фациальных условий разреза, на местах выявления возможных геологических контактов и тектонических нарушений в объёме 5 % от общего объёма рядовых ВЭЗ по участку или 2 ф.т. на профиль.

Длина разносов АВ для геофизических исследований методами ВЭЗ и КВЭЗ выбирается исходя из глубины проектируемых скважин (до 400 м) и будет составлять 2000 м, что, в конечном счете, позволит с достаточной уверенностью изучить геологический разрез до глубины 400 м (согласно инструкции по электроразведке, глубина исследований равна 1/5 части длины разноса АВ).

С учетом IV категории трудности площади исследований, необходимо предусмотреть в проекте измерение в трудных условиях с осложненными условиями заземления.

По результатам полевых наземных геофизических исследований и бурения наблюдательных и разведочных скважин, будут составлены геофизические разрезы по всем профилям и геолого-литологические разрезы по поперечным линиям в пределах участка исследований.

По результатам (Results) проведенных исследований : оценка эксплуатационных запасов пресных и слабо солоноватых подземных вод на перспективных участках распространения пресных и слабо солоноватых подземных вод на отдельных участках Бухарского и Западно-Кашкадарьинского месторождений для обоснования хозяйственно питьевого водоснабжения сельских населенных пунктов Караулбазарского районов Бухарской области.

Участок «Караулбазар» имеет сложное геологическое строение. Наблюдательными и разведочными скважинами будут подтверждены предварительно полученные геофизические разрезы по профилям и дополнительно детализированы условия залегания водоносных горизонтов и водоупорных пород, их мощность, глубина и литологический состав.

Выводи и решения (Outputs and solutions). Целевым назначением работ Сарыпул-Сарыташской ГГП, согласно геологическому заданию, является оценка запасов пресных и слабосолоноватых подземных вод на перспективных участках северной и северо-западной части Бухарского месторождения и на участке Караулбазар. Западно-Кашкадарьинского месторождения с целью обоснования источников водоснабжения сельских населенных пунктов.

- Выявление источников хозпитьевого водоснабжения в пределах участка исследований с оценкой их современного использования и прогноз на перспективу – решается путем сбора, анализа, проработки многолетних фондовых геологических материалов и статических данных
- Необходимо проанализировать данные верхнеплиоценовых отложений, рекомендованные в стадии разведки, где сосредоточены пресные

и слабосолоноватые подземные воды и расположены действующие эксплуатационные скважины.

• Уточнение гидрогеологических параметров и качество подземных вод перспективных водоносных горизонтов- решается путем бурения наблюдательных и разведочных скважин, проведением по ним опытно-фильтрационных, режимных, лабораторных работ.

• Бурением наблюдательных, разведочных скважин будут уточнены границы распространения пресных и слабосолоноватых подземных вод, для организации режимной сети, уточнено геолого-литологическое строение площади работ, гидрогеологические параметры и качество подземных вод как по площади, так и в разрезе.

Список использованной литературы

1. Боревский Б.В., Самсонов В.Т. -Методика определения параметров водоносных горизонтов по данным откачек. М., Недра, 1979
2. Алекин О.А. - Основы гидрохимии. Л.Гидрометеоиздат, 1970 443с.
3. Бочевер Ф.М., Беригин Н.Н. -Методическое руководство по расчетам эксплуатационных запасов подземных вод для водоснабжения. М.Госстройиздат, 1961
4. Дахнов В.Н.- Интерпретация результатов геофизических исследований разрезов скважин. М., Гостоптехиздат, 1962г

MATCAD DASTURIDAN FOYDALANIB IKKI VA UCH O`LCHOVLI GRAFIKLARNI QURISH

A.A. Eshmuratova
Navoiy davlat konchilik texnologiyalari universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mathcad dasturidan foydalanib ikki va uch o`lchovli grafiklarni qurish tartibi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mathcad, Calculus, operator, argument, Graph, x-y Plot, Surface Plot.

Abstract. In this article, the procedure of constructing two- and three-dimensional graphs using Mathcad software is considered.

Keywords: Mathcad, Calculus, operator, argument, Graph, x-y Plot, Surface Plot.

Аннотация. В данной статье рассматривается процедура построения двумерных и трехмерных графиков с помощью программного обеспечения Mathcad.

Ключевые слова: Mathcad, Calculus, operator, argument, Graph, x-y Plot, Surface Plot.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari matematik hisoblashlarni avtomatlashtirish uchun butun bir dasturiy tizimlar va paketlar jamlanmasini taqdim etadi. Bu dasturiy paketlar ichida Mathcad dasturi eng ommalashgan dastur hisoblanadi. U injenerlik amaliyotida har kuni uchraydigan, ko'p vaqt talab qiladigan masalalarni hal qilishga mo'ljallangan. Bunday masalalarga algebraik va differensial tenglamalarni yechish, funksiyalarni taxlil qilish, ularning ekstremumlarini izlash, tenglamalarni sonli va analitik differensiallash hamda integrallash, topilgan yechimlarni tahlil qilish uchun jadval va grafiklar chiqarish kabilarni misol qilish mumkin.

Tadqiqot materiallari. MathCad paketining asosiy ustunligi – echiladigan masalalar ifodalaniladigan til tabiiy matematik tildir. Shu bilan birga paketda kuchli grafik tashkil etuvchisi mavjud.

MathCad masalalarning natijalarni grafiklar bilan vizual tasvirlashga imkon beradi.

Foydalanuvchi funktsiyalar echimlarini osongina ikki va uch o'lchovli grafiklarda turli ranglar ko'rinishida tasvirlash imkoniga ega bo'ladi. Quyida ikki o'lchamli grafik qurish tartibi bilan tanishib chiqamiz:


Tadqiqot usullari. Ikki o`lchamli funktsiya grafigini qurish uchun quyidagi protseduralarni bajarish kerak.

1.Qaysi joyga grafik qurish kerak bo`lsa, shu joyga krestli kursor qo`yiladi.

2.Matematik panelining Graph (Grafik) panelidan x-y Plot (Ikki o`lchovli grafik) tugmasi bosiladi.


3.Hosil bo`lgan ikki o`lchamli grafik shabloniga abstissa o`qi argumenti nomi, ordinata o`qiga funktsiya nomi kiritiladi.

4.Argumentning berilgan o`zgarish diapazonida grafikni qurish uchun grafik shabloni tashqarisi sichqonchada bosiladi. Agar argumentning diapazon qiymati berilmasa, u holda avtomatik holda argument diapazon qiymati 10 dan 10 gacha bo`ladi va shu diapazonda grafik quriladi. (1-rasm)




1-rasm.

Grafik formatini qayta o`zgartirish uchun grafik maydoninida ikki marta tez-tez sichqonchani bosish va ochilgan muloqot oynasidan kerakli o`zgarishlarni qilish kerak. (2-rasm)



2-rasm. f(x) funksiyaning ikki o'lchovli grafigi

Agar bir nechta funktsiyalar grafigini qurish kerak bo`lsa va ularning argumentlari har xil bo`lsa, u holda grafikda funktsiyalar va argumentlar nomlari ketma-ket vergul qo`yilib kiritiladi. Bunda birinchi grafik birinchi argument bo`yicha birinchi funktsiya grafigini va ikkinchisi esa mos ravishda ikkinchi argument bo`yicha ikkinchi funktsiya grafigini tasvirlaydi va hakozo. (3-rasm)



3-rasm. Bir nechta funksiyalar grafigi


Uch o`lchamli grafik qurish uchun quyidagi protseduralarni bajarish kerak.

1.Ikki o`zgaruvchili funktsiya nomini keyin (:=) yuborish operatori va funktsiya ifodasi kiritiladi.

2.Grafik qurish kerak bo`lgan joyga kursor qo`yiladi.

3.Matematik panelining Graph (Grafik) panelidan Surface Plot (uch o`lchamli grafik) tugmasi bosiladi. Shu joyda uch o`lchamli grafik shabloni paydo bo`ladi.

4.Shablon maydonidan tashqarisida sichqoncha bosiladi va grafik quriladi. (4-rasm)



4-rasm Uch o`lchamli grafik qurish

Ikki o`zgaruvchili funktsiya bo`yicha grafik sirtini qurishni tez qilish maqsadida boshqa usul ham mavjud va u ayrim hollarda funktsiya sirtini tuzishda

funktsiya massiv sonli qiymatlarini ishlatadi. Bunday grafikni qurish uchun quyidagi protseduralarni bajarish kerak.


1.Diskret o`zgaruvchilar yordamida ikki funktsiyaning o`zgaruvchisi uchun ham qiymatlarini kiritish.

2.Massiv kiritish. Uning elementlari funktsiya qiymatlari bo`lib, ular berilgan funktsiya argumentlari qiymatlaridan tashkil etiladi.

3.Kursor qaysi joyga grafik qurish kerak bo`lsa shu joyga qo`yiladi.

4.Grafik shabloniga funktsiya nomi kiritiladi.

5.Shablon maydonidan tashqarisida sichqoncha bosiladi va grafik quriladi Grafik formatini qayta o`zgartirish va unga ranglar berish uchun grafik maydonini ikki marta tez-tez sichqonchani ko`rsatib bosish va ochilgan muloqot oynasidan kerakli o`zgarishlarni qilish kerak. (5-rasm)



5-rasm. Uch o'lchamli funksiya grafigi

Bulardan tashqari yana bir qancha boshqarish elementlari mavjud. Ular grafikni formatlashda keng imkoniyatlarni beradi. Masalan, grafik masshtabini o`zgartirish, grafikni aylantirish, grafikga animatsiya berish va boshqalar.

Xulosa. Shunday qilib, MatCad dasturidan foydalanib murakkab matematik formulalar, hisob-kitob natijalarini chiroyli grafik ko'rinishda ifodalay olish va funktsiyalarning ikki va uch o`lchovli grafiklarini (turli koordinatalar sistemasida, konturli, vektorli va hokazo) yasash mumkin. Matn muharririni, umumiy qabul qilingan matematik tilni va grafik vositalarni foydalanish imkoniyatlarini birlashtirish, foydalanuvchiga tayyor natijani qulay tarizda, vizual ko`rinishda olish imkoniyatini beradi. Natiyjada MatCad dasturidan foydalanish intellektual mehnat samaradorligini oshiradi.

References

1. Alimov N.A, Yusupov R.M., Shamsiyev A. Sh., Temurov S.Y. "Mathcad da differensial va integral hisobni bajarish metodikasi". Toshkent 2010.

2. Решение задач в пакете MathCAD Н. Д. Белова. – Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2007.
3. Кирьянов Д. В. Mathcad 15/Mathcad Prime 1.0. — СПб.: БХВ-Петербург, 2012.
4. Макаров Е. Г. Инженерные расчеты в Mathcad. Изд. Питер. М. 2011г.
5. Плис А.И., Силвина Н.А. Mathcad 2000: Математический практикум для экономистов и инженеров: Учеб.пособие. –М. Финансы и статистика, 2000г.
6. Normurodov, C. B., Mengliev, S. A., & Mengliev, I. A. (2018). Tashkent.: Problemy v vychislitel'noj i prikladnoj matematiki.
7. Normurodov, C. B., Mengliev, S. A., & Mengliev, I. A. (2018). Issledovanie zavisimosti kojefficienta soprotivlenija ot chislo Rejnoldsa v neszhimaemyh vjazkih zhidkostjah.(p. 60). *Tashkent.: Problemy v vychislitelnoj i prikladnoj matematiki*.
8. Нармурадов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Гуломкодиров, К. А. (2017). Математические модели проблемы гидродинамической устойчивости для однофазных потоков. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (1), 41-46.
9. Нармурадов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Джураева, Н. Т. (2015). О методах решения проблемы гидродинамической устойчивости. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (2), 58-64.
10. Нармурадов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Джураева, Н. Т. (2015). Математические модели проблемы гидродинамической устойчивости для двухфазных потоков. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (2), 6-11.
11. Abdusalomovich, M. S. (2022). QORA KAMAR. SHUKUR XOLMIRZAYEV PYESASI ASOSIDA RADIOSPEKTAKL. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(18), 555-559.
12. Mengliev, S. A., & Kholturaev, K. F. LAMINARY FLUID FLOW IN A PIPE AND DIMENSIONAL NUMBER OF REYNOLDS. *AGRICULTURE, WATER MANAGEMENT, FORESTRY*.
13. Тойиров, А. Х., & Холтураев, Х. Ф. (2019). О проблеме гидродинамической устойчивости. *Вестник Национального технического университета Харьковский политехнический институт. Серия: Информатика и моделирование*, (13 (1338)), 28-39.
14. Нормуродов, Ч. Б., Менглиев, Ш. А., & Менглиев, И. А. (2018). Исследование зависимости коэффициента сопротивления от число Рейнольдса в несжимаемых вязких жидкостях. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (5), 60-68.
15. Mamatkabilov, A. K. (2021). МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ КРИВОЛИНЕЙНОГО И ПРЯМОЛИНЕЙНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЯ С УЧЕТОМ УПРУГОСТИ И ДЕФОРМИРУЕМОСТИ ШИН. *Theoretical & Applied Science*, (7), 179-185.

16. Mamatkabilov, A. K. (2020). MATHEMATICAL MODEL OF CURVILINE CREW MOTION ON CYLINDER WHEELS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 287-292.
17. Choriev, K., Mamatkulov, S. I., & Mamatkabilov, A. (2004). Structure and thermodynamic properties of water in computer simulations: five-point model of liquid water. *Uzbekiston Fizika Zhurnali*, *6*(1), 19-27.
18. Shukurov, A. A. (2020). LINGUISTIC INTERPRETATION OF POETIC TEXT. *Theoretical & Applied Science*, (4), 533-536.
19. Shukurov, A. A. (2022). Linguistic requirements of poetic text analysis. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 172-177.
20. Axmatovich, S. A. (2021). Poetic Words in the Artistic Text. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, *8*, 99-102.
21. Шукуров, А. А. (2020). LINGUOPOETIC POTENTIAL OF SYNONYMS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(3), 361-366.
22. Djurayev, M. (2020). Headline is an important element of newspaper texts. *Theoretical & Applied Science*, (9 (89)), 421.
23. KARSHIYEVICH, D. M. (2020). Basic Principles of Creating Software System to Control and Correct Errors in Text. *management*, *7*(11).
24. Джураев, М. К., & Каршиев, Д. М. (2018). НОВЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ РЕФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. *Интернаука*, (48-1), 15-16.
25. Djurayev, M. (2020). HEADLINE IS AN IMPORTANT ELEMENT IN PUBLISHING MATERIALS. *Theoretical & Applied Science*, (1), 633-635.
26. Karshievich, D. M., & Murotalievich, Q. J. Application of Information and Communication Technologies in Cognitive Pedagogy. *JournalNX*, 327-329.

AVTOTRANSPORT VOSITALARINI SINASH TURLARI

Mansurjon Raxmatjonov Ma'rufjon o'g'li
UzAuto Motors AJ
Muhandislik Mahsulotlari boshqarmasi
Cost Engineering bo'linmasi muhandis tahlilchisi
mr.rakhmatjonov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola barcha texnika va texnologiyadan foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, asosan avtomobil test sinovlarida ish yurutuvchi muhandislarga qo'l keladi. Maqolada avtotransport vositalarini sinash usullari keltirilgan bo'lib, sinov xususiyatlari ham o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil sinovlari, sinash usullari, testlar, laboratoriyalar, dastur, virtual testlar.

Аннотация. Эта статья предназначена для всех пользователей техники и технологий и в основном предназначена для инженеров, работающих над тестированием автомобилей. В статье представлены методы испытаний автотранспортных средств, а также изучены особенности испытаний.

Ключевые слова: автомобильные испытания, методы испытаний, испытания, лаборатории, программное обеспечение, виртуальные тесты

Annotation. This article is intended for all users of machinery and technology and is mainly intended for engineers working on vehicle testing. The article presents the methods of testing vehicles, as well as the features of the tests are studied.

Keywords: automotive tests, test methods, tests, laboratories, software for vehicle testing, virtual tests.

Avtomobil sinovlari sinovdan o'tgan obyektlar, maqsadlar, o'tkazish usullari va shartlari, operatsion xususiyatlari va boshqalar bilan farqlanadi.

Sinov obyektlari:

Yangi yoki yangilangan avtomobillarning tajriba va maket namunalari; yangi modeldagi avtomobillarni o'rnatish seriyasining namunalari; seriya namunalari; avtomobillar-analoglar.

Maqsadga muvofiq, testlar quyidagilarga bo'linadi:

Laboratoriya-ishlash sinovlari; dizayn va bezash testlari; dastlabki; qabul qilish; sertifikatlash; qabul va yetkazib berish testlari; saralash; inspeksiya, davriy; resurs; foydalanish; tadqiqot; ta'lim.

Avtomobillarning baholanadigan operatsion xususiyatlariga ko'ra, tortish-tezlik xususiyatlari, tormoz xususiyatlari, yonilg'i sarfi, ishlov berish, barqarorlik, ishonchlilik va boshqalar.

Amaldagi sinov vositalari va ularning o'tkaziladigan joylari bo'yicha testlar quyidagi turlarga bo'linadi: stendlar - laboratoriyalarda, yo'l - umumiy foydalanishdagi yo'llarda va poligon va virtual.

Yuklash jarayonlari yoki sinov usullarining intensivligi darajasi normal va tezlashtirilgan bo'linadi.

Tashkilot va ijro usullari bo‘yicha qiyosiy va ekspert testlari ajratilishi mumkin.

Maxsus ish sharoitlarida masalan, issiq yoki sovuq iqlim sharoitida, baland tog‘larda olib boriladigan sinovlar maxsus sharoitlarda sinovlar deb ataladi.

Sinov turlarining xususiyatlari. Laboratoriya va ishlash sinovlari sinov obyektining dizayni samaradorligini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi.

Dizayn va bezash sinovlar kerakli sifat ko‘rsatkichlariga erishish uchun ularga kiritilgan o‘zgarishlarning ta’sirini baholash uchun tajribali namunalarni ishlab chiqish jarayonida amalga oshiriladi.

Dastlabki testlar - qabul sinovlariga taqdim etish imkoniyatini aniqlash uchun o‘tkaziladigan tajriba avtomobili namunalarini nazorat qilish.

Qabul qilish sinovlari - modelni ishlab chiqarish yoki uni ishga tushirishning maqsadga muvofiqligi masalasini hal qilish uchun mos ravishda amalga oshirilgan tajribali avtomobil namunalarini tekshirish.

Sertifikatlash testlari vakolatli tashkilotlar tomonidan avtomobil yoki uning tarkibiy qismlarining xususiyatlarini xalqaro yoki milliy normativ-texnik hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida tegishli mamlakatda avtomobilni ishlatish uchun belgilangan shakldagi ruxsatnomani berish maqsadida amalga oshiriladi.

Malaka sinovlari - korxonaning ushbu turdagi mahsulotlarni ma’lum hajmda ishlab chiqarishga tayyorligini baholash maqsadida o‘tkaziladigan o‘rnatish seriyasi yoki birinchi sanoat partiyasining nazorat sinovlari.

Qabul-yetkazib berish testlari joriy ishlab chiqarilgan avtomobillar texnik hujjatlarining muvofiqligini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Tekshirish sinovlari, davriy nazorat - avtomobilning texnik shartlarga va boshqa normativ hujjatlarga va uning ishlab chiqarish sifatiga muvofiqligini tekshirish; ishlab chiqarish sifatining barqarorligini tekshirish; kafolat muddati davomida avtomobil, uning agregatlari va tarkibiy qismlarining ishonchliligini tekshirish; avvalgi nazorat sinovlaridan o‘tgan avtomobillar chiqarilgandan keyin o‘tgan davrda ishlab chiqarishga kiritilgan konstruktiv va texnologik tadbirlarning samaradorligini baholash.

Resurs sinovlari - avtomobilning texnik resursini aniqlash yoki belgilangan resursni tasdiqlash uchun o‘tkaziladigan chidamlilik testlari.

Operatsion testlar - avtomobilning ish sharoitlari va talablariga muvofiqligi uchun testlar.

Tadqiqot sinovlari mexanizmlar, agregatlar va tizimlarning ish oqimlarini, operatsion texnik xususiyatlarini, yuk, issiqlik va tezlik rejimlarini o‘rganish uchun amalga oshiriladi. avtomobil agregatlari va boshqalar.

O‘quv sinovlari mavjud normativ hujjatlar bilan tanishish avtomobillar va uning tarkibiy qismlarini tayyorlash, o‘tkazish va qayta ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish maqsadida olib boriladi.

Qiyosiy testlar ikki yoki undan ortiq bir xil turdagi avtomobillarning ishlash xususiyatlarini taqqoslash uchun amalga oshiriladi.

Ekspert testlari avtomobillarni sinovdan o‘tkazish va ulardan foydalanish sohasidagi mutaxassislar tomonidan avtomobillarning ishlash ko‘rsatkichlarini baholash maqsadida olib boriladi, buning uchun haydovchi - avtomobil - yo‘l tizimining murakkabligi va xavfliligi sababli instrumental tadqiqot va baholash usullari yakuniy natija bera olmaydi.

Virtual testlar mashinaning yoki uning tarkibiy qismlarining matematik modelini kompyuterda o‘rganish. Matematik modelni yaratish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlar stend yoki yo‘l testlarini bajarishda aniqlanishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Автомобили: Испытания (1991) А.И. Гришкевич
2. Испытание автомобилей и тракторов (2017) Д.В. Халтурин, Н.И. Финченко, А.В. Давыдов
3. Беляев, В.П. Испытания автомобилей: учебное пособие / В.П. Беляев. – Челябинск: Изд. центр ЮУрГУ, 2013. – 293 с.
4. Fatigue Testing and Analysis (Theory and Practice) Lee. Y&Pan. J&Hathaway. R&Barkey. M
5. Испытание автомобилей. Учебное пособие Том 1 (2012) Бармашова Л. В., Матисов А. А.

TARIX

XITOY XALQ RESPUBLIKASI ISLOHATLARINING TARIXIY AHAMIYATI (1949-1976) YILLAR

Boxodirov Alisher Kambarbek o`g'li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Magistratura, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)
2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasi islohatlarining tarixiy ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Urbanizatsiya, shaharlar, davlat, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot, tarixiy jarayon, Xitoy Xalq Respublikasi.

Xitoy Xalq Respublikasining innovatsion rivojlanish yo'li o'ziga xos. Respublikaning XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli aholining jadal sur`atlar bilan o'sishi, energiya resurslari yetishmasligi, hududlar notekis rivojlanganligi, ekologiya yomonlashuvi va inflyatsiya g'oyat yuqoriligi kabi dolzarb muammolarbilan tavsiflanar edi. Xitoy hukumati mazkur muammolarning yechimini investitsiyalar orqali hal etish yo'lini tanladi. Xitoyda innovatsion rivojlanishning o'ziga xos tamoyili chet eldan investitsiyalarni jalb etish va tayyor texnologiyalarni harid qilish, ishlab chiqarishga tatbiq etishdan o'z xususiy innovatsiyalarini yaratishva yuqori texnologiyali brendlarni vujudga keltirishga ustuvorlik berilganligida ko'rinadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar 1949-1976-yillarda boshlanib, davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun g'oyat katta imkoniyatlar yaratdi. Xitoyning o'zi ham innovatsion rivojlanishini chet eldanpatentlar, litsenziyalar harididan boshlab, zamonaviy sanoat tarmog'ini shakllantirishga muvaffaq bo'ldi.

Xitoyning innovatsion rivojlanishini turli bosqichlarga ajratish mumkin. Bu davrlarda Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) ga sarmoyalarni jalb etishning huquqiy-shartnomaviy,tashkiliy asoslari vujudga keltirildi. Bu jarayonda soliqqa tortish, texnologiyalarni qabul qilish va tarqatish, mehnat munosabatlari, valyuta va bojxona masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik xujjatlari to'plami qabul qilindi. Soliqqa tortishda misli ko'rilmagan imtiyozlar berildi, mamlakatda korxona foydasidan olinadigan soliq stavkasi 33 foiz bo'lgan holatda, erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan, faoliyatko'rsatayotgan korxonalarda bu ko'rsatkich 15 foizni tashkil etgan edi.

Innovatsion rivojlanishning shu davrlarda Xitoyga chet el kapitalini nafaqat erkin iqtisodiy zonalarga, balki davlatning boshqa hududlariga ham kiritish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yana kuchaytirish, kengaytirish, qonunchilikni yanada takomillashtirish masalalari muvaffaqiyatli hal etildi. 2-bosqichda erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalar ishlab chiqarganmahsulotining 50 foizi eksport qilindi, bu zonalardagi infratuzilmalarni barpo etishharajatlarining 80 foizini Xitoy hukumati o'z zimmasiga oldi.

Xitoyda innovatsion rivojlanishning 3-bosqichida bugungi kunda mamlakatda mavjud bo'lgan texnik-texnologik tartibning poydevoriga aynan shu bosqichda asossolindi. Xitoyda innovatsion rivojlashining ustuvor tamoyillaridan yana biri strategic rejalashtirish, prognozlash, dasturlash kabi iqtisodiy dastaklardan yuqori samara bilan foydalanishdir.

Xitoy Xalq Respublikasi - Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Dunyoda aholisi eng ko`p va maydoni jihatidan eng yirik davlatlardan biri. Sharqda Tinch okeanning Sariq, Sharkay Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Maydoni 9,6 mln. km². Poytaxti — Pekin shahri. Ma'muriy jihatdan 23 provinsiya (Xitoy Taypeyi ham shu hisobga kiradi), 5 muxtor rn va markazga bo'ysinuvchi 4 shahar (Pekin, Shanxay, Tyendzin, Chunsin)ga bo'linadi.



Sotsialistik tizim va SSSR tarqalib ketgandan so'ng Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) eng yirik sotsialistik davlat sifatida saqlanib qoldi. Xitoyga xos sotsializm qurish davom ettirildi. Hokimiyatni yagona Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) egallab turibdi. 1989-yil Tyananmen maydonidagi tinch namoyish bostirilgandan so'ng uch yilga yaqin Xitoy siyosatida jiddiy o'zgarish yuz bermadi. 1992-yili Den Syaopin mamlakatning janubiy provinsiyalariga qilgan safari paytida bir qator bayonotlar berib, iqtisodiy islohotlar siyosatini kuchaytirdi. Islohotlar boshlangandan so'ng qo'lga kiritilgan yutuqlar tanlangan yo'lning to'g'riligiga odamlarni ishontirdi. Den Syaopin namoyishlarni tinch yo'l bilan to'xtata olgan Shanxay shahri meri Szyan Szeminni o'zining vorisi deb e'lon qildi. Shu davrda davlat apparati ham yarmiga qisqartirildi. Samarasiz ishlayotgan keksa amaldorlar o'rniga yoshlar keldi. XKPning Bosh kotibi iste'foga chiqib, o'rniga nisbatan yosh Xu Szintao saylandi.

2012-yili hokimiyatga kelgan Si Szinpin boshchiligidagi XKP va XXR rahbarlarini «Xitoy orzusi»ni amalga oshirish g'oyasi birlashtirib turibdi. «Xitoy orzusi» deganda eng umumiy ma'noda «xitoy millatini tiklash» yo'lida ikki qadam – XKPning yuz yilligiga (2021-yil) «o'rtacha farovonlik» darajasiga erishish,

XXRning yuz yilligiga (2049-yil) esa jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olish tushuniladi.

1989-yili Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi shafqatsiz bostirilgandan so‘ng Xitoyga qarshi ma’lum sanksiyalar e’lon qilinishiga qaramasdan, mamlakatda islohotlar davom ettirildi. Mao Szedun davridagi bir qator tadbirlardan voz kechildi. Jamoa xo‘jaliklari tugatildi. Dehqonlar hosilning bir qismini erkin bozorda sotish imkoniyatiga ega bo‘ldi, shaharlar va qishloqlarda kichik mahalliy korxonalarni tuzish rag‘batlantirildi.

90-yillarda mamlakatda polat, rangli metallar eritish, sement, mineral o‘git ishlab chiqarish, ko‘p tarmoqli mashinasozlik rivojlandi. To‘qimachilik sanoati mahsulotlari jahon bozorini egalladi. An’anaviy hunarmandchilik; ipakdan, suyakdan badiiy buyumlar yasash, chinni mahsulotlar mashhur boidi. Dengiz mahsulotlari, dorivor o'simliklar, yog'och mahsulotlami ishlab chiqarish ko‘paydi. Ishlab chiqarishda samaradorik oshdi.

Den Syaopin tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida Xitoyning qirg‘oq bo‘yidagi to‘rtta viloyatini maxsus iqtisodiy zonalar deb e’lon qildi. Bu iqtisodiy zonalarda chet el investorlari uchun qulayliklar yaratildi.

1997-yil fevral oyida Xitoy «islohotlarining otasi» Den Syaopin vafot etdi. Shu yil sentabrda XKP «Davlat sektorini modernizatsiya qilish dasturi»ni qabul qildi. Zarar keltirib ishlaydigan davlat banklari va korxonalaridan voz kechishga qaror qilindi.

Islohotlarning muvaffaqiyati natijasida XX asrning oxirgi yigirma yilida XXR ning YIMi olti martadan ko‘proqqa oshdi. XXR rahbariyati XXI asrning dastlabki yigirma yilidan ham o‘ta samarali foydalanishni maqsad qilib qo‘ydi. Iqtisodiy, harbiy, tashqi siyosiy qudratni oshirish va jahonda sifat jihatidan yangi o‘rinni egallash uchun «strategik imkoniyatlar bosqichi» sifatida qaraldi.

Xitoy 2001-yili Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lgandan so‘ng jahon bozorining imkoniyatlaridan va mamlakatning Yer yuzidagi «eng yirik fabrika» sifatidagi ustunligidan foydalanib, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qoldi va jahon iqtisodidagi mavqeyini oshirdi. Davlat tashqi pul muomalasi zaxirasi 45 milliard dollarga yetdi. Xitoy oldingi iqtisodiy qoloq holatdan Amerika, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya va Italiyadan keyin dunyoda yettinchi o'ringa chiqdi.

2017-yil oktabrda bo‘lib o‘tgan XKPning 19- Umumxitoy syezdida Si Szinpin Xitoy kommunistlarining azaliy maqsadi xitoy xalqining baxti uchun kurash va xitoy millatini tiklash ekanligini ta’kidlab, XXI asr o‘rtalariga kelib X itoy zamonaviy buyuk sotsialistik davlatga aylanadi, deb e’lon qildi.

Iqtisodiy o‘sishning muntazam yuqoriligiga qaramasdan, XXI asr boshlariga kelib, Xitoy bir qator jiddiy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarga duch keldi: boylar bilan kambag‘allar daromadi o‘rtasidagi farq keskin oshdi.

Xitoyning eng dolzarb muammolari qatoriga aholining tez keksayib borishi va ishlab chiqarishning ekologiyaga yetkazayotgan zararini kiritish mumkin. Xitoyda

uzoq yillar olib borilgan «bitta oila – bitta farzand» siyosati natijasida mamlakatda yoshlar soni keksa avlod soniga nisbatan kamayib bormoqda.

XXI asr boshlarida industrlashtirish, urbanizatsiya va xalqaro savdo ta'siri ostida energiya sarfi yuqori bo'lgan og'ir sanoat keng miqyosda jadal rivojlandi. Zaharli gazlar Xitoy shaharlarida juda og'ir ekologik sharoitni vujudga keltirdi. Qishloqlarda esa suvning ifloslanishi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. XXI asrda asosiy vazifasi sifatida qaraladi.

Xitoyning dolzarb muammolaridan yana biri Sin szyan - Uyg'ur avtonom o'lkasida terrorizm xavfi juda kuchli. Faqat 2013-yili mintaqada 200 ga yaqin terroristik aktlar amalga oshirildi.

XXI asr boshida e'tibor faqat iqtisodiy yuksalishga emas, islohotlar jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga qaratildi. Shahar bilan qishloq, mamlakat g'arbiy qismi bilan sharqiy qismi rivojlanishi o'rtasidagi farq bilan bog'liq. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida davlatning asosiy e'tibori bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari Xitoy tashqi siyosatini Koreya Xalq Demokratik Respublikasini qo'llabquvvatlagani uchun tanqid qilib keladi. XXR hukumati jahon siyosatida Xitoyning rolini oshirishga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda va ayni paytda, ko'plab xalqaro masalalar bo'yicha neytral pozitsiyani egallab turibdi.

AQSH Xitoyning asosiy savdo hamkori bo'lib qolmoqda. Ammo ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda bir qator muammolar ham mavjud: AQSHning Osiyo-Tinch okean mintaqasida o'z ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosati oqibatida paydo bo'lgan ziddiyatlardir. AQSHning bu siyosati mintaqadan Xitoyni siqib chiqarishga qaratilgani uchun Pekinning jiddiy qarshiligiga uchramoqda. Xitoy va AQSH o'rtasida boshlangan qurollanish poygasi ham keskinlikni yanada kuchaytirmoqda.

XXI asr boshidan iqtisodiy masalalar bo'yicha strategik kelishuv mavjud bo'lib, muntazam uchrashuvlarda asosiy muammolar muhokama qilinadi. 2017-yil noyabr oyida AQSH prezidenti D. Tramp Xitoyga rasmiy tashrif bilan kelib, bir qator iqtisodiy hamkorlik masalalarini hal qilishga va 250 mlrd dollardan oshiq summaga savdo kelishuvini imzolashga erishdi.

XXR tashqi siyosatining asosiy maqsadi Osiyo va Afrika mamlakatlarida o'z ta'sirini oshirishga qaratilgan. Buning uchun Xitoy yetarli iqtisodiy, harbiy va siyosiy imkoniyatlarga ega.

Jahonning eng qadimiy va yirik davlatlaridan hisoblanadigan hozirgi Xitoy 1949-yil 1-oktyabrda tashkil topgan. Uning hududi 9,6 mln. km.kv ga teng. Maydonining kattaligiga ko'ra jahonda uchinchi o'rinni egallaydi. Bu mamlakat hududi g'arbdan sharqqa 5 ming km. ga, shimoldan janubga esa 3 ming km. gacha cho'ziladi.

Xitoy - xilma-xil tabiiy resurslarga juda boy. U toshkomir, temir va marganes rudalari, boksit va polimetallar surma, volfram, molibden, qalayi kabi mineral

xomashyolar bilan jahonda eng yaxshi ta’minlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Daryolar gidroenergetika resurslariga nihoyatda boy, bunday quvvatlar hajmiga ko'ra u dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Mamlakatning shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy hududlari esa o'rmonga boy. Jami hududining 8 foizi o'rmonlardan iborat. Shunday qilib, Xitoyda dunyodagi eng baland, sovuq va qurg'oqchil tog`liklar bilan iliq va mo'tadil iqlimli nam subtropik va tropik tabiatli hududlar yonma-yon joylashgan.

Xitoy - aholisining soniga (1350,0 mln kishi) ko'ra jahonda eng yirik mamlakat. Hozirgi vaqtda Xitoyda jahon aholisining 20 foizga yaqini yashamoqda.

Xitoyda aholi ko'payishini kamaytirishga olib keladigan o'ziga xos demografik siyosat amalga oshirilmoqda. Mamlakat Konstitutsiyasida qonunlashtirilgan bu demografik siyosatga ko'ra «bir oilaga bir bola» tavsiya qilinadi.

Mamlakat aholisining umumiy soni 1955-2013-yillar orasida 615 mln. dan 1350,0 mln. gacha, ya’ni 2,2 baravardan ortiqqa ko'paydi. Xitoy aholisi ana shunday qat’iy cheklashlarga qaramasdan, so'nggi vaqtda yiliga 12-13 mln. kishigacha ko`paymoqda.

Xitoy jahonning eng yirik mehnat resurslariga ega bo'lgan mamlakati hamdir. Unda 795,4 mln.dan ziyodroq mehnatga layoqatli aholi mavjud.

Aholisining milliy-etnik tarkibiga ko'ra Xitoyni bir vaqtning o'zida ham ko'p millatli, ham bir millatli mamlakatlar qatoriga kiritish mumkin. Xitoyda 60 dan orliq turli millat va elatlar yashaydilar. Bular uyg'urlar, mo'g'ullar, tibetliklar, dunganlar, manjurlar va boshqalardir. Shu sababli Xitoy ko'p millatli mamlakatlar qatorida turadi. Bir millatli mamlakat deyilishining sababi Xitoy aholisining 90 % dank o`prog`ini xitoyliklar – xanlar tashkil qiladi.

Xitoy aholisi hududiy jihatdan notekis taqsimlangan. Aholining o'rtacha zichligi har 1 km.kv maydonga 141 kishini tashkil qilgani holda, bu ko'rsatkich Buyuk Xitoy pasttekiligi qismida 400-500 kishini, Xuanxe va Yanszi daryolari oraliq tekisliklarida 800 -1000 kishini, cho`l va baland Tibet yassi tog`ligi hududlarida esa 1-2 kishini tashkil etadi. Aholisining 90 foizi mamlakat hududining 1/3 qismidagina to`plangan.

Xitoy jahonning o'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlari qatoriga kiradi. Aholining 47,8% i shaharlarda yashamoqda. Bu 739,4 mln. kishini tashkil etadi. U hozirgi vaqtda jahon mamlakatlari orasida yirik shaharlar (450), millioner shaharlar (60) ning umumiy soniga hamda shahar aholisining mutlaq miqdoriga ko‘ra birinchi o‘rinda turadi. Faqat yirik va "millioer” shaharlardagina jami shahar aholisining 1/2 ga yaqin qismi yashamoqda. Shanxay (14,4 mln.kishi), Pekin (12,7 mln.kishi), Guanchjou (11,8 mln), Shenchjen (11,7), Dunguan (7,6 mln), Tyanszin (7,2 mln) dunyoning eng yirik shaharlari qatoriga kiradi. Xitoy aholisining katta qismi qishloqlarda yashaydi. Unda 700 mingga yaqin qishloqlar hisobga olingan. Qishloqlar va qishloq aholisining soniga ko`ra ham bu mamlakat jahonda birinchi o`rinda turadi.

**Xo`jaligi, transporti va ichki tafovutlari.** Xitoy yillik ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmiga ko`ra jahonda uchinchi o`rinda turadi. Ammo ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning aholi jon boshiga to`g`ri kelish ko`rsatkichlariga ko`ra, u oddiy rivojlanayotgan davlatlar darajasidadir. Shuni ta`kidlash lozimki, so`nggi yillarda Xitoy iqtisodiyoti ancha tez o`smoqda.

YIM ishlab chiqarishda industrial tarmoqlar hissasi 41% ni, qishloq xo`jaligi 12% ni, xizmat ko`rsatish sohasi 47% ni tashkil etadi. Tashqi iqtisodiy aylanmasi 2012-yilda 2300 mlrd. AQSH dollarini yoki jahon bo`yicha 7,9% ni tashkil etdi. Shundan, 1290 mlrd. Dollarga teng qismi (56,1%) eksportga tog`ri keladi.

Sanoati hozirgi tarmoqlarning deyarli barcha turlariga ega. Hozirgi industriyasining asosini neft va neft kimyosi, atom energetikasi, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, elektroenergetika, metallurgiya kabi eng ilg`or sanoat tarmoqlari tashkil qiladi.

Sanoat geografiyasida ham katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Agar Xitoyda XX asrning 70-80-yillarida sanoat korxonalarining 2/3 qismidan ko`prog`i dengizbo`yi hududlarida joylashgan bo`lsa, hozirgi industrial qurilishlarning asosiy qismi mamlakatning kam o`zlashtirilgan ichki rayonlarida olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda Xitoyda 750 mingdan ziyod sanoat korxonalarning mavjudligi va ularda 70 mln.dan ortiq ishchi-xizmatchilarning ish bilan bandligi ko`rsatkichlarining o`zi ham mamlakatda sanoat rivojlanishi darajasining tobora o`sib borayotganligini isbotlaydi.

Sanoatning tayanch tarmog`i – **yoqilg`i-energetika sanoati**dir. Yiliga 1,4 mlrd.t dan ortiq ko`mir qazib chiqarilmoqda. Uning asosiy konlari shimoli-sharqiy va sharqiy Xitoyda joylashgan.

Xitoyda 2012-yilda 300 mln.t ga yaqin neft (shimoli-sharqiy va sharqiy Xitoy hamda Sariq dengiz shelflaridan) qazib olindi.

Xitoy ishlab chiqaradigan elektroenergetika miqdoriga ko`ra jahonda AQSH va Yaponiya keyin uchinchi o`rinni egallaydi. Tarmoqda turli yoqilg`ilar asosida ishlaydigan IES lar salmog`i eng yuqoridir. Uning hissasiga ishlab chiqarilayotgan jami elektroenergiyaning 4/5 qismi to`g`ri keladi. IES larda yoqiladigan yoqilg`ilarning ¾ qismi esa ko`mirdan iborat.

Xitoyda metallurgiya majmuyining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati bor. Undagi qora va rangli metall konlari birlamchi energiya manbalariga nisbatan juda qulay joylashgan. Qora metallurgiya sanoati tarmoqlari orasida yetakchilik qiladi.

Metall mahsulotlarining asosiy qismi esa Anshan, BaTou, Bensi, Baoshan, Pekin, Uxan, Shanxay kabi bir qator to`la siklli metallurgiya kombinatlari ishlab beradi. Umuman, Xitoy hozirgi vaqtda 400 mln. t dan ortiq po`lat ishlab chiqarmoqda. Bu ko`rsatkichga ko`ra u jahonda birinchi o`rinni egallaydi.

Rangli metallurgiyaning asosini alyuminiy, mis, qo`rg`oshin, rux kabi sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Xitoy rangli metallurgiyasining mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalar Xitoyning sharqiy va shimoli-sharqiy rayonlarida joylashgan.

Mashinasozlik sanoati Xitoyda, ayniqsa, tez rivojlanmoqda. Xitoyda televizorlar, maishiy xizmat texnikasidan tortib avtomobillar, kompyuterlar, turli o`lchov va elektrotexnika mahsulotlarigacha ishlab chiqarilmoqda. Mashinasozlik sanoati markazlari Shanxay, Shenyan, Tyanszin, Pekin, Chanchun, Xarbin va boshqalardir.

Kimyo, neft-kimyo va qurilish materiallari sanoati mamlakatni mineral o`g`itlar, maishiy-rozg`or mahsulotlari, sement kabi mahsulotlar bilan bilan ta`minlashda katta yutuqlarga ega. Mamlakatda 300 mln. t dan ortiq ortiq neft qayta ishlanmoqda.

Yengil va oziq-ovqat sanoati Xitoyda hamisha yetakchi sanoat tarmoqlaridan bo`lib kelgan. Ayniqsa, to`qimachilik sanoati bu borada katta ko`rsatkichlarga ega. Jumladan, ip-gazlama sanoati (bu tarmoq to`qimachilik mahsulotlarining 90% ini yetkazib bermoqda) ishlab chiqarishda Xitoy jahonda eng yirik davlat hisoblanadi.

**Qishloq xo`jaligi.** Hozirgacha qishloq xo`jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim sohasi bo`lib kelmoqda. Unda 400 mln. dan ortiq mehnat yoshidagi aholi ish bilan band. Xitoy qishloq xo`jaligining asosiy qismi dehqonchilikdir. Unda esa donchilik tarmog`ining salmog`i eng katta. Jami ekin maydonlarining 80% i turli ekinlar bilan band. XXI asr boshida mamlakat bo`yicha 450 mln. t dan ortiq don mahsulotlari hosili olindi.

Jahon bo`yicha hisoblaganda cho`chqalarning 40% i, turli ish hayvonlari (ot, ho`kiz, tuya va boshqalar) ning 20% i, qo`y va echkilarning 16% i Xitoyga tog`ri keladi.

Transporti. Hozirgi vaqtda 60 ming km ga cho`zilgan mamlakat temiryo`llarida yil davomida tashilayotgan turli xo`jalik yuklari va yo`lovchilarning teng yarmi ana shu tarmoq hissasiga tog`ri kelmoqda. U, ayniqsa, Xitoyning markaziy rayonlaridan to eng chekka g`arbiy qismlarigacha yoyilgan hududlarini birlashtiradi. Uning temiryo`llari O`zbekiston orqali o`tadigan qadimiy Buyuk ipak yo`li mamlakatlarni bir-birlari bilan bog`lashda ham katta ahamiyatga egadir.

Avtomobil transporti – Xitoyning ikkinchi transport tarmog`i relyef sharoiti juda og`ir bo`lgan baland tog` yoki cho`l rayonlarigacha kirib borganligida ko`zga tashlanadi. Mamlakatning dengiz qirg`og`i bo`yi rayonlarini bog`lashda va tashqi iqtisodiy aloqalarini olib borishda dengiz transporti asosiy o`rin tutadi. Shu bilan birga, Xitoyda hozirgi zamon transportining boshqa an`anaviy (daryo, quvur, havo, elektron) hamda noan`anaviy (ot-ulov, arava, velosiped kabi) tarmoqlaridan ham keng foydalaniladi.

Ichki tavofutlari. Xitoyni Sharqiy, Markaziy va G`arbiy iqtisodiy rayonlarga bo`lish mumkin. Shularning ichida Sharqiy iqtisodiy rayon o`zining tabiiy, ijtimoiy, demografik va iqtisodiy salohiyatiga ko`ra har tomonlama peshqadamlik qiladi. Mazkur rayonda mamlakat doirasida sanoat mahsulotlarining 95% i, qishloq xo`jalik mahsulotining 91% i, YIM ning 93,5% i ishlab chiqariladi. Bu o`rinda,

ayniqsa, dengizbo`yi hududlari, yirik shaharlar Shanxay, Pekin, Tyanszin, Guanchjou erkin iqtisodiy zonalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar.1-kitob. - Toshkent , 2004. – B.43.
2. Хоу Вай-лу (и.др). Чжунго сысян тунши / История китайских идеологий. Т.1-2. – Пекин, 1957. –В.127.
3. Ян Юн. История древнекитайской идеологии / Перевод с китайск. - М.,1957. - С142.
4. Быков Ф.С. Зарождение общественно-политической и философской мысли в Китае. - М., 1966. -С. 45.
5. Ян Хин-шун. Древнекитайский философ Лао-цзы и его учение. - М.- Л., 1950. - С.106.
6. Фэн Ю-лань. Краткая история китайской философии. - СПб, 1998. - С. 91.
7. Быков Ф.С. Зарождение общественно-политической и философской мысли в Китае. - М., 1966. - С. 45.
8. Ян Юн-го. История древнекитайской идеологии. - М., 1957. – С. 123.
9. Хоу Вай-лу (и.др). Чжунго сысян тунши (История китайских идеологий). Т.1-2. - Пекин.1957. –С.164.
10. Демин Р. Н. Школа инь-ян //Культуры в диалоге. Вып.1. – Екатеринбург, 1992. – С. 97.
11. Фэн Ю-Лань Школа «Инь-Ян» и древнекитайская космогония // Краткая история китайской философии. - М.: Евразия, 1998. – С. 152.
12. Лю Цзя Рассуждение Сыма Цяня о «шести школах» / пер. Кроль Ю. Л. // Китай: история, культура и историография. - М.: Наука, 1977. - С. 131—132.
13. Нидэм, Джозеф. Происхождение и развитие теории Пяти элементов: Школа натуралистов (Иньянцзя) и Цзоу Янь // Китайская геомантия./ Сост., вст. ст., пер., примеч. и указ.,М. Е. Ермакова. - СПб: Петербургское востоковедение, 1998. - С. 215 - 228.

XALQARO MUNOSABATLARDA DAVLAT RAHBARLARINING DIPLOMATIK BILIM SAVIYASI - ENG KATTA YUTUQ

Otakova Mahbuba Alisherovna
IIV Xorazm akademik litseyi Huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro munosabatlarda davlat rahbarlarining diplomatik bilim saviyasi - eng katta yutuq ekanligi haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** xalqaro munosabatlar, davlat rahbarlari, diplomatik aloqa, huquqshunoslik, Yangi O`zbekiston, Uchinchi Renessans.

Abstract. In this article, it is said that the level of diplomatic knowledge of state leaders is the greatest achievement in international relations.

Key words: international relations, state leaders, diplomatic relations, jurisprudence, New Uzbekistan, Third Renaissance.

Абстракт. В данной статье говорится о том, что уровень дипломатических знаний руководителей государств является величайшим достижением в международных отношениях.

Ключевые слова: международные отношения, государственные деятели, дипломатические отношения, юриспруденция, Новый Узбекистан, Третье Возрождение.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg`onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O`zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so`zlari hayotimizda o`zaro uyg`un va hamohang bo`lib yangramoqda, xalqimizni ulug` maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Bugungi kunda O`zbekiston demokratik o`zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Chunki, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta`minlaydigan eng muhim mezondir.

Agar biz bundan besh yil oldin qabul qilgan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatini muxtasar ifoda etadigan bo`lsak, ushbu noyob hujjatda o`z oldimizga Yangi O`zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo`ygan edik.

Ta`kidlash kerakki, Yangi O`zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub`ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo`lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy vaziyatning o`zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to`la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O`zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume`tirof etilgan norma va prinsiplarga qat`iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do`stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo`lgan davlatdir.

O`tgan tarixan qisqa davrda islohotlar tufayli erishgan natijalarimiz haqida uzoq gapirmoqchi emasman. Bu mavzuda mamlakatimiz hamda chet el ommaviy

axborot vositalari orqali nufuzli davlat va siyosat arboblari, ekspert va tahlilchilarning fikrlari muntazam e`lon qilib kelinmoqda.

Bunday xolis baholar barchamizni quvontiradi. Ayni vaqtda shuni ta`kidlashni istardimki, biz bu demokratik o`zgarishlarni kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, aksincha, demokratik jarayonlar o`zimizga suv bilan havodek zarur bo`lgani uchun, xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimizning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o`ylab, milliy manfaatlarimiz yo`lida amalga oshirmoqdamiz.

Biz – O`zbekiston fuqarolari jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o`zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko`proq his etmoqdamiz. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so`z erkinligi”, “din va e`tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko`nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e`tiborlidir.

Bir haqiqatni ochiq tan olishimiz lozim: vaqt o`tishi bilan islohot jarayonlari tobora kengayib bormoqda, shiddatli zamon oldimizga yanada ulkan vazifalarni qo`ymoqda. Hayotning o`zi bizni ko`p narsaga o`rgatmoqda. Shu sababli biz doimiy izlanishdamiz. Izlanish bor joyda yutuqlar bilan birga kamchilik va nuqsonlar ham bo`lishi tabiiydir.

Eng asosiysi, “Harakatda – barakat” deganlaridek, biz eng qiyin bosqichdan o`tdik, ya`ni, yo`limizni aniq belgilab, katta ishlarni boshladik. Endi hamma gap islohotlar yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga etkazishda. Bu albatta oson emas, ammo biz bunga qodirmiz. Muhimi, keyingi yillarda bunday ulkan va murakkab vazifani amalga oshirish uchun yetarli siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-institusional zamin yaratildi.

Buyuk Amir Temur bobomizning Shahrisabzdagi Oqsaroy qarorgohi peshtoqiga bitilgan “Adolat – davlatning asosi va rahbarlar shioridir” degan hikmatli so`zlarida juda chuqur ma`no bor.

Ma`lumki, ajdodlarimiz azaldan “Zulm qilma, insofli bo`l, xalq uchun adolat qo`rg`onini bunyod et”, deb yosh avlodga yo`l-yo`riq ko`rsatganlar. Biz ham sud-huquq tizimini isloh etishda ana shunday sodda va hayotiy talablardan kelib chiqdik. Xususan, “Sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida – poklik bo`lishi kerak” degan g`oyani ilgari surdik va amalga oshirishni boshladik.

Shu o`rinda mamlakatimizda davlat va hokimiyat idoralari uzoq vaqt davomida xalq hayotidan uzilib qolganini qayd etish lozim.

Siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan davlatga “xalq xohish-irodasini ifoda etadigan organ” deb ta`rif beriladi. Davlatni kim shakllantiradi? Xalq va uning muxtor vakillari. Binobarin, davlat va uning organlari avvalo kimga xizmat qilishi kerak? Albatta, xalqqa, turli mansab egalariga ovoz bergan va ishonch bildirgan fuqarolarga.

Shu ma`noda, xalqimiz davlat xizmatidan rozi bo`lishga har tomonlama haqli va munosibdir.

Ana shunday tamoyillar asosiga qurilgan davlat hokimiyatigina tom ma`noda xalqchil, demokratik hokimiyat hisoblanadi. Bunday davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy-ma`rifiy ildizlari mustahkam va baquvvat bo`ladi. Shu sababdan biz xalqimizning og`irini yengil qilish, uning muammolarini vaqtida va samarali echish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini yaxshilashni barcha islohotlarimizning bosh maqsadi etib belgiladik.

Albatta, biz eski tizimni batamom o`zgartirib, o`z oldimizga qo`ygan maqsadga to`liq erishdik, deb aytishga hali erta. Takror aytaman, biz har kuni izlanishdamiz. Bu yo`lda dastlabki qadamlarni qo`ymoqdamiz, xolos. Lekin “Bu o`zgarishlar – vaqtinchalik kampaniya, o`tadi-ketadi”, deganlar yanglishadi. Bu – Prezident va uning komandasi uzoqni ko`zlab yuritayotgan pragmatik xalqchil siyosatning eng ustuvor yo`nalishlaridan biri va uni xalqimiz bilan birgalikda albatta oxirigacha olib boramiz, hech qachon ortga qaytmaymiz.

Bugungi kunda biz erishgan eng muhim natija ham aslida shu – demokratik islohotlarimiz ortga qaytmaydigan tus oldi.

Mamlakatimizda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tobora kengayib bormoqda. Senator va deputatlar, vazir va hokimlar, barcha bo`g`indagi mansabdor shaxslar fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning dardu tashvishlari bilan qog`ozda emas, amalda jiddiy shug`ullanmoqda. Ya`ni, avvalambor, davlat organlari xalq uchun, har bir fuqaro uchun ochilib, ular bilan faol muloqot olib bormoqda.

Biz hayotimizda majburiy mehnat, xususan, bolalar mehnati, ishsizlik, kambag`allik, korrupsiya, aholini uy-joy bilan ta`minlash, ta`lim va tibbiyot bilan bog`liq muammolar mavjudligini ochiq tan olib, ularni keng jamoatchiligimiz bilan birgalikda bartaraf etmoqdamiz.

Bugun odamlarda adolatga, haqiqatga ishonch paydo bo`lmoqda. Ular turli darajadagi rahbar va mansabdorlarning ish faoliyatiga xolisona baho bermoqda, kamchiliklarni oshkora tanqid qilmoqda. Milliy taraqqiyotimiz uchun bu juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, atoqli shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, “Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg`on yomon”.

Bugun odamlar uyg`onmoqda, jamiyat uyg`onmoqda. Ma`naviy uyg`oq jamiyat – bu, hech shubhasiz, qudratli kuchdir.

O`zingiz ayting, atigi bir necha yil oldin bunday natijalarni tasavvur qilish mumkinmidi? Yo`q, albatta. Shuning uchun bugungi O`zbekiston – kechagi O`zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Ayni paytda yana bir haqiqatni unutmasligimiz lozim: bugungi O`zbekiston – bu hali tom ma`nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan Yangi O`zbekiston emas. Hali bu marraga etish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo`l turibdi. Yo`limiz shu paytgacha oson bo`lgani yo`q, bundan keyin ham oson bo`lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo`lsa, kutilmagan, ammo pirovard

natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan`anaviy qarorlar qabul qilishdan cho`chimasligimiz zarur.

Mana, so`nggi paytda ko`pgina masalalarda, jumladan, “propiska”, xorijga chiqish uchun “stiker”, majburiy mehnat, paxta va g`allaga davlat buyurtmasini belgilash kabi eski tartiblardan mutlaqo voz kechish bo`yicha g`oyat muhim qarorlar qabul qildik.

Sodda qilib, jaydari tilda aytadigan bo`lsak, bu bilan osmon uzilib, erga tushgani yo`q. Aksincha, byurokratiya, vazifani suiiste`mol qilish, tamagirlik ko`rinishlari kamayib, jamiyatimiz hayoti erkinlashdi, odamlar engil nafas ola boshladi. Xalqimiz ham, dunyo jamoatchiligi ham bu qadamlarimizni ijobiy baholamoqda.

Yangi O`zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to`liq qayta qurilmoqda, qanchalik og`ir bo`lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladik.

Hozirgi vaqtda elektron kartochkadagi pullarni bankomatlar orqali naqd pulga aylantirish, milliy valyuta kursining “qora bozor”da – bir xil, banklarda esa boshqacha bo`lishi, xorijiy valyutalarni sotib olish, fuqarolikka ega bo`lish, O`zbekistonning istalgan hududidan uy-joy va mol-mulk sotib olish hamda ularni ro`yxatga qo`yish bilan bog`liq muammolar tarixda qoldi.

Dunyoda yuz berayotgan muhim o’zgarish va jarayonlar hayotga obyektiv ravishda bir tomondan beqarorlik baxsh etsa, ikkinchi tomondan ma’lum bir tuzilma, tartibga moyillik tizimi shakllanadi. Unga nisbatan befarq va mas’uliyatsizlik bilan qarash insonga katta zarar etkazadi. Bu o’z navbatida xalqaro siyosatga, xalqaro hamjamiyatga xos narsa emas. Shu boisdan insoniyat, barcha siyosiyintelektual doiralar batamom boshqacha yondashuvga moyillikni yuzaga keltiradi. Shakllanayotgan qarashlar tizimi rang-barang. Shu sabab bu masalaga davlatlar va guruhlar o’rtasidagi turli xil munosabatlardan iborat tizim sifatida yondashish bilan bog’liq.

Albatta, bugungi kunda odamlarni qanday masala va muammolar o`ylantirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishda yordam beradigan ochiq manbalar, axborot tarmoqlari ko`p. Ayniqsa, televidenie, matbuot, Internet hayot nafasini, ta`bir joiz bo`lsa, har bir sohaning “yurak urishi”ni aniq-ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan o`zim ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan yangiliklar, ular orqali bildirilayotgan dolzarb fikrlar, jamoatchilikning diqqat-e`tiborini tortayotgan voqea-hodisalar bilan imkon qadar bevosita tanishib borishga harakat qilaman.

Bir so`z bilan aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bizning davrimizda real hayotdan butunlay uzilib qolish mumkin emas. Shunga qaramasdan, xalq bilan turli ko`rinishdagi, deylik, bu rejadagi tadbir bo`ladimi yoki mahalla, tuman, qaysidir muassasaga kutilmagan holatda kirib borish orqali bo`ladimi, umuman, bevosita muloqot hamisha kerak, deb hisoblayman.

Fuqarolar, keng jamoatchilik tomonidan qizg`in muhokama qilinayotgan barcha muammolar e`tibor qaratishni talab etadi. Ularni inkor qilish mumkin ham emas. Albatta, jamiyatdagi qonun buzilishi, adolatsizlik, inson huquqlariga bepisand munosabat, korrupsiya bilan bog`liq holatlarga beparvo qarab bo`lmaydi. Tizimli tus olgan yoki juz`iy muammo bo`ladimi, ularning barchasiga darhol munosabat bildirib, tagiga etish va hal etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi.“ O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b
2. Islomov.Z.M. Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 413
3. Ю.А.Дмитриев.Правосознание и правовая культураю / Теория государства и права. Под.ред.Пиголкина. – Москва:Юрайт – Издат, 2006.- С. 547
4. U.Tajixanov, A,Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.- Toshkent. 1998, 11-b
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: “Adolat”, 2018, 287-b
6. Xudoyor Mamatov.” Huquqiy ong, huquqiy madaniayt davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi”. uza.uz
7. Diyorova SHaxloxon. “Pedagogika oliy o’quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari tog`risida”. // Pedagogika,2019, №2 134-b. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 414
8. Abdukamol Rahmonov. “Yuksak huquqiy madaniyat- demokratik jamiyat poydevori”. // Huquqshunos, 2019,№1. 8-9-b

ISLOMSHUNOSLIK

“АЛ-ВОФИЙ ” АСАРИНИНГ ҲАНАФИЙЛИКДАГИ АҲАМИЯТИ

Аҳмедов Сайқал Абдураҳмонович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
“Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш ICESCO” кафедраси
тадқиқотчиси
ahmedov1981s@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада “Ал-вофий ” асарининг ҳанафийликдаги аҳамияти ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Ал-вофий, ҳанафийлик, мужтаҳид, мусанниф, Абу Ҳанифа роҳимаҳуллоҳ, саҳиҳ, ихтилоф.

Abstract. This article talks about the importance of the work "Al-Wafi" in Hanafism.

Key words: Al-Wafi, Hanafiism, mujtahid, musannif, Abu Hanifa rahimahullah, sahih, disagreement.

Абстракт. В данной статье говорится о значении произведения «Аль-Вафи» в ханафизме.

Ключевые слова: Аль-Вафи, ханафитство, муджтахид, мусанниф, Абу Ханифа, рахимахуллах, сахих, разногласия.

Буюк имом, мужтаҳидлар охиргиси, жаҳолат ва куфр, залолат ва бидъат нопокликларидан ислом шариатини ҳимоя қилган, комиллик ва саодат калитини қўлга киритган, Хитой ва машриқ уламолари султони, дин ва уммат химоячисидек буюк мақом соҳиби бўлган Абу Барокот Абдуллоҳ ибн Аҳмад ибн Маҳмуд Насафий “ал-Вофий” асари муқаддимасида шундай деб ёзади: “вақтим бўлиши биланоқ “икки жамиъ” ва “аз-Зиядаат”, шу қатори “ал-Мухтасар” ва “Назму ал-хилофият”, фатво ва даъво, ходисаларни ўз ичига қамраган бир китоб ёзиш хаёлимни қаттиқ чўлғаб олган эди”. Лекин бундай оғир, масулиятли ишга қўл уришга эринчоқлик қилиб юрар эдим. Аммо атрофимдаги сўзини рад қилаолмайдиган, талабаларнинг қайта-қайта мурожаатлари ва илмга ихлоси баланд кишиларнинг илтимослари мени ушбу китобни ёзишга астойдил бел боғлашдан бошқа чора қолдирмади. Китобни ёзишга киришдим, Аллоҳ таолонинг иноята ва мадади билан тез кунларда тугатдим ва уни “ал-Вофий” деб номладим. Сўнгра, агар бу китобга шарҳ ёзиш насиб этса уни “ал-Кофий” деб номлайман деган ниятни қалбимдан ўтқаздим. Ушбу китобимда хар-бир бобда кўзда тутилган ва эътибор қаратиладиган масъалаларни келтириб ўришга харакат қилдим ва шу билан бирга ихтилофли ўринларни келтириб ўтишга эътибор қаратмадим. Олимларнинг варашлари келган ўринларда уларнинг исмларини закр қилиш ўрнига “харф” белгилари билан ишора қилиб ўтдим.

Мисол учун: Имом Абу Ханифа “роҳимаҳуллоҳ”га “х”

Абу Юсуф “роҳимаҳуллоҳ”га “с”

Мухаммад “роҳимаҳуллоҳ”га “м”

Зуфар “роҳимаҳуллоҳ”га “з”
Имом Шоъфиий “роҳимаҳуллоҳ”га “ф”
Имом Молик “роҳимаҳуллоҳ”га “к”

Асҳобларимиз хақида келган ривоятлар ёқи қиёс ўринларига “ва”, шу йўсинда малолланишга олиб келадиган узайиб кетишдан сақланган ҳолда, юқорида келтирилган арфларини аломат қилиб келтириш билан кифояландим.

Китобнинг номи ва мусаннифга нисбати, тегишлилги.

Китобнинг номи “ал-Вофий” бўлиб, ушбу китобнинг аввалида: мен “ал-Врфий” деб, айтиб ўтган. Насафийнинг ҳаётини, таржимаи ҳолини ўрганган инсонларнинг барчаси ушбу китоб унга тегишли эканлигини айтиб ўтган. Митишғон университетидаги махтут нусхаси бошқаларига қараганда “мим” ҳарфи билан: Имом Насафий “ал-Вофий” асарини ҳижрий 682 йил, ражаб ойининг ўнинчи куни якшанба куни ёзиб тугутганлигига ишора қилиб ўтганлиги билан ажраб туради.

Аллома ал-Кафавий “ал-Канз” ни ҳижрий 684 йилда ёзиб тугатган “ал-Кафий” дан олдинроқ ёзганлигига ишора қилиб ўтади.

Имом Насафийнинг ал-Вофий асарини ёзишдаги ўзига хос услуб ва йўналиши.

Олим “ал-Вофий” китобинининг муқаддимасида ушбу китобни ёзишликга туртки бўлган сабабни айтиб ўтиб, китобнинг ўзига хос хусусиятини қуйидагича келтириб ўтади: “Вақтим бўлиши билан Имом Муҳаммад ибн Хасан аш-Шайбонийнинг “икки жомиъ китоби”, “аз-Зиёдат”, “ал-Мухтасар” да келган маълумот “Назму ал-Хилафият” ва шу билан бирга фатово ва вақиа-ҳодисаларга тегишли баъзи масъалаларини жамлаган ҳолда бир китоб ёзишни олдимга мақсад қилган эдим.”

Имом Насафий “ал-Вофий” асарийни Қудурий номи билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Аҳмадибн Жаъфар Хамадоннинг “ал-Мухтасар ал-Қудурий” ва Имом Абу Хафс Умар ибн Насафий ҳанафийнинг “Манзуматул-хилофиёт” китобларидан ташқари ҳанафий мазҳаби зоҳирурривоя уч асос “ал-Жамиус-соғир”, “ал-Жамиул-кабир”ва “ас-Зиёдат” китобидан йиғган. Ундан ташқари китобга фатово ва вақиа-ҳодисаларга масалаларини ҳам киритиб ўтган. Шунга кўра ушбу асар ҳанафий фиқҳи китобларини ўзида қабраган ва масъала ва масол борасида асос бўлиб хизмат қилган. Алломанинг ўзи “ал-Вофий” китобига мукаммал шарҳ ёзган ва уни “ал-Кофий” деб атаган. “ал-Вофий” китобининг муқаддимасида шу сўзларни келтиради: Менга бу китобга шарҳ ёзиш насиб қилса, уни “ал-Кофий” деб атайман. Аллоҳ таоло олимнинг дуоларини ижобат қилди ва унга икки мужалладда шарҳ ёзиб уни “ал-Кофий” деб номлади. Шу билан “ал-Вофий” ва “ал-Кофий” асарлари олимдан кийинги даврда келган барча илм толиби учун асосий манбъага айланди ва олимлар тарафидан эътирофгв сазовор бўлди. Ҳатто катта олимлар бирон-бир масъалани саҳиҳини насоҳиҳидан ва таржиҳ ўринларида “Канзу ад-дақоиқ” асаридан ташқари ушбу икки китобга

мурожат қилишадиган бўлди. Насафийнинг “ал-Вофий” асари мазҳабдаги энг эътиборга молик китоблардан бўлиб, яна бир ўзига хос хусусияти шундаки, олимнинг ўзи ушбу китобни талабаларга асон бўлиш учун ихчам матн ҳолатига келтириб “ал-Канз” ва “ал-Вофий” га шарҳ ҳам ёзиб “ал-Кофий” деб номлади. Яна шуни алоҳида айтиб ўтиш жоизки, агар “ал-Вофий” бўлмаганида “ал-Канз” бўлмас эди. Абу Барокот Насафий роҳимаҳуллоҳ “ал-Вофий” асарини муқаддимасида китобни яна бир ўзига хос хусусиятни қуйидагича келтириб ўтади: китобда Имом Абу Ҳанифа ва шогирдлари, Имом Молик ва Шофъий ўрталаридаги ихтилофлар борасида гапириб, “Мен бу китобда фиқҳий масъалаларнинг еимига тўхталгани келтириб ихтилофли ўринларидан кўз юмдим ва уларнинг исми ўрнига харф аломатларини келтириш билан кифояландим”. Насафий яна шундай келтиради: “фиқҳ бобларидаги иттифоқли ўринларнигина келтириб ўтиш билан бирга Абу Ҳанифа роҳимаҳуллоҳнинг сўзини келтириш билан кифояландим. Шогирдлари, Имом Молик ва Шофъий роҳимаҳуллоҳларга белгилар билан кифояландим. Бу китобни ўқишда осон ва қулай бўлиб, турли хил қарашлар борасидаги хотирани жамлашга ёрдам беради”. Ушбу белгилар хилофли ўринларда келтирилди, бу ердаги қарашларни келтириб ўтилмасдан. Бу эа этиборли, ақилли талабалар учун ушбу масъалада Имом ва шогирдлари ёки мазҳаблар ўртасида хилоф борлигига огоҳини тортади.[63] Фиқҳдаги қаарашларнинг турлийхиллиги бу гоҳ Имом ва шогирдари, Имом Молик ёки Шофъий билан ўрталаридаги турлий хил қарашлар уммутга ва масъала сўровчиларга енгиллик бўлсин учунлиги сабаблидир. Олим китобни жуда кенгайиб кетишдан ва мухтасар бўлиб қолишдан эҳтиёт бўлгани ҳақида ҳам айтиб ўтади. Шунга кўра “ал-Вофий” асарига “Канзу ал-дақоиқ” номли шарҳ ёзди. Насафий “ал-Канзу” китобининг муқаддимасида шундай айтиб ўтади: “китоб ўқувчиларда мухтасар китобга иштиёқини ва катта, тўм китобларига қизиқишлари, истаклари йўқлигини кўрганимда, бир нечта азиз инсонларнинг талабига кўра ва янада фойдаси кўпроқ бўлишлиги учун ал-Вофий” асарини қисқартиришни олдимга мақсад қилдим ва уни амалга оширдим. Аллома Насафий “ал-Вофий” асарига “ал-Кофий” шарҳ ёзиш давомида асарда келган фиқҳий масъалаларга батафсилрқ тўхталишни, баъзи масъалаларга қайтадан эътибор қаратиб уларда учрайдиган баъзи ғомуз жойларига шарх бериб китобни янада мукаммал шаклга келтиришни ўз олдига мақсад қилди.

“Ал-Вофий” асари ҳанафий фиқҳи китоблари ўртасиги ўрни.

Абу Барокот Насафий “Саҳибу ал-Канз” номи билан машҳур бўлган. Шунга кўра олимни тарихи билан танишмоқчи бўлганда асосан “ал-Канз” китоби соҳиби деб мурожат қилинган.

Ҳанафий фиқҳида ҳукмгаларга амал қилиш шунга тўхталди: албатта муфтий фатво бермоқчи бўлса аввал фиқҳ матларига мурожъат қилади сўнгра шарҳи ва сўнгра фатвога. Агар матнлар билан шарҳлар ва фатволар

ўртасида қарама-қаршилик бўладиган бўлса, матндаги эътиборга олинади сўнгра эътироф қилинган шарҳлар ва сўнгра фатволарга. Агар шарҳ ва фатвога саҳиҳ деб топилган бўлса бу ҳолда шарҳ ва фатволар муқаддам қўйилади. Шунга кўра матнлар бошқасидан муқаддам қўйилади. Чунки матн соҳиблари ҳар доим саҳиҳ бўлган маълумотни маҳкам тутишган, бошқалари эса саҳиҳни муқобили ҳисобланади. Лекин шарҳлар ва фатволардаги саҳиҳ деб топилгпн бўлса у ҳолда булар матндан муқаддам бўлади. Чунки саҳиҳлиги очиқ келгани саҳиҳни лозим тутишдан олдинга ўтказилади. Ибну обидин рохимаҳуллоҳ айтади: “Бу ердаги матнлардан мақсад “ал-Бидая”, “Мухтасар ал-Қудурий”, “ал-Мухтор”, “ан-Ниқоя”, “ал-Виқоя”, “ал-Канз” ва “ал-Мултақо” каби эътироф қилинган матнлар ирода қилинмокда”. Чунки букитоблар Имом Муҳаммад рохимаҳуллоҳнинг “Зоҳиру ар-ривоя” китобига асослаб ёзилган. Лакнавий айтади:[64]Мен шуни биламанки албатта мутаъаххирлар учта матнга таянишган. Улар: “ал-Бидая”, “Мухтасар ал-Қудурий” ва “ал-Канз”. Мутаъххирларидан баъзилари тўртта матнга таянишган, “ал-Виқоя”, “ал-Канз”, “ал-Мухтор” ва “Мажмау ал-бахрайн”. Улар ушбу матнлардаги масаълалар бошқа матндагилари билан таъаруз келиб коладиган бўлса ушбу матнлар муқаддам қўйилади дийишар эди. Матн соҳибоарининг улуғ мақом соҳибликлари, “Зоҳири ар-ривоя” китобини ўзоарига асос қилиб олганликлари ва шайхлар “катта устоз”, эътибор қаратиб унга таянган масаъалалар келтирилганлиги сабабли. Ибн Обидин айтиб ўтилган машҳр матнлар соҳиблари китобларида заиф ривоятлар ва мардуд сўзларни китобларида келтирмаганлар. Бу китоблардан “ал-Канз” соҳиби, “Ал-мухтор” соҳиби, “ал-Виқоя” ва “ал-Мажмаъ” соҳиби. Аллома Зайлаъий ўзининг “ат-Табййин” китобининг муқаддимасида “ал-Канз” матнини шундай сифатлайди: назмининг кисқалиги, хажмининг гузаллиги ва барча “воқиъот” ларни ўз ичига қамраганлиги жиҳатдан фиқҳ мухтасар китоблари орадидаги энг яхши мухтасардир. Ибну Нужайм айтади: албатта Имом Хофизиддин Насафийнинг “Канзу ад-дақоиқ” китоби ханафий имомлари фиқҳ борасида ёзган китобларининг энг яхшисидир. “ал-Канз” китоби мана шундай мақомда эканлигидан “ал-Вофий” қанчалик буюк китоб эканлигини тасаввур қилиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ал-Хотиб ал-Бағдодий, Тарихи Боғдод. Ж.13. б.324.
2. Ал-Хотиб ал-Бағдодий, Тарихи Боғдод. Ж.13. б.326. Лакнавий. “ан-Нафиъ ал-Кабир. Б.41”.
3. Маккий. Манокибу Абий ханифата. –С. 52 Муҳаммад Зоҳид Кавсарий. Ҳуснут тақозий. –С. 10-11.

“ФАТОВОЙИ СИРОЖИЙЙА” АСАРИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ

Рахимов Неъматуллоҳ Каримджанович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
“Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш” ISESCO кафедраси
мақсадли таянч докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада “Фатовойи сирожиййа” асари ва унинг аҳамияти ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: “Фатовойи сирожиййа”, исломшунослик, ислом цивилизацияси, Сирожиддин Ўший, Сирожиддин фатволари.

Annotation. This article talks about the work "Fatovoyi Sirojiyya" and its importance.

Key words: "Fatavoyi Sirojiyya", Islamic studies, Islamic civilization, Sirojiddin O'shi, Sirojiddin's fatwas.

Аннотация. В данной статье рассказывается о произведении «Фатовой Сирожийя» и его значении.

Ключевые слова: «Фатавой Сирожийя», исламоведение, исламская цивилизация, Сирожиддин Уши, фетвы Сирожиддина.

Фарғона фиқҳ мактабининг йирик вакили Сирожиддин Али ибн Усмон ибн Муҳаммад ибн Сулаймон Ўший Фарғоний Ҳанафий Шаҳидий (ваф. 568/1173) ислом оламида ўз илмий асарлари билан ўчмас из қолдирган шахсдир. Унга берилган қатор нисбалар билан бир қаторда “Шаҳидий” нисбасининг берилиши унинг Фарғона водийси таркибига кирган Ўшнинг Шаҳидтепа деган жойидан бўлганлигига ишорадир.

Манбаларда Сирожиддин Ўшийнинг ҳаёти ва илмий фаолияти ҳақида келтирилган маълумотлар қисқа бўлиб, у зотнинг туғилган ва вафот этган йиллари аниқ айтиб ўтилмаган. Хожа Халифанинг “Кашф аз-зунун” асарида алломанинг 569/1173 йилларда ҳам ҳаёт эканлиги айтиб ўтилган. Аммо олимнинг ҳаёти ва илмий фаолият борасида тадқиқот олиб борган тарихчи олим Маҳмуд Ҳасаний уни айнан 569/1173 йили вафот этганлигини таъкидлайди.

Сирожиддин Ўший дастлабки таълимни ўз она юрти Ўшда олган. Чунки XI-XII асрларда Фарғона водийсининг Ўзганд, Ахсикент ва бошқа шаҳарлари каби Ўш шаҳри ҳам исломий илмларнинг энг ривож топган шаҳри бўлган. Олимнинг илм талабида бошқа шаҳарларда бўлганлиги ҳақида маълумот йўқ. Аммо у зот қолдириб кетган нодир асарлар орқали унинг нақадар юксак илмга эга олим эканлигини англаш мумкин.

Манбаларда алломанинг қуйидаги асарлари аниқланган:

1. “Фатовойи Сирожиййа” (Сирожиддин фатволари).
2. “Ғурар ал-ахбор ва дурар ал-ашъар” (Сараланган хабарлар ва шеърий дурдоналар).
3. “Нисоб ал-ахбор ли-тазкират ал-ахёр” (Хайрли кишиларни эслашда дастлабки хабарлар).
4. “Жавоҳир ал-аҳком” (Шаръий ҳукмларнинг жавоҳирлари).

5. “Мухталиф ар-ривоя” (Турли ривоятлар).
6. “Бадъул амолий” (Имлонинг бошланиши).

Ушбу асарлар ўзининг аҳамияти жиҳатидан алоҳида қийматга эгадир. Биз қуйида олимнинг “Фатовойи Сирожиййа” асари ва унинг аҳамияти борасида фикр юритамиз.

“Фатовойи Сирожиййа” асари Сирожиддин Али ибн Усмон Ўшийнинг фиқҳга доир асаридир. Буни асарнинг номидан ҳам англаб олиш мумкин.

Кичик ҳажмли ушбу асарда бошқа китобларда учрамайдиган масалаларни қамраб олишга ҳаракат қилинган. Мазкур фатво тўплами 57 та китоб, 408 боб ва боблар остида яна 37 фасллардан таркиб топган[1]. Ҳар бир китоб аввалида унинг боблари мундарижаси келтириб ўтилган. Унда мерос тақсимоти, ҳийлаи шаръийлар ҳақидаги мавзу билан бирга муфтий ва фатво сўровчининг одоби ҳақидаги китоблар ҳам баён этилган.

Ўший ушбу китобида фиқҳшуносларнинг, хусусан, фиқҳ илми билан танилган машҳур саҳобаларнинг, бошқа мазҳаб имомлари ва ҳанафий мазҳаби уламоларининг қарашларини баён қилиб, улардан намуналар келтирган. Муаллиф асосан, Садрушшаҳид Умар ибн Абдулазиз Бухорий (ваф. 536/1141), Абу Бакр Муҳаммад ибн Абу Саҳл Аҳмад ибн Сарахсий (ваф. 483/1090) ва Абу Лайс Наср ибн Муҳаммад Самарқандий (ваф. 373/983) каби фақиҳ олимларнинг қарашларига мурожаат қилган.

Асарда ҳар бир мавзу муҳокама қилинганда, аввал тегишли сўзларнинг луғати ва атамавий маънолари берилади. Мавзулар асосан савол-жавоб тарзида келтирилади. Баъзан муаллиф жамият учун муҳим бўлган саволларни сўрайди ва унга ўз услубида жавоб беради[2].

Китобнинг бу тарзда ёзилиши уни ўқишга бўлган қизиқишни оширади. Муаллиф саволга жавоб беришда мазҳаб имомларидан Имом Шайбонийнинг “Зоҳир ар-ривоя” асарларига мурожаат қилсада, фатво беришда воқиот (навозил, фатово)[3] усулидаги асарларга ҳам алоҳида аҳамият берган. Масалани ёритишда ушбу манбалардан фойдаланган ҳолда, ўзининг қарашлари ва мулоҳазаларини ҳам келтириб ўтган.

Исмоил Пошо Боғдодийнинг “Ҳадиятул орифийн” китобида келтирилган маълумотларга кўра, “Фатовойи Сирожиййа”нинг тартиби Нажмиддин Юсуф ибн Аҳмад (ваф. 634/1236) томонидан ишлаб чиқилган[4].

Сирожиддин Ўшийнинг “Фатовойи Сирожиййа” асарининг энг қадимий нусхаларидан бири 599/1203 йилда кўчирилган. Бу нусха мазкур сананинг муҳаррам ойи сешанбасида Ўшда Али ибн Усмон ибн Муҳаммад Таймий томонидан кўчириб битказилгани ҳақида Хожа Халифа “Кашф уз-зунун” асарида маълумот келтиради[5].

“Фатовойи Сирожиййа”нинг қўлёзма нусхалари дунёнинг турли кутубхоналарида сақланмоқда. Жумладан, ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар хазинасида ҳам № 3009 рақами остида сақланади. Бундан ташқари Туркиянинг Тўпқопи саройи музейи кутубхонасида (№ 796), Сулаймония кутубхонасида (№ 1133) ва Анқара университетининг Илоҳиёт

факултети кутубхонасида (№ 41731) ҳамда Саудия Арабистони, Ироқ, Ҳиндистон, Покистон, Тунис, АҚШ, Ливан, Буюк Британия каби давлатларнинг кутубхоналарида сақланади.

Асар биринчи марта 1243/1827 йилда Калкуттада, иккинчи марта 1293-95/1876-78 йилларда Лакҳнауда нашр этилган.

“Фатовойи Сирожиййа” асари арабча бўлиб, баъзи жойларда форсий иборалар ишлатилганлиги кузатилади. Фарғона водийси кўплаб этник қатламлар бирга яшайдиган жой бўлган. Асарнинг “Китоб ат-талоқ”, “Китоб ас-сияр” ва “Китоб ал-буйуъ” бўлимларида кўп учрайдиган форсча сўзлар ўша даврнинг кундалик ҳаётида тез-тез ишлатиб турадиган иборалар бўлиши керак[6].

Яна “Фатовойи Сирожиййа” номли асар “Фароизи Сирожиййа”нинг муаллифи Абу Тоҳир Сирожиддин Сижовандий (ваф. 596/1200)га ҳамда Қори ал-Ҳидоя лақаби билан шуҳрат қозонган Абу Ҳафс Сирожиддин Умар ибн Али Киноний Ҳусайний Қоҳирий (ваф. 829/1426)га нисбат қилинган.

Хулоса тариқасида шуни айтиш мумкинки, фақиҳ ва мутакаллим Сирожиддин Али ибн Усмон ибн Муҳаммад ибн Сулаймон Ўшийнинг бизгача етиб келган асарлари ва уларга ёзилган шарҳ ва таржималар ислом маданияти ва маърифати тараққиётида муҳим ўрин тутади. Олимнинг асарларидан, айниқса, “Бадъул амолий” ва биз ўрганаётган “Фатовойи Сирожиййа” китобларидан ҳозиргача кенг фойдаланиб келинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Kemal Yildiz. Zharkynbai Sebetov. Orta Asyali hanefî fakihi sirâceddin Ali b. Osmân el-Ûşî’nin “El-fetâva’s-Sirâciyye” adli eseri ve bazi fikhî görüşleri.
2. Muhittin Düzenli. Siracüddin Ali b. Osman el-Ûşî’nin Fıkıhçılığı Ali Yüksek.
3. Янги юзага келган, мазҳаб асосчиларидан нақл қилинмаган масалалар бўйича кейинги давр олимларининг фатволари тўпламидир.
4. Kemal Yildiz. Zharkynbai Sebetov. Orta Asyali hanefî fakihi sirâceddin Ali b. Osmân el-Ûşî’nin “El-fetâva’s-Sirâciyye” adli eseri ve bazi fikhî görüşleri.
5. О.А.Қориев. Фарғона фиқҳ мактаби ва Бурҳониддин ал-Марғиноний. Т:.“Фан”, 2009. – Б.76.
6. Kemal Yildiz. Zharkynbai Sebetov. Orta Asyali hanefî fakihi sirâceddin Ali b. Osmân el-Ûşî’nin “El-fetâva’s-Sirâciyye” adli eseri ve bazi fikhî görüşleri.